- Оиланинг ижтимоий назорат қилиш вазифаси.
- Оиланинг рекреатив вазифаси.
- Оиланинг жинсий тарбияга оид вазифаси
- Оиланинг регулятив вазифаси.
- Оиланинг релаксация вазифаси.
- Оиланинг ҳиссий-эмоционал вазифаси.
- Оиланинг фелицитологик вазифаси.

Мана шу келтириб ўтилган оила вазифаларининг энг муҳимларига тўхталиб ўтаман.

1. Оиланинг репродуктив вазифаси деганда-фарзандларнинг туғилиши, жамиятда аҳолининг янгиланиб туриши, авлодлар алмашилиши тушунилади;

2. Оиланинг тарбиявий вазифаси-ёш авлодни жисмоний соғлом, маънавий баркамол, ахлоқий пок, ҳалол инсон этиб тарбиялаш;

3. Оила хўжалигини юритиш вазифаси-муқим яшаш жойига эга бўлиш, унинг шарт-шароитини яхшилаш, оила кундалик хўжалигини тебратиш;

4. Оиланинг иқтисодий вазифаси- оила аъзоларининг меъёрий умр кечиришлари учун зарур бўлган кийим-кечак, озиқ-овқат, жиҳоз, асбоб-анжом, ўқув қуроллари билан таъминлаш, уларни малакасини ошириш, билим олиши, муайян ихтисосга эга бўлиш, ўз истеъдод ва имкониятларини рўёбга чиқариши учун иқтисодий шарт-шароит яратишдир. Шунингдек, меҳнатга яроқсиз, лаёқатсиз оила аъзоларини вояга етмаган фарзандларни, қарияларни моддий жиҳатдан бекаму-кўст таъминлаш;

5. Оиланинг ижтимоий вазифаси- оила аъзоларининг хулқ-атворини, одоб-ахлоқини назорат қилиш, шунингдек, эр-хотиннинг оила ва жамият олдидаги масъулияти, фарзандларнинг ота-оналари, ота-оналарнинг фарзандлари олдидаги бурчларини англаш, қарияларни хурмат қилиш;

6. Оила аъзоларининг маънавиятини юксалтириш;

7. Оила аъзоларининг оиладаги мавқеларини эгаллашлари учун кенг имкониятлар яратиб бериш;

8. Оила аъзоларининг ўз вақтида дам олишларини ташкил этиш;

9. Оиланинг эмоционал вазифаси – оила аъзоларида ўзаро меҳр-оқибат, ўзаро хурмат ҳис-туйғуларини тарбиялаш, ахлоқларини назорат қилиш;

10. Оиланинг жинсий тарбияга оид вазифаси – эр-хотиннинг жинсий эҳтиёжларини кондириш, ўғил ва қизларга уларнинг жинсини эътиборда тутиб тарбия бериш, мустақил ҳаётга тайёрлаб бориш каби муҳим вазифаларидан иборат.

Оила – фидокорликдир. Оила аъзоларининг нияти соғлом бўлса, турмуши давомида фидойи бўлади. Танлаган турмуш ўртоғини бахтли қилиш учун ҳар қандай жойда қўлидан келган ҳар қандай нарсани беришга тайёр бўлади. Аммо бузуқ ниятли инсон фақат олишни ўйлайди. Баъзи эркаклар ўзларига хотин эмас, хизматкор олгандек ҳисоблайдилар. Бўйдоқликда топмаган роҳат-фароғатни оилада топишни истайдилар.

Масъулиятли эркаклар эса, оилага меҳр-мурувватли кўз билан қарайдилар. Лоқайдлик касалига чалинган кишилар: оила қуришга тайёр бўлмаган баъзи аёллар қиролича бўлишни истайди, эркак эса қирол... Иккиси ҳам қўлини совуқ сувга урмай яшашни хоҳлайди. “Мен ҳеч нарса қилмайман, чарчайман. Ҳамма ишни турмуш ўртоғим қилсин”, деб ўйлайди. Табиийки, шундай ният билан турмуш қурганлар ҳақиқатдан оила қурмаган бўлади. Чунки уларнинг нияти соғлом ва тўғри эмас. Шу боис бундай оиланинг умри қисқа бўлади.

Турмуш қурадиган ёшнинг танлаган умр йўлдошига қўнгли исиши лозим. Албатта юз



фоиз мутаносиблик ва тенглик бўлиши қийин. Аммо уйғунлик шартлари катта ҳисоб билан мувофиқ келиши керак.

Агар яхши ниятли, ибодатли турмуш ўртоқ танласа, оилада ўзаро можаролар кам бўлади. Кўпгина тадқиқотлар шуни кўрсатадики, вақт ўтиши билан эр-хотинлар ҳам жисмоний, ҳам ахлоқий жиҳатдан бир-бирларига ўхшаб кетадилар. Бу ҳам никоҳнинг бир кароматидир.

Турмуш ўртоқ танлашда “етти ўлчаб, бир кес” мақолига амал қилган маъқул. Оилани ортга қайтилмайдиган йўл сифатида ўйлаш ва шу боис турмуш ўртоқ танлашда шошилмаслик ва жуда эътиборли бўлиш керак.

Жамиятдаги ҳар инсон оила номли улуғ маскан барпо этар экан уни ҳақиқатда азиз ва қадрли масканга айлантириши, асраб-авайлаши керак.

#### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Ўзбекистон Республикаси конституцияси. – Т.: Ўзбекистон. 2014.
2. Акрамова Ф. Оила энциклопедияси. – Тошкент-2019. 112-115 б.
3. Шайх Абдулазиз Мансур. Бахтли оила. – Самарқанд-2019. 24-26 б.



## YANGI PEDTEXNOLOGIYALARNI TA'LIMDAGI O'RNI

**Dilnoza Boymatova Adiljonovna  
Jamilaxon Axunova Ismoiljonovna**

Namangan viloyati Norin tuman  
15-maktab kimyo va texnologiya fan o'qituvchisi  
991013088 boymatovadilnoza2@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqola umumta'lim maktablarida ta'lim bosqichida kompetensiyadan foydalanishdarslarni xilma-xil shakllari mos keladiga o'quvchilarni yangi ped texnologiyalar asosida ta'lim olishiga imkoniyat yaratadigan innovatsiyon texnoliya haqida ma'lumot berilgan

**Kalit so'zlar:** Zamonaviy, o'yin, jarayon, namoyon, psixologik, texnologiyalar Tafakkur, rivojlantirish, ta'lim-tarbiya.

Jamiyat rivojlanishining har bir bosqichida ta'lim mazmuni muayyan maqsad va vazifalarga ega bo'ladi. Yurtimizda 27.07.2017 yilda qabul qilingan PQ 3151 "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorda "O'qitishning zamonaviy shakllari va metodlarini, kompyuter va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etish, oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-laboratoriya anjomlari va o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlash, ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, oliy ta'lim muassasalarining zamonaviy ilmiy laboratoriyalarini tashkil etish va rivojlantirish choralari ko'rish" kerakligi keltirib o'tilgan. SHundan kelib chiqib ta'lim mazmuni davr talabi, nazariy bilim va ishlab chiqarish taraqqiyoti darajasiga mos ravishda o'zgarib turadi. Hozirgi kunda ta'limni tashkil etishda rolli o'yinlardan samarali foydalanishga e'tibor berilmoqda. O'yin chog'ida mahsuldor emas, balki jarayonli faoliyat tashkil etilganligi bois o'quvchilar tasviriy vaziyatlarni yaratish asosida o'zlarining atrof-muhitga bo'lgan munosabatlarini tabiiy namoyon eta oladilar. O'yinli faol faoliyat esa ularning ijodiy imkoniyatlarini oishrib, tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi. O'quvchilarning nazariy bilimlarni amaliy ko'nikma va malakalarga aylantirish, ularda ta'limiy faollikni yuzaga keltirish, ularni ijtimoiy munosabatlar jarayoniga keng jalb etishda rolli o'yinlar o'ziga xos o'rin tutadi. O'yin texnologiyalari ta'lim samaradorlashni ta'minlash, o'quvchilarda faollikni yuzaga keltirish, bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish, vaqtni qisqartirish, ta'limni jadallashtirishga yordam beradi. O'yin jarayonida namoyon bo'luvchi psixologik xususiyatlar har o'quvchiga shaxsiy imkoniyatlarini namoyish eta olish imkonini beradi, ularning ijtimoiy hayotda egallagan o'rnini barqarorlashtiradi, ularda o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini hosil qiladi. O'yin texnologiyalari nazariy bilimlarni mustahkamlab, amaliy ko'nikmalarining malakalarga aylanishini ta'minlab qolmay, o'quvchilarda muayyan axloqiy, irodaviy sifatlarni ham tarbiyalaydi. Didaktik o'yinlar texnologiyalari o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o'quvchilar shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqaradi va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Didaktik o'yinlarning asosiy turlari: intellektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bu o'yinlar ishtirokchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirlik, mehnat va boshqa ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. "Ba'zi talabalar ma'ruzalarda foydalaniladigan an'anaviy ta'lim usullaridan qoniqib o'qiydi, ba'zilar amaliyotni ma'qul ko'radi, ba'zilar esa ilmiy-tadqiqod ishlarni, muammoli vaziyatlarni, katta chaqiriqli ta'lim usullarni xush ko'radi va o'shanga javob beradi. O'quvchilar turli xil usullar orqali ta'lim olishi o'ta muxim. Ta'lim-tarbiya jarayonida asosan o'quvchilarda ta'lim olish motivlarini, ularning turli yo'nalishdagi qobiliyat va izlanishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklarini ko'rsatadigan didaktik o'yinlardan foydalaniladi.

Xulosa qilib aytganda didaktik o'yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, roli, ishchanlikni oshiradi va past o'zlashtiruvchi o'quvchilarni ham beihitoyor davraga qo'shilishi va erkin tutishga o'rgatadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh. M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi

2. Mavlonov A., Abdalova S., Allamberganova M., Ilyasova Z. O'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda ta'lim texnologiyalari. O'quv qo'llanma. T.: "Tafakkur bo'stoni", 2013yil 142 b.

3. www.Ziyonet.uz

4. www.edu.uz



## ЎЛКЕНЛЕР МЕНЕН ҚАРИМ-ҚАТНАС МЕКТЕПКЕ SHEKEMGI JASTAВИ BALALARDIŇ SHAXS SIPATINDA RAWAJLANIWINDAВИ ORNI.

**Jannazarova Juldizhan**

Вjiniyaz atindaВи Nókis  
mámleketlik pedagogikalik instituti studenti

**Annotaciya:** Bul jas da'wirinde balalardin' shaxs sipatinda qa'liplesiwinde ata-analardin' ha'm ten'leslerinin' orni ju'da' u'lken yag'niy atirap-ortaliq ha'm qubilislar haqqinda pikirleri bayip baslaydi.

**Gilt so'zler:** ádep-ikramlilik,shaxsiy issheńlik, motiv, "teoriyalik sheriklik".

Mektepke shekemgi jas dáwirdegi balalar shaxsiniń qáliplesiwine kóre, bul dáwirdi úsh basqishqa ajiratiw múmkin:

**Birinshi dáwir-** bul 3-4 jas araliginda bolip, bala emocional jaqтан óz-ózin basqariwdiń bekkemleniwi menen baylanisli;

**Ekinshi dáwir-** bul 4-5 jas araligin óz ishine alip ádep-ikramlilik óz-ózin basqariw;

**Úshinshi dáwir** bolsa shaxsiy issheńlik hám isbilermenlik qásiyetleriniń qálplesiw menen xarakterlenedi.

Mektepke shekemgi jas dáwirindegi balalardińúlkenler menen sawbeti olarda sóylewiniń rawajlaniwi esabinan tereńlesedi.[1]

**M.I.Lisina** mektepke shekemgi jastaВi balani úlkenler menen sawbetiniń yáki qarim-qatnasiniń jaǒdaydan tisqari xarakterin aytip, oniń eki formasin kórsetken. Bala 3-4 jasqa tolǒanda sheriklik ornina qarim-qatnastiń biliw formasi qáliplesedi. Jaǒdaydan tisqari biliw qarim-qatnasta qáliplesedi. Qarim-qatnastiń bul formasinda jetekshi motiv- biliw. Bunda úlkenler menen sheriklik sipatinda átirap-ortaliq penen tanisadi, úlkenler menen "teoriyalik sheriklik" processi ámelge asadi. Bala haywanlar, nárseler, planetalar, neden jasalǒanligi haqqinda júdá kóp "Ne ushin?" degen sorawlar beredi. Úlkenler balalar názerinde bilim deregi sipatinda qabil qilinadi, sorawlarǒa hám ózine jaqsi múnásibette boliw húrmet etiwdi talap etedi. Shininda da bala mine usi jas dáwirinde júdá shaqqan hám qizigiwshań boladi, qorshaǒan ortaliqtaǒi hár bir waqiya hám hádiyse oniń názerinen shette qalmaydi. Ózin qorshaǒan ortaliqtaǒi barliq nárseler haqqinda bilgisi olar neden jaslaǒanin biliwdi qáleydi. Bul quwanishli jaǒday álbette sebebi bala sol ortaliqtaǒi nárselerdi biliwi arqali dúnyaqarasi keńeyedi, pikirlew qábileti asadi. Sonliqtan olar ata-anasidan kóplegen sorawlar menen múráját etip óz mútájliklerin qanaatlendirmaqshi boladi. Degen menen júdá kópshilik ata-analar perzentleriniń mútájliklerin qanaatlendirmaydi, olar tiykarinan waqtim joq, miyimdi jep qoydiń, hám sorawlar kópliginen juwap bermey qaladi. Bul bolsa óz náwbetinde balaǒa unamsiz tásir kórsetedi. Sonliqtan ata-analar mine usi jas dáwirinde perzentleriniń hár bir sorawina hám olardiń qizigiwshiliqlarin, qullasi mútájliklerin toliq qanaatlendiriwi kerek, sonda ǒana bala shaxs sipatinda jaqsi hár tárepleme salamat bolip er-jetedi.

Bala 6-7 jasqa tolǒanda qarim-qatnastiń joqari formasi – jaǒdaydan tisqari shaxsiy qarim-qatnasqa ótedi. Bunda bala úlkenlerǒe shańaraq haqqinda, ata-anasiniń qay jerde jumis islewi, ne jumis islewi haqqinda sorawlar bere baslaydi. Endi úlkenler bala ushin social biliw deregi sipatinda kórinedi. Balalnińúlkenler menen qarim-qatnasi kewil bildiriw, óz-ara bir-birin túsiniw, qaralariniń uliwmalıqqa umtiliw menen tereńlesedi.

Juwmaqlap aytqanda mektepke shekemgi jas da'wirinde balalardin' shaxs sipatinda qa'liplesiwinde tan'lesleri ha'm u'lkenlerdin' orni girewli. Solay eken ata-analar bul jas da'wirinde perzentlerine ko'birek waqit ajiratiw, olar menen qarim-qatnasqa kirisse, qollap-quwatlasa olarda o'zlerine isenimi ele de artip jaqsi na'tiyjelerge erisedi.

### **Paydalanǒan ádebiyatlar:**

1. Z.T.Nishanova hám basqalar "Rivojlanish psixologiyasi pedagogik psixologiya" T.: 2018.
2. Z.Nishanova, G.Alimova "Bolalar psixologiyasi va uni óqitish metodikasi" T.: 2006





### “Kim tezroq” o‘yini

**O‘yin mazmuni:** doskaga uchta misol yozilgan bo‘ladi

$$8 + 5 + 9 =$$

$$6 + 8 + 3 =$$

$$9 + 7 + 9 =$$

Har qaysi qatordan bittadan o‘quvchi chiqariladi, ular o‘qituvchining ishorasi bilan yig‘indilarni hisoblashga kirishadilar va ularni doskaga yozadilar. Qolgan o‘quvchilar esa kuzatib turishadi. Birinchi bo‘lib to‘g‘ri yozgan o‘quvchi g‘olib hisoblanadi.

### “Sonning tarkibini toping”

**O‘yin mazmuni:** magnit doskasida 9 raqami ko‘rsatiladi va u qanday sonlardan tuzilganligi so‘raladi. O‘quvchilar magnit doskasida ko‘rsatadilar.

$$8 + 1 = 9 \quad 6 + 3 = 9$$

$$7 + 2 = 9 \quad 5 + 4 = 9$$

Bu o‘yin orqali o‘quvchilar sonning tarkibini aniqlashadi. Albatta, birinchi bo‘lib yechgan o‘quvchi g‘olib hisoblanadi.

### “Javobi 4 chiqishi kerak”

**O‘yin mazmuni:** To‘rt bola to‘rt xil amal bo‘yicha misol yechyapti. Ular bir shartga rioya etishlari-ya‘ni, shunday sonlarni topishlari kerakki, ularni 2 ga bo‘lganda, ko‘paytirganda, qo‘shganda va 2 ni ayirganda javobi bir xil, albatta 4 chiqsin.

$$X : 3 = \quad X + 2 =$$

$$X * 2 = \quad X - 2 =$$

Bundan tashqari turli matematik topshiriqlar, qiziqarli masalalardan ham foydalanilsa bo‘ladi.

Masalan:

1) Bola 10 dan 10 ni olib tashladi va yana 10 hosil bo‘ldi, buni u qanday bajardi? (qo‘lqoplarini yechdi)

2) Likopchada 4 ta konfet bor. Bu konfetlarni 4 ta o‘quvchiga 1 tadan bo‘lib bering va likopchada 1 ta konfet qolsin (1 o‘quvchiga konfet likopchada beriladi)

3) Beshta ikkilik va amal ishoralari bilan berildi. 7; 11; 15 va bundan sonlarni hosil qiling.

$$2 + 2 + 2 + (2 : 2) = 7, \quad (22 : 2) - 2 + 2 = 11, \quad (22 : 2) + 2 + 2 + 2 = 15$$

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Znanio.ru

2. Uz.lehighvalleylittleones.com



## BOSHLANG‘ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA INTEGRATSION YONDASHUV

**Mustaqimova Kubaro Muxammadovna**

Buxoro viloyati Shofirkon tumanidagi

42-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

**Annotatsiya :** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun umumta‘lim maktablarida ona tili darslarini o‘rgatishda integratsion yondashuv va uning ta‘lim sifatini oshirishdagi ahamiyati haqida ma‘lumot berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Integratsiya, boshlang‘ich ta‘lim, psixologik-pedagogik, dars, material, ona tili, o‘qish, tabiatshunoslik.

Integratsion yondashuv boshlang‘ich ta‘limning dolzarb masalalaridan biri. Integratsiya-lashtirilgan darslar bolalar dunyoqarashida bir butunlikni, voqealar uzviyligini tushunib yetishni o‘rgatadi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida integratsiya so‘ziga quyidagicha izoh berilgan: **Integratsiya** (lot. Integration – tiklash, qaytadan boshlash, to‘ldirish) 1. Ayrim qismlarning, elementlarning bog‘liqlik holatini, ularni qo‘shib birlashtirishni ifodalovchi tushuncha 2. Fanlarning yaqinlashishi va o‘zaro bog‘lanish jarayoni. 3. Ikki va undan ortiq davlatlarning iqtisodiyotini o‘zaro muvofiqlashtirish va birlashtirish. Biz ta‘lim nuqtayi nazaridan olib qaraymiz va boshlang‘ich ta‘limda predmetlarning yaqinlashishi va o‘zaro bog‘lanish jarayoni sifatida talqin etamiz. Bundan tashqari, R.X.Jo‘rayev, O‘.Q.Tolipov, R.G‘.Safarova va boshqalar tomondan tuzulgan pedagogik lug‘atda quyidagicha keltirilgan: Integratsiya- 1. O‘quv fanlarning alqadorligi. 2.Lotinch “integratio” so‘zidan olingan bo‘lib, “qayta” qurish, tiklash, to‘ldirish, “integr”- to‘liq, butun, yaxlit degan ma‘noni anglatadi. Integratsiya – bir-biri bilan organik birlashib ketish, bir-biriga o‘zaro singdirish, bir-bir bilan birlashib yangi, yagona barqaror umumlashgan yaxlit g‘oyani hosil qilish. Boshlang‘ich ta‘limda bu tushunchani bir necha predmetning o‘zaro birbirini to‘ldirishi sifatida tushunishimiz mumkin. Integratsiya tushunchasi ilmiy tilda izohlanmagan bo‘lsada, qadimdan mavjud bo‘lib kelgan.

Ta‘lim mazmunini tanlashda har bir o‘quvchining o‘ziga xos imkoniyat va qobiliyat darajasi, alohida hisobga olinishi kerak. Har bir bolani uzluksiz rivojlanish tamoyili o‘quv materiallarini integratsiyalashni, integratsiyalashgan o‘quv materiallarini qamrab olgan darsliklar yaratishni taqozo qiladi. Taqdim etiladigan bilimlarning mustahkamligi, o‘quvchining umumiy rivojlantirish darajasi dastlab maqsadga asoslanadi. Shuning uchun o‘quv materiallari tarkibida turli ranglar, ramzlar, ularning ma‘nosi, hajmi bilan tanishtiriladi. Buning natijasida o‘quvchida kuzatuvchanlik faoliyati tarkib topadi. Chunki kuzatuvchanlik shaxs faoliyatining asosiy yo‘nalishini tashkil qiladi. Bu esa, o‘z navbatida fikrlash faoliyatini rivojlantiradi. Integratsion darslardagi o‘quv materiallari o‘quvchini har tomonlama rivojlantirishni ta‘minlashga yo‘naltirilmog‘i va shu rivojlanish darajasiga muvofiq tarzda bayon qilinmog‘i lozim.

Shunday ekan, o‘quvchilarni bilim sifatini oshirishda qo‘llaniladigan fanlararo integratsiyalash mumkin bo‘lgan ayrim mashg‘ulot turlari bilan tanishaylik:

**Ona tili va o‘qish integratsiyasi.** Ona tilining maktabda fan sifatida boshqa o‘quv fanlari bilan aloqasi asosan, har xil yo‘nalishlarda qarab chiqilishi mumkin. Odatda, ona tili boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarni og‘zaki va yozma nutqlarini rivojlanishida asosiy o‘rin tutadi. Shunday ekan, ona tili barcha fanlar bilan bog‘liq bo‘ladi, chunki til hamma fanlarni ta‘riflash uchun zarur vosita demakdir. Til orqali haqiqatning hamma tomonlari ko‘rinadi. Tilni o‘rganmasdan turib, aqliy faolit qilish mumkin emas. Til qurol sifatida har qanday fandan o‘quvchi bilim olishi shart bo‘lgan sharoitlardan biridir. Ona tili maktab ta‘limida fan sifatida ko‘p qirrali hodisadir va boshqa fanlar bilan aloqasi mazmunangina emas. Olimlarning fikricha, bir fan ikkinchi fandagi savollarni, masalalarni yechishda bir vosita hisoblanar ekan. Ana shunday bog‘lanishi lozim bo‘lgan fanlardan biri ona tili va o‘qishdir. Bularga qo‘shimcha tarzda tasviriy san‘at, mehnat fanlarini ham uyg‘unlashtirish fan doirasini kengaytiradi. qaerda ikkita fanning o‘zi emas, balki ko‘proq fanlar integratsiyalansa, fanlarning aloqalar rivoji kuchayadi. Bunday darslar o‘quvchilarni so‘zga, ranglarning turfa olami, tovushlar sehriga chuqur kirib borishga ko‘maklashadi, savodli, og‘zaki va yozma nutqlari shakllanishiga yordam beradi, uning rivojlanishiga va boyishiga estetik didni oshirish, san‘at asarlarini tushunish va to‘g‘ri baholay olishga, Vatan tabiatini go‘zalligi va boyligini his etishga o‘rgatadi.



Boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish darslari integratsiyasini tashkil etishda fanning talablari, vazifalari o'rganib chiqiladi. qo'yilgan maqsadlar ham har ikkala fanga ham tegishli bo'lishi shart. Mujassamlashgan darsda, mos mavzularni topish mushkul, lekin ona tili larsidagi mashqlarni bajarilishini o'qish darsligidagi mos mavzularga uyg'unlashtirish mumkin bo'ladi. bunda o'quvchi faqat o'qish yoki yozish bilan shug'ullanmaydan, balki har ikkisini ham bajarib boradi.

**O'qish va tabiatshunoslik integratsiyasi.** O'qish va tabiatshunoslik integratsiyasi imkoniyatlari juda keng, chunki o'qish darslari va tabiatshunoslik darslari oldida turgan umumta'lim va tarbiyaviy darslarda o'quvchilar o'zining o'lkasi tabiati bilan tanishadi, tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlar, xonaki va yovvoyi hayvonlar, hasharotlar bilan tanishadilar. O'qish va tabiat darslaridagi tarbiyaviy maqsad – o'quvchilarda tabiatga muhabbatni va e'zozlash his-tuyg'ularini tarbiyalash, tabiatni estetik birlikda qabul qilishni o'rgatishdan iborat. Tabiatshunoslik va o'qish darslarida o'rgatish ob'ekti bu tabiatning biror hodisadir, lekin ularning o'rganish usullari boshqacha. O'qish darsi tabiat darsiga nisbatan emotsional ranglarda qabul qilinishini shaklantiradi, o'quvchilarga o'zining tabiatga bo'lgan estetik munosabatini til vositasida ifodalashga o'rgatadi. Tabiat darslarida esa, ko'z bilan ko'zatadi, qo'l bilan ushlab ko'radi. Fanlararo umumiy mavzular mavjudligi aynan shu usullarni birlashtirib, o'quvchilarga kengroq holda yetkazishni maqsad qilib qo'yadi. Agar ikki fanni mujassamlashtirilsa, darsni shunday rejalashtirish kerakki, boshqa fanlardan olingan ma'lumotlar bir-biriga qo'shimcha bo'lib, o'sha ma'lumotlar chuqurlashtirilsin. SHunday holdagina bu mujassam dars boshqa darslardan farq qiladi.

**Ona tili va tabiatshunoslik integratsiyasi.** Ona tili va tabiatshunoslik fanlari uyg'unlashtirilgan darslarda fanlar va tabiat hodisalarini ta'sirchan qabul qilish doimo bolalarning nutqini o'stirish ishlariga bog'liq. O'qituvchi o'quvchilarga o'simliklar, hayvonlar, odam tana a'zolarini to'g'ri aytishga o'rgatadi, kuzatish natijalarini aytib borishni taklif etadi. shunday qilib, bolalar o'rgangan so'zlar, ularning tushunchalarida tasavvurlar, aniq hodisalarga bog'lanadi, hayotiy mazmunga to'ladi. Bu esa bolalarni tabiatga bag'ishlangan hikoyalar, maqollar, she'rlarni ongli ravishda o'qish, yozishga tayyorlaydi, ko'rganlari haqidagi matnni katta qiziqish bilan o'qishadi yoki o'qituvchi bilan suhbatlashganlarini yaxshiroq tushunadilar.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogic mahorat (o'quv qo'llanma)- T.:O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006-y.
2. Mavlonova R.A., Raxmonqulova N. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi- T.: Ilm-ziyo, 2009-y.
3. Mavlonova R.A., Raxmonqulova N. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi innovatsiyasi va integratsiyasi-T.:G'.G'ulom, 2013y.



## MEN YOSH BOLA EMASMAN

**Muzaffarov Dilshod Axmad o‘g‘li**

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani

35-umumiy o‘rta ta’lim maktabi

Psixologi

Tel: 913366793

**Annotatsiya:** ushbu maqolada o‘smir tarbiyasi va bunga ota-onalarning munosabati haqida so‘z yuritilgan.

**Tayanch tushunchalar:** o‘smir, oila, maktab, tarbiya, ota-ona, ko‘zgu.

“*Men yosh bola emasman*” bu so‘zni aytishga balog‘at yoshiga yetgan o‘smirni nima majbur qildi ekan. Xo‘sh shu haqda hech o‘ylab ko‘rganmisiz? Balki ota-onalar bolalarini ulg‘ayganini sezishmaganmikin, yoki ota-ona uchun farzand qirqqqa kirsam ham bola deb o‘ylashar ehtimol ular bir gapni unitishgan yoki umuman eshitishmagan. Bola tarbiyasida 7 yoshgacha podshohga momila qilganday, 14 yoshgacha qulday, 14 yoshdan keyin do‘stday munosabatda bo‘lish kerak. Bu so‘zni necha asrlardan buyon xalqimiz bola tarbiyasida qo‘llanma sifatida foydalanib kelgan. Ammo shunga qaramasdan bugungi kunda ota-onalar o‘smir yoshidagi farzandlari nimalarni his qilishmoqda, unda jismoniy va ruxiy jihatdan qanday o‘zgarishlar ro‘y bermoqda, bu haqida qiziqib ham ko‘rishmaydi. Shuningdek oilada yakkahokimlik uslubini qo‘llayotgan ota-onalar ham bor albatta bolasini tarbiyasini faqat maktabga yuklab qo‘yib, hammasiga maktab aybdor deyishdan tonmay o‘z burchini unitib qo‘ygan ota-onalar ham yo‘q emas. Shunday ham deylik farzandi 24 soatning faqat chorak qismini maktabda o‘qituvchilar nazorati ostida o‘tkazadi. Xo‘p u qolgan vaqtini qayerda o‘tkazadi? Oilasida albatta shunday bo‘lgandan so‘ng uning tarbiyasida kim ko‘proq mas‘ul o‘smir kim bilan ko‘proq muomolada bo‘ladi, kimni tarbiyasini oladi albatta ota onasini. Xalqimizda “ Qush inida ko‘rganini qiladi “ degan ibora bejiz aytilmagan. Xo‘p ota o‘smir o‘g‘liga ichma chekma desayu o‘zi o‘g‘lini ko‘z o‘ngida ichib chekib o‘tirsam yoki ona o‘smir qizi bilan birgalikda mentaletimizga zid bo‘lgan chet el seriallarini tomosha qilsam ota o‘zi o‘rnak do‘st bo‘lish o‘rniga faqat farzandini koyisa pand nasixatdan nariga o‘tmasam, u farzanddan nimani kutish mumkin yoki yigit kishini ko‘cha tarbiyalaydi degan noto‘g‘ri tushincha farzandini o‘z qo‘li bilan kim-kimlarni qo‘liga topshirib qo‘yish emasmi. Xo‘sh farzandi ko‘chada nimani ko‘radi, nimani o‘rganadi, kimdan tarbiya oladi? O‘z uyida ko‘rmagan mehri, topolmagan do‘stona munosabatni ko‘chadan izlaydi. Ko‘chada qo‘shirnoq ichidagi oliyjanob va mehribon shaxslar balog‘at yoshidagi o‘smirni g‘o‘rligidan foydalanib o‘zini do‘st tutib har xil oqimlar domiga tortadigan shaxslar tarbiyalaydimi yoki o‘smir qizlar onasi qilolmagan do‘stlikni sirlasha olmagan sirlarini aytish uchun telefon yoki kompyuter orqali do‘stlar bilan yozishayotgani-yu, qizlarning yo‘qolib qolishayotgani bir necha oydan so‘ng qaysidir arab davlatlarida paydo bo‘lib qolayotganligi kimning aybi. O‘smir ko‘zguga o‘xshaydi ya‘ni nimani ko‘rsa o‘rgansa shuni aksini ko‘rsatadi va juda ham ehtiyotkor munosabatda bo‘lmasa dars ketadi va chil-chil sinadi. Farzandimni qornini to‘q, ustini but qildim bo‘ldi deymiz-u xotirjamlikka berilamiz. Xo‘sh uning ongichi, uning ongini kim to‘yg‘azadi, kim uni ma‘naviyat bulog‘idan qondiradi. Kim yigitlarga mardlik, mehr-sahovat, burchga sadoqat, vatanga muhabbat tuyg‘ularini singdiradi. Kim qizlarga ibo-hayo, vafo singari o‘lmas fazilatlarini o‘rgatadi. Albatta ota-ona buning uchun esa avvalo ota-onalarni o‘zi tarbiyalangan ma‘naviyatli bo‘lishi shart shundagina yuqorida sanab o‘tilgan yomon illatlar farzandlariga yaqinlashmaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. „Pedagogik psixologiya“ o‘quv qo‘llanma;
2. „Qiziltepa tongi“ gazetasi;
3. „Oila psixologiyasi“ o‘quv qo‘llanma.



## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI O'QITICHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

**Narzullayeva Sadoqat Tolibovna**

Buxoro viloyati Qorovulbozor tumanidagi  
1-umumiy o'rta ta'lim maktabi  
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya :** Ushbu maqolada umumiy o'rta talim maktablarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish va ularning o'quvchilar bilimini oshirishdagi ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Xalq ta'limi, integratsiyalash, interfaol, pedagog, diopozitsiya, plakatlar, AKT, gipotezalar.

Bugungi kunda ta'lim soxasida integratsiyalash masalasi dolzarb masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. Chunki Xalq ta'limi soxasida integratsiyalash kundalik vazifaga aylanmoqda. Rivojlangan davlatlarda bu masala o'z yechimini topmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev «Yoshlarimiz xaqli ravishda Vatanimizning kelajagi uchun javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo'lgan, bugingi va ertangi kunimizning hal etuvchi kuchiga aylanib borayotgani barchamizga g'uru va iftixor bag'ishlaydi» deb ta'kidlab o'tgan edi. Shu sababli bizning yurtimizda ham integratsiyalash jarayoni o'tkazilmoqda. G'arbiy Evropa va Rossiya davlatlarida integratsiyalashning ilmiy pedagogic asoslari ishlab chiqilgan. Bizning oldimizda turgan vazifalardan biri bu ta'lim sistemasini integratsiyalashdan iborat. Albatta, integratsiyalashning o'zi bu bir butun holatga keltirish hisoblanadi. O'quvchilarga predmetlar bo'yicha ko'plab imkoniyatlar yaratib har tomonlama barcha qulayliklarni tug'dirish hisoblanadi. Shunday ekan, biz o'quvchilarga jahon adabiyotlaridan izlanib bilim olishlariga imkoniyat yaratishimiz zarur. Ularda yangi pedagogic texnologiyalar va interfa'ol metodlar asosida bilim ko'nikmalarni shakillantirishimiz zarur.

O'qitish metodlari deganimiz nima? O'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi va o'z-aro hamjihatlikdagi ishlarida foydalaniladigan o'qitish maqsadlariga erishish uchun yo'naltirilgan fa'ollik uslublarini o'qitish metodi deb ataymiz. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda har xil ko'rinishdagi o'qitish metodlari: suxbat, tushintirish, lektsiya, o'quvchilar bilan har tomonlama hamjihad bo'lib psixologik yondashish, har xil suxbatlar o'tkazish, o'qituvchi yangi pedagogic texnologiyalardan, axborot kommunikatsion texnologiyalardan (AKT) foydalanishi, plakatlar, rasmlar, diopozitsiyalar, tarqatma va q o'shimcha didaktik materiyallar bilan jihozlanishi shart . O'qitish metodlarining har bir metodlar sistemasi bilan amalga oshiriladi. O'qitish uslubi – o'qitish metodining tarkibi uning qismi hisoblanadi. Masalan: muammoli suxbatlashish a) muammoli vaziyatlarni tug'diradigan har xil uslublardan (muammoli tajribani demonstratsiyalash natijasida o'quvchilarda mavjud bo'lgan bilimlarga qarama – qarshi bo'lgan topshiriqlarni bajarish suxbatlashish davomida hayotiy tajribani ilmiy bilimlarga qarama – qarshililarni aniqlash). b) muammoli vaziyatlar yuz berganida qarama – qarshililarning sababi haqida o'quvchilar aytgan gipotezalar (taxminlar) ularni fikr fa'olligiga yo'naltiruvchi har xil uslublardan (zarur bilimlarni dolzarblashtirish uslubi, o'xshatish uslubi.); c) Suxbar davomida o'quvchilar aytgan gipotezalarni tekshirishning har xil uslublaridan (gipotezani asosiy teoriy konseptsiyaga mos kelishini tekshirish, gipotezani tajribada tekshirish) foydalanishni chamalay olish hisoblanadi . O'qitish metodlaridan tahlil qilish va qulay bo'lishi uchun ularni klassifikatsiyalaydi. Metodlarni ayrim guruhlariga bo'lishda nimaga asoslanganligiga qarab, o'qitish metodlarini turlicha klassifikatsiyalash mumkin[3].

Didaktikada ma'lumotni o'qituvchidan o'quvchilarga yetkazib berish uslubi bo'yicha metodlarni klassifikatsiyalash keng qo'llaniladi. Ushbu asos bo'yicha o'qitish metodlarini og'zaki ravshda materiyalni o'qituvchi bayon qiladi (hikoya, so'zlashish, tushintirish, lektsiya) bundan tashqari, kitob bilan ishlay olishini ham aniqlaydi, ko'rgazmalarga (tajribalarni demonstratsiyalash ishlaydigan va statistic modellar, plakatlar, rasmlar va kino filmlar) qo'llaniladi [6]. O'quvchilar har xil darajadagi hamjihatlikda ishlash imkoniyatiga ega va o'qituvchi (bilim berishi)ning vazifasi ushbu imkoniyatlarni yaratib berishdan iborat. Bilim sifatini yaxshilash, o'quvchilarning intellektual fa'olligini oshirish buguni kuni pedgogikaning asosiy vazifalari hisoblanadi. Intellektual



fa'ollikni oshirishda interfa'ol metodlardan foydalanish yaxshi natijaga beradi [2].

Interfa'ol metodlar – (Interaction – inglizcha inter – o'z - aro, aktiv – harakat ma'nosini anglatadi) o'z – aro harakat, yoki hamjihatlik, sheriklik ma'nolarini ham anglatadi [5]. Interfa'ol metodlarning bir nechta turlari mavjud:

1. Kichik guruhlarda ishlash. Ushbu metod asosan yakka holatdagi masalalardan o'z fikrini ishlab chiqqan holda uni guruhda k o'rib chiqish va har xil fikrlar asosida bir yechimga kelishga o'rgatishdir.

2. Aqliy hujum. Sinfdagi har bir o'quvchiga o'qituvchi q o'ygan savol yoki muammodan o'z fikrini bayon etishga imkon beruvchi o'qitish metodi. Metod mazmuni «bir bosh — yaxshi, yigirma beshi undan ham yaxshi» prinsipi asosida o'quvchi tomonidan muammo yoki savollarda tug'iladigan barcha fikrlarini variantlarini bir joyga keltira olish bo'lib, bilim oluvchilarning barcha fikrlari tog'ri bo'lgan javob o'rganiladi.

3. Har kim har kimga o'rgatadi. “Har kim har kimga o'rgatadi” metodi o'quvchilarga o'rgatuvchiga aylanish, ma'lum bir bilimlarni o'zlashtirish, do'stlari bilan bo'lishish imkonini beruvchi metod.

4. Modifikatsiyalangan leksiya. Ushbu o'qitish metodida o'qituvchi mavzuning mazmun mohiyatini og'zaki tushuntirish yo'li bilan o'quvchilarga yetkazib beradi. Lekin ananaviy leksiya bilan farqli, o'qituvchi va o'quvchi orasida fa'ol bog'liqlik bo'ladi.

5. Bingo. Ushbu metod savol va takrorlash metodlaridan biri bo'lib, o'quvchilar diqqatini, bilimdonligini aniqlaydi.

Zamon shiddat bilan o'zgarib borar ekan, ta'lim soxasi ham u bilan birga o'zgaradi va o'qituvchidan o'z fa'olligini o'zgartirishni talab qiladi. Bunga o'qituvchining asosiy vazifalari nafaqat bilim berish, balki boshqaruvchilikdan ham iborat bo'lib, u ta'lim jarayonini tog'ri tashkil etish va boshqarishni talab etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh. Mirziyoev «Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz» Toshkent - «O'zbekiston» - 2016 y 15-s

2. P.f.n. dots F.O'.O'rinova, Sh.Erkinova. «Talabalar ijodi qobiliyatini rivojlantirishda nutq madaniyatining o'rni». Yangi pedagogik texnologiya– ta'lim nazariyasini harakatga keltiruvchi kuch Respublikaviy ilmiy-nazariy anjuman materiyallari. (6-7-may, 2011)



## ТА'ЛИМ ТУРЛАРИ ВА UNDA PEDAGOGNING KREATIVLIK FAOLIYATINING AHAMIYATI.

**Nematova Zulfiya Mirvohidovna**

Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumani 2-umumiy o'rta ta'lim maktabi  
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Lola Xudoyorova Abdurasulovna**

Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumani 2-umumiy o'rta ta'lim maktabi  
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Kreativlik bevosita innovatsiyalar bilan bog'liq jarayondir. Negaki o'qituvchining kreativlik faoliyat yuritishi uchun, u albatta o'zining sohasidagi eng so'nggi yangiliklardan, shu bilan bir qatorda butun jamiyatdagi voqea va hodisalardan boxabar bo'lishi, innovatsion yangiliklarni o'z faoliyatida o'rinni foydalana olishi lozim.

**Kalit so'zlar.** «Ta'lim to'g'risida» gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», aql, iroda, diqqat, harakat, Shaxs, jismoniy, ruhiy,, individ, innovatsion yangiliklar.

Inson kamoloti – bu insonning keng ma'noda ichki va tashqi omillar ta'sirida shaxs sifatida shakllanish jarayonidir. Shaxsning shakllanishi esa – bu uning hayot yo'li davomida rivojlanishining o'ziga xos shakli bo'lib, maxsus olib boriladigan tarbiyaviy ta'sir natijasi hisoblanadi. Dunyoga kelgan go'dak ma'lum yoshga qadar individ sanaladi. «Individ»- lotincha individuum so'zidan kelib chiqqan bo'lib «bo'linmas», «ayrim shaxs», «yagona» ma'nolarni anglatadi. Individ biologik turga kiruvchi alohida tirik mavjudotdir. Shaxsning shakllanishida harakat o'ziga xos omil sanaladi. Go'dak (chaqaloq) ham turli xarakterlarni tashkil etadi. Biroq bu xarakterlarsiz keyinchalik shartli reflekslar bo'lib, ongli ravishda emas, balki shartsiz va shartli qo'zg'otuvchilarga javob tarzida yuz beradi. Go'dakda nutq bo'lishi, shuningdek u tomonidan tashqil etilayotgan harakatlar ongli ravishda sodir bo'la boshlashi va ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ishtirokining ro'y berishi shaxs shakllanishning dastlabki bosqichi sanaladi. O'sib va rivojlanib boruvchi inson ta'lim va tarbiya ob'ekti hisoblanadi. Butun hayoti davomida insonning rivojlanish jarayoni davom etaveradi. Bu jarayonda u turli o'zgarishlarni, jismoniy, ruhiy, miqdor va sifat o'zgarishlarni o'z boshidan kechirib boradi. Insonda bo'ladigan jismoniy o'zgarishlarga – bo'yining o'sishi, vaznining og'irlashib borishi, suyak va mushak tizimlarining, ichki a'zolari va asab tizimining o'zgarib borishi kiradi. Ruhiy o'zgarishlar esa uning aqliy rivojiga aloqador bo'ladi va insonda ruhiy sifatlarning shakllanib borishi, unda hayot uchun zarur bo'lgan sotsial sifatlarning tarkib topishi hisoblanadi. Odam bolasining rivojlanishi – bu muhim jarayon sanaladi. Ma'lumki, hayoti davomida inson jismoniy va ruhiy tomondan o'zgarib boradi. Lekin bolalik, o'smirlik va o'spirimlik davrida rivojlanish nihoyatda kuchli bo'ladi. Bola mana shu yillarda ham jismoniy, ham ruhiy jihatdan o'sishi, o'zgarishi tufayli shaxs sifatida kamolga etadi, bunda berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq ta'sir etishi natijasida bola jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga munosib o'rin egallaydi. Shaxsning kamol topishida va uning xulqiga ijtimoiy va biologik omillarning ta'sir kuchi hamisha bir xil bo'lavermaydi. Sababi odamning xulqiga, munosabatiga va aloqalariga yoshi, bilimi, hayotiy tajribasi, odatlari va nihoyat, vaziyat ham ta'sir etadi. Shaxsning fazilatlarini to'ri aniqlash va bexota baholash uchun uni turli munosabatlar doirasida, turli vaziyatlarda ko'zati ko'rish lozim. Shundagina shaxsning ijtimoiy xulqi, ma'naviy qiyofasi, insoniy fazilatlarini ro'yobga chiqadi. Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to'g'ri hal qilish uchun uning xalqiga ta'sir etuvchi omillarni, bu omillarning tabiatini, shaxsning xususiyatini yaxshi bilmoq kerak. «Shaxs» tushunchasi «Inson» tushunchasidan farqli o'laroq, u insonning ijtimoiy xususiyatlarini anglatadi. Yangi jamiyat boshqa odamlar bilan muomalada bo'lishi, munosabat o'rnatishi natijasida shakllanib boradigan sifatlarni bildiradi. Inson ruhiy xususiyatlarining rivojlanishi (aql, iroda, diqqat, harakat va h.k.), hayotda o'z o'rnini topa olishi, uning Vatani, xalqning ravnaqi yo'lida og'ishmay, e'tiqod bilan xizmat qilishi, imonli bo'lishi insonni shaxs darajasiga ko'taradi. Bunday sifatlarning ro'yobga chiqishi tarbiyaga bog'liq bo'ladi. Shaxsni shakllantirish - uning o'sishi, qandaydir yangi xususiyat va fazilatlarga ega bo'lish jarayonidir. «Shakllantirish» tushunchasi «tarbiyalash» tushunchasiga nisbatan kengroq bo'lib, u shaxs va jamoaning tarkib topishiga ta'sir ko'rsatadigan hamma narsani, shu jumladan, maqsadga muvofiq



jarayonlar (o'qitish, tarbiyalash, ta'lim berish)ni ham, maqsadga nomuvofiq jarayonlar (shaxs va jamoaning o'z ichki tabiati, atrofdagi kishilar, narsalar, tabiat hodisalari va hokazolarning ta'siri) ni ham o'z ichiga oladi. «Shakllantirish» va «Tarbiyalash» tushunchalari jiddiy chegaralansa, insonni tabiat hodisalari tarbiyalaydi, deb bo'lmaydi. Insonni faqat kishilar tarbiyalaydi, tabiat hodisalari shaxsni shakllantirishi mumkin, ammo uni tarbiyalay olmaydi. Shaxs ijtimoiy munosabatlar, shu jumladan, tarbiya omili, ijtimoiy, ishlab chiqarish, madaniy, ilmiy faoliyat va shaxsiy aloqalar omilidan iborat tashqi omillarning hamda biologik va psixologik omildan iborat ichki omillarning ta'siri natijasida shakllanadi. Shunday omillarning biri yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishdir. Ta'lim-tarbiya berish esa yosh avlodga uzviy va uzluksiz tarzda berilishi lozim. O'zbekiston Respublikasida bunday uzluksiz ta'limning mohiyati ta'lim turlarida o'zining aksini topgan. Bu ta'lim turlari O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» (1997 y 29-avgust, O'zR Oliy Majlisi IX sessiyasi) da ko'rsatib berilgan. Vaholanki, «Ta'lim tug'risida»gi Qonunining asosiy maqsadi fuqarolarga ta'lim, tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini belgilaydi hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta'minlashga qaratilgan bo'lsa, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning asosiy maqsadi esa ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlardan holis qilish, rivojlangan davlatlar darajasida, axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlashdan iboratdir. Bunday kadrlarning faoliyati esa kreativ mazmunga egi bo'lishi hamda bunday pedagog uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida o'zining kreativligini yo'qotmasligi maqsadga muvofiqdir. Shu o'rinda uzluksiz ta'lim tizimiga ham qisqacha to'xtab o'tmoqchimiz. Uzluksiz ta'lim – ta'limning ustuvorligi, demokratlashuvi, ijtimoiylashuvi, milliy yo'naltirilganligi, ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi, har tomonlama komil insonlarni tarbiyalashga qaratilganligi, iqtidorli yoshlarni aniqlashga qaratilganligi tamoyillarini amalga oshirishga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasida ta'lim quyidagi turlarda uzluksiz tarzda amalga oshiriladi: - maktabgacha tarbiya; - umumiy o'rta ta'lim; - o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi; - oliy ta'lim; - oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim; - kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash; - maktabdan tashqari ta'lim». Maktabgacha tarbiya. Xalq ta'limi tizimida birinchi bosqich – maktabgacha tarbiya. Uning asosiy vazifasi bolalarni sog'lom va etuk qilib tarbiyalash, ularni maktabga ham pedagogik, ham psixologik tayorlashdan, ularning shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat. Bu ta'lim 6-7 yoshgacha oiladi, bolalar bog'chasida va mulk shaklidan qat'i nazar boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi. Boshlang'ich ta'lim (I-IV sinf). Umummaktab ta'limida boshlang'ich maktabning ahamiyati muhimdir. Chunki boshlang'ich maktab umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan bilim, o'quv ko'nikmalari bilan qurollantiradi. Boshlang'ich maktablar alohida maktab turi sifatida, ayniqsa qishloq, joylarida ko'p tarqalgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T. : TDPU, 2003.
2. Ziyomuhamedov B., Abdullaeva Sh. Pedagogika. –T.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2000.
3. www.ziyouz.com



## BOSHLANG'ICH TA'LIM SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XALQARO BAHOLASH STANDARTLARINING AHAMIYATI

**Ortiqova Madina Hamzayevna**

Buxoro viloyati Shofirkon tumanidagi  
3-umumiy o'rta ta'lim maktabi  
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalqaro ta'lim standartlari asosida baholashning ahamiyati va uning samaradorligi haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Globallashuv, PISA, TIMSS, PIRLS, ISSS, TALIS, ICILS, ta'lim sifati, xalqaro baholash.

Ta'lim bor joyda tarbiya bor bo'lganidek, ta'lim sifatli bo'lsa, mamlakat tayanchi–yoshlar har tomonlama bilimli, kuchli va tarbiyali bo'lib voyaga yetadi. Ta'lim sifati ko'zgusi bo'lgan baholash tizimining isloh qilinishi, Respublikamiz umumta'lim hamda oliy ta'lim tizimida 5 ballik baholash tizimining joriy etilishi, monitoring jarayonlari, reyting va modulli tizim kabilarning sinab ko'rilayotganligi hali bu boradagi muammolarga keng qamrovli taklif va yechimlar kutilayotganini yana bir bor isbotlaydi. [1] Baholash – ta'lim jarayonining ma'lum bir bosqichida o'quv maqsadlariga erishganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o'lchash, natijalarini aniqlashdan va tahlil qilishdan iboratdir. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini o'rganish, tajribada sinab ko'rish, ularni amaliyotga tatbiq qilish orqali ta'lim muassasalari sifati va samaradorligini yanada oshirish zarur. [2]

Global o'zgarishlar davri, ta'lim tizimida ijtimoiy jarayonlardan kelib chiqqan holda, shiddat bilan rivojlanishni taqozo etadi. Ta'lim orqali jamiyatda kelajakdagi vazifalarni bajarishga qodir bo'lgan yangi avlod shakllantiriladi. Maktabda olingan bilim insonning kelgusi hayot yo'lini belgilaydi. Ko'pchilik bilimni baho bilan o'lchaydi. Ammo baho bilimni belgilovchi aniq mezon emas. U o'quvchilarni faollikka undovchi, rag'batlantiruvchi vosita, xolos. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2017 yil 16 sentyabrdagi "2017-2018 o'quv yilida ta'lim sifati monitoring tizimini yanada takomillashtirish va tashkil etish to'g'risida"gi 299-sonli buyrug'ining 3-band 2- xatboshida: - monitoring jarayonini tashkil etish, nazorat materiallari va turlarini ishlab chiqishda ilg'or xalqaro tajribalar (PISA, TIMSS va h.k.)ni o'rgangan holda milliy monitoring tizimini takomillashtirish va uning natijalari asosida o'quv-metodik jarayonni yanada rivojlantirish choralarini ko'rish;

4-bandida: - monitoring jarayoni uchun nazorat (testlar, yozma ishlar, so'rovnoma, og'zaki savollar, audio(video) materiallarini tayyorlashda ularning umumiy hajmiga nisbatan 20% gacha o'quvchilarning psixofiziologik xususiyatlariga mos keladigan, o'quv dasturi va darsliklardan tashqari, xalqaro tajribalarda (PISA, TIMSS va h.k.) qo'llanilgan materiallardan foydalanish mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan bu kabi islohotlarning natijasi ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishishga olib keladi va bu holat malakali kadrlar va yetuk mutaxassilarga bo'lgan ehtiyojning yanada oshib borishiga turtki bo'layotganini guvohi bo'lyapmiz. Ta'kidlash lozimki, o'quvchilarning bilim va malakasini umumiy ravishda tahlil qilish mamlakatdagi ta'lim sifati darajasini belgilaydi. Shu maqsadda o'quv yili davomida har bir ta'lim muassasasida ichki va tashqi monitoring o'tkazib boriladi. Uning natijasiga ko'ra, eng namunali maktablar ketma-ketligi, o'qituvchilar salohiyati va o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi aniqlanadi. Bu jarayon ta'lim taraqqiyotini belgilovchi muhim mezon bo'lgani uchun Xalq ta'limi vazirligi tashabbusi bilan umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilari bilimini baholash bo'yicha xalqaro dasturlarni amaliyotga joriy etish maqsadida ilk qadamlar tashlandi. Ya'ni, o'quvchilar bilimini xalqaro talablarga yetkazish, unga mosligini o'rganib borish maqsadida xalqaro baholash dasturlarini keng qo'llash rejalashtirilmoqda. Bunday talabning qondirilishi, o'z navbatida, o'quvchilar o'rtasida kitobxonlik va darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishning zamonaviy ijtimoiy innovatsiyalar orqali amalga oshirish ehtiyojini vujudga keltirmoqda.



Xususan, dunyoda ta'lim sifati, saviyasi va darajasini aniqlab beruvchi PISA (O'quvchilarni ta'limdagi yutuqlarini baholash xalqaro dasturi), TIMSS (Maktabda matematika va aniq fanlar sifati tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring) PIRLS (matnni o'qish va tushunish sifati aniqlash xalqaro tadqiqoti), ISSS (fuqarolik ta'limi sifati aniqlash xalqaro tadqiqoti) TALIS (o'qituvchilar korpusi sifati xalqaro taqqoslash tadqiqoti) ICILS (kompyuter va information savodxonlikni aniqlash xalqaro tadqiqoti) mavjud bo'lib, ular rivojlangan davlatlardagi ta'lim sifati yanada oshirishdagi mezon sifatida qo'llanilib kelinmoqda.

PIRLS (Progress in International Reading and Literacy Study) tadqiqotida 50 dan ortiq davlatlar ishtrok etib kelmoqda. Mazkur xalqaro tadqiqotning maqsadi turli xil ta'lim tizimidan iborat bo'lgan davlatlardagi boshlang'ich maktab o'quvchilarining matnni o'qish va qabul qilish bo'yicha tayyorgarligi hamda o'quvchilarning har xil yutuqlarga erishishga sabab bo'luvchi ta'lim tizimidagi o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat. Mazkur tadqiqot o'quv yutuqlarini baholash xalqaro Assosatsiyasi tomonidan tashkil etilgan. Tadqiqotda ishtirok etadigan maktablar ikkita parallel sinfi bo'lgan umumiy maktablar orasidan maxsus metodologiya asosida kompyuter yordamida tasodifiy tanlanadi. PIRLS tadqiqoti jarayonida ikki turdagi o'qish baholanadi: - adabiy o'qish tajribasini egallashga qaratilgan o'qish; - ma'lumotlarni o'zlashtirish va ulardan foydalanish maqsadiga qaratilgan o'qish. Tadqiqotning konseptual g'oyalariga asosan badiiy va ilmiy-ommabop matnlarni o'qish darajasini baholashda 4 turdagi o'qish ko'nikmalari baholanadi:

- yaqqol ko'rinishda berilgan ma'lumotlarni topish;
- o'qilgan matn asosida xulosalarni shakllantirish;
- axborotlarni umumlashtirish va interpretatsiya qilish;
- matnning strukturasi, tilga xos xususiyatlarni mazmunini baholash va taxlil qilish. PIRLS doirasida bajarilgan ishlarni miqdor va sifat ko'rsatkichlari asosida baholash maqsadida quyidagi baholash tizimidan foydalaniladi:

- javobini tanlashga oid topshiriqlar 1 ball bilan;
- voqea xodisalarning ketma-ketligiga oid topshiriqlar va qarorlar 1 ball bilan;
- javobi yoziladigan ochiq turdagi konstruktive xarakterdagi topshiriqlar qiyinchilik darajasiga ko'ra 1 balldan 3 ballgacha baholanadi. [4] Albatta bunday tadqiqot xalq ta'limi sohasidagi ishchilar, olimlar, metodistlar, o'qituvchilar, ota-onalar va jamoat vakillari uchun katta ahamiyatga egadir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son. 2018.05.06

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. // Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari.

3. OECD PISA Strong Performers and Successful Reformers in Education. Paris 2014- 193-p

4. Vaxobov M. M. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'qitish sifati monitoringi modelini takomillashtirish.T., 2016.–61b



## BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARGA FE'L SO'Z TURKUMINI O'RGATISH METODIKASI

**Orziyeva Sharofat Boboqulovna**

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani

7-son maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

telefon+998913304294

**Annotatsiya:** ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga fe'l so'z turkumini o'rgatish usullari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** fe'l so'z turkumi, fe'l sifatlari, zamonlari, fe'llarda shaxs-son tushunchalari.

Fe'l ustida ishlashda izchillik, bo'limlar orasidagi bog'lanish, dastur materialining hajmi, turini har bir sinfda o'rganish usullari va vositalari shu so'z turkumini o'rganish vazifasi, fe'ling lingvistik xususiyatlari va kichik yoshdagi o'quvchilarning bilish imkoniyatlariga qarab belgilanadi.

"Fe'l" mavzusini o'rganishda asosiy vazifalar: so'z turkumi sifatida fe'l haqida dastlabki tushunchani shakllantirish, o'quvchilar nutqini fe'llar bilan boyitish hamda og'zaki va yozma nutqda fe'ldan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini o'stirish, o'quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantirish, grammatik mavzu bilan bog'liq holda ayrim imloviy qoidalarni o'zlashtirish hisoblanadi. Bu vazifalar bir biri bilan bog'liq holda hal etiladi. Fe'ling lingvistik xususiyatlari xiyla murakkab, shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilari faqat uning muhim nazariyalari bilan tanishtiriladi. Material tanlashda shu materialning nutq va imloga oid vazifalarni hal qilishda qanchalik zarurligi hisobga olinadi. Fe'l ustida ishlashga tayyorgarlik savodga o'rgatish davrida boshlanadi.

Bu davrda o'quvchilarning diqqati fe'ling leksik ma'nosiga qaratiladi; fe'l uchun tipik hisoblangan leksik-grammatik ma'noni, ya'ni predmetning harakatini bildirishni umumlashtirish imkonini beradigan aniq material yig'iladi. Fe'l ustida ishlash mashqlarini "Alifbe"dagi so'z va mashqlarni o'qish, rasmga qarab gap tuzish bilan bog'lab o'tkaziladi. Bunda o'qituvchi o'quvchilar gap tuzishda mazmunga mos fe'lni topishga, so'z nimani bildirishini va qanday so'roqqa javob bo'lishini aniqlashga yordam beradigan sharoit yaratadi. Masalan, bolalar kuzda meva va sabzavotlarni, daraxtlarni kuzatib yoki rasmlarni ko'rib, gapni mazmunga mos so'zlar bilan to'ldiradilar: Kuzda mevalar nima qiladi?... (pishadi), sabzavotlar nima qiladi?... (yetiladi), daratl barglari nima qiladi?... (sarg'ayadi). Bolalar nima qilyaptilar?... (dam olyaptilar), ...(o'ynayaptilar), (ishlayaptilar).

Fe'lni o'rganishda maqsadga qaratilgan ishlar harakatni bildirgan so'zlar mavzusini o'rganishdan boshlanadi (1-sinf, o'quv yilining 2-yarmi). Fe'l leksik ma'nosi bilan grammatik ma'nosi (harakat bildirishi) mos keladigan (nima qilyapti?) yugurayapti, arralayapti, sakrayapti, (nima qildi?) yugurdi, arraladi, sakradi, (nima qiladi?) yuguradi, arralaydi, sakraydi kabi misollardan foydalanish bilan o'quvchilar o'zlari bajargan harakatlarni aytishni so'rab, ular bergan javobini (fe'lni) so'roqlari bilan xattaxtaga yozib, suhbat o'tkazish bilan tushuntiriladi.

O'quvchilarni so'roq berish bilan holat bildiradigan uxlayapti, o'ynayapti, faxrlanadi kabi fe'llarni ham tanlashga o'rgatib borish muhim ahamiyatga ega.

Bunday mashqlar o'quvchilarda predmet harakatini keng ma'noda tushunish ko'nikmasining shakllana borishiga yordam beradi.

O'quvchilarda so'zlarga so'roq berib, ularni bir-biridan farqlash ko'nikmasini shakllantirishni talab etadi. Buning uchun o'qituvchi fe'ling har xil shakllardan foydalanib, maxsus mashqlar o'tkazadi. Nima? so'rog'iga javob bo'lgan so'z bilan nima qildi? (nima qilyapti?, nima qiladi?) so'rog'iga javob bo'lgan so'zlar taqqoslanadi: nima? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlar guruhi predmetni bildirishi, nima qildi? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlar esa predmet harakatini bildirishi aniqlanadi. Taqqoslash ot va fe'lni ajratishga o'rgatadi, ularning nutqda bir-biriga ta'sir etishini aniqlashga imkon beradi.

DTSga muvofiq, boshlang'ich sinflarda morfologiyadan: ot, sifat, son, fe'l, kishilik olmoshi sintaksisdan: gap, ega, kesim, ikkinchi darajali bo'lak, uyushiq bo'lak, undalma kabi tushunchalarni, so'z yasalishidan: o'zak, qo'shimcha, o'zakdosh so'zlar kabi tushunchalarni shakllantirish ustida ish olib boriladi.



О‘қувчиларни фе’л зamonларини ongli qo‘llashga o‘rgatish maqsadida matnlardan foydalaniladi. Bunda fe’l zamonini aniqlash va biror fe’l shaklidan foydalanishni asoslash, shuningdek, fe’l zamonini o‘zgartirish, fe’llarni muayyan bir zamonda ishlatib hikoya tuzish topshiriladi. Dasturga ko‘ra, bu sinfda fe’llarda shaxs-son haqida tushuncha beriladi. O‘quvchilarda o‘zbek tilida III shaxs: so‘zlovchi (I shaxs), tinglovchi (II shaxs), o‘zga (III shaxs) mavjudligi haqidagi dastlabki ko‘nikma „Otlarning egalik qo‘shimchalari bilan o‘zgarishi” va „Kishilik olmoshlari” mavzulari o‘rganilayotganda hosil qilingan. “Fe’llarda shaxs son” mavzusi shu ko‘nikmaga asoslangan holda tushuntiriladi.

Suhbat asosida kishilik olmoshlari III shaxsni, birlik va ko‘plikni bildirishi eslatilgach, o‘quvchilarga men olmoshini qatnashtirib gap tuzish topshiriladi. Ular tuzgan gap o‘qituvchi rahbarligida tahlil qilinadi (Men kitobni o‘qidim).

O‘quvchilar men I shaxs birlikdagi kishilik olmoshi ekanini avtadilar; o‘qidim fe’lini so‘z tarkibiga ko‘ra tahlil qilib, o‘qi - o‘zak, -di - o‘tgan zamon qo‘shimchasi, -m ham qo‘shimcha ekanini aniqlaydilar. O‘qituvchi quyidagi mazmunda tushuntiradi: ish-harakat so‘zlovchi (I shaxs), tinglovchi (II shaxs), o‘zga (III shaxs) tomonidan bajarilishi mumkin; ikkinchidan, ish-harakat yakka (bir) yoki bir necha shaxs tomonidan bajarilishi ham mumkin. Fe’llarga qo‘shilib, ish-harakatni bajargan shaxsni va sonni (ko‘plik va birlikni) ham bildiradigan qo‘shimchalar bor.

Masalan, o‘qidim fe’lidagi -m qo‘shimchasi shunday ma’noni bildiradi, u shaxs-son qo‘shimchasidir. Chunki -m o‘qish harakatini bajargan shaxsni (I shaxsni) va sonini (bir kishi bajarganini) bildiriyapti, ya’ni ham shaxsni, ham sonni ifodalayapti. O‘qituvchi (xattaxtaga yozilgan gaplarni ko‘rsatib) “Nuqtalar o‘rniga gapning mazmuniga mos bo‘lgan fe’llarning shaxs -son qo‘shimchasini topib qo‘yib, gaplarni o‘qish” vazifasini beradi. Mashq o‘qituvchi rahbarligida birgalikda bajariladi. Suhbat asosida xulosa chiqariladi: Fe’llar shaxs-son qo‘shimchalari bilan o‘zgaradi. Shaxs-son qo‘shimchalari zamon qo‘shimchalaridan keyin qo‘shiladi. Fe’llarda shaxs-son haqidagi ko‘nikmani shakllantirish uchun mazmunga mos shaxs-son qo‘shimchalarini qo‘yish, berilgan fe’llarni hozirgi, o‘tgan, kelasi zamonda shaxs-son qo‘shimchasi bilan tushlash, fe’llarni so‘z turkumi jihatdan tahlil qilish mashqlaridan foydalaniladi. Bu sinfda fe’llarning yozilishi haqida ham ko‘nikma hosil qilinadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Boshlang‘och sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi Shodmonqulova D.
2. Ona tili darsligi 4- sinf Ikromova. R G‘ulomova X. T-2013



## О‘QUV JARAYONIDA ELEKTRON TA‘LIM RESURSLARINING O‘RNI VA AHAMIYATI

**Qilichev Sunnatillo Toxir o‘g‘li.,** GulDU Magistranti  
**Xasanov Baxrom Bektiboyevich.,** GulDU o‘qituvchisi

**Annotatsiya .** Ta‘lim jarayonini takomillashtirish jarayonlari amalga oshirilayotgan bir vaqtda elektron ta‘lim resurslarini yaratishga ham juda katta e‘tibor berilmoqda. Elektron ta‘lim resurslaridan dars vaqtida foydalanish har qanday fanni chuqur o‘zlashtirishda, o‘tilayotgan fanga o‘quvchilarning qiziqishini ortishida, o‘quvchilar o‘rtasidagi fan olimpiadalarida katta natijalar beradi.

**Kalit so‘zlar:** Ta‘lim resurslari, O‘quv jarayoni, ETR.

O‘quv jarayonida talabalarning fanga bo‘lgan qiziqishi hamda faolligini oshirish dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi. Zamonaviy axborot - kommunikatsiya texnologiyalari shaxs faolligini, qiziqishini oshirish, uning bilish jarayonini tashkil etish va boshqarishda ulkan didaktik imkoniyatlarga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Bu borada fanlaridan elektron ta‘lim resurslari (ETR) ning yaratilishi alohida ahamiyatga ega.

ETR tarkibiga fanga oid elektron darslik va o‘quv qo‘llanmalar, ko‘rsatmalar, mashq va masalalar to‘plamlari, gipermatnli va multimediyali vositalar, uslubiy qo‘llanmalar, elektron test va topshiriqlar, elektron lug‘at kabi talaba mustaqil bilim olishini ta‘minlovchi manbalar kiradi.

Fanlarni o‘qitishda talabalarni tegishli o‘quv-uslubiy materiallar bilan ta‘minlanishda axborot texnologiyalari orqali zamonaviy shaklda ya‘ni ETR shaklida tavsiya etish mumkin.

Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2008 yil 19 fevraldagi 39-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan —O‘quv-ta‘lim resurslarga bo‘lgan asosiy talablarda ETRlarini modullik printsipli asosida ishlab chiqish talab qilinadi. Modul o‘quv dasturidagi o‘quv materiallarining ma‘lum qismi mustaqil ish sifatida o‘rganilishi, talabalarni darslik va qo‘shimcha adabiyotlar bilan mustaqil ishlash, mavjud materallarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va xulosalash, o‘z nuqta nazarini dalillashga intilish kabi xususiyatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Ma‘lumki, har bir o‘quv moduli o‘zaro bog‘liq bo‘lgan nazariy, amaliy va nazorat qismlardan tashkil topadi. Nazorat ishlarning variantlari odatda modul oxirida beriladi.

Talaba egallanishi lozim bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar modullar bo‘yicha rejalashtirish fan dasturi asosida amalga oshiriladi. O‘quv modullaridagi mustaqil ish topshiriqlari ham o‘quv dasturi doirasida rejalashtirilishi bilan birga asta-sekin murakkablashtirilib borilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi, chunki mustaqil ishni bajarishdan asosiy maqsad talaba bilimini yanada kengaytirishga, uning ko‘nikma va malakasini mustahkamlashga yo‘naltirilganligidir.

Fanlarini o‘qitishda ETRdan foydalanish ta‘lim oluvchilarga keng imkoniyatlar yaratishi bilan birga ayrim o‘ziga xos quyidagi talablarni qo‘yadi:

- Ta‘lim oluvchilar albatta axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalana olish ko‘nikmasiga va imkoniyatiga ega bo‘lishi;
- Fanlari buyicha ETRning yaratilganligi va maxsus tarmoqli bazalarga joylashtirilganligi;
- ETRlarda axborot manbalarini fan xususiyatlarini hisobga olgan holda tizimli, mantiqiy izchillik va ketma-ketlikni saqlagan holda joylashtirilgan bo‘lishi;
- Ta‘lim olayotgan talabalarning ETR bilan ishlashiga to‘liq sharoit yaratilgan bo‘lishi;
- Mustaqil ish topshiriqlarini bajarishdan kutilayotgan maqsad va vazifalarni aniq belgilanganligi;
- Berilgan mustaqil ish topshiriqlarini bajarish uchun maxsus uslubiy ko‘rsatmalarining yaratilgan bo‘lishi va h.k..

Fanlar bo‘yicha ETRlar yaratish mazmuni quyidagi tartibda bo‘lishi maqsadga muvofiqdir:

- Fanning sillabusi (o‘zbek tilida);
- Fan dasturida keltirilgan adabiyotlar (o‘zbek, ingliz va rus tillarida);
- Fan dasturida keltirilgan qo‘shimcha adabiyotlar (o‘zbek, ingliz va rus tillarida)
- Ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, ilmiy maqola va tezislari, avtoreferatlar, patentlar, davriy va statistik to‘plamlar va h.k.)
- Multimediyaviy vositalari (elektron lug‘at, o‘z-o‘zini nazorat qilish testlari, turli slaydlar va taqdimotlar, didaktik vositalar va h.k.)



- Mustaqil ish topshiriqlari (keysalar, muammoli savol va topshiriqlar, laboratoriya ishlanmalari, amaliy vazifalar, kuzatuv ishlari, ma'lumotlar yig'ish va tahlil etish, dasturiy ishlanmalar tayyorlash, takomillashtirish yoki tahlil qilish vositalari).

ETRdan foydalanishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri talabalarning zamonaviy texnologiyalar asosida mustaqil bilim olishlarini tashkil etish hisoblanadi. Har qanday fanni mustaqil ravishda o'rganishda talabalar tegishli darsliklar, ma'lumotnomalar va boshqa o'quv-metodik materiallar bilan ta'minlanishi talab qilinadi. Bularning barchasini kompyuter texnologiyalari orqali zamonaviy shakllarda, ya'ni elektron resurslar holida taqdim etish imkoniyati yaratiladi.

ETR dan unumli foydalanish, shuningdek, talabalarning o'quv-ta'lim resurslariga bo'lgan ehtiyojlarini to'laroq qondirish maqsadida har bir ta'lim muassasalarida ichki ta'lim portallari yaratilishiga erishish kerak. Ichki ta'lim portallarida axborot resurslari ta'lim yo'nalishlari va kurslar bo'yicha tizimli holda joylashtirilib, fanlar bo'yicha o'quv-uslubiy majmua, darslik va o'quv qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, multimediyali darsliklar, taqdimot materiallari, virtual stendlar va boshqa qo'shimcha materiallar joylashtiriladi. Bunday tadbirlarning natijasi ta'lim oluvchilarning axborot ta'lim resurslariga bo'lgan ehtiyojini ta'minlashga asos bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Boqiev R.R., Qayumova N.A. "Axborot texnologiyalarni o'qitish metodikasi. metodik qo'llanma. Toshkent 2006 y.
2. Aripov M.M., Muxammadiyev J.U. Informatika. Informatsion texnologiyalar. Darslik, T, 2006.



## OILA IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK TADQIQOTLAR OB'EKTI SIFATIDA.

**Rahimova Gulhayo Alisherovna**  
Nizomiy nomidagi TDPU magistri  
**Turayeva Dilafruz Rustamboyevna**  
Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchisi, PhD

**Annotatsiya:** Maqolada oilaning har tomonlama ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarda o'rganilganligi tahlili yoritilgan. Mazkur masala bo'yicha tadqiqot olib borgan yetakchi psixologlar ishlaridan namunalar keltirilgan. "Oila xizmati" shoxobchalarini tashkil etish zaruriyati asoslangan.

**Kalit so'zlar:** oila, psixologik, omil, muhit, to'liq va noto'liq, ijtimoiy, o'smir, o'spirin, attraksiya, munosabat.

O'zbekistonda oilani rivojlantirishga global darajada, shuningdek, 2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida e'tibor qaratilib, oilani rivojlantirish masalalari bo'yicha davlat, fuqarolik jamiyati institutlari va xususiy sektor hamkorligini yo'lga qo'yish, oila ajralishlari bilan bog'liq salbiy tendensiyalar va muammolar sabablarini bartaraf etish, zamonaviy oilani mustahkamlash va rivojlantirish, oila farovonligi darajasini oshirish, oilaning tarbiyaviy-ta'lim salohiyatini mustahkamlash, jamiyatda an'anaviy oilaviy qadriyatlarni saqlash, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilash, oilalarga ta'sirchan metodik, konsultativ va amaliy yordam ko'rsatishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari belgilab berilgan. Mazkur chora-tadbirlar ona shaxsining farzanlar kamolotiga ta'siri, ularning turli oila turlari va shakllaridan qat'iy nazar barqaror tarbiya muhitini ta'minlashga xizmat qiluvchi psixologik omillarni aniqlash va ularni turmushida tatbiq qilish vazifasini yuklamoqda.

Ijtimoiy psixologiyada oilaga xos psixologik jarayonlar, oila a'zolarining bir-birlariga munosabatlari, nikohdagi o'zaro moslik masalalari, oilaviy mojarolarning psixologik omillari, oilada bola tarbiyasining ijtimoiy psixologik metodlari o'rganiladi.

O'zbekistonda o'tkazilayotgan ijtimoiy psixologik tadqiqotlar asosan oila va oilaviy munosabatlarga bag'ishlangan. Chunonchi, birinchi ijtimoiy psixologik tadqiqot ham 70-yillarning oxiri 80-yillarning boshida I. Yoqubov tomonidan o'tkazilgan bo'lib, u oilaviy munosabatlarning barqarorligi va er-xotin ijtimoiy rollarining muvofiqligini ta'minlovchi sotsial-psixologik omillarni o'rgandi. Tadqiqot natijasida, - shu narsa aniqlandiki, oila a'zolarining rollar borasidagi muvofiq o'zaro munosabatlari oilaviy xamjihatlikning muhim shartidir. Oilaviy majorolar esa, asosan hozirgi zamon o'zbek ayolining ijtimoiy mehnat bilan bandligi hamda oilaviy munosabatlarda eskilik sarqitlarining saqlanib qolganligidadir.

G.B. Shoumarov va E.A. Morshinalarning tadqiqotlarida esa oilada bolalar tarbiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy-psixologik omillar o'rganildi, chunonchi, unda o'ziga xos milliy va an'anaviy o'zaro munosaoat xususiyatlarining o'rni belgilandi [1].

Oilaviy munosabatlar psixologiyasi xususida o'tkazilgan muhim tadqiqotlardan biri N. Sog'inovning o'zbek oilasiga xos bo'lgan nikoh va oila munosabatlari - nikohdan qoniqish, nikoh motivlari, oila qurishning o'zbeklarga xos bo'lgan Yosh xususiyatlari, Yosh o'zbek oilalaridagi psixologik mojarolar va ajralishlarning sabablarini sistematik tarzda o'rgangan ilmiy ishidir. Bu tadqiqotda ilgari hech o'rganilmagan ilmiy ma'lumotlar to'plandiki, ularga ko'ra, o'zbek oilasining qurilishiga sabab bo'ladigan asosiy motiv—bu "Farzandli bulish", (birinchi o'rinda), ikkinchi o'rinda "Jamoatchilikning gap-so'ziga qolmaslik", uchinchi o'rinda "Ota-ona va qavmi-qarindoshlarning istaklarini bajo etish" va hokazolar aniqlandi. N.Sog'inovning to'plagan ma'lumotlari Yosh oilalar, mojaroli oilalar va Yoshlar tarbiyasi bilan mashg'ul bo'lganlar uchun muhim ilmiy yo'l-yo'riqdir [5].

Bundan tashqari, oxirgi yillarda katta guruhlar psixologiyasiga oid qator tadqiqotlar o'tkazildi. Masalan, V.M.Karimovanning o'zbek xotin-kizlari ijtimoiy tasavvurlarining o'zgarishi mexanizmini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqoti E. Usmonovning o'zbek ayollarining suitsidal (ya'ni o'z-o'ziga o't qo'yish) xulq-atvorining ijtimoiy-psixologik sabablarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqoti, E.No'monovanning o'zbek oilalaridagi reproduktiv ustanovkalarining xususiyatlariga bag'ishlangan, M. Zokirovanning erkak va ayollardagi rollar hakidagi tasavvurlarning o'ziga xosligini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqoti, M.Toshpo'latovning o'zbek Yoshlaridagi ijtimoiy xulq-atvorning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi o'ziga xos qirralarini o'rganishga



qaratilgan ishlari va boshqalar shular jumlasidandir. Mazkur tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, bizning hududimizda ham oila-nikoh munosabatlari yil sayin o‘zgarib bormoqda. Bu boradagi o‘zgarishlarga: 1) oilaning jamiyat oldidagi funksiyalarining o‘zgarib borishi; 2) oila a‘zolari sonining va tug‘ilishning kamayishi, murakkab ko‘p oilali tipdan, alohida mavjud bo‘lgan alohida oilalar tipiga aylanib borayotganligi; 3) oilaviy munosabatlar tizimida er va xotin funksiyalarining o‘zgarib, oilaviy rollar haqidagi ijtimoiy tasavvurlarning o‘zgarib borayotganligi; 4) iqtisodiy inqirozlarning oila a‘zolari o‘rtasidagi munosabatlarga ta‘siri; 5) ayollardagi reproduktiv ustanovkalarining o‘zgarib borayotganligi kabilarni kiritish mumkin. Bu tadqiqotlar natijasida yaqin kelajakda yangi etnopsixologik konsepsiya shakllanadi va bu respublikamizdagi ilmiy ishlarning rivojiga o‘z hissasini qo‘shadi [2], [3], [4].

O‘zbekiston sharoitida to‘liq va noto‘liq oilalar muhitida ona shaxsi, uning tarbiyasi ta‘sirida bo‘lgan o‘smirlik va ilk o‘spirinlik yoshidagi o‘g‘il bolalar va qizlarning hayotiy qadriyatlarga munosabatlari, ijtimoiy mo‘ljallari, ijtimoiy tasavvurlari hamda istiqbol to‘g‘risidagi obrazlarining hususiyatlari G. Yunusova tomonidan o‘rganilgan. Olima tomonidan noto‘liq oilalardagi o‘smir va o‘spirinlarning shaxslararo munosabatlarda ijtimoiy-masofa saqlash va “begonalashuv”ning mavjudligi tengdoshlariga nisbatan avtoritar, xudbin, konformlik va agressiv munosabatda bo‘lish xususiyatlari aniqlanib, noto‘liq oiladagi shaxslararo o‘zaro munosabatlardagi o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik masofa, “begonalashuv” hodisasining borligi, onaning o‘smirlik yoshidagi farzandi psixologiyasini bilishlik darajasi unda tarbiyalanayotgan o‘smirlik va ilk o‘spirinlik yoshidagi o‘g‘il bolalar, qizlarda mujassamlashgan qadriyatlar tizimi, ijtimoiy mo‘ljallar, istiqbol to‘g‘risidagi tasavvurlarda aks etadi, lekin ijtimoiy tasavvurlardagi shakllanmaganlik yoki real obrazlardan yiroqlikni keltirib chiqarmaydi degan xulosalarni chiqargan [6].

Oila va nikoh borasida o‘tkaziladigan tadqiqotlarda jahon va hamdo‘stlikdagi davlatlarda o‘tkazilgan izlanishlar, ulardan olingan natijalar va metodikalardan foydalanish mumkin. Ayniqsa, Sankt-Peterburg, Boltiqbuyi respublikalarida oila masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlar ko‘plab o‘tkazilgan bo‘lib, ularning tajribasidan biz ham keng foydalanishimiz kerak. Chunki o‘sha hududlarda ro‘y berayotgan ko‘plab ijtimoiy jarayonlar, xususan, oilaviy munosabatlar borasidagi muammolar bizning jumhuriyatimizga ham taal-luqli. Masalan, ayollarning ijtimoiy mehnatda bandligi tufayli ularda oila, unda xotin kishining o‘rni, roli haqidagi tasavvurlarning o‘zgarishining o‘zi butun psixologiyani qayta qurilishiga sabab bo‘lmoqda. Lekin ikkinchi tomondan, demokratiya va erkinlik sharoitida yillar davomida taqiqlanib kelgan eski qadriyatlarimiz, birinchi vavbatda, dinning hayotga kirib kelishi, umuman oilaviy munosabatlarga shunday ta‘sir ko‘rsatmoqdaki, ko‘pchilikda “endi ayol kishi an’anaviy o‘z o‘rnini egallarmikin?” degan tasavvurlar ham paydo bo‘lmoqda. Ammo, hozirgi rivojlangan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar sharoitida moddiy ishlab chiqarishni xotin-qizlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham ilmiy tadqiqotlar odamlar ongidagi ana shunday qarama-qarshiliklarning psixologik echimini topgan holda oila va nikoh tizimiga psixologik yordam ko‘rsatishi zarur. SHaharlarda va yirik aholi punktlarida “oila xizmati” shoxobchalarini tashkil etish zarurki, ular bir tomondan, oila va nikoh borasidagi ilmiy muammolarni tadqiq qilib, ularni hayotda qo‘llasa, ikkinchi tomondan, Yoshlarga, oilasiz odamlarga, ziddiyatli oilalarga bevosita psixologik xizmatlar ko‘rsatishi kerak. Oilaviy munosabatlar sohasidagi alohida tadbqiqiy tarmoq bu Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashdir. Bu ish bizning o‘lkamizda ham alohida ahamiyatga ega bo‘lib, yangilik bilan eskilik qarama-qarshi kelayotgan sharoitlarda ayniqsa muhimdir. O‘smirlik va o‘spirinlik yillarida shakllanadigan attraksiya hodisasi, ya’ni shaxslarning bir-birlariga emotsional bog‘lanishlari — do‘stlik sevgi hislarini tarbiyalash, ana shunday tarbiyaga shart-sharoitlar yaratish bizning sharoitlarimizda yangi va kelajagi porlok sohalardandir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. «Oila psixologiyasi» - G.B. Shoumarov. – t., - 1999. 3-t. nash.
2. Fayzieva M. Jabborov A. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2007.
3. V.M.Karimova. Oila psixologiyasi: Darslik. Pedagogika oliygohlari talabalari uchun – T., 2007. – 316 b.
4. Oilaviy hayot etikasi va psixologiyasi. – O. To‘raeva. – T., 2-t. n.,- 1990y.
5. Shoumarov G‘B., Haydarov I.O., Sog‘inov N.A., Akramova F.A., Solihova G., Niyozmetova G. Oila psixologiyasi, 5-nashr – T.: Sharq, 2013.
6. Yunusova G.S. Oilada ona va bola munosabatlari psixologiyasi / Monografiya. – Farg‘ona: Farg‘ona nashriyoti, 2018. - 168 b.



## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TA’LIMNI LOYIHALASHNIN XUSUSIYATLARI

**Ramazonova Saida Ismoilovna**

Buxoro viloyati Shofirkon tumanidagi  
42-umumiy o‘rta ta’lim maktabi  
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitishda ta’lim sifatini oshirishda ta’limni loyihalashning asosiy xususiyatlari haqida ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Loyihalash, dastur, darslik, pedagogic jarayon, texnologiyalashtirish, fan va texnika, moddiy texnik baza.

Hozirgi kunda juda ko‘p sohalarda loyiha va loyihalash kabi so‘zlarni eshitamiz. Keling, avvalambor “Loyihalash” so‘zining ma’nolariga to‘xtalib o‘tsak. Loyihalash (lot. projectus - o‘lg‘a tashlangan fikr, g‘oya, obraz kelajakda amalga oshiriladigan ishlarni rejalashtirish bo‘lib, proyekt ma’lum bir hisob-kitob, chizma va boshqalarga asoslangan holda tavsiflash, Bayo qilish shaklida mujassamlashgan g‘oya, fikrning ifodasidir. U bildirilgan fikrni mohiyatini va uni amalga oshirish imkoniyatlarini ochib beradi Loyihalash- mo‘ljallangan ob‘yektlar (apparat va asboblari, bin ova inshootlar, yo‘l va ko‘priklar, mashina va jihozlar, samolyot va kosmik kemalar va hokazo boshqa mahsulotlarning yangi xillari va namunalri)ni qurish va yaratish uchun ularning loyihalarini tuzish va chizish jarayoni. Fan va texnikaning barcha sohalrida qo‘llaniladi. Hozir loyihalash jarayonini avtomatlashtirishga ayniqsa, keng e‘tibor berilmoqda. Ta’limda darslarni loyihalashda o‘qituvchi har tomonlama o‘ylab, uning natijasini oldindan ko‘ra olishi kerak. Shuning uchun ham darslarni oldindan loyihalashtirish juda yaxshi samara beradi. Loyihalar predmet va uning yo‘nalishiga ko‘ra bir-biridan farqlanadi. Loyihalarda pedagog tomonidan ketma-ket amalga oshiriluvchi va tashhisning qo‘yilishi bilan yakunlanuvchi tahliliy faoliyat hisoblanadi. Oldindan ko‘ra bilish va loyihalash kabi ijodiy faoliyatlar namoyon bo‘ladi. Tashhis, oldindan ko‘ra bilish va loyihalash har qanday pedagogik vazifani hal etishnin ajralmas uchligi hisoblanadi. Loyihaning maqsadi oldindan qog‘ozda taqvim-reja, qisqacha yozmabayon sifatida aks ettiriladi. Strategik, taktik va operativ vazifalarning samarali haletilishi loyihalash texnologiyasining sifatiga bog‘liq. Pedagogik jarayonni loyihalashda pedagogning faoliyati, pedagogik vositalarni qo‘llash mazmuni va imkoniyatigina hisobga olinmasligi kerak. U asosan alohida o‘quvchi va o‘quvchilar guruhi tomonidan tashkil etiluvchi faoliyat mazmunini yoritishi zarur. Loyihalash ta’limning ijtimoiy, pedagogik maqsadlarga tayangan holda, pedagogik jarayonni aks ettiruvchi umumiy strategiya hisoblanadi. Loyihalashda o‘quv rejasi, dasturlari, darslik, metodik tavsiyalar va boshqa o‘quv qo‘llanmalar muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Pedagogik loyihalashda pedagogik vazifaning yaxlit holda mazmunan, tashkiliy-metodik, moddiy-texnik hamda ijtimoiy-psixologik (hissiy, kommunikativ va hokazo) jihatdan hal etilishini ta’minlash talab etiladi. O‘quv dasturi yoki o‘quvchi shaxsi ta’lim mazmunini loyihalashning asosi bo‘lib, bu vaziyatda o‘qituvchi pedagogik faoliyat, maqsad va sharoitlarga muvofiq holda o‘quvchilarga nimani taqdim etish xususida mustaqil qaror qabul qiladi. Qaror qabul qilish jarayonida quyidagilarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir:

1) o‘quvchilar tavsiya etilayotgan ma’lumotdan nimani va qanday hajmda o‘zlashtirishlari zarurligi;

2) o‘quvchilarning dastlabki tayyorgarlik darajasi, ularning o‘quv ma’lumotlarini qabul qilish imkoniyatlari;

3) o‘qituvchining shaxsiy, shuningdek, ta’lim muassasasining moddiy-texnik bazasi.

Ta’lim jarayonini loyihalashda har bir holatning puxta bajarilishiga erishish amaliy faoliyat (o‘quv jarayoni)ning muvaffaqiyatini ta’minlashga olib keladi. Uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirish maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri ta’lim jarayonini texnologiyalashtirishdan iborat. Ushbu jarayonning samaradorligini ta’minlashda quyidagi shartlarning bajarilishi muhim ahamiyatga ega:

1) o‘qituvchilar tomonidan zamonaviy ta’lim texnologiyalarini ta’lim amaliyotida faol qo‘llanilishi;

2) rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta’limi amaliyotida qo‘llanilayotgan zamonaviy



texnologiyalardan xabardor bo'lish.

U quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- loyihani yaratish;
- o'quvchilar faoliyatini tashhishtash;
- pedagogik jarayonni tashkil etish;
- pedagogik jarayonning samarali kechishini ta'minlash;
- o'quvchilar faoliyatini nazorat qilishni o'z ichiga oladi.

Pedagogik vazifaning hal etilishiga o'qituvchi va o'quvchi faoliyatlarining mazmuni, vositalarini loyihalash orqali erishadi. Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish uni loyihalashga nisbatan yangicha yondashuv, ya'ni, ta'lim jarayonini texnologik strukturasi muvofiq yoritish zaruratini taqozo etadi. O'qituvchi kasbiy faoliyatini tashkil etishda ta'lim jarayonini loyihalash alohida ahamiyatga ega. Har bir o'quv kursini o'rganish alohida mavzu va bo'limlarni loyihalash asosida amalga oshiriladi. Pedagogik amaliyot mohiyatini tahlil etish natijasida ta'lim jarayonini loyihalashning bir necha qonuniyatlari ajratildi. Ta'lim jarayonini loyihalash doirasida o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish muhim o'rin tutadi. Shu bois nazorat jarayonini loyihalash ham o'qituvchidan alohida malakali yondoshuvni talab etadi. Loyihalash pedagogic faoliyatning murakkab ko'rinishi bo'lib, uni amalga oshirishda ta'lim jarayonining muhim qonuniyatlari inobatga olinishi zarur. Loyihalash metodi ta'lim jarayonining muhim jihatlaridan biri bo'lib, o'qituvchining talabalar bilan individual ishlash imkonini beradi. O'qituvchi darsvaqtidan unumli foydalanib, talabalarining individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ular bilan yakka tartibda ishlaydi. Bunda ularning kasbiy fanlarni chuqurroq egallashlariga kengroq yo'l ochib beriladi. Loyihalash ishlarini tashkil etishda didaktik vazifaning qo'llanilishi va uni hal etish muammolari ko'rib chiqiladi.

Loyihalash metodi ta'lim oluvchilarni quyidagilarga:

- fanning turli sohalaridagi bilimlarni bir butun holga keltirib, muammolarni topish va yechish, axborotlar oqimida mo'ljal olish;
- faoliyatni tanlash huquqidan foydalanib, turli taxmin, g'oyalarni ilgari surish, tadqiqot o'tkazish, tahlil qilish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini aniqlash;
- o'z faoliyati natijasiga mas'ul bo'lish, mustaqil qaror qabul qilish, yutuqlar va kamchiliklarni aniqlash, uning sabablarini qidirish, xatolarni topish va to'g'rilash;

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Hasanboyev J., Hasanboyeva O., To'raqulov X.A, Haydarov M.. Pedagogika fanidan izohli lug'at. T-2008y.
2. R.Mavlonova, N.Voxidova va N.Raxmonqulova "Pedagogika nazariyasi va tarixi" T.-2010
3. 3.B.X.Xodjayev "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti" "Sanostandart" nashriyoti-T.2017-yil



## ЙИГИТЛАРНИ ОИЛАВИЙ ҲАЁТГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ИЖТИМОИЙ- ПСИХОЛОГИК МУАММОЛАРИ

**Равшанов Собир Абдималик ўғли**  
ГУЛДУ. Педагогика ва Психология  
йўналиши 2-босқич магистранти  
Телефон: 99 899-914-44-72

**Аннотация:** Ушбу мақола келгусида оила бошлиғи бўлмиш, йигитлар тарбияси ва уларни оилавий ҳаётга тайёрлашнинг ижтимоий-психологик муаммолари ечимларига бағишланади.

**Калит сўзлар:** Оила, жамият, ижтимоий-психологик муаммолар, фарзанд, йигитлар тарбияси, ота-она.

Оила – миллат асоси, миллат пойдевори. Ана ўша оилаларда эса фарзанд аталмиш келажак ҳаёт давомчиси дунёга келади. Ҳар бир хонадонда фарзанд туғилиши катта шодиёнага айланади, айниқса, ёш оилада бу хурсандчилик яна ҳам ўзгача кутиб олинмиш табиий. Фарзанд туғилгандан сўнг уни тарбиялаш, униб-ўстириш, келажакда жамият ҳаётида ўз ўрнига эга бўла оладиган инсон қилиб вояга етказиш, ҳар бир оиланинг нафақат оиланинг балки жамиятимиз, давлатимиз олдига қўйилган энг олий мақсадлардан биридир. Инсонни энг олий кадрият сифатида кўрувчи бизнинг мамлакатда унинг таълим – тарбия олиши, жамиятда шахс бўлиб шаклланишида барча имкониятлар яратилиб берилмоқда.

Ватанимизнинг келажаги, халқимизнинг эртанги куни, мамлакатимизнинг жаҳон ҳамжамиятидаги обрў – эътибори авваламбор фарзандларимизнинг униб – ўсиб, улғайиб, қандай инсон бўлиб ҳаётга кириб боришига боғлиқдир. Биз бундай ўткир ҳақиқатни ҳеч қачон унутмаслигимиз керак.

Оилада қиз ёки ўғил фарзанд туғилишидан қатъий назар унинг тарбияси жудаям муҳим, улар оладиган таълим – тарбияси орқали келгуси ҳаёт йўлини қай тарзда давом этиши, келажакда қандай инсон бўлиб вояга етишига асос бўлади. Айниқса ҳозирги жадал ривожланиб бораётган замонимизда ўғил болаларни тарбиялаш уларни ҳақиқий чин маънодаги ориятли, кучли, ғурурли, касб-корли, меҳнаткаш ўзининг ва ўзгалар тақдирига бефакр қарамайдиган мард ўғлон қилиб тарбиялаш энг асосий долзарб мавзулардан биридир. Чунки йигитлар келажакда ўзи ва оила аъзоларининг тақдири қандай бўлишида сабаб бўладиган оила бошлиғи бўлади. Бизнинг миллийликка, маънавий кадриятларга асосланган миллатимиз ҳамиша оила бошлиғи бўлмиш эркакларни қаттиқ хурмат қилишади. Оилада энг асосий қарорларни эркак киши яъни ота қабул қилади, унинг айтган сўзларига қолган оила аъзолари амал қилишади. Шу ўринда шуни унутмаслик ғоят муҳимки, эркак киши ҳам ўз вазифа ва бурчларини сидқидилдан адо этиши шарт, яъни ҳақиқатда оила бошлиғи номига муносиб бўлмоғи керак.

Биз буюк юрт фарзандларимиз, буюк аждодлар авлодимиз. Амир Темур, Ибн Сино, Заҳириддин Муҳаммад Бобур, Ал-Хоразмий, Мирзо Улуғбек, Жалолиддин Мангуберди каби ўз фидоий хизматлари билан чуқур из қолдирган буюк инсонлар авлодимиз. Бундай буюк аждодларимизга бутун жаҳон инсонлари ҳавас ва ифтихор туйғуси билан боқади.

Бизнинг ҳозирги ёшларимиз шу аждодларга муносиб авлод бўла оладими? - муносиб ватан ўғлони, намунали эрийгит, масъулиятли оила бошлиғи, фарзандларини яхши инсон қилиб вояга етказа оладиган ота, ўзи эса жамият ҳаётида ўз ўрнига эга шахс бўла оляптими? - ва бунинг учун нималар қилиш керак қуйида мана шу кабиларга тўхталалиб ўтаман.

Йигитларни оилавий ҳаётга тайёрлаш учун эътиборни қаратар эканмиз аввало уни ёшлигидан, яъни дунёга келганидан бошлаб шунга мос тарбия тизимини яратмоғимиз даркор. Акс ҳолда уни катта йигит бўлиб, бўлгандан сўнг биз уни тарбиялашга киришсак, албатта кечиккан бўламиз, тарбияни шундай айтсак инсон онгига киргизиб қўя олмаймиз, тарбия бу йиллар давомида инсон онгига сингиб борадиган жараён ва шу орқали у келгуси ҳаёт тарзини ҳам белгилай олиши мумкин.

Ўғил кўриб бир суюниб, бир куюниб, уни қандай қилиб ҳақиқий эркак қилиб тарбиялайман, деб боши қотган ота-оналар, тарбияга энг шимаришдан олдин бир ўйлаб кўринг, сизнингча, ҳақиқий эркак стереотипининг ўзи нима ва сиз унга қандай талаблар қўясиз?



Ҳақиқий эркак – жамият қабул қилган нормаларга мос келувчи идеал образ.

Бугунги кунда ривожланган Ғарб мамлакатларида эркак ва аёл орасидаги тафовут борган сари камайиб бориши билан бирга ҳақиқий эркак деган стереотип ҳам ўзгариб бормоқда.

Феменизмнинг совуқ шамоли аёлга куч бермоқчи бўлиб, уни кўполлаштирди, айти дама бу ҳолат ҳеч кимга сир эмас, аксинча, ҳозирги кунда бу кўзга яққол ташланади. Эркакка аёлни хурмат қилишга мажбурлайман деб ундаги ишонччи, шижоатни олиб қўйди.

Тезкор замонамизда бемалол ҳаракат қилиш учун Ғарб эркакига рицарлик совути оғирлик қилиб қолди, хориж ривожланиши шиддат билан кириб келаётган жамиятимиз эркаклари ҳам Алпомишларни орзу қилмай қўйди.

Ҳақиқий эркак ва ҳақиқий аёл тушунчалари катта савол остида қолаётган бугунги кунимизда шукрки. Эркак учун мардлик, жасорат, ғурур, ор-номус деган жиҳатларга бўлган эҳтиёж сақланиб қолди.

Хўш, мана шу хусусиятларни шакллантириш учун нималарга аҳамият бериш керак, деган ҳақли савол туғилади.

Фарзанд дунёга келар экан, унга энг яқин инсон она бўлади ва уни ҳақиқий эркак қилиб тарбиялайман деган аёл ҳақиқий аёл бўлиши керак. Бу жуда муҳим фактор. Оилада она кучли, ота пассив бўлганда ёки бирор бошқа сабабга кўра отадан нафратланиб ўсган ўғил аёлларга тақлид қилишга мойил бўлиши мумкин. Чунки ўғил бола авторитетни қидиради ва унга автоматик тақлид қилади.

Айниқса, оилада қизлар кўп бўлиб, устига – устак ота фарзандига вақт ажрата олмаса, ўғилда қизларга тақлид қилишдан бошқа йўл қолмайди. Бу боланинг қизиқишларида, ўйинларида кўриниши мумкин. Бу ҳолатдан даҳшатга тушиб фожиа яшаш ярамайди. Энг яхши усул тарбияга эркакларни жалб этиш. Агар она ёлғиз бўлса, бу эркак бува, тоға, амаки, спорт мураббийи ҳам бўлиши мумкин.

Ҳар бир эркакда кўрқув нималигини билмайдиган куч ва муҳаббат мавжуддир. Кучни отадан олса, меҳрни онадан олади. Меҳр – муҳаббат кўрсатилган бола бошқаларга бешафқатларча муносабатда бўлмайди, ёмон йўлга кириш эҳтимоли камаяди. Лекин меҳр бу кап-катта йигитни ёш боладек эркалатиш эмас. Болани улғайганини ҳисобга олмаслик жиддий муаммоларга сабаб бўлади.

Психлог Роберт Блайннинг бир ажойиб гапи бор: “Жамиятда етарлича кўп ўғил болалар туғилмоқда, аммо эркаклар борган сари камайиб кетишяпти. Бунинг иккита сабаби бор. Биринчидан, биз қандай қилиб ўғил болани, ҳақиқий эркакни тарбиялашни билмаймиз. Иккинчидан, ҳақиқий эркакни улғайтиришни хоҳлашимизга амин эмасмиз”.

Биз бугунги кунги тарбиямиз фарзандни жамиятга тайёрлаш жараёнида уларни атрофга камроқ зарар етказиши, маданиятли бўлишига кўпроқ қаратилган. Биз ўғил болага жуда кўп йўқ, деймиз. Ундай қилма, бундай қилма, бу хавфли каби. Бу эса ундаги энергияни, кучни, агрессияни чеклайди. Кейин эса тарбиянинг қаерида хатога йўл қўйдим, деган саволларга жавоб қидирамиз.

Албатта, ўғил болалар тарбияси анча оғир ва масъулиятлидир, чунки у қурол кабидир: ҳам кучли, ҳам хавфли. У бир нарсани истайди, ўзини ҳақиқий эркаклигига ишонч ҳосил қилишни, ўз кучи ва имкониятлари чегарасини аниқлашни. Бунинг учун ўзини хавфга отиши ёки бошқа болалар билан уришиши мумкин. Агар эътибор берган бўлсангиз, эркаклар ўғил болаларнинг уришига хотиржамроқ қарашади., хатто бирга бир чиқиб, ўз кучини синаб кўришга чақиривади ва бу курашни мароқ билан кузатишлари ҳам мумкин. Айти вақтда аёллар хавотирга тушишади ва бу тартибсизликка тезроқ чек қўйишга ҳаракат қилишади. Аёлга фарзанднинг хавфсизлиги муҳим, тинчгина уйда ўтирса янада яхши, она учун. Шунинг учун ўғил боланинг тарбияси ёлғиз она қўлида қолганда жиддий муаммолар келиб чиқади. Австралия қабилаларидан бирида ўғил бола 7 ёшга киргунча онанинг тарбиясида бўлади, кейин эса онадан ажртиб олинади, бизда ҳарбий хизматга кетгандек уйдан кетиб, фақат эркаклар жамоасида тарбияланади. 15-16 ёшга киргандан кейингина оилага қайтиши мумкин. Ана шу усул билан улар ҳақиқий эркакни тарбиялашар экан. Бу билан мен ўғил болани шундай тарбиялаш керак демоқчи эмасман. Аммо ўғил бола тарбиясида эркак киши муҳим. Агар она ёлғиз бўлса, юқорида таъкидлаганимиздек, бу эркак бува, тоға, амаки, спорт мураббийи ҳам бўлиши мумкин. Ўғил бола кучни, ишонччи аёлдан топа олмайди.

Айрим ҳолларда ўғил боланинг улғайиб ҳар хил хунарлар чиқара бошлаши кузатилади.



Буни онадан қочиш деб ҳам, онага қарши исён деб аташ мумкин.бу она ўғлини мустақил кўймаганда ёки улғайганини тан олмаганда ундан қочишнинг бир кўринишидир.

Кўпинча бизнинг ўзбек оилаларида қизим бир жойга боради деб, уларнинг тарбияси билан алоҳида шуғулланамиз, уларга кўпроқ масъулият юкланади, ўғил болага эса аксинча муносабатда бўламиз, айниқса, оилада битта ўғил бола бўлса янада авайлаймиз. Аслида-чи? Аслида эса ўғил болага масъулиятли иш топширилганда, у ўзини ҳақиқий эркакдек ҳис қилади.

Болани тарбиялашнинг энг яхши йўли – уни ўқишдан ташқари бирор самарали ишга жойлашдир. Ўҳлим безорилик қилиб кучини зарали машғулотларга сарфламасин десангиз, спортга беринг. Хаёлини ёмон фикрлар банд қилмасин десангиз, бирор фойдали меҳнат ёки ҳунар билан машғул қилинг. Ҳақиқий эркак бўлсин десангиз, кўпроқ наъмунали хулқли эркаклар таъсирида бўлишини таъминланг. Ўғил болани кучли она дунёга келтиради, катта қилади, аммо уни ҳқиқий эркак қилиб ота тарбиялайди.

Фарзанд – Яратган мўъжизаси. Уни ёруғ дунёга келтиришдан аввал ота-оналик мажбуриятини ҳис қилиш ва англаб етиш керак. Ана шундагина фарзандлар таълим – тарбиясига етарли даражада эътиборли бўла олиш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси конституцияси. – Т.: Ўзбекистон. 2014.
2. Акрамова Ф. Оила энциклопедияси. – Тошкент-2019. 173 б.
3. Шайх Абдулазиз Мансур. Бахтли оила. – Самарқанд-2019. 129-130 б.
4. Ҳалилова Ш. Оила номли давлат сирлари. – Тошкент-2015. 161-164 б.



## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QISH DARSLARIDA MAQOLLAR VA TOPISHMOQLARNING AHAMIYATI

**Ro‘zmetova Dilnoza Rajabboyevna**

Xorazm viloyati, Yangiariq tumani  
2- maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Bolalar xalq og‘zaki ijodida maqollar yetakchi o‘rinda turadi. Xalq yaratgan g‘oyat ixcham, chuqur va tugal ma‘noli gaplar maqol, deb yuritiladi. Maqol xalqning, bir nechaavlodlarning aqlu farosati hamda turmush tajribasining yakuni, ular donishmandligining mahsulidir. Maqollarda hayotning achchiq-chuchugini tatib ko‘rgan, turmushdagi hodisalarga aql ko‘zi bilan qaraydigan, sof vijdonli, olijanob, mehnatkash kishining biror voqea-hodisadan, biror kishidan yoki biror ishdan chiqargan xulosasi bayon qilinadi. Bu xulosa biror kishi uchun (ko‘proq bolalar uchun) yo‘l ko‘rsatuvchi bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Maqollar xalqning aql-idroki, ijtimoiy-tarixiy tajribasi, kurashi hamda mehnatining badiiy ifodasi sifatida yaratilib kelinmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda quyidagi maqol muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi: Ona yurtning omon bo‘lsa, Rangi ro‘ying somon bo‘lmas. Maqollar chuqur ma‘noni ifoda eta bilishi, ixcham, pishiq va puxtaligi bilan xalq og‘zaki ijodining boshqa janr turlaridan farq qiladi. Ularda mehnatkash xalqning orzu-umidlari, o‘zaro munosabatlari, vatanparvarlik, insonparvarlik hislatlari, o‘yifkrlari o‘zigaxos shaklda aks etgan bo‘ladi. Shu sababdan ular bolalarni to‘g‘ri, mantiqiy fikrlashga, maqsadni qisqa, ixcham va lo‘nda bayon etishga o‘rgatadi, ularning badiiy didini oshiradi, tarixiy hodisalarning mohiyatini yaxshiroq, chuqurroq payqab olishga yordam beradi. Bundan tashqari, maqollar ona tilining eng nozik badiiy xususiyatlarini bilishga va so‘z boyligini ham oshirishga ko‘maklashuvchi bir vosita sifatidaxizmat qiladi. Kuzatishlarimizdan shunday xulosaga keldikki, deyarli barcha maqollarda birinchi navbatda bola tarbiyasi - odob yotar ekan. Ona haqidagi maqollar ham bola tarbiyasida muhim. —Avval salom, ba‘daz kaloml maqolida salom tarbiya o‘chog‘i ekanligi ifodalangan. Tarbiya avvalo oilada shakllanadi.

Salom tarbiya maskanidir. Bolani salomga o‘rgatish onaning vazifasidir. Bolaaziz – odobi undan azizl- maqolida esa bolaning ona uchun azizligi, odobli bola doimo aziz ekanligi ifodalangan. —Onasini ko‘rib, qizini oll- maqolida ona timsoli qizida namoyon bo‘ladi. Onani barcha harakatlarini o‘rganib qiz voyaga yetadi. Qizga sovchi qo‘yishganda shu maqol gavdalanadi. —Otang bolasi bo‘lma, odam bolasi bo‘ll- maqolida bolaning otasining bolasi ekanligi, lekin, odam bolasi bo‘lish uchun mehnat, mashaqqat lozimligi uqtirilgan. ‖Ona kulsa, xona to‘lar, Ota kulsa, g‘aming ketarl- maqolida onaning beg‘ubor qiyofasi, ona bor uyda ko‘ngil to‘q ekanligi gavdalanadi. — Ona yerning tuprog‘i ona sutidek azizl – maqolida ona tuprog‘ini ona sitidek aziz ekanligi namoyon etilgan. —Ota rozi- xudo rozil- maqolida otani ranjitmaslik kerakligi uqtiriladi. —Onaning ko‘ngli bolada, Bolaning ko‘ngli daladal- maqolida onaning ko‘ngli doim bolasida ekanligi, bolasining esa ko‘ngli doim dalada, ya‘ni onasini o‘ylamasligi ko‘rsatilgan. — Ona bilan bola- gul bilan lolal- maqolida ona bilan bolani gul bilan lolaga qiyoslangan. Bunday iboratomuz maqollar ro‘yxatini yana cho‘zish mumkin. Ularning harakat, intilish, kurashlarida yuqoridagi maqollarning o‘rni, albatta katta bo‘ladi Ona haqidagi maqollarni o‘rganish orqali bola to‘g‘ri so‘z, odobli, aqlli bo‘lib kamol topadi. Ilmlining so‘zi – o‘q, Ilmsizning so‘zi – yo‘q. Oltin olma, bilim ol, Bilim olsang, bilib ol. Bolalar xalq og‘zaki ijodining, ayniqsa, ona haqidagi maqollar janrida kichikntoylarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga mo‘ljallangan asarlar alohida o‘rinda turadi. Bu mavzudagi maqollarning katta-ko‘pchiligi bola hali maktabga chiqmasidan oldinoq ularga tanishtiriladi. Xalq maqollarida yaxshilik, halollik, to‘g‘rilik hamda rostgo‘ylik ulug‘lanib, yomonlik, yolg‘onchilik va qalloblik qoralanadi. Yuqoridagi sharhlardan ko‘rinadiki, ona haqidagi maqollarni tinglashda xalq maqolini qo‘llab, etti o‘lchab bir kesib yashagan inson hech qachon kam bo‘lmaydi. Shu tariqa maqol janri rivojlanib, bolalarning ong-tushunchalarini rivojlantirishgaxizmat qilmoqda. Topishmoq Qadim-qadim zamonlarda ham o‘zbek xalqi o‘z bolalarini kuchli, epchil, aqlli qilib tarbiyalashga kattaahamiyat bergan. Ona haqidagi topishmoq, jumboq singari aqliy o‘yinlar ana shu savolga javob izlash jarayonidaxalq tomonidan yaratilgan. Topishmoqlarning ham ijodkori xalqdir. Yuzaki qaraganda kattalar bilan bolalar, bolalar bilan kattalar o‘rtasida topishmoqlar aytish, shunchaki bir ermakday tuyuladi, zerikmaslik uchun, vaqtini tez o‘tkazishga qaratilganday ko‘rinadi. Aslida esa topishmoqlar fikr qayrovidir, ular orqali bolaobrazli fikrlaydigan vaobrazli so‘zlaydigan bo‘ladi. Ona haqida-



gi topishmoqlar bolada soʻz boyligini orta borishiga va nutqining oʻsishiga yordam qiladi. Bolaga topishmoq topishni oʻrgatish bilan unda fikrlashning asta-sekin yuksalishiga sabab boʻladi. Demak, xalq ogʻzaki ijodining eng qadimgi va eng faol janrlaridan biri topishmoqdir. Xalq ogʻzaki ijodining eng boy janrlaridan biri boʻlgan topishmoq ikki qismdan iborat boʻlib, topishmoqning asosiy qismi boʻlgan javob obrazlar orqali jumboqlangan obʻekt-narsaning otini aytib berishdan iboratdir. Uning savol-jumboq qismi tabiat, tabiat hodisalari va narsalarni, umuman, obʻektni badiiy tus berilgan holdaobrazlashtirish, taqqoslash, oʻxshatish orqali jumboqlashdan tashkil topgan. Topishmoqning jumboq qismi bilan javobi birlikda bir butunlikni tashkil etadi: Hozirgi kunda ham har xil narsa va hodisalar haqida yangidan-yangi topishmoqlar yaratilmoqda. Topishmoqlar ayniqsa, kichkintoylarning fikrlash qobiliyatini oʻstirishga, ularni muayyan bir fikrni badiiy tusda ifodalashga va ziyraklikka, topqirlikka oʻrgatadi. Ayniqsa ota-ona haqidagi topishmoq bolani ota-onasiga mehribon qilib tarbiyalaydi: Bogʻimdag qosh chinor. (ota-ona) Xalq topishmoqlari orasida inson aʼzolariga bagʻishlangan koʻplab topishmoqlar kichkintoylar quvonchiga-quvonch qoʻshib kelmoqda. Shu narsa ham jozibaliki, chevar xalq oʻzi toʻqigan asarida inson aʼzolarigalohida urgʻu beradi. Har bir aʼzoning inson hayotida juda kattaahamiat kasb etishini. Ana shunday aʼzoldan biri – tish topishmoqda yuksak darajada taʼrifga ega: Biz-biz edik, biz edik, Oʻttiz ikki qiz edik. Ikki safga tizildik, Birin-ketin uzildik. Shov tegirmonning toshi, Oltin egarning boshi. Shuni topgan bolaning Yuz yigirma ikki yoshi. Bir uy chada turadi, Oʻttiz ikki pahlavon. Birdek kiygan libosi, Birdek ahil-jonajon. Topishmoq janri yozmaadabiyotning rivojiga ham barkali hissa qoʻshgan. Chunonchi, Choʻlpon, Abdulla Qodiriy, Oybek, Gʻafur Gʻulom, Zafar Diyor, Quddus Muhammadiy, Poʻlat Moʻmin, Quddus Hikmat, Anvar Obidjon va boshqa qalamkashlar tomonidan yaratilgan nazm va nasrda oʻz ifodasini topshganligini koʻramiz. Masalan, Gʻafur Gʻulom —Oʻylashni oʻrganamizl, —Buni toping, qizlariml asarlarida topishmoq janrini yuksak qadrlaganligini koʻramiz. Chunonchi, —Buni toping, qizlariml topishmoq asari kichkintoylarning ong, tushuncha, fikrlarini rivojlantirishda muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi: - Toʻni silliq, tuki yoʻq. Malla tukli, sap-sariq, Hammasi toʻq, poʻki yoʻq, Murabnosi mazalik. Ichi qizil, koʻki yoʻq, Palovga bossa boʻlar, Uni choʻqolmas chumchuq, Podvalgaossa boʻlar. Bu nima, qizim Qunduz? Tishlab koʻrib, ayt, Mehri, - Bumi, dadavoy? (Tarvuz.) - Bumi dadavoy? (Behi.) Topishmoq janri bugungi oʻqish darslarini tushunarli, taʼsirli, qiziqarli qilib oʻtishda, bolalarning oʻy-fikrlarini jamlashda soha muallimlariga ham juda qoʻl kelmoqda. Yuqoridagi sharhlardan koʻrinadiki, bola topishmoqsiz oʻsmaydi. U kattalar, bolalar davrasida koʻplab fikrlar qayrovi – jumboq tinglaydi, oʻzi ham qatnashadi vaechadi. Bu esa uning kelajakda oʻziga pishiq-puxta, aqlli, zakovatli inson boʻlib kamol topishi uchun mustahkam zamin boʻladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar :**

1. Abdullayeva K., Nazarov K., Yoʻldosheva Sh., Savod oʻrgatish darslari. T.: —O\_qituvchil, 1996-yil
2. Gapparova T., Shodmonov E., Eshturdiyeva G., Alifbe (Savod) T.: —O\_qituvchil, 1999-yil
3. Safarova R. va boshkalar —Alifbe I T., 2006-yil
4. Gulomov M. Yozuv daftari. T., —Maʼnaviyatl, 2006 -yil
5. Safarova R. Va b. Savod oʻrgatish. T.: —Maʼnaviyatl. 2003-yil



## MASOFAVIY TA'LIM TIZIMIDA O'QUV RESURSLARINI YARATIB BERUVCHI ISPRING DASTURINING IMKONIYATINI.

**Samatov Ulug'bek** GulGu magistranti  
**Qilichev Sunnatillo** GulDu magistranti

**Anatatsiya.** Taqdimot yaratishda Microsoft Power Point dasturidan keng foydalaniladi. Ushbu dasturning imkoniyatlarini yanada kengaytirish hamda Microsoft PowerPoint dasturida yaratilgan taqdimotlarni masofaviy ta'lim tizimlarida qulaylik bilan namoyish qilish maqsadida foydalanuvchi uchun maxsus bilim talab qilinmaydigan, imkoniyati keng, interfeysi qulay bo'lgan iSpring dasturidan foydalanishni tavsiya etamiz.

**Kalit so'zlar.** iSpring dasturi, masofaviy o'qitish, elektron darslilar,

Bugungi kunda talabalarga sifatli ta'lim berishni tashkil qilishda axborot texnologiyalaridan foydalanish, mutaxassislarning umumiy ma'lumoti va kasbiy tayyorgarligining sifatini oshirish uchun jahon andozalariga javob beruvchi axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tadbiiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Masofaviy o'qitish talabalardan kunduzgi mashg'ulotlarga qaraganda butunlay boshqacha yondashuvni talab qiladi. O'qitishning ushbu shakli talabchan ta'lim shakli ekanligi amaliy tajriba natijasidan ham ko'rinib turibdi.

Elektron ta'lim resurslariga fan buyicha yaratilgan elektron darslik, o'quv qo'llanma, metodik ko'rsatmalar, multimediyali vositalar, ma'lumotnomalar va lug'atlar, gipermatnlar, elektron testlar va topshiriqlar hamda shunga o'xshash talabning mustaqil bilim olishini ta'minlovchi, o'rganishga qiziqish uyg'otuvchi resurslar kiradi.

Hozirga kelib, PowerPoint dasturida tayyorlangan taqdimotdan flash-roluk shakllantirish imkoniyatini beruvchi dasturlar yaratilgan.

iSpring dasturi Microsoft PowerPoint dasturida tayyorlangan taqdimotni .exe, .swf, .html formatlariga yoki HTML 5 texnologiyasi asosida yaratilgan fayl bo'lishi kerak.

iSpring dasturining iSpring Free, iSpring PRO, iSpring Presenter va iSpring Suite kabi versiyalari mavjud bo'lib, dastur o'rnatilgach, Windows ishchi oynasida dastur yorlig'i hamda Microsoft Power Point dasturida iSpring menyusi namoyon bo'ladi.

**iSpring** quyidagi imkoniyatlari mavjud:

- Taqdimot fayllarini bir necha (exe, swf, html) formatlarda konve rtsiyalash imkoniyati;
- Taqdimot kontentiga tashqi resurslarni (audio, video yoki flash fayllarni) kiritish imkoniyati;
- Taqdimot kontentini muhofaza qilish: parol yordamida ko`ra olish, taqdimotga "himoya belgi"si qo'yish, taqdimotning faqat ruxsat etilgan domenlardagina "aylantirilishi";
- Video qo`shish va uni animasiyalar bilan sinxronlashtirish;
- Elektron test(nazorat)larini yaratish va natijalarini elektron

pochtaga yoki masofaviy o`qitish tizimiga (LMS) uzatib berish imkoniyatini beradigan interaktiv matnlar yaratish uchun vosita o`rnatilgan (Quiz tugmachasi);

• masofaviy o`qitish tizimida foydalanish uchun SCORMG'AICC-mos ke luvchi kurslarini yaratish;

• taqdimotning dastur darajasida aylantirish uchun ActionScript API;

• Videotasvirni yozish va uni taqdimot bilan sinxronlashtirish;

Elektron axborot ta'lim resurslari ichida kiruvchi ma'lumotnomalar va lug`atlarni yaratish uchun iSpring Kinetics dasturini keltirish mumkin.

**iSpring Kinetics** quyidagi asosiy imkoniyatlari mavjud:

- Biror bir fan bo'yicha elektron ko`rinishdagi qo'lay bo'lgan glossariy, ma'lumotnoma yoki lug`at yaratish;
- Vaqt shkalasini yaratish
- 3 o'Ichovli kitob yaratish;





**iSpring Pro** yordamida: Windowda Flashni muomilaga chiqarish;

- Prezentatsiyani tadqiq etish;
- Window bilan bog'lanish;
- Windowni taqdim etish;;
- Windowda audio yozish;
- Windowda video yozish;
- Windowda sinxron qilish;
- Windowga so'rovlar qo'yish;
- Windowni Flashga kiritish mumkin.

iSpring 10 Pro 180 dan ortiq effektlarga ega. Bu ko'rsatkich Power Point 2007 dagi barcha effektlar kombinatsiyasidan iboratligi, ko'plab harakatlarni o'z ichiga olganligi hamda shu ko'rsatkich bo'yicha harakatlarni mukammallashtirganligi bilan tasvirlanadi.

iSpring QuizMaker quyidagi asosiy imkoniyatlari mavjud:

- Tarmoqlangan testlar yaratish imkoniyati (adaptasiyalashtirilgan testlarni yaratish) imkoniyati;
- Ikki, uch, turt yoki besh javobli yopiq test topshiriqlari, ulardan biri to'g'ri, ikkitasi haqiqatga yaqinroq turidagi topshiriqlari.
- Bir necha to'g'ri javobli yopiq test topshiriqlari.
- Ochiq test topshiriqlari.
- O'xshashlikni aniqlashga yo'naltirilgan topshiriqlari

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. <https://www.ispring.ru>
2. <http://uz.infocom.uz/2013/11/25/>
3. <https://www.softportal.com/software-28441-ispring-pro.html>
4. <https://axoft.uz/uz/catalog/product/12614/>





## BUYUK SHOH VA SHOIR ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING “BOBURNOMA” ASARIDA JOY NOMLARIGA OID SO‘ZLARNING QIYOSIY TAHLILI

**Sattorova Nafisa To‘yimurodovna**

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani  
5-maktab ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi  
telefon:902340686

**Annotatsiya:** Tilshunoslikning eng serqirra jabhalaridan biri bo‘lgan badiiy tarjima va tarjima nazariyasini o‘rganish tadqiqot ishining obyekti bo‘lsa, aynan tarjimaning qiyosiy tahlili ishning predmetini tashkil etadi, bu maqolada ya‘ni “Boburnoma” asarida joy nomlariga oid so‘zlarning tahlili bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Tilshunoslik, geografik nomlar, tarixiy sanalar, geografik ilmiy asar

“Boburnoma” adabiy-tarixiy ahamiyatga molik asar. Unda o‘z davridagi ko‘plab kishilarning turli vaziyatlardagi kechinmalari, Osiyoning ko‘plab tog‘lari, daryolari, o‘rmon va cho‘llari, iqlimi aholisi, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy ahvoli haqida ma‘lumotlar jamlangan.

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari o‘zida bayon qilingan voqealar jarayoniga ko‘ra 3 qismga: Boburning Mavrounnahr (1494-1504), Afg‘oniston (1504-1524) va Hindiston (1524-1530) dagi hukmronlik davriga bo‘linadi.

Andijonda boshlanib, Hindistonda yozib tugatilgan ushbu asar XV asr oxiri, XVI asr boshlaridagi O‘rta Osiyo, Afg‘oniston va Hindiston xalqlari tarixi, tabiati, har bir tasvirlanayotgan hududning geografik o‘rni, iqlimi, o‘simliklari, qazilma boyliklari, hayvonot dunyosi va umuman, muallifning Farg‘ona vodiysida o‘tgan yoshlik yillaridan to Hindistonda podsholik qilgan yillarigacha bo‘lgan voqeahodisalarni o‘z ichiga olgan tarixiy asardir. “Boburnoma”dagi ma‘lumotlar bevosita Boburning kuzatishlari asosida yozilgan original asar bo‘lib, muallif o‘z asarini yozishda birorta ham xattot yollamagan. Asardagi keng qamrovli ma‘lumotlar shu darajada qimmatliki, mana besh asrdan buyon tarixchilar, geograflar, tilshunoslar, sharqshunoslar, etnograflar, arxeologlar, adabiyotshunoslar va botaniklarni o‘ziga jalb qilib kelmoqda. Asar uch qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismida Movarounnahr voqealari, ikkinchi qismida Kobul hududidagi voqealar, uchinchi qismida esa Hindiston aks ettirilgan.

“Boburnoma”dagi geografik nomlar, tarixiy sanalar va voqealarning ko‘pligiga qaramay, u oson va qiziqib o‘qiladi. Bobur asarda Movarounnahr,

Afg‘oniston, Xuroson, Eron va Hindistonning ko‘plab shaharlarini tilga olgan.

Andijon, Samarqand, Buxoro, Kobul, G‘azna, Balx, Badaxshon, Dehli, Delavpur, Lohur shaharlarining geografik joylashishi, o‘sha davr xo‘jaligida tutgan o‘rni haqida ma‘lumotlar qoldirgan.

U tilshunoslikka doir maxsus asar yozmagan bo‘lsa ham, lekin o‘zining qomusiy asari bo‘lgan «Boburnoma»da tilshunoslikka doir bir qator qimmatli fikrlarni bayon qiladi. Professor N. Hasanovning ta’kidlashicha, «Boburnoma» asarida 1000 ga yaqin geografik nom tilga olingan. O‘rta Osiyoga doir joy nomlarining ko‘pchiligi hamon o‘sha davrdagi kabi yoziladi va talaffuz etiladi. Bulardan ba’zilariga to‘xtalib o‘tmoqchimiz.

1. Farg‘ona-Ferghana
2. Samarqand-Samarqand
3. Andijon-Andijan
4. Buxoro-Boukhara
5. Koson-Kosson
6. Xovos-Havas
7. Zomin-Zamin
8. Shahrizabz-Shakhri-Sabz
9. Qorako‘l-Karakoul
10. Piskent-Piss-kend
11. Ilono‘ti-Ilon-oti
12. Ohangaron-Akhangaran

Bir qancha joy nomlari esa butunlay boshqachanom olgan:



1. Xo'jand suyi-Sirdaryo-Khodjand Syr-darya;
2. Darbandi Ohanin-Temir Darvozasi.

«Boburnoma»dagi joy nomlaridan ko'pchiligining ma'nosini o'zbekcha va forscha lug'atlar yordamida tushunsa bo'ladi. Bir qancha toponimlarning etimologiyasiga «Boburnoma»da alohida to'xtalib o'tilgan.

«Boburnoma»da Bobur adabiy tilni xalq jonli tiliga yaqinlashtirish uchun harakat qilganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Bobur tilni boyitishga va soddalashtirishga, barqaror qo'llanilmagan ko'p so'zlarni ishlatishga harakat qildi va ulardan o'rinli foydalandi.

Boburning qoldirgan ilmiy merosi muhim tarixiy-geografik manba sifatida hozirgi vaqtda ham olimlar tomonidan keng o'rganilmoqda. «Boburnoma»ning o'ziga xos tomoni shundaki, unda muallif turli hududlarning tabiati, geografik xususiyatlari, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda xo'jalik imkoniyatlarini yaxlit majmua sifatida sodda tilda tasvirlaydi. Bobur tug'ilgan joyi Farg'ona vodiysi va umrining bir qismi o'tgan Hindiston geografik o'rni, tog'lari, suvlari, cho'l, yaylov va bog'lari to'grisida ularning hozirgi zamon holatiga to'g'ri keladigan qiyosiy ma'lumotlarni keltirgan. Shu nuqtai nazardan «Boburnoma»ni o'zbek tilida yozilgan dastlabki eng yirik tabiiy, tarixiy, geografik ilmiy asar, Boburni esa O'rta Osiyo, Afg'oniston va Hindiston geografiyasi birinchi bo'lib o'zbek tilida tasvirlagan olim, deb aytish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abdurashid Abdug'afurov. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Azimjonova S, Gosudarstvo Babura v Kabule i v Indii, M., 1977;
3. O'zbek adabiyoti tarixi, 3jild., T., 1978



## DARS JARAYONIDA BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBİYALASH.

**Shodiyeva Saodat Yunusovna**

Navoiy viloyati Zarafshon shahar  
3-umumiy o‘rta ta’lim maktabi  
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi  
Telefon raqami: 93 437-36-05

**Annotatsiya.** Umuta’lim maktablarida amalga oshirilayotgan ma’naviy-ma’rifiy ishlar ham ijtimoiy siyosiy, ham ijtimoiy pedagogik jihatlariga ega.

**Kalit so‘zlar.** Pedagogik, ma’naviy-ma’rifiy ishlar, tarixiy, milliy, umuminsoniy qadriyatlar, tarbiya usullari, axloqiy ishlar, metod, tamoyil, xalq og‘zaki ijodi namunalari, maqol, matal.

Ma’naviy-ma’rifiy ishlarning asosiy sub’yekti o‘qituvchi. Shu sababli maktab “ma’naviy-axloqiy ishlar tizimi”ni maktab tarbiyaviy ishlar tizimining boy g‘oyasi sifatida tushunish mumkin. Shu sababli yuqoridagi fazilatlarni shakllantirish uchun ma’suliyatning asosiy yuki uning zimmasiga yuklanadi. Buning uchun boshlang‘ich sinf o‘quvchilaridan, maktab jamoat orasida o‘z bilimi, ma’naviy axloqiy fazilatlari bilan boshqalarga o‘rnak bo‘lishlari, shaxsni hurmat qilishlari, ma’naviy tarixiy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashlari; o‘z ulg‘ayib kelayotgan yosh avlodni bir birini tushunish, xalqlar, millatlar va el-elatlar o‘rtasida tinchlik, ahillik va inoqlik ruhida tarbiyalashlari va ularni zo‘ravonlikning barcha ko‘rinishlaridan himoya qilishlari va boshqalar talab etiladi. Ajdodlarimiz davr sinovidan o‘tgan ajoyib insoniy fazilatlar hamda ularni amalga oshirish usul va vositalarni yaratganlar. Shu asosda yoshlarni ijtimoiy hayot talablariga javob beradigan kishilar qilib tarbiyalab kelganlar. Bolalarda insoniy tuyg‘ularni tarbiyalashning asosi- kishilarga mehr-muhabbat qo‘yish, izzathurmat bilan muomala qilish, qadrlash, kishilar oldidagi o‘z burchini anglash, odamlarga nisbatan samimiy, halol va rostgo‘y bo‘lish kabi odob va axloq qoidalarini o‘z ichiga oladi. Mehnatkash xalq ommasi, yuqorida qayd qilib o‘tilganidek, uzoq davrlar davomida vujudga kelgan tarbiya usullari va vositalaridan foydalanadi, qo‘llaydi, bunda bolalarning o‘ziga xos xususiyatlari va butun sinf jamoasining sifatlarini ko‘zlab biror-bir qaror qabul qilishni talab etadigan tarbiyaviy vaziyatni hisobga oladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta’lim berish bilan bir qatorda ularning sinfdan va maktabdan tashqari faoliyatini tashkil qilish barkamol insonni tarbiyalashdagi milliy axloqiy ishlar samaradorligini oshiradi. O‘quvchilarni sinfdan tashqari ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash jarayonida qo‘llaniladigan metodlar: tarbiyaviy tadbirning maqsadi, mazmuni va uning xarakteriga mos bo‘lishi; tarbiyaviy ishlarning ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi yo‘nalishini yaxlit amalga oshirish. Materialning rang-barangligi, qiziqarliligi va hayotiy bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchilardan axloqiy fazilatlarni tarbiyalashda unga rahbarlik qilishning mazmuni, shakli va usullari borligini ta’minlash, uning natijasini hisobga olish uslubiyati, ta’lim-tarbiyaning birligini yaxlit amalga oshirish. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy sifatlarini shakllantirish metodini tanlashda quyidagi tamoyillarga e’tibor berish lozim: - o‘quvchilarda shakllanishi lozim bo‘lgan u yoki bu fazilatning mazmuniga; - o‘quvchining yoshi, ruhiy holati, aql zakovati, faoliyatiga ta’sir eta oladigan bo‘lishiga; - o‘quvchilar yashaydigan hudud sharoitini hisobga olish va moslashga; - tarbiyaviy ta’sir etuvchi usul-metodlarni qo‘llashda kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyotida tarbiya vositasi xalq og‘zaki ijodi namunalari, maqol, matal, ertak, hikmat, rivoyat, an’ana, teatr, amaliy san’atdan foydalanishga. Sharq mutafakkirlarining madaniy me’rosi bo‘lmish pandnomalar, bitiklar, yozma yodgorliklar, xalq kitoblari, urf-odat, bayramlarni amalga oshirishda qo‘llanilgan. Bu metodlar quyidagilar: 1. Har bir ishda kattalarning namunasi; 2. Pand-nasihatchilik qilish, suhbat o‘tkazish; 3. O‘yin va mashq; 4. Muammoli vaziyat; 5. Rag‘batlantirish, tabassum, iljayish, “barakallo”, yaxshi degan so‘zlar; 6. O‘rgatish va tushuntirish; 7. Mustaqillik va ijodkorlik; 8. Jazolash. Yuqoridagi tarbiya usullari xalqning kundalik hayotida qo‘llanilib u yo ijobiy, yo salbiy ta’sirga ega bo‘lgan. O‘quvchilarni ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda yuqoridagi materiallardan kompleks usulda foydalanish hayot taqozosidir. Maktabda o‘tkaziladigan tarbiyaviy soatni sinfdan tashqari tadbirlar yoki ma’naviy tarbiyaviy ishlar turli shakllar va usulda olib boriladi. Ular axloqiy mavzuda suhbatlar, o‘yin, ertalik,



bayramlar, munozara, o'tkir zehnlilar mushoirasi, marosimlar va boshqa tadbirlardan misollar tariqasida ko'rsatamiz. O'zbekiston ham o'tmishi, ham kelajagi buyuk davlat O'qituvchi: Aziz bolajonlar! XXI asr arafasida qadimiy O'zbekistonning yangi tarixini boshlab beruvchi voqea sodir bo'ldi. 1991 yil 31 avgust kuni O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlis VI sessiyasida O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi e'lon qilindi va bu qonun bilan mustahkamlandi. 1- sentabr Mustaqillik kuni deb belgilandi. Xalqimizning asriy orzu-umidlari ushaldi. Dunyo xaritasida yana bir mustaqil davlat O'zbekiston Respublikasi paydo bo'ldi. O'zbekiston o'zining Valyutasi, Madhiyasi, Bayrog'i, Tamg'asiga ega bo'ldi. Bular davlat ramzlarining - muqaddas belgisidir

**Foydalanilgan Adabiyotlar Ro'yxati.**

1. Musurmonova O. "O'quvchilarni ma'naviy madaniyatni shakllantirish". - T.: "Fan", 1993.
2. Raxmonov S. "Bolalarda madaniy ko'nikma va odatlarni tarbiyalash", - T.: "O'qituvchi", 1994-y.
3. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)



## БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМДА ДАРСА ЗАМОНАВИЙ ЁНДОШУВ.

Соҳодуллаева Муниса Жалолиддин қизи  
Наманган вилояти Тўрақўрғон тумани  
43-мактаб бошланғич синф ўқитувчиси

Янги шароитлардан келиб чиқиб, «Таълим тўғрисида»ги ва «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси қонунларига, 2017-2021 йилларга мўлжалланган “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси” талабларига кўра таълим тизимида туб ўзгариш ва ислохотлар, таълим босқичларининг узлуксизлиги ва изчиллигини таъминлаш, таълимнинг замонавий методологиясини яратиш, давлат талабларини компетенциявий ёндашув асосида такомиллаштириш, ўқув-методик мажмуаларнинг янги авлодини ишлаб чиқиш ва амалиётга жорий этиш, рақобатбардош кадрлар тайёрлашнинг энг инновацион технологияларини жорий этиш масалалари долзарб мавзу сифатида намоён бўлмоқда. Таълим муассасалари олдида турган вазифаларни ҳал этиш таълим мазмуни, таълим шакли, методлари ҳамда воситаларининг самарадорлигига боғлиқ бўлади. Таълим шакли, методлари ва воситалари ўқувчиларни маънавий-ахлоқий жиҳатдан тарбиялаш, уларда чуқур билим ва дунёқарашни ҳосил қилишга хизмат қилади. Таълим шакли ўқитувчи ва ўқувчининг белгиланган тартибда, муайян мақсадга мувофиқ маълум тартибда ташкил этиладиган фаолиятларининг ташқи ифодасидир. Қадим замонларданок жамиятнинг етук кишилари ўқитиш ишини ташкил қилишнинг ижтимоий тараққиёт эҳтиёжларига жавоб берадиган шакллари топишга уринганлар. Ҳозирги таълим муассасаларида ўқитишнинг қуйидаги шаклларидан фойдаланилмоқда. *Дарс-ўқув ишларининг асосий ташкилий шакли* ҳисобланади. Синф-дарс тизими қуйидаги мазмунга эга:

1. Ҳар қайси синф ёши ва билим даражасига кўра бир хил бўлган ўқувчиларнинг доимий гуруҳига эга бўлади.
2. Дарс жараёни асосан 45 дақиқа давом этиб, қатъий жадвал асосида олиб борилади.
3. Дарс ўқитувчи ва ўқувчиларнинг фаолият бирлигига асосланган бўлиб, бевосита ўқитувчи раҳбарлигида жамоа, гуруҳли ва якка тартибда олиб борилади.
4. Дарс машғулоти ўтиладиган ва ўзлаштириладиган материалнинг мазмунига қараб турли хил методлар ёрдамида олиб борилади ҳамда умумий таълим тизимининг бир қисми сифатида, албатта, тугалланган билим беради ва навбатдаги билимларни ўзлаштириш учун замин яратишга хизмат қилади. Бугунги кунда таълимни ташкил этиш тизимида якка тартибда таълим олиш ўзига хос ўринга эга бўлиб бормоқда. Якка тартибдаги таълим ўқувчининг қизиқиши, эҳтиёжи, хоҳишига кўра муайян фан, предмет юзасидан чуқур билим олиш; маълум фан ёки предмет бўйича юзага келган ўзлаштирашчилик ҳолатини бартараф этиш, шунингдек, узоқ вақт соғлиқни сақлаш муассасаларида даволанган ёки тиббиёт ходимлари назоратида бўлган ўқувчиларнинг ўқув дастури талабларини бажаришларига кўмаклашиш мақсадида ташкил этилади. Бундай усул Япониянинг “дзюку” (махорат ёки репититорлик) мактабларида ҳам олиб борилади ва яхши самара беради. Якка тартибда таълим олишнинг асосий кўринишларидан бири сифатида *репититорлик таълими* кенг оммалашиб бормоқда. Айни вақтда умумий ўрта таълим мактаблари ҳамда янги турдаги ўқув муассасалари фаолиятида ўқитишнинг ноанъанавий шакллари самарали натижа бермоқда. Таълимда шахсий-инсонпарвар ёндашув: Шахс субъектдир, ҳар бир бола қобилиятли. Педагогик мулоқотни инсонпарварлаштириш ва демократиялаш: - болаларга муҳаббат, уларнинг тақдирига қизиқиш; - боладаги умидли ишонч; - ҳамкорлик, мулоқот маҳорати; - тўғридан-тўғри мажбур қилишни бекор қилиш; - ижобий рағбатлантиришнинг муҳимлиги; - болалардаги камчиликларга сабрли бўлиш; - ўқитувчи ва талаба ҳуқуқларини тенглаштириш; - боланинг эркин танлаш ҳуқуқи; - хато қилиш ҳуқуқи; - шахсий қарашларга бўлган ҳуқуқ; - бола ҳуқуқлари ҳақидаги конвенцияга амал қилиш; - ўқитувчи-талаба муносабатлари усули: таъқиқлаш эмас, йўналтириш; бошқариш эмас, биргаликда бошқариш; мажбурлаш эмас, ишонтириш; буйруқ бериш эмас, ташкиллаштириш; чегараламаслик, эркин танлашни йўлга қўйиш. Замонавий шароитда натижаларга олиб келмайдиган туғридан-тўғри мажбурлашдан метод сифатида воз кечиш: - мажбурловсиз, ишончга асосланган талабчанлик; - туғма қизиқувчанликни ҳисобга олиб



ўқитиш; - мувафқиятсизликка сабаб бўладиган мажбурий истакни алмаштириш; - болаларнинг мустақиллиги ва мустақил фаолиятини ўрнатиш; - жамоа орқали бевосита талабларнинг қўлланиши шулардандир. Индивидуал ёндашувнинг янги талқинида: - ўрта ўқийдиган ўқувчиларга йўналтиришни бекор қилиш; - шахснинг энг яхши сифатларини излаш; шахсни психологик-педагогик ташхис этиш (қизиқишлари, қобилияти, йўналганлик, Мен-концепцияси, характери, фикрлаш жараёнларининг ўзига хослиги) нинг қўлланилиши; - ўқув-тарбия жараёнида шахснинг ўзига хосликларини ҳисобга олиш; - шахс ривожини башорат қилиш (прогноزلаш); - ривожланишни, уни коррекциялашнинг индивидуал дастурларини лойиҳалаш муҳим. Ўқувчиларга мустақил билиш, фикрлаш ва ижодий изланишга мажбур қиладиган, муаммоли ҳаётгий далилларга асосланадиган вазиятли топшириқларни бериш мақсадга мувофиқдир. Ўқувчилар топшириқларни ижодий фикрлаш ва мустақил ишлаш орқали бажаришлари лозим. Ўқитувчи ва ўқувчи мулоқотида компетентли ёндашув алоҳида аҳамият касб этади. Умуман олганда *компетентли ёндашув* – таълим ва тарбия ривожланиши ва гуллаб-яшнаши учун асосий омилдир.



## МАКТАБДА КИМЙО ФАНИНИ О‘ҚИТИШДА YANGI INNOVATSION TEXNALOGIYALARDAN FOYDALANISH

**Temirova Gulchexra Eshpo‘lotovna**

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani  
39-sonli ayrim fanlar chuqur o‘rganiladigan  
ixtisoslashtirilgan maktab internati kimyo fani o‘qituvchisi  
telefon+998990785217

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kimyo fanini o‘rganishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning o‘ziga xos ahamiyati yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** kimyo, innovatsiya, innovatsion ta’lim.

Hozirgi kunda dunyo miqyosida sodir bo‘layotgan tub o‘zgarishlar ta’limga, kadrlar tayyorlash tizimiga, barkamol avlodni tarbiyalash jarayonlariga yangicha yondashuvni talab etmoqda. Ta’lim samaradorligini oshirish, shaxsning har tomonlama kamol topishini ta’minlash, yoshlarning mustaqil bilim olishlarini samarali tashkillash uchun ta’lim muassasalarida, ayniqsa boshlang‘ich ta’limda o‘z sohasidagi mustahkam egallangan bilimlarni darsda qo‘llashdan tashqari, zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta’lim – tarbiya jarayoniga keng tadbiiq etish kabi vazifalar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Kimyo to‘g‘risidagi ma’lumotlarni dastlab biz boshlang‘ich sinfda o‘tkaziladigan tabiatshunoslik fanida o‘rganamiz, keyinchalik katta sinflarda kimyo fani orqali o‘rganamiz. Ta’lim berish jarayonida albatta har bir o‘qituvchi pedagogda “qaysi yo‘l, qanday usul va metodlardan foydalanib dars o‘tilsa, dars jarayonida o‘quvchilarning darsga qiziqishini yanada orttirib, ularning faolligini yanada oshirish mumkin” degan haqli savol tug‘iladi. Shunga ko‘ra, bu borada chet ellarda va O‘zbekistonda qo‘llanilib kelinayotgan pedagogik innovatsion texnologiyalarni o‘rganish va ularga ijodiy yondashgan holda ta’lim tizimida qo‘llash ishlari jadal olib borilmoqda. Bu esa tabiiyki, o‘qituvchilardan darslarga ijodiy yondashgan holda “innovatsiya”, ya’ni “yangilik” kiritish ustida bosh qotirishni talab qiladi. Zamonaviy innovatsion texnologiyalarining usullari juda ko‘p, lekin ularni har bir fan o‘qituvchisi dars davomida qo‘llashda o‘ziga xos xususiyatlari inobatga olishi lozim. Bu innovatsion ta’limning o‘ziga xos xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

O‘quvchilarni dars davomida befarq bo‘lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga yo‘naltirish; O‘quvchilarni o‘quv jarayonida bilimga bo‘lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo‘lishini ta’minlash;

O‘quvchilarni bilimga bo‘lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirish;

O‘qituvchi va o‘quvchining hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi.

O‘z navbatida, innovatsion ta’lim tizimli texnologik yonlashuvlar asosida ta’lim shakllarini qulaylashtirish natijalarini kafolatlash va obyektiv baholash uchun inson salohiyati hamda texnik vositalarning o‘zaro ta’sirini inobatga olib, ta’lim maqsadlarini oydinlashtirib, o‘qitish va bilimni o‘zlashtirish jarayonida qo‘llaniladigan usul va metodlar majmuidir. Bu esa bilim maskanlarida moddiy texnika bazasi mustahkamlanib, kompyuter texnikalari, laboratoriya

jihozlari bilan ta’minlashini taqazo etadi. O‘qituvchilarning innovatsion faoliyati o‘quvchining ichki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, o‘qish va o‘rganish motivlarini paydo bo‘lishi bilan belgilanadi. Yuqori sinf o‘qituvchisida innovatsion faoliyatini ro‘yobga chiqarishda eng muhim komponentlardan biri yuksak professionalizm, kasbiy intellektual yetuklik va kasbiy mahurat yuqori darajada bo‘lishi zarur. Bu esa o‘qituvchidan nafaqat bilim va mahoratni, balki innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda dars o‘tish mahoratini ham talab etadi

Xulosa qilib aytish mumkinki, katta sinflarda kimyo fanini o‘qitishda o‘qituvchining innovatsion faoliyati o‘quvchining dastlabki layoqati, imkoniyatni aniqlash, unda ilmga ehtiyojni vujudga keltirish, bilim va malakalarni shakllantirishga qaratilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tolipov O‘., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. - T.: Fan, 2005.
2. Xolmuxammedov M.M. va boshqalar. Ta’lim pedagogik texnologiyalari. Uslubiy qo‘llanma.– Samarqand, 2005.



## “IZHORUL HAQ” JURNALIDAGI MAQOLALARNING MAVZUVIY TASNIFI.

**To‘rayeva Muhayyo Qurbon qizi**  
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent  
davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti  
Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik  
mutaxassisligi 2-bosqich talabasi

**Anotatsiya:** ushbu maqolada “Izhorul haq” jurnalidagi maqolalarning mavzuviy tasnifi, ularda yoritilgan masalalar haqida ma’lumot berilgan.

**Аннотация:** В статье описана тематическая классификация статей в журнале «Ижорул Хак» и затронутые в них вопросы.

**Annotation:** This article describes the thematic classification of articles in “Izhorul Haq” magazine and the issues covered in them.

**Kalit so‘zlar:** Rishvatxo‘rlilik, majalla, talon, g‘orat, jadid

Milliy uyg‘onish davri adabiyotimiz tarixining XIX asr ikkinchi yarmi Xasr boshlaridagi 50-60 yillik davrini qamrab oladi. Mohiyatan bu davr mumtoz adabiyot bilan hozirgi adabiyot o‘rtasida ko‘prik bo‘lgan davr. Yangi adabiyotning shakllanish davri. Vatanimizda jadidchilik harakati shaklida namoyon bo‘ldi. Ana shu davrda ma’rifatparvar jadidlarimiz tomonidan bir qancha gazeta, jurnallar, adabiyotlar, o‘quv qo‘llanmalar chop etildi.

Turkistonda dastlabki matbuot nashri chor Rossiyasi bosqinchilarining rus tilida chop etiladigan “Туркистанский ведомости” gazetasi bo‘lib, u 1870-yilning 28-aprelidan 1917-yilning 15-dekabrigacha bo‘lgan faoliyati davrida asosan mustamlakachilar siyosati va mafkurasini targ‘ib qilgan. Aynan o‘zbek va qirg‘iz tillarida chop etilgan “Turkiston viloyatining gazetasi” ham “Туркистанский ведомости”ning o‘zbekcha nusxasi bo‘lib, farqi mustamlakachilarga xizmat qilayotgan mahalliy ijodkorlar tomonidan tayyorlanib, nashr etilayotganida edi. Zero, targ‘ibu-tashviq ham mustamlakachilar mafkurasi bo‘yicha bo‘lib, “.. ведомости”-dan o‘zbekcha chiqayotganligi bilan ajralib turardi.<sup>1</sup>

Cho‘lpon ta’biri bilan aytganda, “Turkiston viloyatining gazetasi” istilo etilgan generallar tarafidan nashr etilgan, ruslig‘ning shavkat va saltanatini ko‘hna madrasalarning tumtaroq tili ila osmonlarga chiqargan bir gazeta edi».<sup>2</sup>

Avloniy esa “...bu gazeta-Turkiston o‘zbeklari uchun birinchi gazeta bo‘lg‘oni kabi yerlik xalqni razolat, safolatga boshlag‘on tarixiy bir qora guruh gazeta. Bu maorif madaniyatiga dushmon bo‘lg‘oni hamda tabiiy el orasig‘a bid‘at, xurofot tarqatishqa bor kuchi bilan kirishgan va bu yo‘lda bir qancha muvaffaqiyatlarga uchrag‘on edi”, deya jadidlar nuqtai nazaridan “Turkiston viloyatining gazetasi” ga baho bergandi.

Shunday vaziyatda bor haqiqatni yozadigan, milliy kayfiyatni ifodalaydigan sof o‘zbekcha nashrga ehtiyoj tug‘ilayotgan edi. Zero, bu paytga kelib, Behbudiy, Avloniy, Cho‘lpon, So‘fizoda va yana ko‘plab qalamkashlar matbuot maydonida qad rostlab turar, ularning “Turkiston viloyati gazetasi” ga yozganlari missioner Ostroumov tomonidan “qaychilanib” chiqarilar, ba’zi paytlarda esa chop ham etilmasdi.

Bularning barini ko‘rib, sezib yurgan va o‘zbek xalqi qarashlarini ifodalaydigan milliy gazeta ehtiyoj tug‘ilganini anglagan Ismoil Obidiy 1906-yil 27-iyundan “Taraqqiy” nomli milliy o‘zbekcha gazetaga asos soldi. Gazeta Toshkentdagi V.Ilinning xususiy bosmaxonasida bosilib, O‘rta Osiyoga tarqatilgan. Bu nashr o‘z faoliyatini atigi ikki oy-u bir hafta davom ettirgan bo‘lsa-da, shu vaqt ichida ziyolilar e’tiborini qozonib, hukumat va aqidaparast ulamolar, tanqidni jini suymaydigan kishilar quvg‘iniga uchradi. Natijada to‘rt marta sudga berilib, mol-mulki musodara etildi. U o‘zbek matbuotiga asos solgan Ismoil Obidiyning “Taraqqiy” gazetasi edi...

Ismoil Obidiyning “Taraqqiy” gazetasi birinchi o‘zbek milliy matbuot nashri sifatida tarixda qoldi. Bu gazeta va Ismoil Obidiy haqida ko‘plab shu davr ma’rifatparvarlari ham o‘zlarining mulohazalarini turli o‘rinlarda aytib o‘tadilar. Masalan, Abdulla Avloniy 1924-yil 24-iyundagi “Turkiston” gazetasida yozgan maqolasiga ko‘ra, “ gazeta muharriri Ismoil Obidiyga Taraqqiy

<sup>1</sup> Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 1993. – 191 б.

<sup>2</sup>Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 1993. – 191 б.



ismi berildi. Hozirgacha xalq Ismoil Obidiyning ismini Taraqqiy deb yuritadir. Bu gazeta elning eng suyub o'qiydurg'on bir gazetasi bo'la oldi. Bu gazeta o'sha zamon musulmon gazetalari ichida eng so'li bo'lib, hukumat va uning ma'murlarig'a qarshi hujum ochdi. Bu gazeta yerlik yosh yozuvchilarg'a sahifasidan keng o'rin berdi. Istibdod hukumatining favqulodda saqlash qo'li bilan bu gazeta o'ldirildi. Xalq oziqsiz qolib, uzoq vaqt jimjitlik hukm surdi".<sup>1</sup>

Milliy uyg'onish davri matbuotida eng avvalo ma'rifatparvarlik, ilm-fan va xalq ma'naviyatini o'stiruvchi, ularni savodxonlikka chorlovchi maqolalar yoritilgan.

Bu davr matbuoti namunalari bir qanchasi bugungi kungacha o'rganilgan bo'lib, ba'zilar esa hali hanuz noma'lumligicha qolmoqda. Ana shu haqida filologiya fanlar doktori Q.Pardayev shunday deydi: "Oyina", "Sadoi Turkiston", "Sadoi Farg'ona", "Hurriyat" singari mashhur matbuot nashrlarida chop etilgan adabiyot materiallari anchagina o'rganilgan, biroq "Al-Izoh", "Al-Isloh", "Izhor ul-Haq" jurnallari haqida bunday deb bo'lmasligini, ulardagi adabiyot materiallarining adabiy manbashunoslik va matnshunoslik aspektida tadqiq qilinishi, ularning XX asr adabiyotida tutgan o'rni va maqomi belgilanishi dolzarb ilmiy muammolardan biridir"<sup>2</sup>

1918-yilda Mulla Sadridinxo'ja tomonidan Toshkentda chop etilgan "Izhorul haq" jurnali ham an shu davrlarda yaratilgandir. Ushbu jurnal asosan diniy masalalar chop etilganiga qaramay ba'zi xalqni ilm ma'rifatga undaydigan maqolalar chop etilgani bilan ham diqqatga sazavordir.

Vatan avlodi ho g'ayrat qiling tahsil irfonni

Maorif bir ziyodurkim qilur tanvir vijdonni

kabi xalqni ilm ma'rifatga chorlaydigan baytlar ham uchrab turadi.

Yotursan tabki g'aflatda ey Turon uyon Turon

Hamma eldin qolub san'atda ey Turon uyon Turon

U elda jahona chun ilm va fanni tarqatding

Nadin o'lding hayratda bu kun ey Turon uyon Turon

Bukub tiz titrar erdi bir zamonlar zamon ahli

Silohingdin dushub daxshatda ey Turon uyon Turon

Hozirda Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universitetining qo'lyozmalar fondida ushbu jurnalning 16 ta soni saqlanmoqda. Jurnalning 1-soni 8-jumadul avval 1334-hijriy sanada, 1918-yil 1-fevral milodiy sanadan boshlab nashr qilina boshlagan. Kotibi Muallim mulla Usmon, noshiri "Madaniyat" shirkati, mas'ul mudir mulla Muhammad Mahdiyxon A'lam ibn mulla Muhammad Hodiyyon, adressi Eski Toshkand "Izhorul haq" majallasining idorasi, G'ulomiya bosmaxonasida bosilgan, Toshkentga bir yillik bahosi 18 so'm, 6 oylik 10 so'm, uch oylik 6 so'm, bir nusxasi 50 tiyin, atrofga bir yillik bahosi 20 so'm, 6 oylik 12 so'm, uch oylik 7 so'm, bir nusxasi 50 tiyin. Jurnal haftada bir marta nashr qilingan bo'lib, unda diniy, ilmiy, adabiy, fanniy va siyosiy mavzudagi maqolalar chop etilgan. Jurnalda asosan dinga oid masalalar yoritilgan. Hozirda jurnalning o'zbek tiliga tabdilini Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU matnshunoslik va adabiy manbashunoslik mutaxassisligi 2-bosqich magistrantlari, xususan Asrorov Kozimxon amalga oshirmoqda.

**Diniy mavzudagi maqolalar:** "Iyqoz", "Dafia tahlika", "Rishvatxo'rlik", Jamiyati xayriya xazinachisi: Husanxo'ja Dodaxo'ja o'g'lining "Istifto", "Kasb kayfiyatidinu anvo'idin va ag'niyolarning ochlarga muomalasidin istifto qilg'uvchilarga javob", Fuqaho jamiyatining "Bobul fatvo", Fuqohoi jamiyyati "Mullo Siddiq ibn Sobirxon hoji suolig'a javob", Hayyon Buzrukhonzoda "Ittafaqol muslimuna ala alla yattafiq", "Targ'iyb us-solat", Abdullohbek "Bayoni haq"

**Siyosiy mavzudagi maqolalar:** "Yevrupa muhorabasidin islom olamiga bo'lg'on natijalar", "Talon va g'orat zarari", Muhammad O'run muftiy Do'stmuhammadzoda "Jamoatg'a xitob", Mulla Muhammad O'run mudarris Do'stmuhammadzoda "Jamoatg'a xitob" maqolasi, siyosat, Miyonbuzruk "Bahoiylar harakati", **Adabiy mavzudagi maqolalar:** Sobirjon G'oniyzodaning "Vatang'a xitob maqolasi, Rofea Mo'miniy "Yetim og'zidan" B. Aziziy "Muxtaram maqsudiy afandig'a javob", "Tarix" Bahridin al Azmiy al Aziziy, Qayg'u, ey Turon uyon Turon(Mirmaqsudiy), mulla Sirjiddin Mahdum "Sidqiy" Xondaliqiyning "E'lonlar"

**Mushtariylardan kelgan maqolalar:** Ahmadiy Samarqandiyning "Tabrik", mulla Sobirg'aniyzoda "Idorag'a maktub", Mulla Rahimjon jurnalning 4-sonida ocharchilik zamonidagi isrof-garchiliklar, dinimizga zid bo'lgan shirk ishlar haqida so'z yuritilgan. "chunonchi bir xotun

<sup>1</sup> Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 1993. – 191 б.

<sup>2</sup> "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi 2010 yil 27-soni 5-bet.



kishi o'lsa oning har turli ziynat asboblari birlan kiyinturub biror kun uyda soqlaydurlar. O'luk chiqarulg'ondin so'ng bu asboblarning hammasi yuvg'uchi xotunga berilur. Yana mundin boshqa (o'luvchi yosh kelin bo'lsa) mana bu kelining sarposi deyub necha bosh harir va yaxshi kiyimlardin berilur. O'luk chiqg'on uyda otunlar baland tovushlar birlan har turli abyotlarni o'qub o'lukning qarindosh xotunlarini yig'iga solurlar. Ammo o'zlari fursatdin istifoda etub tang ava chaqalarga kissalarini to'ldirub olur".<sup>1</sup>

Siyosiy mavzudagi "Yevrupa muhorabasidin islom olamiga bo'lg'on natijalar" maqolasi orqali Shukurjon islomiyatning dastlabki davrlarlarida musulmon davlatlarida ilm va hunar taraqqiy qilganligi, tijorat sanoat va ziroatning taraqqiy qilishi natijasida Oq dengiz, Sahroyi Kabir, Sibiriyya cho'llaridan Hindistongacha bo'lgan hududlar musulmonlar qo'lida bo'lanligi, xatto, Yevropaliklar ilm olish uchun Bag'dod va Andalus kabi shaharlarga kelganligi, keyinchalik, Yevropada ilm fan taraqqiy qilib musulmon davlatlarini egallab olib ular ustidan hukumronlik qila boshlaganligi, bundan Turkiya, Eron, Afg'on davlatlari o'z mustaqilligi uchun kurashigani kelajakda ana shu Hurriyat va imtiyozlarini saqlab qolganliklari haqida so'z yuritilgan.

Noshir tomonidan yozilgan "Rishvatxo'rlik" (sudxo'rlik) haqidagi maqolada chor hukumati zamonidagi sudxo'rlikning avj olganligi, natijada hamma odam o'z ishini shu yo'l bilan to'g'irlashga harakat qilganliklari, aslida, bu xarom ish ekanligi va uning oqibatlari Fuzuliy g'azallari va Qur'on karim oyatlari bilan izohlangan. "Alloh taolo la'nat qilur rishvat beruvchiga, rishvat oluvchiga va ham ikki orada vosita bo'lgan kishiga" kabi oyati kalimalarni keltirgan.

Jurnalning 6-sonida Miyonbuzruk qalamiga mansub "Talon va g'orat zarari" mavzusidagi maqola uchraydi. "Ko'r nekim baxtsiz "Turkiston" musulmonlari xon va bek zamonlarida bir-birlarini taladilar. Ma'muri obod shaharlarni vayron etdilar. Minglarcha ma'sum begunoh qonlarini to'kdilar. Na balolarg'a yo'luqdilar. Butun mamlakat va davlatdin ayrilub mahkum va asir o'lub qoldilar."<sup>2</sup> Deb talon-taroj qilish va bosqinchilikning zarari haqida yozadi. Bundan qaytaradigan yagona qonun esa Islomdir deya Qur'oni karim oyatlaridan va Rasululloh (s.a.v) hadislaridan misollar keltirib izohlaydi.

Jamiyati xayriya xazinachisi: Husanxo'ja Dodaxo'ja o'g'lining "Istifto"(fatvo so'rash) nomli maqolasida qimmatchilik zamonida odamlarning ochlikdan o'layotganligi va ularni ba'zan bir qabrga yoki eski qabrlarning o'rniga kafansiz ko'milishi haqida fuqahoi kiromlarning shar'iy hukmi haqida savol berilgan. Ana shu masalaga javoban Javang Mirzo fikr bildirgan.

Fuqaho jamiyati "Mulla Rahimjon savolig'a javob" maqolasida diniy diniy masalaga bag'ishlangan bo'lib, aza va to'y marosimlaridagi shirk va bid'at ishlar haqida to'xtalinadi.

Xulosa qilib aytadigan bulsak ushbu jurnaldagi maqolalar xoh adabiy bo'lsin xoh tarixiy, siyosiy, ilmiy bo'lishiga qaramasdan hammasi din bilan chamarchas bog'liqdir. Jurnaldagi har bir maqola payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) hadislarini Qur'oni karim oyatlari bilan tushuntirilgan va bog'langandir. Qur'on faqat islom dinining asosi bo'lib qolmay, balki falsafiy, huquqiy, ijtimoiy, axloqiy masalalarni atroflicha qamrab olgan bebaho sarchashma hamdir. Unda ota-ona, oila, qarindosh-urug', jamiyatning boshqa a'zolariga hurmat, do'stlik, birodarlik, o'zaro munosabatlarda halollik, poklik, to'g'rilik, yetim-yesir, kambag'al-miskinlarga muruvvat, birovning haqini yemaslik, omonatga xiyonat qilmaslik kabi juda ko'p umuminsoniy g'oyalar o'zining mukammal ifodasini topgan.

Jurnalda turkiy so'zlardan tashqari, arabiy, forsiy so'zlar ham uchraydi. Ushbu jurnalning o'rganilishi o'sha davrdagi tuzum, dinga, adabiyotga bo'lgan munosabatlarni yana bir bora ayonroq bilishimiz uchun xizmat qiladi deb o'ylaymiz.

### Adabiyotlar ro'yxati

1. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 1993. – 191 б.
2. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasining 2010 yil 27-soni 5-bet.
3. Izhorul haq 4-juz "Madaniyat" shirkati
4. Izhorul haq 6-juz "Madaniyat" shirkati
5. www.ziyouz.com.
6. www.ziyonet.uz.  
www.adabiyot.uz

<sup>1</sup> Izhorul haq 4-juz "Madaniyat" shirkati

<sup>2</sup> Izhorul haq 6-juz "Madaniyat" shirkati



## BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA O‘QUVCHILARNING AQLIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOSI

**Toshmatova Yulduz Olloqulovna**

Termiz davlat universiteti magistratura talabasi

**Annotatsiya.** Maqolada o‘quvchilarning aqliy faoliyat muammosi, uning dolzarbligi, yurtimiz va xorij olimlari tomonidan o‘rganilganligi tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich ta’lim, o‘quvchi, aqliy faoliyat,

Bugungi kunda jahon hamjamiyatida ta’lim sohasiga e’tibor har qachongidan ham kuchayib bormoqda. Rivojlangan mamalakatlarining ta’lim sohasidagi tajribalarini o‘rganib, tahlil qiladigan bo‘lsak, ularning rivoji hissasiga har tomonlama yetuk, intellektual salohiyatli, kreativ fikrlovchi, yangiliklarga intiluvchan, vatanparvar, o‘z sohasining yetuk bilimdoni bo‘lgan yoshlarning o‘rni kattadir. SHu boisdan ijodkor, kashfiyotchi yoshlarni tarbiyalash borasidagi chet el tajribasini o‘rganar ekanmiz ta’limning asosiy poydevori bo‘lmish maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarning aqliy qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish borasidagi ilmiy-amaliy yutuqlarni ta’kidlab o‘tish joiz.

Yosh avlod ta’limi va tarbiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar birgina oila yoki maktab muammosi emas, balki bu davlat ahamiyatidagi masalalardan biri hisoblanadi. Zero, mamlakatimiz Prezidenti SH.Mirziyoev ham 2020 yil 29-dekabrda Oliy Majlisga murojaatnomasida ham mazkur jihatga alohida to‘xtalib o‘tdi va quyidagi fikrlarni bildirdi: “Umuman, har qanday jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta’minlaydigan yosh avlodning sog‘lom va barkamol bo‘lib voyaga yetishi hal qiluvchi o‘rin tutadi. SHu sababli biz islohotlarimiz ko‘lami va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azmu shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz [1, 2 b.].

Boshlang‘ich ta’lim uzluksiz ta’lim tizimining eng muhim va murakkab bo‘g‘ini hisoblanadi. Bolalar bu bosqichda elementar o‘qish va yozish, hisoblash, tabiat bilan yaqindan tanishish, o‘zligini anglash kabi ijtimoiy hayot uchun muhim bo‘lgan ko‘nikma va malakalarni egallashga muvaffaq bo‘ladilar. Ma’lumki, har qanday ta’lim muayyan ijtimoiy buyurtma asosiga quriladi hamda shu buyurtmadan kelib chiqqan holda uning mazmuni, maqsad va vazifalari belgilanadi. Mamlakatimizda umuman ta’limga, jumladan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishda matematika, ona tili va jismoniy tarbiya ta’limiga bo‘lgan e’tiborni alohida ta’kidlab o‘tish joiz.

Ta’lim jarayonida shaxs dunyoqarashi va tafakkurini barqaror rivojlantirishning nazariy-tarixiy asoslari qadimgi manbaalar hamda Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, A.Navoiy kabi SHarq mutafakkirlarining qomusiy asarlarida yoritib berilgan.

A.G.Maklakov, B.C.Muxina, M.M.Bezrukin, L.S.Vigotskiy kabi rus olimlari kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar tafakkurini shakllantirishning psixologik jihatlarini, uning nazariy-amaliy asoslarini izchil tahlil qilganlar. Bu boradagi pedagogik ilmiy tadqiqotlarni I.S.Yakimanskiya, P.Y.Galperin, A.B.Zaporojets kabi olimlar ham olib borganlar. Ularning tadqiqotlari natijasida kichik maktab yoshidagi bolalarning aqliy qobiliyatlarini interaktiv metodlar, nutqiy o‘yinlar va o‘quv tarbiya jarayonini tabiat bilan bog‘lagan holda olib borish yordamida rivojlantirish mumkinligi ko‘rsatilgan.

O‘quvchilar aqliy qobiliyatini rivojlantirish orqali ularning tafakkurini shakllantirish muammosining psixologik hamda pedagogik talqini o‘zbek olimlaridan M.Davletshin, E.G‘oziev, A.Jabborov, P.I.Ivanov, Z. Nishonova, O.Musurmonova, O.Xasanboeva, B.X.Xodjaev kabi olimlar tomonidan atroflicha o‘rganilgan va tahlil qilingan.

Ushbu muammoni tadqiq etar ekanmiz, dastlab uning tarixiy ildizlariga nazar tashladik. O‘rganilgan manbalar tahlili shundan dalolat berdiki, yosh avlodning aqliy faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish masalalari dastlab SHarq allomalarining ilmiy ijod namunalari ko‘zga tashlanadi.

SHarq mutafakkirlari o‘z asarlarida bilish hamda inson aqliy tafakkuri masalalariga alohida o‘rin bergan. Xususan, *Abu Nasr Forobiy* inson tomonidan borliqni anglanishi, tabiat sirlarini anglashida ilm-fanning rolini hal qiluvchi omil sifatida baholaydi [2, 45 b.]. Allomaning fikricha, inson tanasi, miyasi, sezgi organlari u tug‘ilganda mavjud bo‘lgan bo‘lsa, aqliy bilimi,



ma'naviyati, ruhiyati, intellektual va axloqiy sifatlari, xarakteri, ma'lumoti tashqi olam, ijtimoiy muhit ta'sirida, odamlar bilan tashkil etayotgan munosabatlari jarayonida shakllanadi.

Allomaning mazkur fikrlarini davom ettirgan holda Abu Rayhon Beruniy quyidagilarni ilgari suradi: «Inson narsa va hodisalarning faqat tashqi sifati hamda xususiyatlari haqida bilim olmay, balki tafakkuri, aqli tufayli narsa va hodisalarni taqqoslaydi, bir-biri-bilan solishtirib ko'radi, o'z bilimlarining chinligini aniqlaydi».

Ibn Sino aql va aqliy tarbiyaning tabiiy va psixologik asoslarini aniqlashga xarakat qiladi. Uning fikricha, xayot, xayotiy quvvat uch shaklda: o'simlik, xayvonot va inson shaklida namoyon bo'ladi.

Davoniyning fikricha, aql ijtimoiy hayotning barcha sohasida, xoh davlat ishida, xoh ilmni o'rganishda, xoh ijobiy xulq-odob qoidalarini egallashda bo'lsin, xoh shirinsuxanlik, she'riyatda bo'lsin, faol qatnashadi. Uning bu aqidasi, ya'ni aqliy bilishga tayanishi ilm-fan, ma'rifat, ta'lim-tarbiya va axloq masalalarini talqin etishida ko'proq namoyon bo'ladi.

Pedagogik-psixologik adabiyotlarda insonning aqliy qobiliyati uning intellekti sifatida qaraladi. Intellekt mohiyatini tushuntirishda fan olamida ikki xil yondashuv vujudga kelgan. Birinchi guruh vakillarining qarashlaricha, intellektual xususiyatlar odamga tabiiy ravishda nasliy yo'l bilan otionalari tomonidan beriladi. Ikkinchi guruh namoyondalari esa intellektni bola idrokining tezligi va tashqi qo'zg'atuvchilarga nisbatan munosabati bilan bog'lab tushuntirganlar. Demak, kichik sinf o'quvchilarining aqliy faoliyatini rivojlantirishda ularning yosh va individual xususiyatlari, qiziqish va ehtiyojlarini inobatga olish hamda mazkur faoliyatda o'qitishning samarali shakl, metod va vositalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy majlisga murojaatnomasi. Xalq so'zi gazetasi. 30.12.2020 yil, №276, 6 b.
2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. T.: Xalq merosi, 1993, 76 b.
3. Zunnunov A. Pedagogika tarixi. T.: Sharq, 2000, 105 b.



## ТАЛАБА ЁШЛАР ЗИЁРАТ ТУРИЗМИНИНГ ИЖТИМОЙ-ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ

Усмонова Гулнора Баходировна

ГУЛДУ. Педагогика ва Психология йўналиши

2-босқич магистранти

Телефон: 99 899-474-86-26

**Аннотация:** Талаба ёшлар онги ва тафаккурини бойитиш, уларнинг маънавиятини бойитишда аждодларимиз қолдирган маънавий ва моддий меъросни чуқур ўрганиш муҳим аҳамиятга эга. Ушбу мақола айнан шу борада яъни, талаба ёшлар зиёрат туризмини ривожлантиришнинг ижтимоий-педагогик ва психологик омилларига бағишланади.

**Калит сўзлар:** Зиёрат туризми, талаба ёшлар, педагогика, психология, маънавий ва моддий меърос, табаррук қадамжолар.

Биз озод-обод ва фаравон юрт фарзандларимиз. Ватанимизда инсонлар эрки, ҳақ-ҳуқуқлари, маънавияти, онг-шуури ҳамиша энг олий ўринда туради. Юртимиз ёшлари янада маънан тараққий этиши учун, мамлакатимиз ёшларига барча имкониятлар, шарт-шароитлар яратилган. Ёшлар таълим-тарбияси, маънавияти, маданияти, ақлий салоҳияти, дунёқараши кабиларни юксалтириш, уларни ҳақиқий чин инсон қилиб вояга етказиш мамлакатимизда қўйилаётган энг олий мақсадлардан бири. Буни янада такомиллаштириш мақсадида барча таълим муассасалари ходимлари фаол тарзда иш олиб бормоқда. Яна бундан ташқари ёшлар маънавиятини ривожлантириш учун нима ишлар қилмоқ керак?- деган савол туғилади.

Биз буюк юрт фарзанди бўлишимиз билан бирга буюк, номлари дилда ўчмас, ўз меҳнатлари, ижодлари билан ўзларидан бекиёс из қолдирган аждодлар авлодимиз. Уларнинг маънавий-моддий меъросини ўрганиш, уларнинг ҳаёт йўллари олиб борган фаолиятларини, изланишларини, улар қолдирган билимларни чуқур ўрганиш албатта ёшларнинг илмий салоҳиятини ошириш билан биргаликда, ақли, онги, тафаккури, маънавий дунёқараши янада юксалади, зехни-идроки тараққий этади. Бу ўз навбатида талаба ёшларда тафаккурини бойитиб уларни юксак марралар томон чорлайди. Бу шуни кўрсатадики, аждодларимиз ўзларининг меҳнатлари самараси изи орқали ҳозирги ёш авлод онг-шуурига ҳам ижобий педагогик ва психологик таъсирини ўтказади. Талаба шахсида шу орқали такомиллашган мотивацияга эга бўлишига сабаб бўлади. Шундай экан, аждодларимизнинг бой маданиятга эга маънавий ва моддий меъросини ўрганиш билан бирга уларни асраб-авайлаш ҳам муҳим вазифамиздир. Зеро, биз ёшларга маънавий нафи тегаётган, ҳамда тафаккуримизга ижобий таъсир этаётган маънавий ёдгорликларимиз келгуси ёш авлодлар таълим-тарбияси, онг-шуури бойишида ҳам хизмат қилсин.

Кўп асрлик миллий ва диний қадриятларимизни асраб-авайлаш, дунё илм фани ва маданияти ривожига улкан ҳисса қўшган аждодларимизнинг бебаҳо меъросини ўрганиш, унинг асосида ёшларни комил инсон этиб тарбиялаш жамиятда барқарор ижтимоий- маънавий муҳитни таъминлашнинг муҳим шартларидан бири ҳисобланади.

Марказий Осиё давлатлари хусусан, Ўзбекистонда туризмнинг барча турларини ривожлантириш имкониятлари юқорилиги билан ажралиб туради. Қадимий обидалар, муқаддас зиёратгоҳлар, тарихий ва маданий ёдгорликлар билан бир қаторда, бетакрор маданияти ва анъаналари, хушманзара табиати ҳамда файзли гўшалари билан сайёҳларни ўзига ром этиб келаётган мамлакатимизда туризм йўналишини янада ривожлантириш муҳим аҳамият касб этмоқда. Туризм инфратузилмасини ривожлантириш, хизмат кўрсатиш сифатини янада юксалтириш, малакали кадрлар тайёрлашга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Шу мақсадда Ўзбекистон халқаро ислом академияси “Ислом иқтисодиёти ва молияси, зиёрат туризми” кафедраси ҳам тузилган. Бу таълим масканида талабаларга зиёрат туризмини ривожлантириш имкониятлари ва туризмни ривожлантириш маҳорат дарслари олиб бериладиган.

Туризм соҳасининг бир неча турлари мавжуд. Масалан,

- Зиёрат туризми
- Гастрономик туризм
- Спорт туризми



- Экологик туризм
- Тиббий туризм
- Ёшлар туризми
- Экстремал туризм
- Ёши катталар туризми
- Этнографик туризм
- Туризмнинг бошқа турлари.

Зиёрат туризми Ўзбекистон туризм салоҳиятининг энг асосий устунларидан бири ҳисобланади. Табаррук қадамжоларга саёҳатчиларни жалб қилиш ва туризмнинг бу тури салоҳиятга эга. Бунинг учун эса ислом дини бўйича билимга эга бўлган араб ҳамда инглиз тилини биладиган гид-таржимонларни тайёрлаш, юртимиз бўйлаб муқаддас зиёратгоҳларни ўзида мужассамлаштирган ягона туризм маршрутни ишлаб чиқиш керак. Зеро, транспорт муаммосини ҳал этмасдан туриб нафақат зиёрат туризми, балки туризм соҳасини ривожлантириб бўлмайди.

Талабалар муқаддас қадамжоларга ташриф буюрар экан, нафақат талаблар балки ҳар бир юртдошимиз уларни кўздан кечириб қалбида фахр-ифтихор туйғуси пайдо бўлади. Кўнглида янада эзгу туйғулар мавжланади. Айниқса, улар қолдирган китоблар асарлар инсон маънавиятини тубдан эзгуликларга, буюкликка чорлайди. Муқаддас қадамжоларда акс этган тасвирларнинг ҳар бири ўз мазмун моҳиятига эга.

Умуман олганда туризм қандай пайдо бўла бошлади? Маълум бўлишича 1909- йилнинг ёзида олмониялик Ричард Ширман шогирдларин бир неча кунга тоғ ёнбағрига саёҳатга олиб чиқади. Қуюқ дарахтзор, мовий кўл, ястаниб ётган кенгликлар, турфа ўсимликлар ва табиат ажойиботлари ёш сайёҳлар кўнглига олам-олам завқ бағишлайди. Кечкурун момақалдинок гумбураб, ёмғир қуя бошлади. Ялангликда дам олаётган ёш сайёҳлар ёмғирдан қочиб, яқин ўртадаги қишлоқ мактабига киради. Ёмғир куни билан тинмайди. Ширман шогирдлари ухлаб олиши учун қулай шароит яратишга ҳаракат қилади. У ўшанда ўйлаб топган тўр пардалар билан бир-биридан ажратилган кичик ётоқхоналар ғояси кейинчалик бутун дунёга машҳур бўлиб кетади. Шу тариқа Германияда ёшлар сайёҳлик уюшмаси юзага келади.

Уюшма ташкил этилганига бу йил 110 йил тўлди. Айни пайтда Германияда 556 ёшлар туристик базаси мавжуд. Улар бир вақтда 75 мингдан зиёд сайёҳни қабул қилар экан йиллик меҳмонлар сони эса 4 миллионни ташкил этар экан. Ёшлар меҳмонхонасида бир кеча тунаш нонушта билан бирга ўн олти еврога тушар экан. Меҳмонхоналар асосан тарихий биноларда, эски қаср ва қалъаларда жойлашган бўлиб, барча зарур шарт-шароит яратилган. Бу-хориж тажрибаси. Хўш юртимизда-чи?

Осори-атиқаларга бой диёримиз сайёҳлик салоҳияти ва имкониятлари борасида дунёда ўзининг муносиб ўрнига эга. Самарқанд, Бухоро, Хива, Шахрисабз, Термиз каби қадимий шаҳарларимизни кўриш, бетакрор меъморий обидалар, табаррук қадамжоларни зиёрат қилиш, нодир табиат гўзалликларидан баҳраманд бўлиш, азалий анъана ва кадриятларимиз билан танишиш истагидаги сайёҳлар сони йилдан-йилга ортмоқда. Туризм хизматлари сифатини яхшилаш ва саёҳатчилар учун қулай шарт-шароитлар яратиш, хизмат турларини кўпайтириш, визасиз режимни жорий этишга доир меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилинганлиги, меҳмон уйлари, туризм қишлоқлари барпо этилаётгани соҳа ривожидан далолат. Аммо ёшлар туризмни жонлантириш бўйича нима ишлар қилинмоқда, деган табиий савол туғилади.

Ўзбекистонда ёшлар туризми учун зарур шароитлар яратилган, деб бўлмайди, - дейди Ўзбекистон Республикаси Туризмни ривожлантириш давлат қўмитаси бош мутахасиси. Юртимизга келаётган сайёҳлар орасида ёшлар жуда озчиликни ташкил этаётгани зарур инфратузилма яратилмаганини кўрсатади. Хориждаги ёшлар Ўзбекистон ҳақида кўп нарса билмайди. Шу боис ёшлар туризми стратегияси ишлаб чиқилмоқда. Ёшлар иттифоқи қошида Ёшлар туризми агентлиги фаолияти йўлга қўйилган ва имтиёзлар берилган.

Ёшлар туризми агентлиги маълумотига кўра, 2018-йил ва 2019-йилнинг январ-апрел ойларида жами 2 миллион 882 минг 823 ёш саёҳатга чиққан. Шундан 2 миллион 178 минг 405 нафари вилоятлараро, 704 минг 418 нафари туманлараро саёҳат қилган. Меҳрибонлик уйи тарбияланувчилари, кам таъминланган ва боқувчисини йўқотган оилалар фарзандлари ҳамда ёшларнинг фаол қатламларидан иборат жами 1 минг 785 ёш учун бепул саёҳат ташкиллаштирилган.



Мамлакатимиз аҳолисининг 60 фоиздан кўпроғини ёшлар ташкил этишини инобатга оладиган бўлсак, қамров у қадар катта эмас.

Президентимизнинг 2019-йил 13-августдаги “Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармонида биноан, ёшлар турзмини ривожлантириш концепсияси ишлаб чиқилиши кутилмоқда.

Ёшлар иттифоқи, Халқ таълими ҳамда Олий ва ўрта махсус таълим вазирликлари биргаликдаги фаолияти навқирон авлод вакиллариининг саёхат маданиятини ошириши, юртимизда ёшлар туризми тараққий этишига туртки бўлиши лозим. Зеро, ўтмиш билан фахрланиб, келажак сари шижоат билан дадил одимлашда туризмнинг ҳам ўрни ва аҳамияти бекиёсдир.

Юқорида зиёрат туризми инсоннинг ақли, салоҳияти ошишида нақадар салмоқли эканлигини келтириб ўтдим. Яна шу нарсани ҳам айтиб ўтишим жоизки, муқаддас қадамжолар, осори-атикалар, гўзал табиат манзалари ҳар қандай одамнинг кайфиятини кўтаради, руҳиятига осудалик бағишлайди, ғамгинлик ҳолатидан чиқишга ёрдам беради.

Мана англаганингиздек зиёрат туризмнинг самараси ва инсонларга тегадиган нафани юксак даражада. Шундай экан ёшлар зиёрат туризмини ривожлантиришда ҳар биримиз ўз ҳиссамизни қўшмоғимиз лозим.

#### Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон. 2014.
2. Баркамол авлод-Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори- Т.1997 й.
3. Каримов И.А “Юксак маънавият енгилмас”-Т.: Манавият,2008.176 б
4. Мошняга Е.В. Межкультурная коммуникация и диалог культур в сфере международного туризма- М. 2001. 17-23.



## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI O'YINLAR ORQALI TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH

Vosiyeva Feruza Ro'zimurodovna

Navoiy viloyati Karmana tumani

6-sonli umumiy o'rta ta'lim

maktabning boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinif o'quvchilarini didaktik o'yinlar orqali tafakkurini rivojlanishning o'ziga xos jihatlari, O'quvchiga bilim berish, har bir dars mazmunini boyitish, qiziqarli mashg'ulotlar, ta'lim jarayonida zamonaviy usuldan foydalanish haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** Tafakkur, didaktik ta'lim-tarbiya, bilim berish, ruhiy, ma'naviy-ahloqiy, intellektual, kasbiy salohiyat, metodlar.

Ta'lim jarayonidagi asosiy qiyinchiliklar o'quv faoliyatining shakllanmaganligi bo'lib, u yashirin psixologik qiyinchiliklarga tegishlidir. O'quvchi bu holatni sezadi, lekin u nima uchun shunday bo'layotganligini tushunmaydi va ifodalab bera olmaydi, shu sababli kattalarga yordam so'rab murojaat qila olmaydi. Bunday qiyinchiliklar mavhum bo'lib, ularning tabiati tushunarsizdir.

Bunday holatlarda ota-onalar va o'qituvchilar o'quvchiga yordam ko'rsatmasliklari achinarli holatdir, chunki ularning o'zlari ham o'quv faoliyati va uning tarkibiy tuzilmasining psixologik aspektlari bilan tanish emaslar. Bu nuqsonlarning yorqin belgilari – dangasalikda, qobiliyatning yo'qligida va boshqalarda nomoyon bo'ladi.

O'quv faoliyatining shakllanmaganligi ayniqsa to'rtinchi-beshinchi sinflarda, ya'ni ta'lim murakkabroq darajaga ko'tarila boshlaganda va o'zlashtiriladigan materialning o'sishi bilan ko'zga tashlana boshlaydi. O'quvchi, bu holatda qandaydir noma'lum to'siqqa duch kelganday bo'ladi.

Shu sababli boshlang'ich ta'limda o'quvchi yangi bilimlarni o'zlashtirishga ko'mak beruvchi o'ziga xos o'quv usullariga erishishi uchun, eng zarur shart-sharoitni yaratish, ya'ni o'quvchiga o'qishni o'rgatish lozim.

Bu vaqtga kelib, darsliklarda o'quvchidan zarur umumlashirishlarni amalga oshirishi, ya'ni ma'nosiga ko'ra guruhlariga ajrata olish shakllangan bo'lishi kerak. To'rtinchi sinfga kelib, ulardan erkin foydalana bilishi lozim.

Barcha yangi-yangi talablar, yangi qoidalar, predmetlar harakatlarining yangi normalari obektlarning shu paytgacha noma'lum bo'lgan qonuniyatlarini ochib beradi. Dunyo o'quvchi o'zlashtirishi kerak bo'lgan ilmiy bilimlar va tushunchalar tizimi bilan tartiblashtirilgan. O'quvchining tafakkuri ana shu yuqorida qayd etilganlarga hamda insonlar va buyumlar bilan o'zaro harakat tajribasiga yo'naltiriladi.

O'quvchi ilmiy tafakkurlashni umumiy o'rta ta'lim maktabida egallaydi, ilmiy tafakkur qilish bolani umummadaniy namunalarga, normalarga, etalonlarga, atrofdagi olam bilan bo'ladigan munosabatlar qonuniyatlariga yo'naltiradi. Son tushunchasi, so'z, badiiy obraz va boshqalar, ilmiy tafakkur asosini tashkil etuvchi obyektiv dunyo xususiyatlari bilan yangi harakatlar, munosabatlar bolaning shaxsiy tajribasi jarayonida ilgari egallanmaganlarini egallashga imkon beradi.

Birinchidan, o'quv jarayonining intensivkatsiyasi o'quvchilarda tafakkur faoliyatining turli tomonlarini rivojlantirish uchun vositalarni izlash vazifasini qo'yadi. Bu vazifani yechishning samarali vositasi – o'quv o'yinlari hisoblanadi.

Ikkinchidan, umumiy o'rta ta'lim maktabi tajribasini kuzatishlar, ko'pchilik o'qituvchilar o'yinlar metodini o'zlashtirgan emaslar, ular boshqa o'qituvchilarda o'zining ijobiy tomoni bilan nomoyon bo'lgan o'yinlar amaliyotidan foydalanmaydilar.

O'yinlar metodi maktab yoshigacha bo'lgan bolalarni ular uchun odat tusiga kirgan o'yin faoliyatidan o'quv faoliyatiga asta-sekinlik bilan o'tishni amalga oshiradi, bu o'tish jarayonini u unchalik sezilarlisiz va hech qanday qiyinchiliksiz o'tishga yordam beradi. Boshqa muhim jihatlardan birgalikda didaktik o'yinlarni o'tkazish metodikasini mukammallashtirishga va ta'lim jarayonida turli ko'rinishdagi qiziqarli o'yinli mashqlardan foydalanishga ham alohida



e'tibor qaratish zarur bo'ladi. Har bir o'qituvchi har bir o'yinning nima uchun mo'ljallanganligini, uning mazmunini yaxshi tushunishi, o'yinni har bir dars uchun mavzuni o'zlashtirishdagi aniq vazifalarini hisobga olgan holda tashkil qilishni, metodikasini o'ylab chiqishi zarurdir.

O'yin faoliyatining ahamiyati haqida alohida e'tibor qaratishgan "Shuni anglash juda muhimki, mazkur o'yin qanday didaktik masalani yechishga ko'maklashadi, qanday ruhiy holatlarni, jarayonlarni rivojlantirishga mo'ljallangan". O'yinlar faoliyatida bola uchun juda muhim bo'lgan to'rtta muhim jihatlari, funksiyalari ajratib ko'rsatilgan: motivatsion talab doirasida rivojlantirish vositasi; bilish vositasi; aqliy harakatlarni rivojlantirish vositasi; o'zini ixtiyoriy tutishning rivojlantirish vositasi.

Boshlang'ich maktab yoshidagi o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlanishida didaktik o'yinlarning ahamiyatini o'rganish. Ushbu maqsad maqolamizning quyidagi vazifalarini ifodalash imkonini berdi:

Xulosa o'rnida shuni aytmoqchimanki boshlang'ich ta'lim davomida o'quvchida nazariy tafakkur rivojlanadi, u yangi bilimlarga, ko'nikmalarga ega bo'ladi – o'zining keyingi ta'limi uchun zaruriy baza yaratadi. Lekin o'quv faoliyati bu bilan nihoyasiga yetmaydi: kichik maktab yoshidagi o'quvchining bevosita rivojlanishi uning tavsifi va natijaviyligiga bog'liq.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati**

1. U.Bo'tayeva "Kichik maktab yoshidagi bolalarda ijodiy tafakkurni shakllantirishning psixologik asoslari". Magistrlik dissertatsiya ishi. Samarqand 2008 y.
2. Xrestomatiya po vozrastnoy psixologii: Uchebnoe posobie dlya studentov / Sost. L.M. Semenyuk; Gl. red. D.I. Feldshteyn. – M.: MODEK, 1998.



## BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMI O'QITUVCHISINING KASBIY FAOLIYATINI BAHOLASDAGI YONDASHUVLAR

**Aminova Nargiza Narzullo qizi.**

Buxoro shahri 9-umumiy o'rta ta'lim maktabi,  
boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi  
telefon +998993890191

**Annotatsiya.** Ta'lim jarayonida ta'lim manbalarining har xil turlaridan foydalanish shartlari ko'rib chiqiladi. Ta'lim resurslaridan foydalanishda boshlang'ich maktab o'qituvchisining kasbiy vakolatining asosiy tarkibiy qismlari shakllantirildi. Ta'lim resurslaridan foydalanish bo'yicha mutaxassis sifatida boshlang'ich maktab o'qituvchisining kasbiy vakolati biz tomonimizdan asosiy va maxsus kompetentsiyalarning ajralmas to'plami sifatida taqdim etiladi. Har bir komponentning xususiyatlari berilgan.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich maktab o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasi, kompetensiya tuzilishi, kasbiy kompetensiya modeli, mahorat, qobiliyat, tajriba.

**Аннотация:** Рассматриваются условия использования в учебно-воспитательном процессе различных видов образовательных ресурсов. Сформулированы основные структурные компоненты профессиональной компетентности учителя начальных классов в области использования цифровы образовательных ресурсов. Профессиональная компетентность учителя начальных классов как специалиста в области использования образовательных ресурсов представлена нами в виде целостной совокупности ключевых, базовых и специальных компетентностей. Дана характеристика каждого компонента.

**Ключевые слова:** профессиональная компетентность учителей начальных классов, структура компетенций, модель профессиональной компетентности, навык, умение, опыт.

Pedagogik mahoratni o'zlashtirish maqsadga muvofiq ish olib borish sharti bilan har bir o'qituvchi uchun mavjud va shartli hisoblanadi. U amaliy tajriba asosida shakllanadi. Ammo har bir tajriba kasbiy mukammallikning manbai bo'la olmaydi. Ushbu manba faqat mehnat, uning mohiyati, maqsadlari va faoliyatining texnologiyasi nuqtai nazaridan mazmunli bo'ladi. Pedagogik mahorat - bu o'qituvchining shaxsiy va ishbilarmonlik fazilatlarini va kasbiy kompetensiyasining birlashi demakdir [1].

Bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'limiga qo'yiladigan yuqori talablar boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z sohasi bo'yicha yuqori professional, vakolatli mutaxassis bo'lgan taqdiridagina amalga oshishi mumkin. Bunday mutaxassis fundamental ta'lim tayyorgarligiga ega bo'lishi va zamonaviy psixologik-pedagogik fan darajasiga mos keladigan professional bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. U uzluksiz ta'limning ajralmas tizimidagi kasbiy faoliyatining maqsadlari va ahamiyatini bilishi, kasbiy jihatdan harakatchan bo'lishi, ya'ni maktab o'quvchilari rivojlanishidagi ijtimoiy vaziyat o'zgarishiga moslashuvchan munosabatda bo'lishi, pedagogik jarayon va yangi pedagogik texnologiyalarga yangi psixologik-pedagogik talablarni o'zlashtirishi kerak. Bu shuni anglatadiki, yangi shakllanishning zamonaviy boshlang'ich maktab o'qituvchisi kasbiy pedagogik faoliyatning ijodiy subyekti hisoblanadi [2].

Boshlang'ich ta'lim tizimida o'qituvchining kasbiy faoliyatini baholash turli xil yondashuvlar nuqtai nazaridan amalga oshirilishi mumkin. Quyidagilar esa ularning asosiylarini tashkil etadi:

- o'qitishning zamonaviy mutaxassis sifatida o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar;
- boshlang'ich maktab o'qituvchisiga boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarning o'qituvchisi sifatida o'ziga xos talablar;
- o'qituvchining pedagogik madaniyati tizimi.

Birinchi yo'nalish nuqtai nazaridan ikkita tarkibiy qism ajralib turadi - bu vakolat va asoslilik. Kompetentlik chuqur professional bilim va umumiy salohiyatini anglatadi. Fundamentallik - bu pedagogik faoliyatning ilmiy asoslarini chuqur bilishdir [3].

Boshlang'ich sinfga xos bo'lgan ikkinchi yo'nalishga quyidagilar kiradi.

- boshlang'ich ta'limning uzluksiz ta'lim tizimidagi o'rnini tushunish ("savodxonlik maktabi" sifatida emas, balki insonni butun ongli hayoti davomida hamrohlik qiladigan doimiy ta'lim faoliyati tizimining birinchi bosqichi sifatida);



- boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarning o'ziga xos yosh xususiyatlarini bilish (bolalar tafakkurining aniqliligi va obrazlilik; diqqatning beqarorligi, harakatchanligi, emotsionalligi va boshqalar);

- oila bilan ishlashning muhimligini va unga professional tarzda rahbarlik qilish qobiliyatini tushunish (professional o'qituvchining "professional bo'lmagan oila tarbiyachilari" bilan o'zaro aloqasi, ota-onalar bilan individual va guruhiy muloqot).

Uchinchi yo'nalish - o'qituvchining pedagogik madaniyati tizimi beshta tarkibiy qismdan iborat [4, 5]:

1. Pertseptual komponent - bolalar xulq-atvorining hissiy holati va motivlarini anglash qobiliyati, empatiya (hamdardlilik) qobiliyati.

2. Kommunikativ komponent - o'quvchilar bilan sinfda va sinfdan tashqari ishlarda muloqotga kirishish va hamkorlik qilish.

3. Konstruktiv komponent - bolalar faoliyatini va o'z faoliyatini tashkil etish.

4. Innovatsion komponent - innovatsion faoliyatga ehtiyoj, kasbiy tajribani yangilash, pedagogik izlanish.

5. Refleksiv komponent – o'z shaxsiy taqdirini belgilashning asosiy sohasi sifatida o'zining pedagogik faoliyatidan xabardor bo'lish, kasbiy rivojlanishini o'zini o'zi baholash.

Yuqoridagi diagrammada ushbu yondashuvga muvofiq kompetensiya boshlang'ich maktab o'qituvchisining kasbiy xususiyatlariga qo'yiladigan umumiy talablar tizimida bo'ysunuvchi joylardan birini egallaganligi aniq ko'rsatilgan.

Kommunikativ mezon bo'yicha boshlang'ich maktab o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasining uchta ko'rsatkichi mavjud:

- bolalar bilan muloqot qilish zarurligi, boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarga qiziqish;

- emotsional ta'sirchanlik, aloqada teskari al-do'stona va konstruktiv muloqot uslubi.

O'qituvchilik kasbi "shaxs - shaxs" tizimidagi kasblar guruhiga kiradi (E.A. Klimov), shuning uchun maxsus tashkil etilgan muloqot pedagogik faoliyatning markaziy qismidir. Bolalik dunyosiga qiziqish, bolalar bilan muloqot qilish zarurati o'qituvchining kasbiy o'z o'zini belgilashi uchun zarur shartdir. Bu ehtiyoj ko'pincha bolalarga ustoz bo'lish, ularda kerakli intellektual va axloqiy tajribani o'tkazish, ularga mehribonlik va g'amxo'rlik qilish istagida namoyon bo'ladi. Axir, boshlang'ich sinf yoshidagi bola har doim ham mustaqil va o'zini o'zi ta'minlay olmaydi. Ko'pincha o'qituvchi har doim qiyin paytlarda yordamga keladigan "onaning" rolini bajarishga majbur bo'ladi, chalkashib ketgan bolani qo'llab-quvvatlaydi, ma'lum bir vaziyatda qanday harakat qilishni aytadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Kolupaeva N.I. Boshlang'ich ta'limning psixologik-pedagogik nazariyalari va texnologiyalari: Elektron o'quv-uslubiy majmuasi [Elektron resurs] - Nijniy Tagil: NTGSPA, 2010

2. Kukushin V.S., Boldureva-Varaksina A.V. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi / Hammasi bo'lib. tahrir. V.S. Kukushkina. - M.: "Mart" ECC; Rostov n / a: "Mart" nashriyot markazi, 2005. - 592 b.

3. Podlasiy I.P. Boshlang'ich maktab pedagogikasi: O'quv qo'llanma. qadash uchun qo'llanma. ped. kollejlari. - M.: Gumanitar. tahrir. VLADOS markazi, 2000. - 400b.

4. Sergeeva V.P. Boshlang'ich ta'limning psixologik-pedagogik nazariyalari oqa harakatchanligi; va texnologiyalari. - M.: Graf-Press, 2002. - 144 b.



## ЭСТЕТИЧЕСКИЕ И ЭТИЧЕСКИЕ ЧУВСТВА – ВАЖНЕЙШИЙ КОМПОНЕНТ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО МАСТЕРСТВА.

Мамаюнова Матлюба Исмаиловна  
Фаргона Политехника институти

**Аннотация:** В данной статье рассмотрены актуальные вопросы педагогических, эстетических и этических преобразований чувств личности. Определены задачи преподавателей общественных наук, исходя из конкретной ситуации педагогического мастерства.

**Основные выражения:** Педагогика, психология, этика, эстетика, педагогическое мастерство.

*Искусство и мастерство педагога как раз и заключается в умении сочетать сердечность с мудростью.*

*В.Сухомлинский.*

Научить профессии учителя нельзя, но научиться ей можно. Состоится учитель-мастер или нет, зависит не только от системы обучения, но прежде всего от усилий тех, кто учится. Поэтому система обучения в вузе основам педагогического мастерства помогает будущему учителю увидеть и осознать основные вехи профессионального роста в соответствии с реальным уровнем возможностей каждого студента. Развитие педагогического мастерства является центральным аспектом всей подготовки учителя.

Педагогическая профессия по своей сути является очень индивидуальной. Самое главное жизненное каждого преподавателя – стать мастером своего дела. Как правило, мастерство преподавателя проявляется в деятельности. Преподаватель, прежде всего должен владеть закономерностями и механизмами педагогического процесса. В этом плане огромное значение приобретают обобщенные умения педагога, его педагогическая техника.

Учительская профессия – это человековедение, постоянное, иногда не прекращающее проникновение в сложный духовный мир человека. (В.Сухомлинский).

Мастерство – это особое состояние. Нельзя быть мастером в большей степени или меньшей степени. Можно достигнуть мастерства или нет. Настоящий мастер всегда прекрасен в момент деловой деятельности.

Педагогическое мастерство выражает высокий уровень развития педагогической деятельности, владение педагогической техникой, а так же личность педагога, его опыт, гражданскую и профессиональную позицию.

Как и каждая деятельность, педагогическая включает компоненты как, цель, средство, объект, субъект, отличающиеся спецификой. Прежде всего специфична цель педагогической деятельности.

Педагогическая деятельность способствует осуществлению социальной преемственности поколений, включению молодежи в существенную систему социальных связей, реализации природных возможностей человека в овладении общественным опытом.

Первый Президент Республики Узбекистан И.А.Каримов, рассматривая стратегию развития, суть реформирования и преобразований в обществе, одним из главных приоритетов определил дальнейшее духовное обновление общества.

Воспитание всегда связано с воздействием на сознание человека. Любая форма воспитания ставит перед собой задачу воздействия не только на сознание – чувства, представления, убеждения, но, главное, - и на действия, поступки, характеры людей. Цель эстетического воспитания древние греки видели в гармоничном развитии свободного гражданина, в установлении гармонии «духа и тела». При всем различии систем эстетического воспитания Платона и Аристотеля общее для них было – утверждение единства эстетического идеала, нравственного поведения и гражданских добродетелей.

Формирование развитого эстетического сознания человека есть формирование, его мировоззрения. Она действует на другие области мировоззрения – философскую, политическую, нравственную, испытывая в свою очередь их влияние. Со стороны преподавателей требуется помогать для выработки последовательной системы эстетических взглядов на процесс формирования вкусов у молодежи.



В педагогике существует закон, определяющий действенность учительского труда. Это формирование разных видов человеческого опыта прямо пропорционально чувственной отзывчивости личности на ситуации их передачи и усвоения. На положительных чувствах наиболее продуктивно формируются разные психофизиологические установки, стереотипы поведения и практического действия, обуславливающие потребности и интересы личности.

Для практической учебно-воспитательной работы учителя важно знать виды чувств, их особенности, специфику проявления. Духовный мир личности - это прежде всего многообразнейшее и непрерывные переживания, океан чувств. Чувства пронизывают все мироощущения и мироотношения человека. По выражению выдающего русского педагога К.Д.Ушинского, нигде личность не проявляется так целостно, как в чувствах: «В них слышен характер не отдельной мысли, не отдельного решения, а всего содержания души и ее строя».

На гармонии мышления и чувственности, «головы» и «сердца» основывается педагогическое мастерство учителя. Игнорирование этого единства всегда чревато учебно-воспитательными издержками, проявляющимися инертности, грубости, жестокости учащихся.

Вникая в секреты успеха учителей мастеров, мы обнаруживаем отточенность приёмов педагогического воздействия, искусную постановку и решение самых разнообразных практических задач. Важная роль принадлежит специальным умениям как, мобилизовать учащихся на интенсивную познавательную деятельность, ставить вопросы, общаться с коллективом и отдельной личностью, вести наблюдения, организовывать коллектив, владеть своим настроением, голосом, мимикой, движением. «Воспитанник воспринимает вашу душу и ваши мысли не потому, что знает, что у вас в душе, а потому, что видит вас, слушает вас», - говорил А.С.Макаренко.

#### Литература:

1. Под редакцией И.А Зязюна «Основы педагогического мастерства» Москва «Просвещение» 1989г.
2. И.Ф.Харламов «Педагогика» Москва «Высшая школа» 1990г.
3. А.А.Гусейнов, Р.Г.Апресян «Этика» Москва 1999г.



## КОММУНИКАТИВ КОМПЕТЕНТЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМНИ МОДЕРНИЗАЦИЯ ҚИЛИШНИНГ УСТУВОР ЙЎНАЛИШИ СИФАТИДА

Мирзалиева Наргиза Холдоровна  
Пирназарова Феруза Орисовна  
Тошкент вилояти Кибрай туманининг  
28-сонли умумтаълим мактабининг  
бошланғич таълим ўқитувчилари

**Аннотация.** Мақолада кичик мактаб ёшидаги ўқувчиларнинг тенгдошлари ва катталар билан самарали ўзаро ҳамкорлигини ўрнатиш, ўзгалар позицияларини англаш, уларни тинглай олиш, суҳбатлашиш ва муаммоларни жамоавий муҳокама қилишда иштирок этиш қобилиятини таъминлашда коммуникатив универсал ўқув ҳаракатларининг аҳамияти очиқ берилган.

**Калит сўзлар:** бошланғич таълим, модернизация, коммуникатив, универсал, ўқув ҳаракат, муносабат, муаммоли вазият, кичик мактаб ёши, ўқувчи, фаол позиция, ахборот алмашиш, тинглаш, суҳбатлашиш.

Сўнгги йилларда жамиятимизда таълим мақсадлари ва уларни амалга ошириш борасида кескин ўзгаришлар рўй берди. Ўзбекистонда бошланғич таълимни модернизация қилиш Концепциясига мувофиқ, таълим муассасаси фаолиятининг асосий натижаси фақат билим, кўникма ва малакаларни шакллантириш тизими бўлибгина қолмасдан, балки шахснинг интеллектуал-фуқаролик ҳуқуқи, турли хил муносабат ўрнатиш ва ахборот алмашиш ваколатлари тўплами бўлиши ҳам зарур. Таълимнинг меъёрий ва амалий таркибий қисмига мазкур компетенцияларни киритиш келажакда ўқувчиларга узлуксиз таълим олиши жараёнида назарий билимларни яхши ўзлаштириш билан бирга ҳаёти давомидаги учрайдиган муаммоли вазиятларни улар асосида ҳал қилиш имконини беради.

Таълимнинг асосий натижалари ўқувчиларни билим, кўникма ва кўникмаларни ўзлаштиришдан тортиб, уларни кичик мактаб ёшидан мустақил фаолиятга киришишга ундаш, ўқув фаолиятида фаол позицияни эгаллаш, ҳамкорлик қилиш ва гуруҳда ишлаш имкониятига эга бўлиш жараёни сифатида тушунила бошланди.

Универсал ўқув ҳаракатлари кенг маънода бўлиб, у нафақат боланинг ўзлаштириш кўникмаси, балки янги ижтимоий тажрибани онгли ва фаол эгаллаш орқали ўзини ўзи ривожлантириш ва такомиллаштириш қобилиятларини ҳам англади. Тор маънода эса ушбу атама ўқувчининг янги билимларни мустақил ўзлаштириш кўникмаларини шакллантириш ва таълим жараёнини ташкил этишни таъминлайдиган ўқув ҳаракатлари мажмуи сифатида таърифланиши мумкин.

Универсал ўқув ҳаракатларининг қуйидаги функциялари мавжуд:

1. Ўқувчининг таълим фаолиятини мустақил равишда амалга ошириш, таълим мақсадларини белгилаш, унга эришиш учун зарур восита ва усулларни излаш, тўғрилаш, назорат қилиш, фаолият жараёни ва натижасини баҳолаш қобилиятини таъминлаш;

2. Шахснинг ҳар томонлама етук ривожланиши учун шароит яратиш ва узлуксиз таълим олишга тайёрлиги асосида ўзини ўзи англаш.

Умумжаҳон ўқув ҳаракатларини шакллантириш концепцияси мамлакатимиз Давлат таълим стандартларида тақдим этилган бўлиб, уни яратиш учун методологик асос тизимли фаолият ёндашуви ҳисобланади. Айни пайтда, Давлат таълим стандартининг талабларига биноан, универсал таълим ҳаракатлари етакчи режалаштирилган натижалар бўлиб, билим, кўникма ва малакаларни эгаллаш, қобилиятларни ривожлантиришга ҳисса қўшади ҳамда шахснинг ривожланиши ва ўзини ўзи англаши учун шароит яратади.

Коммуникатив универсал ўқув ҳаракатлар - бу ўқувчиларни ижтимоий малака ва бошқа одамлар позицияларига онгли йўналтириш, яъни ўзгаларни тинглаш ва улар билан суҳбатлашиш, муаммоларни жамоавий муҳокамасида иштирок этиш қобилияти, тенгдошлари ва катталар билан самарали ўзаро муносабатлар ва ҳамкорликни таъминлашдан иборат.

Коммуникатив ўқув ҳаракатлари гуруҳига қуйидагилар қиради:



-даставвал ўқувчиларнинг ўзаро алоқа ўрнатишларига мўлжалланган коммуникатив фаолият яратишни дарсда мақсад қилиб белгилаб олинishi;

таълим жараёнида коммуникатив кўникмаларини шакллантириш, яъни самарали мулоқотни ўрнатиш қобилиятларини ривожлантириш;

мулоқотга лаёқатли ўқувчилар билан индивидуал ишлаш ва қолган ўқувчилар билан эса ўқув жараёнида уларнинг ижтимоийлашувини таъминлашга қаратилган ҳамкорликнинг турли шаклларида фойдаланиш мақсадга мувофиқ.

Коммуникатив универсал ўқув ҳаракатларнинг энг самарали – **жуфтликда, гуруҳ ва жамоа бўлиб ишлаш** услубларидир. Фаолиятни мана шундай ташкил этиш орқали ўзаро фикр алмашиш имконияти яратилади. Гуруҳ бўлиб ишлашнинг ҳар иккала томон – таълим берувчи ва таълим олувчи учун ҳам бир қанча қулайликлар мавжуд. Жумладан, ўқитувчига ўзаро алоқаларни чуқурлаштириш, мулоқотдаги барча ҳолатларни кўриш имконини беради.

Бошланғич таълимда **гуруҳ бўлиб ишлаш** услубида куйидагилардан фойдаланиш мумкин:

**Гуруҳий диктант** – биргаликда ҳаракат қилиш қобилиятини ривожлантириш учун драматизация, ечим ва кроссвордларни тузиш, шифрлашдан фойдаланиш мақсадга мувофиқ. Мана шундай алоқа кўникмаларини шакллантириш орқали ўқувчиларга **ўзаро суҳбатлашиш** имкониятини яратилади. Бу ички монологик жавобнинг бир тури сифатида ҳам намоён бўлади. Бунинг учун дастлабки босқичда мавзу бўйича режа, сўнгра фақат асосий сўзлар, кейин эса биринчи ёки охириги сўзлардан фойдаланилади. Бу услуб боладаги ички таранглик ва ҳаяжонни юмшатиб, монологик жавобини шакллантиришга ёрдам беради.

Ўқув машғулотини **савол-жавоб услуби**дан фойдаланган ҳолда ташкил этишда ўқувчиларда саволлар бериш ва жавобларни тузиш қобилияти шакллантирилади. Бу мулоқот кўникмаларини ривожлантиришда энг самарали услублардан биридир:

➤ **Тренинг саволлари** орқали ўқувчилар ўқув вазифаларини бажариш алгоритминини ўзлаштирадilar ва бу алгоритмларни талаффуз қиладilar.

➤ **Конструктив саволлар** - мавжуд тажрибага асосланган ҳолда жавоб топишни талаб қилинади ва бунда жавобни мустақил равишда шакллантириш назарда тутилади.

➤ **Муқобил саволлар** - синондан ўтказилган сўровномада, тўғри жавобни танлаш ва исботлаш керак бўлганда фойдаланилади.

➤ **Тузoққа оид саволлар**да ўқувчилар саволга жавоб йўқлигини исботлайдилар.

➤ **Савол таклиф** - ўқувчиларни тўғри йўналишга йўналтиради, жавоб топиш вақти ва майдонини қисқартиради.

➤ **Қарама-қарши савол** - ўқувчидан ҳисоблагич бериб, саволга аниқлик киритишни талаб қилади.

Юқорида келтирилган мулоқот услублари кичик мактаб ёшидаги ўқувчиларни жонли фикрлаш ва муносабат ўрнатишга ундайди. Натижада улар ўзини ўзи тарбиялаш, ривожлантириш ва бошқаришни ўрганадилар.

Шу ўринда таъкидлаш жоизки, кичик мактаб ёшидаги ўқувчиларда коммуникатив компетентликнинг шаклланиши ўзаро мулоқот жараёни муваффақиятини белгилайди. Масалан, юқори даражада мулоқот қобилиятлари ривожланган ўқувчиларда мулоқот қилишга қизиқиш устун бўлиб, бу уларнинг ҳар қандай фаолият жараёнида мустақиллигини намоён қилишлиги, диалогик ва монологик нутқ шаклларида эгаллиги, мулоқот натижаларини ижобий танқид қилиб, ўз ҳиссий ҳолатини бошқаришга қодир эканликларини билдиради.

Мулоқот қобилияти ўртача даражада ривожланган ўқувчилар эса ҳамкорликда фаолият юритишга интилувчан бўлишади, бироқ ўзаро алоқа чоғида ҳаракат қилолмаслик, мулоқот натижаларини етарлича баҳолай олмаслик, ўз ҳиссий ҳолатини бошқариш қобилиятининг пастлиги каби қийинчиликларга дуч келиш ҳолатлари кузатилиши мумкин.

Коммуникатив қобилияти суст бўлган ўқувчилар ўзаро муносабатлар жараёнида жуда катта қийинчиликларга дуч келадilar. Чунки бу болаларда мулоқотга унчалик қизиқмаслик ёки умуман қизиқмаслик хусусиятлари устун бўлганлиги сабабли ўзларининг ҳиссий ҳолатларини қандай бошқаришни билишмайди. Натижада ўз тенгдошлари ва ўқитувчилар билан ўзаро муносабатларда ўзини тутиш қоидаларига риоя қилишлари жуда қийин кечадди.



Хулоса ўрнида шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, кичик мактаб ёшидаги ўқувчиларнинг коммуникатив универсал ўқув ҳаракатлари ўз тенгдошлари ва катталар билан ўзаро ҳамкорлигини самарали ўрнатиш, ўзга кишилар позицияларини англаш, уларни тинглай олиш ва суҳбатлашиш ҳамда муаммоларни жамоавий муҳокама қилишда иштирок этиш қобилиятларини шакллантиришга хизмат қилади.

**Адабиётлар:**

1. Даньшова Т. А. Формирование универсальных учебных действий, как фактор успешной социализации младших школьников // Вестник СМУС74. 2014. №5.
2. Дроздова О.А. Смирнова Т.А. Формирование коммуникативных универсальных учебных действий младших школьников как ведущий результат обучения // Филологические науки. Вопросы теории и практики. 2016. № 5-1 (59). С. 182-184.
3. Жуковина Ю.В. Специфика формирования коммуникативных универсальных учебных действий у младших школьников // Наука и современное общество: взаимодействие и развитие. 2015. № 1 (2). С. 56-59.



## ЁШ АВЛОД ТАРБИЯСИДА МИЛЛИЙ КИЙИМНИНГ АҲАМИЯТИ.

Убайдова Вазира Эркиновна,  
ўқитувчи-стажёр Бухоро  
муҳандислик технология институти  
Телефон:+998914180705  
amikomjon@mail.ru

**Аннотация:** Мақолада Ўзбекистон миллий кийимнинг тарихи, ҳар бир вилоят кийимларининг ўзига хослиги асослаб берилган. Миллий кийимнинг тарбиявий жиғатларига эътибор қаратиш, ўсиб бораётган ёшларни миллий кийимнинг турлари билан таништирган ҳолда уларда миллий ғурур, миллий ифтихор ва фахрни уйғотиш кераклиги таъкидлаб ўтилган.

**Калит сўзлар:** миллий кийим, мато, ғурур, кашта, пешонабанд, адрас, атлас, либос, мерос, тарбия, кадрят.

Мустақиллик даврларида миллий анъана, урф-одат ва кадрятлар тикланди. Шу ймларда миллий матолар адрас, атлас, банорас кабилардан тикилган либосларнинг кадри ошди.

Давр ўтган сари иқлим ўзгариб, ижтимоий – иқтисодий шароит, ҳалқаро алоқалар таъсирида либослар ўзгариб борган. Аммо, ҳар бир миллатнинг миллий либосларида асосий шакллар такрорланиб туради. Чунки шу шаклларда халқнинг руҳияти, орзу-армонлари акс этади. Шунинг учун ўзгаришларни, янгиланишларни оқилона қабул қилиш керак. Миллийлик инсон қалбида ва руҳида сақланиб қолиши жуда муҳимдир. Мана шу миллийлик баркамол авлод қалбида ва руҳида миллий ғурур руҳини уйғотади. Ўзбекистоннинг буюк келажagini курадиган ёшлар, албатта ўзлигини, миллий ғурурини, аждодлар меросини кадрлайдиган инсонлар бўлиши керак.

Глобаллашув даврида кийиниш маданиятига бир томондан ғарб, бошқа томондан диний либослар таъсири намоён бўлди. Биз шарқона урф-одатлар, кийиниш маданиятини меърида уйғун қабул қилишимиз, лекин миллийликка эътибор беришимиз керак.

Ўтмишимиздан ўзбек аёллари шарм – ҳаёда, иффату – назокатда, оқилаю – доноликда намуна бўла олишган. Ўзининг ташқи қиёфаси одобу – ахлоқи, юриш – туриши, кийиниши, сўзлашиши билан аёл жамиятда ҳаётда ўз поғонасига эга бўлади.

Миллий кийимларини ўрганишда XV - XIX асларда Хирот ва Бухоро мактабларига мансуб мусаввирлар яратган миниатюра санъати асарлари жуда қимматбаҳо манба ҳисобланади.

Қадимда Хорун ар-Рашид даврларида Бағдодга бухоролик тикувчилар бориб сарой аёллари учун либослар тикиб беришган. Айтишларича, бу кийимларда аёлларнинг ҳаёси, ибоси билан уларнинг бутун гўзаллигини нурлантириб юборувчи бичимлар экан. Ўзбек аёллари ўша пайтданок турли маросимлар ва тадбирларга мослаб махсус кийимларни тайёрлаб кийишга интилганлар. Масалан тўй кийимларида безаклар, қатимлар купроқ акс этса, мотам кийимлари учун қайғу мазмунига хос жиддий рангли матолар танланган.

Инсон ҳаётидаги энг муҳим ишлардан бири бу кийиниш одобидир, шунинг учун ҳам кийиниш одоблари ва либосларга тегишли қоидалар бор. Ташқи қиёфа одамни ўз ўрнини топишга ёрдам беради. Масалан қиз бола ақлли, зукко бўлса-ю ўзига қарамаса, ўзига ярашмаган ёки бачкана кийим кийса у ўзига, ўзлигини намоён қила олмайди. Чунки, одамдаги биринчи таасуротни ташқи қиёфа беради. Масалан, бир қизни кўрдингиз, у чиройли кийим кийган, безаклари ва аксессуарлари кийими билан мос келган бўлса, юзидаги пардози ҳам нафис бўлса, у қиз сизга яхши таасурот уйғотади ва у билан суҳбат қилишингиз келади. Бордию акси бўлса, қиз модага қараб кийинган булса, лекин кийими ўзига умуман ярашмаган бўлса, ундан ташқари бачканароқ қилиб бўянган бўлса, ундай қизлар билан, гаплашгиз ҳам, суҳбат кургиз ҳам келмайди. Замонавий кийим киямиз деб, баъзи қизларимиз киндикларини очиб ярим яланғоч ҳолда кийинадилар, лекин минталитетимизга, миллийлигимизга у тўғри келмаслигини ҳаёлларига келтирмайдилар. Замонавий деб ўзига ярашмаган кийимни кийиш бу дидсизликдан далолат беради. Аёл киши қиз бола, ўзига муносиб, ярашган кийимни кийиши керак.



Яна бир ўтмишимизга яъни оналаримиз, бувиларимиз кийинишига назар солсак:

Масалан, **Самарқанд** аёллари оддий кийинишган, кўйлак устидан сидирға ранг матодан чопонлар кийишган, уларнинг узунлиги тўпикгача бўлган, безаксиз бўлган. Кейинчалик кашта билан безаш урф бўлган. Ёши ўтган аёллар либоси тўпикгача бўлиб, кенг лозим, устки кийимнинг бели боғланганлиги билан фарқланган. Самарқандликлар энги узун кафтгача бўлган кийим кийишган, қўлларини кўкрагига қўйганида хашамдорлиги, кўйлаклар сони тўлиқ кўринган. Кўйлакни қаватлаб кийилган. Осма безаклар, маржон, бозбанд, тумор, зирак тиллақош, зебигардон, сочпопуклар тақишган. Сочлари олдига тушмаслиги учун култа кийишган.

**Хоразмда** ҳам аёллар ички кийимни узун энгли, ок матодан кийишган, устидан калта бошқа рангли, мос ипак рўмол (пираҳан)ни кийишган, у белга ёпишган. Бошларига пирохан матосининг рангига мос ипак рўмол, фаранг рўмол, бурчакларига гулдаста ва коқ ўртасига лентали гул безак солинган чоргул рўмол, хилма-хил нафис рўмоллар ўрашган. Зебу зийнатлари ҳар хил соч, бош, пешона, чакка, кулоқ, бурун, кўкрак, билак, бармоқ ва белга тақишган.

**Сурхондарёда** тўри бичимли кўйлак кийишган, баъзан этаги кенгайтирган, узунлиги тупикгача тушган. Қизлар кўйлагининг ёқа ўмизи кўндалаг тикилиб, четлари бошқа ранг матодан ёки тасма билан тақилган. Бошларига лачак устидан қават-қават рўмол ўрашган.

19 аср охирида тўғри бичиқдан улама кўкрак, бурмали либослар пайдо бўлган. Бундай бичиқлар ҳозирги пайтда ҳам миллий кийимларнинг асосий шакллари ҳисобланади.

**Бухоро** либослари серхашам ва бошқа вилоятларга нисбатан башангроқ бўлган. Либослар зардўзи, кашта ва бошқа газмолни кўшиб тикиш йўли билан безатилган. Кийимларининг матолари қимматбаҳо турли рангларда бўлган. Аёллар кўйлагининг олди чуқур булган, ёқа ўмизининг юқорисида битта катта тугма қадалган, бўйи сал қисқарган бўлиб, пойчаси торайган лозим кўринган. Ёқа ўмизининг четлари зарбоф тасма (яъни пешкурата) билан безатилган. Чопонга ўхшаган мурсанг башанг кийим ҳисобланиб калтача деб аталган. Калтачанинги энги кенг тикилган. Бош кийимлари рўмол ҳисобланиб, унинг устидан пешонабанд тақишган. Пешонабанд турлича безатилган, зардўзи, қимматбаҳо тошалари билан безашган. Бухорода ҳозиргача ҳам саллабандон маросимларида пешонабанд ва калтачаларни кийишади.

Миллий кийимлар, миллий матолар келажак авлодни миллий руҳда тарбиялашда муҳим рол ўйнайди. Замонавий кийимларда миллий бичим ва ва миллий матолардан фойдаланиб, замонавий ва бизни менталитетимизга хос бўлган кийимларни яратиш энгил саноат соҳаси ходимларининг долзарб вазифасидир.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Терешкович Т.А. Словарь мод. Терминология, история, аксессуары –Минск: Хэлтон, 2000.
2. Д.Мингбоева. Тимсоллар тилсими – Т.: Янги аср авлоди, 2007.
3. Абдуллаев А.Г. Одежда узбеков, Т., 1956.
4. Андреева Р.П. Энциклопедия моды. – С-П. : Литера, 1997
5. А.Авлониё "Turkiy Guliston yoxud axloq"asari
6. Очерки об истории Бухары. Ташкент, 1999, с.12-15



## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TARBIYA FANINI O‘QITISHISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

**Shirinboyeva Nargiza To‘lqin qizi**  
Navoiy viloyati Navoiy shahar  
12-IDUM boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi  
Telefon: +998(88)3779110

**Annotatsiya.** Boshlang‘ich sinflarda tarbiya fanini o‘qitishda samarali usullardan foydalanishni yo‘lga qo‘yish. Fanlararo bog‘lanishga erishish.

**Kalit so‘zlar:** Kommunikativlik, elektron axborot, interfaol metodlar, T-jadvali metodi.

Hozirgi vaqtda ta‘lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib, tanlash maqsadga muvofiq. An‘anaviy dars shaklini saqlagan holda, uni ta‘lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta‘lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasiga o‘shishga olib keladi.

**Interfaol metodlar** deganda- ta‘lim oluvchilarni, faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta‘lim jarayonining markazida ta‘lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi.

Bu metodlar qo‘llanilganda ta‘lim beruvchi ta‘lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta‘lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi.

Tarbiya fanini o‘qitishda tavsiya etiladigan metodlar: T-jadval, Guruhlarda ishlash, Tarmoqlash, Savol-javob, Vaziyatni muhokama qilish, Esse, Loyihalash...

**T-jadval metodi** bolani fikrlashga- taqqoslashga, ijobiy, salbiy xislatlarni ajratishga o‘rgatadi.

**Guruhlarda ishlash, tarmoqlash, vaziyatni muhokama qilish, loyihalash** metodi orqali bolada jamoaviylik ruhi shakllanadi. Bola o‘zgaralar fikrini tinglashni o‘rganadi, o‘zgaralar fikrini hurmat qilishni va o‘z fikrini aniq, lo‘nda bayon etishni o‘rganadi.

**ESSE metodi** ijodiy fikrlashga va uni ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

**“Kim bo‘lsam ekan” mavzusini o‘tish uchun tavsiya etilgan usullar:**

Savol-javoblar, Guruhlarda ishlash, Vaziyatlar tahlili metodlari.

Darsni boshlashdan oldin o‘quvchilarga qisqa savol-javoblar bilan murojaat qilinadi: Qanday kasblarni bilasiz? Katta bo‘lsangiz kim bo‘lmoqchisiz?

Milliy hunarmandchilik haqida eshitganmisiz? U to‘g‘risida nimalarni bilasiz? “Hunar-hunardan rizqing unar” degan maqolni eshitganmisiz?

O‘quvchilarga berilgan savollarning javoblari tinglanadi. Javoblar o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

O‘quvchilarga ekranda kasblar rasmlari ko‘rsatiladi. O‘quvchilar rasmlarda ko‘rsatilgan kasblarga ta‘rif beradilar. O‘qituvchi tomonidan “Siz qaysi kasbni tanlagan bo‘lardingiz va nima uchun?” degan savol beriladi. O‘quvchilar berilgan savolga o‘z fikrlarini aytib o‘tadilar. Javoblar umumlashtiriladi.

Vazifa. Darslikda olingan bilimlar asosida o‘quvchilar “Kim bo‘lsam ekan” mavzusida matn tuzib kelishlari vazifa qilib beriladi.. Bu vazifani bajarish orqali o‘quvchilar ota-nalarining kasblari haqida ma‘lumotga ega bo‘ladilar, oila davrasida ota-oansining mehrini his qiladilar, milliy hunarmandchiligimiz haqida ma‘lumotga ega bo‘ladilar. Dars yakunida faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi. Baholar e‘lon qilinadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ozbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma -bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori.
2. Boshlang‘ich ta‘lim jurnali.
3. Ta‘limga oid internet saytlar.



## БИОЛОГИЯ ДАРСЛАРИДА ЗАМОНАВИЙ ПЕДАГОГИКА ВА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ЗАРУРИЯТИ

Абдураимов Иқболжон

Андижон вилояти ХТБ га қарашли  
4-ДИМИ нинг биология фани ўқитувчиси

**Аннотация:** Ушбу мақолада биология дарсларини ўқитишда замонавий педагогик технологиялар ва ахборот технологияларидан фойдаланиш ва унинг ижобий натижалари ҳақида маълумотлар берилган.

**Калит сўзлар:** педагогика, метод, технология, билим, малака

Биз педагогик технологияларнинг ўзига хос хусусиятлари, моҳияти ва мазмунига кўра икки гуруҳга ажратдик:

1. Педагогик жараённинг характери, бориши ва мазмунини ўзгартиришда қўлланиладиган педагогик технологиялар,

2. Биология дарсларида фойдаланиладиган технологиялар.

Педагогик жараённинг характери, бориши ва мазмунини ўзгартиришда қўлланиладиган педагогик технологиялар гуруҳига:

- Таълим жараёнини инсонпарварлаштириш ва демократлаштириш технологияси;
- Шахсга йўналтирилган технологиялар;
- Ривожлантирувчи таълим технологиялари;
- Таълимни дифференциаллаштириш ва индивидуаллаштириш;
- Биология дарсларида фойдаланиладиган технологиялар гуруҳига:
  - Дидактик ўйин технологиялари;
  - \* Муаммоли таълим технологиялари;
  - Модулли таълим технологиялари;
  - Ҳамкорликда ўқитиш технологиялари;
  - \* Лойиҳалаш технологияси;
  - Анъанавий таълим технологиялари киради.

Биология дарсларида дидактик ўйин технологияларидан фойдаланиш дарс самарадорлигини оширишга имкон беради. Маълумки, ўқувчиларнинг билиш фаолияти ўйин фаолияти билан уйғунлашган дарслар дидактик ўйинли дарслар дейилади.

Дидактик ўйинли дарсларнинг сюжетли ролли, ижодий, ишбилармонлар, конференциялар ва ўйин машқлар каби турлари бор. Мазкур методик кўрсатмада биология дарсларида конференциясидан фойдаланиш йўллари ишлаб чиқилди.

Модулли таълим технологиялари. Модулли таълим технологиясининг ўзига хос хусусияти дарсда ўрганиладиган мавзу мантикий тугалланган фикрли модулларга ажратилади ва модул дастури тузилади. Модул дастури бу ўқувчининг мазкур дарсда ўқувбилиш фаолиятини бошқариш дастури бўлиб, у модул дастурининг дидактик мақсади, ўқувчиларнинг бажариши лозим бўлган ўқув топшириқлари, топшириқларни бажариш юзасидан кўрсатмаларни ўз ичига олади.

Ҳамкорликда ўқитиш технологияси. Ҳамкорликда ўқитиш ғояси турли мамлакатлардага жумладам Америкадаги Ж.Хопкинс университети профессори Р.Славин (1990), Миннесот университети профессорлари Р.Жонсон, Д.Жонсон (1987), Калифорния университети профессори Ж.Аронсон (1978), Изроилдаги Тель-Авив университети профессори Ш.Шаран (1988) томонидан ишлаб чиқилган.

Биологияни ўқитишда ҳамкорликда ўқитиш технологиясининг командада ўқитиш, кичик гуруҳларда ўқитиш, «арра» ёки «зигзаг», «Биргаликда ўқиймиз» методларидан фойдаланиш имконияти мавжуд:

Таълим жараёнида салмоқли ўрин эгаллаган муаммоли (аклий ҳужум) дарс, мунозарали (илмий мунозарали ва эркин фикрлаш) дарслари муаммоли таълим технологиясига асосланади.

Мазкур дарсларнинг ўзига хос жихати дарс давомида вужудга келтирилган муаммоли вазиятларга асосланади.

Муаммоли таълим деб, ўқитувчи томонидан педагогик таъсир кўрсатишнинг энг



мўқобил варианты ёрдамида, фикр юритиш қонуниятларига таянган ҳолда, ўқувчиларнинг билимларни ўзлаштириш жараёнида фикрлаш қобилиятини ривожлантириш ва билиш эҳтиёжини қондириш мақсадига йўналтирилган, шахснинг умумий ва махсус ривожланишига замин тайёрлайдиган жараёнга айтилади.

Муаммоли таълим жараёнида ўқитувчи раҳбарлигида муаммоли вазият вужудга келтирилиб, мазкур муаммо ўқувчиларнинг фаол мустақил фаолияти натижасида билим, кўникма ва малакаларни ижодий ўзлаштириши ва ақлий фаолиятини ривожлантиришга имкон беради.

Лойиҳалаш технологиясининг асосий моҳияти - маълум бир муаммоли вазиятни вужудга келтириш орқали ўқувчиларнинг қизиқишларини орттириш, лойиҳалаш фаолиятини шакллантириш; уларнинг тегишли билимларни эгаллашлари, фанлараро боғланишларни амалга ошириш керак.

Биологияни ўқитишда ўқитувчи лойиҳалаш технологиясидан ўқувчиларнинг қизиқиши ва қобилиятларини ҳисобга олган ҳолда нафақат дарсда муаммоларни ҳал этишда, балки дарсдан ва синфдан ташқари ишларда ижодий муаммоларни ҳал этишда фойдаланиши зарур.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Ўтанов Ў. "Педагогик технология" фанидан маърузалар матни. Самарқанд-2016
2. Очилов М. Янги педагогик технологиялар. Қарши. Насаф. 2019



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA BADIY ASARNI TAHLIL QILISH ORQALI TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH

**Abdusharipova Manzura Ro'zmatovna**

Urganch shahar 18-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Telefon: +998907130742

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda badiiy asarni tahlil qilish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish yo'llari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** kitob o'qish, samarali o'qish texnologiyasi, tanqidiy fikrlash.

Nega hozirgi bolalar kitob o'qishni yoqtirmaydilar? Bu savol bugungi kunning eng dolzarb muammolardan biridir. Chunki bu muammo keying avlod taqdirida deyarli hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bugungi yosh avlod axborotni asosan, televizor, kompyuter, internet orqali olmoqda. Rus faylasufi Belinskiy shunday deb yozgan edi: "Kitoblar bizning hayotimizning mazmuni, ularga kattalarda ham, kichiklarda ham ehtiyoj bor". Afsuski, ushbu so'zlar hozirda o'z ahamiyatini yo'qotgandek. Bolalarni kitobni o'qishga majbur qilish uchun ota-onalar poraxo'rlikka murojaat qilishadi, masalanularni shirinlik yoki boshqa narsalar bilan rag'batlantirishadi yoki bir necha sahifani o'qib bo'lgandan keyin ularga kompyuter o'yinlarini o'ynashga ruxsat berishadi.

O'qish muammosi davlat muammosiga aylanib bormoqda. "Kitob o'qigan, o'zini ustida ishlagan odamda qanot bo'ladi. U befarq bo'lmaydi. Uning kuchi bilimida bo'ladi. Shuning uchun hech kimni pisand qilmaydi. "Kattalar"ga xushomad qilmaydi. Uning bilimi bor, ilmi bor. Mana nima uchun kitob o'qinglar deymiz. Kitob o'qisangiz savol berishni bilasiz", degan edi davlat rahbari. Zamonaviy jamiyat malakali o'quvchiga qiziqish bildirmoqda, chunki biz ma'lumotlarning ko'pligi sharoitida yashayapmiz, shuning uchun kerakli ma'lumotlarni matndan ajratib olish va uni o'zgartirish eng muhim ko'nikmalarga aylanadi, ularsiz jamiyatda yashash va muvaffaqiyatga erishish mumkin emas. Buning uchun samarali o'qish texnologiyalaridan foydalanib o'quvchilarning o'qish qobiliyatini shakllantirish, muttasil o'qish odatiga ega bo'lgan, kitoblarni mustaqil ravishda tanlashni biladigan savodli o'quvchini shakllantirishga asos solish kerak.

Ushbu maqsadga erishish quyidagi vazifalarni hal qilishni o'z ichiga oladi :

1. Matnni tushunish va tahlil qilish uchun o'qish texnikasini shakllantirish; bir vaqtning o'zida o'qish jarayonining o'ziga qiziqishni rivojlantirish, o'qishga bo'lgan ehtiyoj;
2. Bolalarni adabiyot orqali inson munosabatlari, axloqiy qadriyatlar dunyosiga kiritish; estetik didni shakllantirish;
3. Og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish, nutq va kommunikativ madaniyatni egallash; bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;
4. So'z san'ati sifatida adabiyotga kirish, nazariy va adabiy tushunchalar bilan amaliy tanishish.

Samarali o'qishning maqsadi o'quvchilarda nafaqat o'qishda, balki keying hayotda ham zarur bo'lgan fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish (asosli qaror qabul qilish, ma'lumot bilan ishlash, hodisalarning turli tomonlarini tahlil qilish qobiliyati). Boshqacha qilib aytganda, ushbu texnologiya maktab o'quvchilarini o'qitishda kompetentsiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirishga yordam beradi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun har doim ham muammo mavjud: qanday qilib darslarini qiziqarli va mazmunli o'tkazish. Men adabiy o'qish darslarida tanqidiy fikrlash texnologiyasi dolzarb, degan xulosaga keldim, uning qo'llanilishi darsni jonlantirishga, uni o'quvchi uchun hayajonli va hissiy, ijtimoiy ahamiyatga ega qilishga imkon beradi. Shaxsning kognitiv qobiliyati rivojlanadi: har xil xotira turlari (eshitish, ko'rish, harakatlanish), fikrlash, diqqat, idrok. Shuningdek, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish shaxsning hurmat, o'zini o'zi tasdiqlash, muloqot, o'yin va ijodga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan.

Ushbu texnologiyaning xususiyati shundaki, o'quv jarayonida o'quvchi o'zi ushbu jarayonni real va aniq maqsadlarga asoslanib quradi, o'zi rivojlanish yo'nalishlarini kuzatadi, yakuniy natijani o'zi belgilaydi. Boshqa tomondan, ushbu strategiyadan foydalanish axborot bilan mulohazali ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu texnologiya darsda uchta bosqichdan foydalanishni o'z ichiga oladi: qiyinchilik bosqichi, semantic bosqich va aksettirish bosqichi.



1-bosqich - “Challenge” (bo‘sh varaqni tugatish). Bola o‘ziga ushbu masala bo‘yicha” Men nimani bilaman?” degan savolni beradi.

2-bosqich - “Tushunish” (tushunishni amalga oshirish). Ushbu bosqichda bola o‘qituvchining rahbarligi ostida va o‘rtoqlari yordamida birinchi bosqichda o‘ziga bergan savollarga javob beradi (men nimani bilmoqchiman?).

3-bosqich - “Ko‘zgu” (aksettirish). Bolaning ushbu muammo bo‘yicha darsda o‘rgangan narsalarini aksettirish va umumlashtirish.

O‘qish darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda “Juftlik bilan xulosa qilish”, “Sinxronizatsiya”, to‘xtash bilan o‘qish, “Bunga ishonasizmi...” texnikasi, aqliy hujum, “bilaman, o‘rgandim, o‘rganishni xohlayman” jadvali, anketalar bilan ishlash, ijodiyishlar yozish, mantiqiy zanjir ,burchaklar, klaster ...

“Juftlik bilan xulosa qilish” usuli yangi materialni tushuntirish uchun ham, o‘rganilgan narsalarni mustahkamlash uchun ham qo‘llanilishi mumkin. Sinfdagi bolalarga mavzu bo‘yicha bir nechta turli xil matnlar (yoki bir nechta juft o‘quvchilar uchun bir xil matn) taklif etiladi. Masalan, “Ikki qurbaqa” ertakini o‘rganayotganda sinf ikki guruhga bo‘linadi va har biriga ushbu asarning turli boblari beriladi. Har bir guruh o‘z parchasini o‘rganadi, belgining xarakterli xususiyatlarini katta varaqqa o‘rnatadi, so‘ngra butun sinf oldida uning qahramonini tasvirlaydi. Boshqalar javoblarni to‘ldirishlari va aniqlashtirishlari mumkin. Ikkala guruh taqdimotidan so‘ng, ushbu ishning asosiy g‘oyasi to‘g‘risida jamoaviy xulosa qilinadi.

“To‘xtash bilan o‘qish” usuli. Hikoya matniunga material bo‘lib xizmat qiladi. Dars bosqichi boshida o‘quvchilar matnning sarlavhasi bilan ishda nimalar muhokama qilinishini aniqlaydilar. Darsning asosiy qismida matn qismlarga bo‘lib o‘qiladi. Har bir bo‘lakni o‘qib bo‘lgach, o‘quvchilar syujetning yanada rivojlanishi to‘g‘risida taxmin bildiradilar. O‘qituvchining vazifasi matnda to‘xtash uchun eng yaxshi joylarni topishdir. Bu strategiya o‘quvchilarga boshqa odamning nuqtai nazariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishga yordam beradi va agar u yetarli darajada asoslanmagan bo‘lsa yoki tortishuvlar ishonib bo‘lmaydigan bo‘lib chiqsa, xotirjamlik bilan o‘zlarini rad etadi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Matchonov S. va boshqalar. O‘qish kitobi 4-sinf. – Toshkent.: “Yangi yo‘l poligraf servis”, 2020. 105-bet.
2. Vigotskiy L. S. Bola rivojlanishining psixologiyasi. – Moskva.: “Eksmo”, 2010. 512 b.



## ТА'ЛИМДАГИ ISLOHOTLARNING IQTISODIYOTDAGI AHAMIYATI

**Ergasheva Mohizarxon G'ofurjon qizi**  
Andijon Mashinasozlik Instituti talabasi  
Telefon; +998(90) 1403243  
mohizarahmed@gmail.com

**Annotatsiya:** ushbu maqolada, innovatsiyalarning ta'lim tizimiga joriy qilinishi, bu bosqichlarning samaradorligi va ularning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri haqida gapirib o'tamiz.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, innovatsiya, farmon, PISA(Program for International Student Assessment), IEA, YaIM.

Hozirgi kunga kelib ta'limga bo'lgan e'tibor kunga – kunga ortib bormoqda, chunki har bir soha ta'lim bilan chambarchas bog'liqdir. Ta'lim shunday bir soha-ki, u hamisha o'zgarib turishga moyil bo'lib, bir vaqtning o'zida ta'limdagi samaradorlik inqirozga yuz tutishi ham mumkin, bunday paytda esa innovatsiyalar yordam beradi. Har bir sohada, jumladan, ta'lim sohasida innovatsiyalarni qo'llash, uni bir joyda to'xtab qolmasligini davr talabiga mos ravishda rivojlanishini ta'minlaydi va bu nafaqat ta'lim balki boshqa sohalarga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Tabiiy-ki, ta'limdagi innovatsiyalar nima, qay hollarda foydalanilishi va ularning ahamiyati nimada kabi savollarlar paydo bo'lishi mumkin.

Innovatsiya aslida nima? Innovatsiya - bu amaliy haqiqatga aylangan g'oya, ya'ni ilmiy-texnika yutuklari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, va yangi g'oyalarning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo'llanilishidir.

O'zbekistonda ham ta'lim tizimiga va uni yaxshilashga bo'lgan talab tobora ortib bormoqda. Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmonini<sup>[1]</sup> misol keltirish mumkin. Ushbu farmoning ijrosini ta'minlash uchun bir vaqtning o'zida Maktabgacha ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda sog'liqni saqlash vazirliklari jalb qilingan.

Ta'lim sohasidagi innovatsiyalar juda yuqori munozarali masala bo'lib, ta'lim tizimlari innovatsiyalarni amalga oshirish qiyin masala deb aytilishi ham mumkin, bunga ayrim hollarda o'qituvchilar orasida o'zgarishga qarshiliklar bo'lishi va yangi tajribalar asosida o'qitish tizimlarini qisqa fursatlarda amalga oshirishda qiyinchiliklarning vujudga kelishi sabab bo'lishi mumkin, chunki ta'lim tizimiga biror bir yangilikni kiritishdan uni o'quvchilarga tadbiriq qilishdan avval bunga o'qituvchilarni tayyorlash lozim. Bu esa o'z navbatida o'qituvchi va murabbiylarga yuklatiladigan vazifalarning ortishiga olib keladi. Shunga qaramasdan ta'lim tizimini rivojlantirish va unga yangiliklar olib kirilishi mamlakat ravnaqi uchun xizmat qiladi, chunki bugungi yoshlar ertangi kunimizdir, ularga yaxshi ta'lim berish va ularni dunyo yoshlari bilan teng bilim olishiga imkon yaratish lozim. Hozirgi kunga elib butun dunyoda texnika va texnologiya rivojlanib bormoqda va ulardan ta'lim berish jarayonida foydalanish ham keng yo'lga qo'yilgan uchun mamlakatimizda ham o'quvchilarga maktab yoshidan boshlab axborot va kompyuter texnologiyalari bilan ishlash ko'nikmalari rivojlantirishga e'tibor qaratilgan. Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyevning "2017 — 2021-yillarda O'zbekiston respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi"da ham ta'lim tizimida innovatsiyalarni joriy qilish bo'yicha ishlar davlat dasturiga kiritilgan. O'zbekistonning xalqaro tadqiqotlarda (PISA, TIMSS, PIRLS va b.) ishtirokini ta'minlash maqsadida Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish. Bunda Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi va Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) o'rtasida kelishuv imzolash bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshiriladi. PISA – turli davlatlarda 15 yoshli o'quvchilarning (o'qish, matematika, tabiiy fanlar) savodxonligini hamda bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatini va kompetensiyasini baholovchi xalqaro dastur.

Bu dastur iqtisodiy hamkorlik va rivojlantirish tashkiloti tomonidan 3 yilda bir marotaba o'tkaziladi. Unda o'quvchilarning bilim sifati o'qish, matematika tabiiy fanlar bo'yicha monitoring qilinadi va 1000 ballik tizimda baxolanadi. Dastlab 1997-yilda ishlab chiqilgan va 2000-yilda



birinchi marta qoʻllanilgan. Dastur koʻmagida turli davlatlar taʼlim tizimidagi oʻzgarishlar aniqlanadi, solishtiriladi, baholab boriladi. Bu tadqiqotlarning natijasi dunyo boʻyicha katta qiziqish bilan kuzatib kelinadi. Shu bois yildan-yilga uning ahamiyati qamrovi oshib borayapti, bugun PISA tadqiqoti vositasi jahon iqtisodiyotining 80% ini tashkil etadigan 90 dan orti mamlakatlar bahs-munozaralar olib bormoqda. PISA boʻyicha bahoning 50 ballga oshishi har yillik Yalpi ichki mahsulot (YaIM) ning 1% ga oʻsishini taʼminlaydi. «Oʻquvchiga yodlashni emas, fikrlashni oʻrgatish kerak», 2021 yilda Oʻzbekiston ilk marta Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (OECD) PISA – oʻquvchilar savodxonligini baholash boʻyicha xalqaro dasturida ishtirok etadi. Bunda Oʻzbekiston 3 ta (oʻqish savodxonligi, matematik savodxonlik, tabiiy-ilmiy savodxonlik) yoʻnalish boʻyicha ishtiroki etishi koʻzda tutilmoqda. Keyingi yilgi sinovlarda Oʻzbekistondan taxminan 300ga yaqin maktab va taxminan 12 mingdan ortiq oʻquvchi qatnashishi kutilyapti.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkin-ki, innavatsion usullar bilan taʼlim tizimida islohotlar olib borishning samarasi har bir yoʻnlisga sezilarli taʼsirini koʻrsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. “2017 — 2021-yillarda Oʻzbekiston respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha harakatlar strategiyasi”
2. “Oʻzbekistonning yangi taraqqiyot davrida taʼlim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-6108-son Farmonini
3. Lex.uz
4. Kun.uz



## ADVANTAGES AND PROBLEMS OF USING LITERATURE IN TEACHING FOREIGN LANGUAGE

Fayziyeva Zamira,  
Nurulloyeva Kamola

The English teachers of the secondary school №8, Navoi

**Abstract:** The use of fiction in the process of teaching a foreign language is experiencing resurgence for a number of reasons. Part of the traditional approaches to teaching a foreign language using literary materials, where the learning process focused on the functional use of the language being studied, has become less popular.

**Keywords:** literary works, skills and abilities, reading, educational needs.

Introducing students of a foreign language to the literature of another people undoubtedly helps to develop an understanding of other cultures, introduces them to their peculiarities and differences, and fosters a tolerant attitude towards representatives of other communities. At the same time, excerpts from literary works often discuss universal themes, such as love, war, and loss, which are not always covered by the main content of textbooks.

The main goal of teaching a foreign language is the formation of communicative competence as the ability and readiness to carry out foreign language communication.

The achievement of this goal, i.e. the implementation of communicative activities, is possible when mastering a certain content of training, one of the components of which is skills and abilities. Among these texts are fiction and non-fiction, classic and contemporary works. When we say interactive methods, we mean foreign languages ensuring the mutual learning activity of students in teaching, the acquisition of knowledge in the process of communication exercises, methods and tools are understood. Interactive methods of teaching to identify problems, information analysis, finding opportunities and solutions to solve the problem, developing a clear goal strategy to achieve the goal, as well as make informed decisions, be able to persuade based on evidence, and persuade the interlocutor develops skills such as listening. Today, communicative education as a methodological system that can meet exactly these goals and objectives is being recognized. But at present communicative proponents of the approach methodology believe that any method or techniques is in the process of training unless they are relevant to the communicative situation, a specific goal, the vital interests and needs of language learners, they will not lead to any positive outcome. Unlike students of other profiles, for example, the profile "English and foreign language", many traditional aspects of linguistic training cause significant amount of time and patience of the teacher.

In modern research on the use of fiction for educational purposes, the following topical issues are raised:

- educating an active reader as an interpreter and co-author, decoding and creating meanings in the process of reading and discussing a literary text, developing critical and creative thinking
- effectiveness and possibilities of using poetic texts in the process of teaching literature in the native language and in the process of teaching a foreign (English) language
- teaching a foreign language based on the texts of children's and youth literature
- influence of extensive reading on foreign language acquisition;
- teaching a foreign language on literary material through the use of techniques of stylistic analysis of a literary text;
- children's fiction as a material for effective teaching of children with special educational needs, allowing them to develop their cognitive, emotional and social plans;
- principles, features, and advantages of teaching literature in a multicultural group;
- questions of teaching English literature to future English language teachers.

Thus, modern methodological research emphasizes the importance of including literary texts in the foreign language training program as authentic material that develops critical thinking and communicative competence:

- a) in the humanitarian aspect, related to the moral, emotional, intellectual and creative spheres through the correlation of the described themes, characters and events with their own experience;



b) in the linguistic aspect associated with the formation of skills in four types of speech activity, expanding the knowledge of authentic lexical and grammatical material and means of expression presented in significant contexts.

In this regard, our article raises the topical question of how the preparatory stage of work on the texts of literary works can be organized as a means of teaching a foreign language. The algorithm below can be useful for graduate students of pedagogical universities who are studying in these programs, their research supervisors, as well as teachers and teachers of foreign languages who are interested in developing an author’s course of studying a foreign language and foreign literature in the framework of General and higher school programs in Uzbekistan.

**References:**

1. Shokrolahi M. The Effect of literary vs. non-literary texts through critical reading approach on the reading comprehension development of Iranian intermediate EFL learners: Journal of Language Teaching and Research, 2014, vol. 5, no. 1, pp.215-220.

2. Zorba M. G. Prospective English language teachers’ views on literature- oriented courses ELT department. Procedia - Social and Behavioral Sciences, 2013, vol. 70, pp. 27

3. Zotova I. N. communicative competence as an aspect of socialization of a student’s personality in the conditions of Informatization of society// Actual socio- psychological problems of personality development in the educational space of the XXI century”, Kislovodsk: 2006, P. 109.



## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA OT MAVZUSINI O'RGATISH DAVOMIDA TA'LIMIY O'YINLARDAN FOYDALANISH

G'aybullayeva Aziza Elmurotovna,

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani

27-umumta'lim maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorligidagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning dars paytidagi hamkorligi o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ayrimlari hali maktab hayotiga to'la jiddiy yondashmagan bo'ladi. Shuning uchun yangi mavzuni o'rgatishda ta'limiy o'yinlardan foydalanilganda, o'quvchining mavzini eslab qolishi yuqori bo'ladi.

«O'zbek tilining izohli lug'ati»da o'yinga quyidagicha ta'rif berilgan.

1. Ko'ngil ochish, dam olish maqsadida qilinadigan erkin harakat yoki mashg'ulot
2. Boshqalar bilan musobaqa qilish uchun ma'lum qoidalar asosida o'tkaziladigan mashg'ulot
3. Ritmik harakatlar va mimikalar uyg'unligidan iborat san'at, raqs

Metodik asarlarda «oyin» so'zining ikkinchi ma'nosi asosida tafakkur o'stirishni, ya'nio'yinning ta'lim berish usuli, vositasi sifatida qoidalar asosida o'tkaziladigan mashg'ulot ekanligini ko'rsatib o'tmoqchiman.

Psixologlarning uqtirishicha, o'yin shunday faoliyat turiki, u bevosita biror moddiy yoki ma'naviy nematlar yaratishni nazrda tutmaydi, lekin jamiyatdagi murakkab va xilma-xil faoliyat normalari, harakatning simvolik andozalari bola tomonidan o'zlashtiriladi. O'quvchi toki o'ynamaguncha, kattalar xatti-harakatlarining ma'no va mohiyatini anglab yetolmaydi. O'yin – bu bolalar uchun o'qish, mehnat qilish va tarbiya vositasidir. Biroq, darsning asosiy qismini o'yin darsiga aylantirib qo'ymaslik kerak.

Boshlang'ich sinflarda ot so'z turkumi ustida ishlashda quyidagi ta'limiy o'yinlardan foydalanish mumkin:

«Bir so'zdan ikki ism o'yini». Sinf o'quvchilari uch guruhga ajratiladi va ularga gulning nomlari, mehnat qurollari hamda hayvonlarning nomlarini yozish va ularga atab qo'yilgan kishi ismlarini yozish topshiriladi. O'quvchilar yozadilar

rayhon- Rayhon, chinigul- Chinigul

lola- Lola, nilufar- Nilufar

bolta- Boltaboy, tasha- Teshaboy

o'roq- O'roqboy, bo'ri- Bo'riboy,

qo'zi- Qo'ziboy, olmaxon- Olmaxon

Shu so'zlarni yozishda qaysi biri bosh harf bilan va qaysi biri kichik harf bilan yozilishiga e'tibor berib, uni to'g'ri yozgan o'quvchi yoki o'quvchilar guruh g'olib bo'ladi.

O'qituvchi dars davomida «O'z shahringiz nomini sharhlay olasanmi?» o'yin-topshirig'idan foydalanib, atoqli otlar imlosi ustida ishlash mumkin. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilarga bu mavzuni oldin vazifa qilib beradi va ota-onasi, bobo- buvilaridan so'rab, shaharlari tarixi haqida bilib kelishlarini topshiradi.

«O'rmonda va uyda» o'yini. O'qituvchi o'yin haqida o'quvchilarga izoh beradi: O'rmonda yashaydigan yovvoyi hayvonlar va hovlida yashaydigan uy hayvonlari haqida o'ylang, hamda ularni ikki ustunga ajratib yozib chiqing, deyiladi.

O'rmonda Uyda

Bo'ri qo'y

Tulki ot

Sher sigir

Ayiq echki

Qaysi o'quvchi yoki o'quvchilar guruhi belgilangan vaqtda ko'p hayvon nomini yozsa, shu o'quvchi yoki guruh o'yin g'olibi hisoblanadi.

«Kichraytirish yoki erkalash otlarini tez top» o'yini. O'quvchilarni ikki guruhga bo'lib, birinchi



guruhga kichraytirish otlarini ( mushukcha, kuchukcha, qizcha...)ikkinchi guruhga erkalash otlarini (mittivoy,bolaginam, ..)yozish, shu so‘zlar ishtirokida gaplar tuzish, ularning ma’nosini tushuntirish kabi ijodiy va amaliy ishlar topshiriladi.

Ta’limiy o‘yinlarga qo‘yiladigan talablar quyidagilardan iborat:

1. Ta’limiy o‘yinlar o‘quvchining yoshiga mos bo‘lishi kerak.
2. O‘yinlar o‘tilayotgan mavzu mazmun-mahiyatiga mos bo‘lishi kerak
3. Ta’limiy o‘yinlar o‘tkazish vaqti aniq belgilanishi kerak.
4. Ta’limiy o‘yinlar ham ta’limiy , ham tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lishi kerak.
5. Ta’limiy o‘yinlarning o‘tkazilish maqsadi,ahamiyatibelgilanishi lozim.

Xulosa qilib aytganda,o‘yinlar yordamida o‘quvchilarning darsga qiziqishlarini orttirish va tafakkur doiralarini kengaytirish mumkin.Bu usulda o‘quvchilar mavzuni oson va yaxshi tushunadilar.

O‘yin paytida o‘quvchilar har doim o‘zlariga tanish bo‘lgan manbalarga asoslangan holda ish tutadilar, natijada bu materiallar ularning xotirasiga yana ham mustahkam o‘rnashib qoladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.2- jild . –M.: Russkiy yazik, 1981 –B 498
2. Karimova V.Psixologiya –T,:A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002, B 76.



## TASVIRIY SAN'AT VA CHIZMACHILIK DARSLARINI ILG'OR PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH.

**Ibadullayeva Sanobar Egamberganovna**

Xorazm viloyati Urganch tumanidagi  
36-sonli ayrim fanlarga ixtisoslashgan  
umumiy o'rta ta'lim maktabning tasviriy  
san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada tasviriy san'at va chizmachilik darslarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida olib borish samaradorligi haqida bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** tasviriy san'at, dars mashg'ulotlari, rasm chizish, metodlar, grafika.

Tasviriy san'at darslari o'quvchilarda ijodkorlik, fikrlash, tasavvur qilish kabi qobiliyatlarni rivojlantiruvchi amaliy va ijodiy fan hisoblanadi. Tasviriy san'at va chizmachilik darslarini qiziqarli va tushunarli olib borish bu fan o'qituvchilari oldida turgan murakkab vazifalardan biridir.

Ma'lumki, tasviriy san'atning dars mashg'ulotlari besh turdagi mashg'ulot xarakterida yoki texnologiyada amalga oshiriladi:

1. Narsaga qarab rasm ishlash.
2. Tematik kompozitsiya ustida ishlash.
3. Dekorativ amaliy-bezak san'ati.
4. Haykaltaroshlik ishlari.
5. San'atshunoslik asoslaridan tashkil topgan mashg'ulotlar turlarida olib boriladi

Bu darslarning texnologiyasi bir mazmunda bo'lsa-da, ulardagi ta'lim berish texnologiyasi albatta bir-biridan farqlanadi. Ya'ni «narsani o'ziga qarab rasm chizish» mashg'ulotlarida naturadan, buyumning o'zini ko'rib, undan shaklning imkoniyati boricha naturadan tasvirlanadi. Tematik kompozitsiyada esa o'quvchilar o'ylab-o'ylab, uzoqlarga qarab, nimalarnidir esga olish asosida rasm chizadilar.

Haykaltaroshlikda esa, qalam-bo'yoq bilan emas, loy-plastilin bilan, oz bo'lsa-da, jismoniy mehnat vositasidagi mashg'ulotlar texnologiyasi mashg'ulotning asosi bo'ladi. Shuning uchun tasviriy san'at darslaridagi pedagogik texnologiyalar ta'rifini keltirish va ulami «Dars texnologiyasi» turlariga ajratishda ham alohida e'tibor zarur bo'ladi.

Xo'sh, maktabda tasviriy san'atni o'qitishdagi pedagogik texnologiyani umumiy holda qanday tushunamiz?

Tasviriy san'atning pedagogik texnologiyasi — bu tasviriy san'at o'qituvchisining o'quvchilarga ma'lum davrda va sharoitda san'at bilimi va malakasini berish vositalari asosida oldindan belgilangan maqsadga erishish hamda bu vazifani bajarishni kafolatlay oladigan pedagogik jarayon.

Ya'ni o'qituvchining 45 minut dars jarayonida belgilangan, mo'ljallangan maqsadga erishish uchun ta'lim va tarbiya vositalaridan foydalanishning didaktik, metodik va uslubiy jarayonlari majmuasi asosida kafolatlangan natijalarga erishishni ta'minlaydigan pedagogik jarayondir.

Maktabda tasviriy san'at fanini o'qitishda ham pedagogik texnologiyaning «dars texnologiyasi», «o'qitish texnologiyasi» va «ta'lim texnologiyasi» kabi ko'rinishlaridan foydalaniladi.

Tasviriy san'at o'quv fanining dars va ta'lim texnologiyasi talabiga ko'ra, o'qituvchi dadil harakat qiladigan, o'ylab gapiradigan, toza, aniq nutq-tovushda qisqa, mazmunli, imo-ishoralaridan ko'proq foydalana oladigan bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Tasviriy san'at fani o'qituvchisi yaxshi tinglaydigan, mantiq chiqara oladigan, yana o'qishni, yozishni, gapirishni va chiza olishni yuksak darajada egallagan bo'lishi zarur. Umuman, tasviriy san'at o'qituvchisi o'zining ijodkorligi, tashabbuskorligi va adolatli bo'lishi bilan boshqa fan o'qituvchilaridan farq qiladi. Chunki u doimo rasm chizish, bevosita san'at asari yaratish bilan mashg'ul bo'lishi kerak. U har kuni biron yangilik yaratish taraddudida bo'ladi. Yana u o'z tashabbusi bilan tasviriy san'at kabinetini tashkil etadi. U har kuni biron narsa (didaktik material, ko'rgazma qurol) yasaydi. Natura fondini ko'paytirish bilan shug'ullanadi. Pedagogik mahoratini oshirib borishi uchun o'z ustida ishlaydi. Biz tasviriy san'at o'qituvchilari darslarimizda o'quvchilarni ijodkorlikka, diqqatni jamlashga hamda fanga bo'lgan qiziqishlarini orttiradigan metodlardan foydalansak



yaхshi va samarali natijalarga erishamiz.

Xullas, maktabdagi tasviriy san'ati darslarida «O'qituvchi og'zaki bayon etish», «Ko'rgazmali o'qitish», «Amaliy ishlar» metodi va ularning zaruriy uslublaridan muntazam holda foydalaniladi. Buni tasviriy san'atni o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyasi talab qiladi. Bu uch o'qitish metodidan foydalanishning samarali yo'li o'qituvchi, eng avvalo, tasviriy san'atni o'qitishdagi yangi zamonaviy pedagogik texnologiyani yaxshi tushunib, undagi «motivatsiya», «tabaqalashtirish», «integratsiyalash» kabi yangi pedagogik tamoyil va qoidalarni anglab, ulardan o'z o'rnida foydalanib borishi lozim. Bu qoidalar o'qituvchidan fanlararo va predmetlararo bog'lanish tamoyilida ijod qilishni talab qiladi.

Darslarni ana shunday ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini orttiradi, dars samaradorligi yuqori bo'ladi.



## ТА'ЛИМ ЖАРAYONIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IJODIY FIKRLASHLARINI RIVOJLANTIRISH

**Karimova Dildora Xasanboyevna**  
Farg'ona viloyati, Farg'ona tumani  
49-sonli o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish usullari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** ijod, qobiliyat, tasavvur, fantaziya, ijodiy fikrlash, savol, xayol.

*Tasavvur qilish qobiliyati bilimdan yuqori,  
chunki kashfiyotlar tasavvursiz amalga oshirilmaydi.*  
*A. Eynshteyn*

Hozirgi vaqtda shaxsning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muammosi birinchi darajali ahamiyat kasb etmoqda. Shaxsiyatni rivojlantirish va shakllantirishning o'ta muhim davri - bu mashg'ulotning boshlang'ich davridir. Aynan shu yosh bolaning ijodiy qobiliyatlarini tarbiyalash va rivojlantirishga ko'proq yordam beradi. Tasavvur, fantaziya, ijodiy fikrlash rivojlanadi, qiziquvchanlik tarbiyalanadi, hodisalarni kuzatish va tahlil qilish, taqqoslash, faktlarni umumlashtirish, xulosalar chiqarish, faoliyatni amaliy baholash qobiliyati shakllanadi. Bolalar faollik, tashabbuskorlik ko'rsatishni boshlaydilar, ular qiziqish, moyillikni rivojlantiradilar, farqlaydilar va ijodkorlik asosida yotgan ehtiyojlar shakllanadi.

**Ijod** —bu insonning yangi moddiy va ma'naviy ne'matlar yaratish faoliyati hisoblanib, unda inson tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati, irodasi faol ishtirok etadi, butun bilimi, tajribasi, iste'dodi namoyon bo'ladi. Ijod dastlab inson tasavvurida tug'iladi, keyin ijodga taalluqli masalalar yuzasidan izlanishlar olib boriladi.

Bolalarda ijod asta-sekin rivojlanib, rivojlanishning bir necha bosqichlarini bosib o'tadi. Ushbu bosqichlar ketma-ket davom etadi: keyingi bosqichga tayyor bo'lishidan oldin bola avvalgilarida shakllangan fazilatlarini o'zlashtirishi shart. Ijodiy fikrlash to'g'ridan-to'g'ri ma'lum bir bosqichda rivojlanishning eng yuqori darajasiga ega bo'lgan ushbu fikrlash turining rivojlanish darajasiga bog'liq. Binobarin, bolaligidanoq har qanday fikr harakatlarida bir-birini muvozanatlashishi, hamrohlik qilishi va vaqti-vaqti bilan almashtirib turishi uchun ijodiy fikrlashni ham, tanqidiy fikrlashni ham rivojlantirish zarur.

Ijodkorlikni aniqlash uchun quyidagi parametrlar ajratiladi (Torrance modeli bo'yicha):

- fikrning ravonligi (ilgari surilgan g'oyalari soni);
- fikrning moslashuvchanligi (bir fikrdan ikkinchisiga o'tish qobiliyati);
- o'ziga xoslik (nafaqat ishlab chiqarish, balki o'ziga xos g'oyalarni ifoda etish, yangi narsalarni ixtiro qilish qobiliyati);
- qiziqish;
- tavakkal qilish qobiliyati (bolalar kulgili bo'lsa ham, har qanday g'oyani bayon qilishdan hali uyalmaydi);
- tezkor fikrlash;
- turli fikrlash;
- boy tasavvur.

Boshlang'ich maktab yoshida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish ma'lum sharoitlarda eng samarali hisoblanadi.

Boshlang'ich maktab o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini samarali rivojlantirish shartlari:

- tanlangan vaziyatlar yaratiladi, o'quv jarayoni tasavvurni hisobga olgan holda amalga oshiriladigan vazifalarni o'z ichiga oladi;
- hammualliflik bolalar jamoasida har kimning ijodiy qobiliyatlarini namoyon etish va rivojlantirish maqsadida tashkil etiladi;
- ijodiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari qo'llaniladi;
- diagnostika natijalari muntazam ravishda kuzatib boriladi.

Har bir bolada turli xil layoqat mavjud. Albatta, hamma bolalar ham yozish, tasavvur qilish, ixtiro qilish qobiliyatiga ega emas. Va shunga qaramay har bir insonning iste'dodini rivojlantirish



mumkin. Ularni rivojlantirish uchun ragʻbatlantirish zarur.

Ijodkorlikni ragʻbatlantirish usullari:

- qulay muhitni taʼminlash;
- oʻqituvchi tomonidan xayrixohlik, bolani tanqid qilishdan bosh tortish;
- uning qiziqishini rivojlantirish uchun atrofdagi muhitni turli xil yangi narsalar bilan boyitish;
- asl gʻoyalarni ifodalashni ragʻbatlantirish;
- bolalarga faol savollar berish, ochiq gapirish imkoniyatini berish.

Ijodiy jarayonning rivojlanishi, oʻz navbatida, tasavvurni boyitadi, bolaning bilimlari, tajribasi va qiziqishlarini kengaytiradi. Ijodiy faoliyat bolalarning his-tuygʻularini rivojlantiradi, xotira, fikrlash, idrok, diqqat kabi yuqori aqliy funktsiyalarni optimal va intensiv rivojlanishiga hissa qoʻshadi, bu esa oʻz navbatida bolaning oʻqish muvaffaqiyatini belgilaydi.

Ijodiy fikrlashni kuchaytirish usullari

1. Aqliy hujum. (Muammo qoʻyish, gʻoyalarni ilgari surish va muhokama qilish, qaror qabul qilish.)

Usulning vazifalari: bolalarni gʻoyalarni yaratishga oʻrgatish, shu bilan birga bolalardan ularning har bir gʻoyasi toʻgʻri va oqilona boʻlishini talab qilish shart emas; oʻz fikrlaringizni jamoat oldida jasorat bilan ifoda etish; bolalarni orzu qilishga oʻrgatish; bildirilgan fikr zaif boʻlsa ham, uning gʻoyasini maqtash orqali qoʻllab-quvvatlash; bolalarning umumiy faoliyatini baholash.

2. Test savollari usuli. (Muammoni shakllantirish, savollarni tuzish, savollarga javob berish jarayonida yechimni shakllantirish, eng yaxshi echimni tanlash).

Bizning fikrlashimiz asosan savollar berish va ularga javob berishdan iborat.

**Savol** - bu maʼlumotga boʻlgan ehtiyojni ifoda etadigan fikrlash shaklidir. Savol berish - fikrlashni boshqarish va odamlar oʻrtasida teskari aloqani taʼminlash. Kuchli fikrlash, xususan, savollarni shu nuqtaga qadar bera olish qobiliyatidir. Savolsiz fikr yuritish mumkin emas. Savoldan javobgacha boʻlgan yoʻl fikrning ishidir. Fikrni rivojlantirish maqsadida bolalarni savollarni toʻgʻri berishga oʻrgatish tavsiya etiladi.

3. Fantaziya va tasavvurni rivojlantirish usuli. (Fantaziya - bu yangi, ammo haqiqiy boʻlmagan, afsonaviy, hozirgacha imkonsiz vaziyatlar va obʼektlarni yaratish, lekin ayni paytda haqiqiy bilimga asoslangan holda)

Bu fikrlash turlari, xotirada nimani tasavvur qilish qobiliyatidir. **Xayol** - bu haqiqiy bilimga asoslangan holda mumkin boʻlgan va mumkin boʻlmagan narsalarning yangi gʻoyalari va tasvirlarini aqliy ravishda yaratish qobiliyatidir.

Shunday qilib, oʻquvchilarda boshlangʻich sinf davridayoq, ijodiy fikrlashini rivojlantirishga urinish bu-uning kelajakdagi ijodiy fikrlash jarayoniga erishishining kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. ped-kopilka.ru
2. W uz.wikipedia.or>ijod



## О‘QUVCHILARNI CHIROYLI YOZUV TEXNIKASIGA O‘RGATISH

Suleymanova Nargiza Abdujaborovna

Navoiy viloyat Qiziltepa tuman

25-umumta'lim maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Husnixat va uni o'qitish metodikasi pedagogik fan. Inson o'z fikrini boshqa kishilarga og'zaki va yozma shaklda yetkazishi mumkin. Nutqning bu shaklining o'xshash va farqlash tomonlari mavjud bo'lib ular o'z o'rnida afzalliklarga ega.

Og'zaki nutq tovush chiqarib aytiladi va eshinish uchun mo'ljallanadi. U kishilarning nutq jarayoni vaqtidagi aloqa vositasi bo'lib xizmat qiladi. Yozma nutq esa tosh, yog'och, teri, metall, qog'oz kabilarga ko'rish asosida idrok qilinadigan doimiy belgilar orqali yozib qo'yiladi. Yozuv kishilarning o'zaro fikr almashishi va bilimlarni egallashning qudratli vositasi hisoblanadi. Yozma nutq avlodlarni bir-biriga bog'laydi, uzoq saqlanadi. Yozuv tufayli kishi fikri, insoniyat qo'lga kiritgan bilimlar avloddan-avlodga yetib boradi, abadiy yashaydi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni husnixatga o'rgatish ehtiyoji yuqoridagi talablar asosida yuzaga keladi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni husnixat bilan yozishga o'rgatish metodikasi ularda aniq, chiroyli va tez yozish imkonini hosil qilishi lozim. Bu kabi vazifalarni amalga oshirish uchun dastur mazmunini va uning talablarini o'qitish usullarini yozuviga o'rgatishning gigeyenik shartlarini, o'quvchilarning yozuvidagi individual kamchiliklarini tahlil qilish sabablarini aniqlash va tuzatish usullarini ishlab chiqish zarur.

Demak yozuv kishi hayotida pedagogik va ijtimoiy ahamiyatga ega.

Yuqoridagi talab asosida yozishga o'rganishi boshlang'ich sinflardan boshlanadi. 1-4-sinf o'quvchilarini chiroyli yozishga o'rgatish uchun o'qituvchining o'zi husnixat bilan yozishi, shu bilan birga o'quvchilarni chiroyli yozishga o'rgata olishi kerak.

Husnixat va uni o'rgatish fani amaliy fan bo'lib u chiroyli yozishga o'rgatish bilan bir qatorda o'qitish tarbiyalash, vazifalarini bajaradi. Bunday vazifalardan biri o'quvchilar husnixatining talab darajasida bo'lishidir. Psixologiyada shunday yo'nalish borkii, kishilarning qo'yan imzosiga, yozuviga qarab uning qanday kishi ekanligi haqida ma'lumot bera oladi. Biz o'qituvchilar ham o'quvchining yozgan yozuviga qarab u haqida yaxshi fazilatlar: tartibli, mehnatsevar, didli, farosatli ekanligini yoki aksincha erinchoq, shoshqaloq yoki e'tiborsiz kabi yomon illatlar egasi ekanligi haqida ham ayta olamiz. Hayotda shunday o'quvchilar borki, barcha fanlardan yaxshi bilsa ham yozuvda husnixat qoidalariga amal qilmaydilar. Ularga erinchoqlik, shoshqaloqlik yoki e'tiborsizlik ustunlik qiladi. Bunday o'quvchilarning husnixatini yaxshilash uchun avvalambor ularni bu yomon illatdan xolos qilish kerak.

Buning uchun ayniqsa, biz boshlang'ich sinf o'qituvchilari har kuni qolaversa, har soat o'quvchiga eslatma berib, kezi kelganda o'quvchini maqtab, qolgan o'quvchilarga namuna qilib ko'rsatib o'ziga ishonch paydo qilishimiz zarur.

Shundagina o'quvchi husnixatiga o'zgartirish kirita olamiz.

Chiroyli va to'g'ri yozish san'atidir. Bunga erishish uchun yozuv qoidasiga rioya qilish kerak. Yozganda to'g'ri o'tirish kerak. Engashib yoki gerdayib yozish yaramaydi. Engashganda ko'z toliqib qoladi. Gerdayib yozganda ham ko'zning chamalashi susayadi. Ruchkani uchta barmoq bilan to'g'ri ushlash lozim. Daftar chizig'iga rioya qilib, harflarni dona-dona qilib yozish zarur. Shunda xat chiroyli chiqadi.

Kichik yoshdagi o'quvchilarni chiroyli yozishga o'rgatish uchun ularni maktabga kelgan kunlaridan boshlab quyidagi vazifalarni bajarishga o'rgatish zarur.

1. Yozuv vaqtida partada to'g'ri o'tirish.
2. Yozuv qurollaridan to'g'ri foydalanish.
3. Daftardan to'g'ri foydalanish.
4. Yozma shakldagi harf va uning unsurlari bilan tanishtirish.
5. Yozma shakldagi harflar yordamida bo'g'in so'z va gaplar yozish.

Husnixat malakasini shakllantirish uchun birinchi navbatda harflarning shaklini to'g'ri tasavvur qilishga, bir xil qulaylik (75 gradus) da yozishga harf unsurlarini bir

–B biriga to'g'ri bog'lab yozishga, so'zlarda harflarni to'g'ri bog'lashga so'zlarni qatorlarga to'g'ri joylashtirishga o'rgatish zarur.

Harflarning qiyaligini va ular orasidagi masofani to'g'ri saqlash, kichik va bosh harflarning nisbatini to'g'ri chamalab yozishga o'rgatish lozim.

Bu sinfda umumiy didaktik qoidalar, takroriylik, ko'rgazmalilik, ongillik husnixat qoidalarini



amalga oshirishda juda muhimdir.

Ayniqsa, ko'rgazmalilik chiroyli yozuv malakasini singdirishda kata ahamiyatga ega. Endigina maktabga kelgan o'quvchiga biror bir harfning shaklini tushuntirishda u yoki bu harfning yozilishini, ularning bir –biriga bog'lanishini, kichik va bosh harflarning bir –biriga nisbatini, balandligini, qiyaligini, ruchkani ushlab va to'g'ri o'tirish qoidalarini yaxshi tushuntirish lozim. Bu davrda olingan bilim va malakalar o'quvchilar uchun doimiy qoida bo'lib qolishi kerak.

Chiroyli yozuv malakalarini shakllantirishda birinchi navbatda gigiyena

talablariga rioya qilish muhim. O'quvchilarda chiroyli yozuv malakalarini hosil qilish uchun diqqat, sezgi, idrok etish, xotira kabi psixofiziologik funksiyalar ishtirok etishini ko'ramiz. Bu bog'lanishlar miyada mustahkamlanadi va saqlanib qoladi. Bu hol o'quvchiga idrok etgan va sezgan narsalarini xotiraga muhrlash imkonini beradi.

Bolalar maktabga qadam qo'ymasdan oldin qo'lga qalam olib turli shakllarni chiza boshlaydi, ammo bu chiziqlar chiroyli yozuv talablariga to'g'ri kelmasa-da, ulardagi ayrim malakalarning (ruchka, qalam ushlab) shakllanishiga yordam beradi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning barmoq mushaklari yaxshi rivozlanmaganligi uchun ularga surunkali yozdirish, mashq qildirish yozuvning sifatiga salbiy ta'sir qiladi. Yozuv jarayoni turli yozuv qurollari (ruchka, qalam, bo'r) orqali amalga oshiriladi va qaysi yozuv qurolidan foydalanishga qarab qo'l harakatlari shunga moslashtiriladi. O'quvchini chiroyli yozuvga o'rgatish uchun birinchi navbatda quyidagi malakalarni singdirib borish talab etiladi:

1. Yozuv qurolidan to'g'ri foydalanish.
2. Parta ustida daftarni to'g'ri qo'yish.
3. Yozayotganda gavdani to'g'ri tutish va tirsaklarni to'g'ri harakat qildirish.
4. O'z yozuvini berilgan namuna bilan taqqoslashga o'rgatish.
5. Bosma harflarni yozma shaklga aylantirishga o'rgatish.
6. Harflarni bir- biriga bog'lab yozishga o'rgatish.
7. Harflarni bir xil balandlikda va tekis yozishga o'rgatish.
8. Harflar qiyaligini to'g'ri saqlash.

Yozuv malakasi 6-7 yoshli bolalar uchun o'qituvchi tomonidan bevosita kuzatib borilish zarur bo'lgan qiyin jarayondir. Xuddi shu davrda o'quvchilar tomonidan bajarilgan mashqlar kelgusi uchun muhim ahamiyatga ega deb o'ylayman.

O'quvchining dastlabki yozgan harf yoki usurlarini yuqori baholab uni rag'batlantirib borish yaxshi natija beradi. O'quvchi ruhlanadi, o'ziga bo'lgan ishonchi ortadi va qiyinroq harflarni yozishdan cho'chimaydi. Ko'proq ularning irodasini mustahkamlashga harakat qilishimiz zarur. Buning uchun o'quvchilarga bemalol mustaqil bajara oladigan topshiriqlardan tez –tez berib turish kata rol o'ynaydi. Bu davrda bolalardagi psixologik xususiyatlarni tarbiyalash hamda ularning fiziologik o'sishlarini hisobga olish biz boshlang'ich sinf o'qituvchilarining muhim vazifamizdir. Dastur talablari bo'yicha 1-sinf o'quvchilari "Alifbe" kitobiga ilova tariqasida chiqarilgan "Yozuv daftari" dan foydalanishlari lozim.

"Yozuv daftari" sifatli qog'ozdan ishlangan, silliq va chiziqlari aniq ko'rinib turadigan bo'lishi lozim. Daftardagi qiya chiziqlar oralig'i 25 mm, qiyaligi 75 gradus, kichik harflar yoziladigan satr chizig'i oralig'i 5 mmga teng bo'lishi lozim.

O'quvchilar uchun tavsiya etiladigan ruchkaning yog'onligi ularning qo'l barmog'iga mos bo'lib, uzunligi 130 mmdan oshmasligi lozim. O'quvchilar yozuvining sifati ko'p jihatdan yuqorida ko'rsatib o'tilgan yozuv qurollariga ham bog'liq. O'quvchilar husnixatini yaxshilash uchun ulardan tez -tez diktant olib turish zarur. Negaki, o'quvchi diktant yozish jarayonida bor diqqatini ana shu yozuvga qaratadi. Bu jarayonni savod o'rnatish davridan (2 ta harf o'rgangandan keyin) boshlash yaxshi samara beradi. Diktant yozish jarayonida o'quvchini doimiy nazorat qilish, husnixat qoidalariga amal qilgan o'quvchilar yozuvini maqtab, ularni rag'batlantirib borish, qolganlarga namuna qilib ko'rsatib o'quvchini ruhlantiradi va chiroyli yozishga undaydi. Qolgan o'quvchilar ham ularga o'xshashga harakat qiladi.

O'quvchilar husnixatdan tashqari imloviy xatolarga ham yo'l qo'yadilar. O'quvchilar tomonidan yozilgan diktantlarni tekshirish va baholash to'liq oqilonalikka, obektivlikka asoslanishi kerak. Diktant yozishda jiddiy xatolarga yo'l qo'ygan o'quvchilar bilan alohida ishlash talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Husnixat o'qitish metodikasi" TOSHKENT – 2006
2. "Savod o'rgatish darslari" o'qituvchi kitobi TOSHKENT–2012yil "Tafakkur" nashriyoti



## EFFECTIVE WAYS TO USE INTERACTIVE METHODS IN LEARNING ENGLISH TODAY

**Kohorova Mukhayo Uktamovna,**  
English Teacher of the secondary school № 2  
Karmana district, Navoi

**Abstract:** The article is devoted for the effective ways of teaching grammar. Actuality of the theme is justified as it sets conditions for revealing high progress in teaching a foreign language and for developing effective methods which can be helpful for foreign language teachers. Different progressive methods of teaching English grammar are given in this paper as well.

**Keywords:** interactive methods, communication, effective lesson, teaching methods; education, learning language;

Today, in its most general form is defined mandatory minimum content of social scientific education graduates. Teachers became known list of the main teaching units.

Gradually formed an idea of what to do in foreign language lessons, what is taught. But there are still teachers and trainers concerned about how to teach and train how to teach and learn. Great teachers are nimble, observant, and responsive, always keeping an open mind about how to best engage their students and get them excited about learning - and that means considering trying out different interactive teaching styles in the classroom.

Under an interactive learning means a special form of organization of cognitive activity, which involves very specific and predictable target. So, one of these goals - the creation of comfortable conditions for interaction of teacher and student, i.e. the conditions under which a student feels their success, their intellectual consistency, which makes productive the learning process. The essence of interactive learning is an organization of educational process in which virtually all students are involved in the learning process, they have the ability to understand and the reflected over the fact that they know and think.

However, when it comes to teaching in schools and other institutions this might be required. There are many different ways of making grammar a little more interesting. A variety of different games can be designed in order to help with this.

1. Including Games. Games and fun activities are a vital part of teaching English as a foreign language. Whether you're teaching adults or children, games will liven up your lesson and ensure that your students will leave the classroom wanting more.

They can be used to warm up the class before your lesson begins, during the lesson to give students a break when you're tackling a tough subject, or at the end of class when you have a few minutes left to kill. There are literally hundreds, probably thousands, of games that you can play with your learners. EFL games are used to test vocabulary, practice conversing, learn tenses - the list is endless. This will often get the learners motivated to get the answers right and therefore allow them to learn much faster. Amongst teenagers this can be particularly effective, whether the class is divided into two or more groups. By turning it into a competition, everyone will become a lot more active and a lot of fun can be had by every-one. Grammar games are particularly useful in an ESL classroom to make sure that grammar points are being absorbed by students.

2. Telling a Story. Another way to make grammar a little easier to digest is to teach it in the form of storytelling. Perhaps get the learners to form a "story stick" where-by everyone contributes a line to the overall story. If there are any grammar mistakes in this, then leave it until the end. When the entire story is finished and written out on the board, get a learner to come up to it and make the appropriate corrections. With participation from the class, have the entire text corrected. Ask the students questions as to why certain tenses are the way they are. Having something to focus on like this will keep their attention and therefore allow for the understanding of grammatical structures to sink in a lot easier.

3. Using songs. Music is often a great way of getting students to learn. By singing phrases, this will become embedded into the mind a lot faster. This is particularly true if one is teaching children or even teenagers. In order to do this, find a song that uses several tenses or differing grammar points. Get the students to sing along, and then write up the lyrics on the board. Get



them then to sing it together, getting the tune into their head. After this, one can then quiz them on what tenses or grammatical points are in the actual text. Make this short and quick, and once they get the hang of it have them sing the song again. After this, try and make a game out of it. Select individuals to say or sing a verse or phrase from the song, but change the tense. This way they will be able to practice with using the different tenses and verb forms, but in a much more light-hearted way.

4. Making class communicative. Communicative classes focus on communication and language use by learners rather than theory and repetitive practice. Make a habit of encouraging your pupils to use the language that they know to get their meaning across, even when the grammar isn't perfect. In grammar class, include speaking activities and give your learners a chance to put their language use to practical applications whenever possible.

Thus, using an interactive approach to teaching English, you can optimize the process of mastering the skills of foreign language and make it more effective in higher education.

**Reference:**

1. Harmer, Jeremy. The Practice of English Language Teaching. Essex: Longman Press. (2001).
2. Khristorojdestvenskaya L.P. “English course”
3. Oxford Picture Dictionary Book (2nd Edition)



## BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA MATEMATIK MASALALAR YECHISH ORQALI INSONIYLIK TUYG‘USINI SHAKLLANTIRISH INKONIYATLARI

**Madaminova Durdona Muxtorovna**  
FDU o‘qituvchi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini matematik masalalar yechishga o‘rgatish orqali insoniy fazilatlari ruhida kamol toptirish haqida fikr boradi.

**Kalit so‘zlar:** Insoniylik, qadriyat, integratsiya, fidoiy inson, boshlang‘ich ta‘lim konsepsiyasi, masala.

Yosh avlodni insoniy fazilatlar bilan qurolantirish ta‘lim – tarbiya tizimi oldida turgan asosiy masalalardan biridir.

**Insoniylik** — insonlik, odamgarchilik chegarasida qilinadigan ishlar, odamga yarashadigan, unga zeb bo‘ladigan, shaxsini ulug‘laydigan fazilatni, hayotga, odamzot taqdiriga gumanistik munosabatni anglatadigan tushuncha. Insoniylik g‘oyalari uzoq tarixga ega bo‘lib, uning yorqin ifodasi bo‘lgan ijod namunalari, real dalil va misollar xalq og‘zaki ijodiyotida, badiiy adabiyotda, diniy va falsafiy ta‘limotlarda, turli xalqlarning tarixi, maddiy merosida asrlar davomida yashab kelmoqda.

Insoniy fazilatlarni boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ongiga singdirishda uning o‘ziga xos xususiyatlarini aloxida qayd qilish maqsadga muvofiqdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ongiga insoniy fazilatlarni singdirishda bolalarga bu borliqni borlig‘icha his qilishni urgatish orqali insoniy fazilatlar tarkib toptiriladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga insonga xos bo‘lgan amallarni o‘rgatishda birinchi navbatda bevosita ularning faoliyati darsdagi faoliyatiga e‘tibor qaratish kerak. Uni amalga oshirishda, har bir boshlang‘ich sinf o‘quvchisi bunyodkor g‘oyalarni to‘liq anglab yetgan bo‘lishi va bu yo‘lda tinmay mehnat qilishi kerak bo‘ladi. Bu o‘z navbatida shaxs ma‘naviy kamoloti bilan bog‘liq masalalar bo‘lib, u bugungi kunning eng dolzarb muamollaridan biri hisoblanadi. Yoshlarni insoniy fazilatlar bilan qurollantirishda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish masalasini ishlab chiqish kerak.

Boshlang‘ich ta‘lim konsepsiyasi maktabgacha ta‘lim konsepsiyasining ma‘naviy davomi bo‘lib, unda ham bu g‘oya o‘z aksini topadi. Bolani har tamonlama shakllantirish, undagi jismoniy sog‘lomlik, aqlan rivojlanish va ma‘naviy kamolotning mujassam va mutanosib rivojlanishi boshlang‘ich ta‘limning asosiy xususiyatlari sifatida e‘tirof etiladi. Shuning uchun boshlang‘ich ta‘lim yakka holatdagi, o‘z predmeti doirasida yopiq bo‘lgan, faqat sanash, yozish va o‘qishga oid malakalarini shakllantirish bilan chegaralangan ta‘lim tizimidan voz kechgan holda ona tili, matematika, tarbiya fanlari bo‘yicha integratsiyalashgan va o‘zaro mazmun uzviyligi va uzluksizligi namoyon bo‘lgan rivojlantiruvchi xususiyatga ega bo‘lgan ta‘lim tizimiga o‘tdi.

O‘quvchilarni insoniylik g‘oyalari ruhida tarbiyalashda masalalarning o‘rni ahamiyatlidir. Fikrimiz dalilini 2-sinf darsligi tahlili misolida ko‘rib o‘tamiz.

**1-masala.** Maktab hovlisida 38 tup olma ko‘chati bor edi. Yana 4 tup anor va 5 tup olcha ko‘chati ekildi. Maktab hovlisiga jami necha tup ko‘chat ekilgan?

**Berilgan:**

Bor di- 38 tup olma

Ekildi – 4 tup anor va 5 tup olcha

Jami -? tup ko‘chat

**Yechilishi:**

$38+(4+5)=47$  **Javob:** Maktab hovlisiga jami 47 tup ko‘chat ekilgan.

**2-masala.** Maktab hovlisida 38 tup olma ko‘chati bor edi. Yana 4 tup anor va 5 tup olcha ko‘chati ekildi. Maktab hovlisiga jami necha tup ko‘chat ekilgan?

**3-masala.** Yil davomida bir qishloqda 29 ta, ikkinchi qishloqda 22 ta yangi uylar qurildi. Ikkala qishloqda bir yilda hammasi bo‘lib nechta yangi uy qurilgan?

**4-masala.** Bog‘ga 70 tup ko‘chat o‘tqazildi. Ulardan 40 tupi gilos, 20 tupi xurmo, qolganlari esa olcha ko‘chati. Bog‘ga necha tup olcha ko‘chati o‘tqazilgan?

**5-masala.** Anvarda 10 ta yong‘oq bor edi. U 7 tasini ukasiga berdi, 2 tasini chaqib yedi. Anvarda nechta yong‘oq qoldi?



**6-masala.** Maktab bog‘iga o‘tqazish uchun 43 tup atirgul, 23 tup chinnigul olib kelindi. Maktab bog‘iga hammasi bo‘lib necha tup gul olib kelingan?

**7-masala.** Hayvonot bog‘idagi 4 ta olmaxonning har biriga 2 tadan yong‘oq berildi. Olmaxonlarga jami nechta yong‘oq berildi?

Yuqoridagi kabi masalalarni yechishga o‘rgatish orqali o‘quvchilarda yaratuvchanlik, mehnatqaratuvchi, bunyodkorlik, tabiatni sevish va asrash, mehnatkashlik kabi insonparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. N. Abdurahmonova, I. O‘rinboyeva. Matematika .Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. Toshkent-2018.
2. Docviewer.yandex.ru



## PECULIARITIES OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES AT ELEMENTARY SCHOOL

**Matyakubova Shohista Shokirovna,  
Rajabov Avaz Kurbanbayevich**  
English teachers of the secondary  
school №38, Khorezm, Shovot

The problem of teaching foreign languages continues to be one of the most important problems of methodological science today. This is natural, because nowadays teaching foreign languages sets the problem of developing the spirituality of students, increasing humanistic content of instruction. Therefore, the main goal of teaching foreign languages in schools is to develop the personality of the schoolchild who is able to participate in intercultural communication and independently develops his skills.

In the context of modernizing Uzbek education, the problem of teaching foreign languages from the first grade in schools is of current importance. Interest in the teaching foreign language for junior students has been steadily increasing in recent years.

Early education is now a priority in language education. But what are the characteristics of elementary school age? Are students of elementary school ready to learn foreign languages? In his famous work “The Physiology of the Mind”, V. Renfield and R. Roberts say that “starting to study foreign languages after 9 years is like getting married after 60”. In the same book, they note that “the human mind has a special ability to learn foreign languages, which declines with age.”

Most modern psycholinguists and psychologists agree that a special susceptibility to the study of foreign languages manifests itself, usually up to 8 years, and begin learning foreign languages after this age is too late.

K. Chukovsky in his book “From 2 to 5” argues that children of this age are particularly susceptible to learning foreign languages and that they are pleased to learn the rules and meanings of words. It seems as if their brains at this age are specialized in learning the language.

Statistics show that if all members of the family study a foreign language, the children learn this language faster than others. Moreover, and, most importantly, children under the age of 8-10 attain a high level of language proficiency and it is almost impossible to distinguish them from native speakers. This never happens to their parents, even to those who have lived abroad and spoke fluently this language. How can one explain such “success” in mastering foreign languages of children at an early age?

- a very good memory (if the child memorized something as a child, it is forever), even the seemingly forgotten language skills acquired in early childhood are restored very quickly whenever there is a need for their use;

- a mechanism of memorization, associated with both a purely ethnological factor, as well as psychological. The first is when, for example, new born ducklings come after their mother, reproducing her manner of walking, and if the hen appears in the way of the ducklings instead of the duck, they will walk as this chicken goes, in other words, an example for imitation is important here.

The same happens when teaching the language. At this age, a sample of speech is imitated by the child imitates. Children always imitate the phrase pronounced by adults in a foreign language.

A widely held view of the exceptional memory of children is incorrect. In fact, the memory capacity of children is much less than that of adults. There is a threshold for remembering the material. So, in one lesson it is recommended to give no more than 7 words.

The advantage of children’s memory is that children remember the material for a long time and remember it all their life. But at the same time they have difficulties in extracting information from memory. Many teachers note that students experience difficulties with the reproduction of already familiar words and expressions in a new situation. This circumstance often leads inexperienced teachers into confusion, and they begin to think that their pupils do not have the ability to learn the language, and teachers in this situation need only patience, since very soon these students are triggered by “operating” memory and they begin to “give out” words and



phrases with even greater speed.

In addition, children of early age are particularly sensitive and susceptible to foreign cultures. Materials devoted to the country of the language stimulate their imaginative thinking, influence feelings, form taste, verbally affect the emotions of the child and his artistic memory. They show cognitive interest in the subject, and new bright impressions help to awaken children's interest in learning. Interest, in turn, increases the activity and effectiveness of assimilation of knowledge. Majority of early learning supporters know that the "inability" of students simply does not exist. All who speak their native language are able to learn one more language. They seem incapable only when the wrong methods of instruction are applied. Thus, we can talk about the validity of the introduction of early education and identify a number of reasons for teaching a foreign language at the initial stage of training:

- this is the most favorable period for the linguistic development of a child and it should be used to create a basis for further linguistic education;
- the opportunity to have more time for learning foreign language;
- introducing children to the culture of the foreign language from an early age, we teach children to be tolerant, patient to other people;
- the study of a foreign language at an early age, along with practical significance, develops the ability of children to comprehend their mother tongue better;
- the study of languages improves the memory of children, their thinking, perception, imagination, etc.

In order to make the learning process fascinating and interesting, the school administration, elementary school teachers, foreign language teachers together should think over the ways of solving such problems as: creating comfortable psychological conditions, the ability to support interest in learning foreign languages, work with parents.

Teachers of foreign languages working at elementary school should abandon the old vision of the learning process of foreign languages and master the general strategy of early learning, new pedagogical forms of communication with young children (communicative orientation, developmental and educational character of the learning process, the organization of children's activities and games, etc.). Teachers should pay attention to learning new pedagogical forms of communication with children of elementary school age, take into account a number of features of the child's communication with adults and peers.

#### **List of used literature:**

1. Phillips D., Burwood S., Dunford H. Projects with Young Learners (Primary Resource Books). – Oxford: Oxford University Press, 1999. – 324 p.
2. Randall, J. M., Morris, B. A., Wetzel, C. D., & Whitehill, B. V. The effectiveness of games for educational purposes: A review of recent research. Simulation & Gaming. - Oxford: Oxford University Press, 1992. - 276.



## YOPIQ URUG‘LI O‘SIMLIKLAR BO‘LIMINING UMUMIY TAVSIFI VA O‘SIMLIKLAR DUNYOSINING BOSHQA VAKILLARIDAN FARQI MAVZUSINI O‘QITISHDA “ZIG-ZAG” PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH.

**Mavlonova Kamolat  
Raximova Xurshida**

Bog‘ot tumani 10 son maktabning  
biologiya fani o‘qituvchilari

**Annotatsiya:** Yoshlarga ta‘lim–tarbiya berishning murakkab vazifalarini hal etish o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini, iste‘dodi, tajribasi va madaniyati hozirgi zamon pedagogik texnologiyalarini qo‘llashi, o‘quvchilarni o‘zaro faollikka olib kelishiga bog‘liqdir.

**Kalit so‘z:** Yopiq urug‘li, biotik, abiotik omillar, pedagogik texnologiya, gullar.

Ta‘lim sifatini oshirishda berilayotgan materialning eng so‘nggi ilmiy tadqiqotlar natijalariga asoslanganligi, har jihatdan tajribadan o‘tkazilib amalga tadbiiq etilganligi muhim, albatta. Lekin ta‘lim sifati ushbu o‘quv materialining qanchalik o‘zlashtirilishi bilan belgilanishi ham tabiiy. O‘quv materialini samarali o‘zlashtirilishiga esa bir qator omillar ta‘sir qiladi. 1-bosqich - mayda guruhlariga ajratiladilar va spiker (boshliq saylanadi).

2-bosqich - talabalar raqamlanadilar va bir xil raqamlar bir-birini “topadilar”.

3-bosqich - topshiriq beriladi.

I guruh vazifasi:

Masala. Yopiq urug‘li o‘simliklarning umumiy tavsifiga oid ma‘lumotlarni qisqa muddat ichida o‘qib o‘zlashtirish.

II guruh vazifasi:

Masala. Yopiq urug‘li o‘simliklarning oldingi bo‘limlardan farqi bayon etilgan ma‘lumotlarni qisqa muddat ichida o‘qib o‘zlashtirish.

III guruh vazifasi:

Masala. Yopiq urug‘li o‘simliklarni biotik va abiotik omillarga chidamliligi bayon etilgan ma‘lumotlarni qisqa muddat ichida o‘qib o‘zlashtirish.

IV guruh vazifasi:

Masala. Yopiq urug‘li o‘simliklarda sodir bo‘ladigan qo‘sh urug‘lanish bayon etilgan ma‘lumotlarni qisqa muddat ichida o‘qib o‘zlashtirish.

V guruh vazifasi:

Masala. Yopiq urug‘li o‘simliklarda xos bo‘lgan gulning tuzilishi, formulasi bayon etilgan ma‘lumotlarni qisqa muddat ichida o‘qib o‘zlashtirish.

VI guruh vazifasi:

Masala. Yopiq urug‘li o‘simliklarni hozirgi kunda keng tarqalganligining sabablari keltirilgan ma‘lumotlarni qisqa muddat ichida o‘qib o‘zlashtirish.

4-bosqich – berilgan topshiriqni o‘zlashtirish uchun berilgan vaqt tugagach, yana o‘z joylariga qaytib boradilar, har bir a‘zo o‘zi o‘zlashtirgan materialni eski sheriklariga aytib beradi.

5-bosqich – o‘qituvchi guruxlarga savol beradi va javoblar baholanadi.

6-bosqich – guruxlar baholari guruxlarning raqamlari ko‘rsatilgan jadvalga qo‘yib boriladi.

Har bir raqamlanganlar yangi va har xil topshiriqlar olganini hisobga olsak, har bir talaba o‘z guruhi manfaati uchun ham berilgan topshiriqni bilishi kerak va bilishga majbur. Chunki, u o‘z guruhi qaytganda, o‘rgangan mavzu bo‘yicha savol-javobda guruhi nomidan qatnashishi kerak.

Ushbu pedagogik texnologiya yordamida talabalar o‘qigan ma‘lumotlarini 80-90% o‘zlashtiradi. Sababi ushbu jarayonda, o‘qiydilar, eshitadilar, ko‘radilar, gapirib beradilar va amalda bajaradilar. Insonlar bilimlarini o‘qiganlarining taxminan 10%ini, eshitganlarining 20%ini, ko‘rganlarining 30%ini, ko‘rgan va eshitganlarining 50%ini, o‘zi gapirib berganlarining 70%ini va o‘zi amalda bajarganlarining 90%ini eslab qolar ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. R. Ishmuhammedov “O‘quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash uslubiyati”, Toshkent, RBIMM-2008 yil.

2. Mustafaev S.M., Ahmedov O‘.A. Botanika. – Toshkent: «Ўзбекистон», 2006. – 437 б.



## AXBOROTLAR USTIDA BAJARILADIGAN AMALLAR

**Nadjimova Manzura Daniyarovna**

Navoiy viloyati Navoiy shahar

11-AFCHO'IM informatika va AT fani o'qituvchisi

Tel: +998973222007 email: nadjimovamanzura4@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada axborotlar ustida bajariladigan amallar, axborotli jarayonlar, axborotning xususiyatlari haqida malumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** axborot, obyekt, qimmatli, to'liq, ishonchli, tushunarli, qisqa, tashuvchi vositalar, qayta ishlash, analog, diskret.

Odatda, inson e'tibori yo'naltirilgan buyum, hodisa, jarayon, amal, xususiyat yoki munosabat **obyekt** deb ataladi. Informatikada narsa, jarayon, moddiy va nomoddiy xususiyatli hodisalar ularning axborot berish xususiyatlaridan kelib chiqib **axborot obyektlari** deb ataladi. Axborotlar ustida bajariladigan amallar bilan bog'liq barcha jarayonlar **axborotli jarayonlar** deb ataladi.

Odatda, biror axborot ma'lum bir maqsadda foydalanish uchun eslab qolinadi yoki saqlab qo'yiladi. Foydalanish maqsadidan kelib chiqadigan bo'lsak, saqlab qo'yilishi uchun axborot bizning ba'zi talablarimizga javob berishi shart. Axborotga qo'yiladigan talablar umumiy mazmuniga ko'ra birlashtirilsa, ular, asosan, quyidagi muhim uchta xususiyatga ega bo'lishi lozim:

1) ma'lum darajada **qimmatli bo'lishi**. Aks holda undan foydalanish ehtiyoji tug'ilmaydi. Qimmatli axborot vaqt o'tishi bilan o'z qimmatini yo'qotishi mumkin. Masalan, «30sentyabr kuni tantana o'tkaziladi» degan axborot 1noyabrda o'z qimmatini yo'qotadi;

2) **to'liq bo'lishi**. Ya'ni axborot o'rganilayotgan narsa yoki hodisani har taraflama to'liq ifodalashi lozim. Aks holda axborotni noto'g'ri tushunishga va natijada, xato qaror qabul qilishga olib keladi. Masalan, sinf rahbaringizning «Yakshanba kuni barchamiz teatrga boramiz, shuning uchun hamma teatr binosi oldida yig'ilsin» degan axboroti to'liq emas, chunki qaysi teatr, qaysi yakshanba, soat nechadalgisi noma'lum;

3) **ishonchli bo'lishi**. Aks holda undan foydalanish xato qaror qabul qilishga va noxush natijalarga olib keladi. Masalan, hazilkash sinfdoshingizning «Matematikadan bo'ladigan nazorat ishi qoldirildi» degan axborotiga asosan nazorat ishiga tayyorlanmaslik qanday natijaga olib kelishi mumkinligini tasavvur qilish qiyin emas.

Axborotning bu 3 ta asosiy xususiyatidan tashqari boshqa xususiyatlari ham bo'lib, axborot **tushunarli, qisqa** yoki **batafsil** ifoda etilishi zarurligini ta'kidlab o'tish joiz. Axborotni ishlatish maqsadidan kelib chiqib, uning **ortiqchalilik** xususiyatlarini ham bilish zarur.

Kerak bo'lganda foydalanish uchun axborotlarni saqlab qo'yish kerak. Axborotlar inson xotirasidan tashqari turli xil vositalarda, masalan, kitob, gazeta va magnitli tasmalarda, kompyuterlarning esa maxsus vositalarida saqlanadi. Ular **axborot tashuvchi vositalar** deb ataladi.

**qayta ishlash** bir axborot obyekti ustida zarur amallarni bajarib, boshqa axborot obyektini hosil qilishdir. Axborotni qayta ishlashning ikki turini ajratish mumkin:

1) mazmunini o'zgartirish, ya'ni yangi axborot olish maqsadida axborotni qayta ishlash;

2) mazmunini o'zgartirmagan holda axborotni uning ko'rinishini o'zgartirish maqsadida qayta ishlash.

Inson uchun axborot to'plashda uning barcha sezgi a'zolari ishtirok etsa, uzoq masofadagi axborotlarni to'plash uchun bu yetarli emas, buning uchun maxsus texnik vositalar talab qilinadi. Shuning uchun ham azaldan axborotlar ustida bajariladigan asosiy amallar – **to'plash, qayta ishlash** va **uzatishni** bajarish uchun insonning turli vositalarga bo'lgan ehtiyoji ortib borgan va unga ko'ra u har xil qurilmalar yaratib, hayotga tatbiq eta boshlagan.

Axborotlarni qayta ishlash vositalari – bu inson tomonidan ishlab chiqarilgan turli qurilmalardir. Ular ichida axborotni qayta ishlashning eng asosiy va samaradori kompyuterdir.

Inson borliqning bir qismi bo'lgani uchun doimo uning ta'sirini sezib turadi. Biz bu ta'sirni turli signal (tovush, yorug'lik, elektromagnit, nerv va hokazo)lar ko'rinishida qabul qilamiz. Insonga **uzluksiz** ta'sir etib turuvchi axborotlar **analog axborotlar** deb ataladi.

Inson analog axborotlarni qayta ishlash uchun uning biror qismini ajratib oladi va tahlil etadi. Tahlil etish jarayonida axborotni qayta ishlash uchun qulay bo'lgan ko'rinishga o'tkazadi.



Bunda inson turli belgilardan foydalanadi. Masalan, bizga ma'lum bo'lgan alifbo harflari insonga tushunarli bo'lgan tovushlarni, nota belgilari esa musiqiy tovushlarni ifodalaydi. Bu belgilar yordamida eshitalayotgan nutq yoki musiqani qog'ozga tushirish oson kechadi. Demak, inson axborotlarni qayta ishlash uchun uni uzlukli ko'rishga o'tkazadi. Axborotlarning bu kabi **uzlukli** ko'inishi **diskret axborotlar** deb ataladi.

Inson tomonidan ishlab chiqarilgan qurilmalar ichida analog axborotlar bilan ishlaydiganlari ham, diskret axborotlar bilan ishlaydiganlari ham mavjud. Diskret axborotlardan eng ko'p tarqalgani raqamli axborotlardir, ya'ni uzluksiz axborotning raqamlar orqali ifodalangan ko'inishidir. Analog signallar bilan ishlaydigan qurilmalar **analog qurilmalar**, raqamli axborotlar bilan ishlaydigan qurilmalar **raqamli qurilmalar** deb ataladi. Analog qurilmalarga televizor, telefon, radio, fotoapparat, videokamerani, raqamli qurilmalarga esa shaxsiy kompyuter, raqamli telefon, raqamli fotoapparat, raqamli videokamerani misol qilish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. B.Boltayev va boshq Informatika va axborot texnologiyalari. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik.
2. B.Boltayev va boshq. Informatika va hisoblash texnikasi asoslari.
3. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)



## О‘QUVCHILARNING IJODIY FIKRLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA MATEMATIKA DARSLIGINING O‘RNI

**Nurmetova Matluba Erkinbayevna**

Urganchshahar 18-maktabning

boshlang‘ich sinfo‘qituvchisi

+998975183231

matluba10041982@umail.uz

**Annotatsiya:** Ushbu maqola boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda matematika darslarining o‘rni va o‘quvchilarning fikrlashni rivojlantirish yo‘llari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** ijodiyfikrlash, o‘quvdasturi, darslik, o‘quvtopshiriqlari, shartlibelgilar.

Darslik yuqori ilmiy va uslubiy saviyada yozilgan, o‘quv dasturiga mos asosiy kitobdir. Maktab darsliklari orqali o‘quvchilarga hayotiy bilim, ko‘nikma, malakalar shakllantiriladi, dunyo qarash va fikrlash doirasi kengaytiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sog‘lom bola yili» Davlat dasturida boshlang‘ich ta‘limning sifatini oshirish, ta‘lim standartlari, o‘quv dasturlari, darslik va qo‘llanmalarni takomillashtirish qat‘iy vazifalardan biri qilib belgilangan.

Boshlang‘ich maktabda matematika ta‘limi o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga, o‘z fikrlarini mustaqil bayon qila olish, egallagan bilimlarini ijtimoiy faoliyatlarida qo‘llash uchun zamin hozirlaydi. Matematika bolalarda tafakkur, diqqat, xotira, ijodiy tasavvur etish, kuzatuvchanlikni rivojlantirishga yordam beradi. O‘qituvchining vazifasi - bolalarga matematikani o‘qitishda bu imkoniyatlardan samarali foydalana olishdan iborat.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisida mustaqil fikr yuritish ko‘nikmasining shakllanishida, ijodkorligini oshirishda matematika darsligi ta‘lim vositasi sifatida muhim o‘rin egallaydi.



Ma‘lumki, darslik DTS talablaridan kelib chiqqan holda o‘quv dasturida ko‘rsatilgan o‘quv materialini mazmunini aniqlashtirib, ochib berishga xizmat qiladi. Hozirgi kunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari 1-sinf matematika (2019 y. Mualliflar: M. Ahmedov, N. Abdurahmonova, M. Jumayev); 2-sinf matematika (2018 y. Mualliflar: N. Abdurahmonova, L. O‘rinboyeva); 3-sinf matematika (2019 y. Mualliflar: S. Burxonov va boshqalar); 4-sinf matematika (2017 y. Mualliflar: N. Bikbayeva, E. Yangabayeva, K. Girfanova) darsliklari asosida ta‘lim olishmoqda. Ushbu darsliklarda o‘quv materiallari osondan qiyinga, soddadan murakkabga o‘tishiga asoslangan holda keltirilgan.

Darslik materialining asosiy qismini o‘quv topshiriqlari tashkil etadi. Mutaxassislarining fikricha, xotira va tafakkurga yo‘naltirilgan o‘quv topshiriqlarini boshqa topshiriqlar bilan teng bo‘lishi ta‘lim samaradorligining yuqori bo‘lishiga olib keladi. Shuning uchun darslikda mantiqiy va ijodiy mazmundagi topshiriqlarga ko‘proq o‘rin ajratilsa, asosiy mavzuni ochib beruvchi topshiriqlar bilan mutanosibligi hisobga olinishi maqsadga muvofiq.

Boshlang‘ich sinf matematika darsligidagi o‘quv topshiriqlarini imkon qadar o‘quvchi uchun qiziqarli, xilma-xil, intellectual tarzda bayon qilish o‘qituvchidan katta mahorat talab qiladi. Hatto oddiygina xotiraga yo‘naltirilgan o‘quv topshiriqlariga qo‘shimcha shart, savollar qo‘yib, o‘quvchining mustaqil fikr yuritishi, izlanishi, topqirligini oshirish mumkin.

Darslikda «Bo‘sh katakni to‘ldiring», «Sonlar qatorini davom ettiring», «Rasm asosida masala tuzing va uni yeching», «Berilgan shakllarning farqini toping», «Masalaning qulay yechimini toping», «Ishoralarni shunday qo‘yingki, ifodalar to‘g‘ri bo‘lsin» kabi topshiriqlarning kiritilishi o‘quvchilarni topqirlikka, izlanishga, ijodkorlikka undaydi.

Matematika darslarida ijodiy mazmundagi o‘quv topshiriqlari: berilgan masalaga teskari masala tuzish, shartida ma‘lumotlari yetish movchi masalalar, ko‘p yechimli masalalar, mantiqiy masalalar, turli usullarda yechishni talab qiladigan masalalar, nostandart masalalar, geometric mazmundagi ijodiy topshiriqlar, taqqoslashga doir topshiriqlar kabi ko‘rinishlarda uchraydi.

Shunisi e‘tiborliki, keying paytlarda nashr qilingan matematika darsliklarida o‘quvchilarning mantiqiy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar ko‘paygan. O‘quvchilarning darslikdagi ma‘lum shartli belgilar bilan berilgan mantiqiy masalalarni yechishga bo‘lgan qiziqishlari kuchaygan. Bunday topshiriqlar 1-va 2-sinf darsligida  -shartli belgisi ostida “O‘ylab top!”, 3-sinfda  -shartli belgisi ostida boshqotirmalar, qo‘shimcha mashqlar,



4-sinfda \* - shartli belgisi ostida mantiqiy topshiriqlar, qiziqarli masalalar deb ko'rsatilgan. Bunday topshiriqlar salmog'i 1-sinf matematika darsligida 10 % ni, 2-sinf matematika darsligida 1 % ni, 3-sinf matematika darsligida 16% ni, 4-sinf matematika darsligida 1 % ni tashkil etadi.

Tahlillardan ko'rinib turibdiki, 3-sinf darsligi boshqa sinflarga nisbatan mukammalroq yaratilgan. Ammo o'quvchilar uchun qiyin bo'lgan topshiriqlar ham yetarli. Misol uchun, 5-masala. Uch aka-ukaning birgalikdagi og'irligi 74 kg. Sobirning og'irligi ikkala ukasining birgalikdagi og'irligiga teng. Har bir bolaning necha kilogram ekanligini toping.[1, 127-bet]

Masalaning murakkabligi o'quvchining mushohada yuritishida ko'rinadi. Bunday o'quv topshiriqlari faqat o'quvchidan aqliy mehnatni, ijodiy faoliyatni talabqilsa, ayrim o'quvchilarning bilim va malakalarni egallashlari qiyinlashadi, zerikib qolishadi. Shuning uchun darsliklardagi topshiriqlar davlat ta'lim standarti talablariga mos bo'lishi bilan birga, o'quvchilarning yoshi va pedagogik-psixologik xususiyatlarini hisobga olish ta'lim sifatini oshirishni ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, matematika darsliklarining o'quvchi ijodiy faoliyatini, mantiqiy tafakkurini rivojlantirishdagi hissasi juda katta.

#### **Adabiyotlar:**

1. S.Burxonov va boshqalar. 3-sinf Matematika darsligi. – T.: “Sharq”, 2019. e-mail
2. N. Abdurahmanova, L. O'rinbayeva 2-sinf Matematika darsligi. -T.: “Yangi yo'l Polograf Servis”2018-yil



## КОМПЬУТЕР ТАРМОQLARI


**Parmonov Lazizjon Qaxramonovich**

Navoiy viloyati Navoiy shahar 11-AFCHO‘IM informatika va AT fani o‘qituvchisi  
Tel: +998936121007 email: lazizparmonov007@gmail.com

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada kompyuterlarning inson hayotidagi ahamiyati, kompyuter tarmoqlari va signallar haqida malumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** kompyuter, axborot, tarmoq, server, mijoz, modem, signal.

Kompyuterlarning inson hayotidagi ahamiyati kun sayin ortib bormoqda. Hozirgi kunda axborotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tarqatish bilan bog‘liq bo‘lgan sohalarda kompyuterlarsiz ishlashni tasavvur qilib bo‘lmaydi. Lekin kompyuterning xotirasi qanchalik katta bo‘lmasin, ish faoliyatimizda ishlatishimiz mumkin bo‘lgan barcha axborotni unga sig‘dirib bo‘lmaydi. Biror axborot zarur bo‘lib qolgan vaqtda uni boshqa kompyuterdan ko‘chirib olish uchun tashqi axborot tashuvchi vosita (disketa, CD disk va boshqa) lardan foydalanish kerak bo‘ladi. Ammo bu ko‘p vaqt va qo‘shimcha xarajatlarni talab qiladi. Bu kabi muammolar o‘zaro axborot almashish maqsadida kompyuterlarni birlashtirish zaruratini keltirib chiqardi.



### Lokal kompyuter tarmog‘ining bir ko‘rinishi

Avval maxsus kabel yordamida ikkita kompyuterni o‘zaro birlashtirishga muvaffaq bo‘lindi. Oradan ko‘p vaqt o‘tmasdan, bir nechta kompyuterni birlashtirish imkonini beruvchi texnik qurilma va dasturiy ta‘minot ishlab chiqildi. Shu tarzda kompyuter tarmoqlari vujudga keldi. Bunday tarmoqlar qo‘shimcha qurilmalar talab qilsada (tarmoq platasi, maxsus kabel), kompyuterlardan foydalanish samaradorligini oshiradi.

Tarmoqdagi ixtiyoriy kompyuter boshqa kompyuterning diskiga, printeriga va boshqa tashqi qurilmalariga murojaat qilishi mumkin bo‘ladi. Bunday tarmoqlar bitta xonada yoki bir binoning ichida tashkil qilinib, **lokal** (mahalliy) **tarmoqlar** deb nomlanadi.

Lokal tarmoqda kompyuterlardan biri asosiy kompyuter etib tanlanadi. U  **fayllar serveri** yoki, oddiy qilib, **server** deb nomlanadi. Qolgan kompyuterlar esa **mijozlar** deb nomlanib, server bilan o‘zaro tarmoq platalari va maxsus kabellar yordamida ulanadi.

Kompyuterlararo axborot almashinuvini rivojlantirish borasidagi tadqiqotlar shu bilan to‘xtab qolmadi. Axborot texnologiyalarining jadal sur‘atlar bilan rivojlanishi endi bitta xonada yoki bir binoda joylashgan kompyuterlarni emas, balki uzoq masofada, hatto boshqa boshqa mamlakatlarda joylashgan kompyuterlarni ham o‘zaro bog‘lash imkoniyatini beruvchi **mintaqaviy** va **global** (xalqaro) **tarmoqlarni** vujudga keltirdi.

Mintaqaviy tarmoqlar bir mamlakat hududidagi foydalanuvchilarni birlashtiradi. Bunday




tarmoqqa ulangan kompyuterlar orasidagi masofa esa bir necha yuz kilometrni tashkil etishi mumkin. Global tarmoqlar dunyoning turli mamlakatlaridagi foydalanuvchilarning o'zaro axborot almashishini ta'minlaydi. Mintaqaviy va global tarmoqlarda kompyuterlarni alohida aloqa kabellari orqali ulash qimmatga tushadi. Shu sababli ularni **modem** yordamida telefon tarmoqlari orqali ulash yo'lga qo'yildi.

Kompyuterda ma'lumotlar raqamli signallar ko'rinishida saqlanadi, telefon tarmog'i orqali esa analog signallari o'tadi. Kompyuterdan chiqayotgan signallar modem yordamida raqamli ko'rinishdan analog ko'rinishga o'tkaziladi va telefon tarmog'i orqali yuboriladi. Tarmoqning ikkinchi uchidagi kompyuterga ulangan modem analog signallarni raqamli signalga o'tkazadi va kompyuterga uzatadi.

Signalni raqamli ko'rinishdan analog ko'rinishga o'tkazuvchi qurilma **modulyator**, analog ko'rinishdan raqamli ko'rinishga o'tkazuvchi qurilma **demodulyator** deb ataladi. Bu ikkala amalni birgalikda bajaruvchi qurilma **modem** deb ataladi. Uning nomi quyidagicha hosil qilingan:

**MO**dulyator + **DE**Modulyator = **MODEM**



### Ma'lumotlarning bir kompyuterdan ikkinchi kompyuterga uzatilish jarayoni

Tuzilish jihatidan modemlar ikki xil ko'rinishda bo'ladi: **ichki** va **tashqi**. Ichki modemlar plata ko'rinishida bo'lib, kompyuterning ichiga joylashtiriladi. Tashqi modem kompyuterdan tashqarida joylashadigan o'zining qobig'iga ega alohida qurilmadir.

Hozirgi modemlarning ko'pchiligi faqatgina ma'lumot uzatish yoki qabul qilish bilan chegaralanib qolmay, balki faks ma'lumotlarini uzatish va qabul qilish uchun ham xizmat qiladi.

Hozirgi kunda mintaqaviy va xalqaro tarmoqlarda kompyuterlar nafaqat telefon tarmoqlari, balki radio va sun'iy yo'ldoshlar orqali ham axborot almashinadilar.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. B.Boltayev va boshq. Informatika va hisoblash texnikasi asoslari.
2. B.Boltayev va boshq. Informatika va axborot texnologiyalari. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik.
3. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)



## ИНФОРМАТИКА ДАРСЛАРИДА ЛОЙИХА УСУЛИ АСОСИДА ЎҚУВЧИЛАРДА АХБОРОТ КОМПЕТЕНТЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

Қаршиев Аббор Амруллаевич,

Жиззах давлат педагогика институти ўқитувчиси

Телефон: +998(99)7718651

abka198529@gmail.com

**Аннотация:** Мақолада умумий ўрта таълим мактаблари информатика дарсларида лойиҳа усулидан фойдаланиб, ўқитувчиларда ахборот компетентликни шакллантириш ҳақида фикр юритилган.

**Калит сўзлар:** компетентлик, ахборот компетентлик, ахборот-коммуникация технологиялари, лойиҳа усули, лойиҳа фаолияти.

Ахборот оқимларининг кескин ошиш ва ахборот технологияларининг жадал суръатларда тезкор ривожланиш билан тавсифланган замонавий таълим тизимининг ахборотлашган жамият эҳтиёжларига мос эмаслиги эса таълимнинг фундаменталлигини сақлаб қолиш, шахс, жамият ва давлатнинг истиқболли эҳтиёжларига мос замонавий таълим сифатини таъминлаш вазифаларини белгилайдиган Ўзбекистон Республикаси халқ таълими тузилмасини 2030 йилгача бўлган даврда ривожлантириш Концепциясининг қабул қилинишига олиб келди.

Ушбу концепцияга кўра умумий ўрта таълимнинг асосий натижаси бўлиб битирувчиларнинг жамият фаровонлиги учун шахсий маъсулиятни ўз зиммасига олишга тайёрлиги ва қобилиятлиги, асосий мақсадларидан бири эса ўқувчиларнинг мустақиллигини ва ўзини ўзи ташкил қилиш қобилиятини ривожлантириш ҳисобланади. Шу боис, ўқитувчилар фаолиятининг асосий натижаси билим, кўникма ва малакалар тизими эмас, балки **таянч компетенциялар** мажмуаси бўлиши керак. Бу эса ўз навбатида, мактаб информатика фани мисолида ўқитувчиларнинг компетентлигини ривожлантириш зарурияти юзага келтирди.

Компетентлилик - бу инсоннинг билиш даражасини ўлчайдиган янги дидактик бирлик бўлиб ҳисобланади, чунки билим, кўникма ва малакалар таълим сифати даражасини тўлалигича аниқлашга имкон бермайди.

В.А.Болотов ва В.В.Сериковлар ўз ишларида компетентлик дейилганда “ўқимишли, билимли, кўникмали бўлиш усули, шахсий ўзлигини намоён қилишга имкон берадиган тушунчалар жамланмасидир” [1]. Демак, компетентлик, ўқиш жараёнининг бўлаги бўла туриб, ўқиётганларнинг шахсий сифатига боғлиқ бўлади.

А.Н.Щукин, “компетентлик - бу, шаклланган компетенция асосида фаолият юритиш қобилиятини белгиловчи шахс хусусияти” [2] деб ҳисоблайди. Унинг фикрича, компетентлик шахснинг қандайдир фаолият турини эгаллаши билан характерланади. Мазкур ҳолатда компетентлик фақатгина билиш категорияси сифатида эмас, балки шахсият категорияси сифатида ҳам қаралади. Кўпчилик тадқиқотчилар компетентлик тушунчасини фаолиятни амалга ошириш мақсади ва воситасини англаш билан алоқадорликда қарайдилар. Юқорида айтилганларга кўра, компетентлик тушунчасига нисбатан турли нуқтаи назарлар, мазкур тушунчани худди комплекс структура каби талқин қилиш кераклигини исботлайди. Бу тузилма таркибига қуйидаги элементлар қиради: зарурий билим, кўникма ва малакаларни эгаллаш; қандайдир фаолиятни бажариш қобилиятини аниқловчи шахс сифатлари; касбий сифатлари тўплами; шахснинг тегишли компетенцияларни эгаллаши.

Ахборот компетентлик замонавий инсоннинг таянч компетентликлардан бири ва энг аввало компьютер, телекоммуникация воситалари, Интернет ва бошқаларни жалб қилиш орқали турли хил масалаларни ечишда намоён бўлади [3].

Ахборот компетентликни керакли маълумотларни мустақил излаш, танлаш, таҳлил қилиш, тартибга солиш, тақдим этиш, узатиш, объектлар ва жараёнларни моделлаштириш ва лойиҳалаш, ахборот-коммуникация технология воситаларидан фойдаланган ҳолда индивидуал ва гуруҳли инсон фаолияти соҳасида лойиҳаларни амалга ошириш кўникмалари мажмуалари сифатида қараш мумкин.

Бундан кўриниб турибдики, ахборот компетентлик - бу шахснинг ўқув, ҳаётий ва касбий масалаларни ахборот-коммуникация технологияларини қўллаб ечиш қобилияти.



Бизнинг нуқтаи назаримизча, ахборот компетентликни шакллантириш ва ривожлантириш муаммосининг таянч асоси бўлиб “ахборот” тушунчаси ва амалий масалаларни ечишда ахборот технологияларини қўллаш кўникма ва малакаларини шакллантириш ҳисобланади. Аммо, шуни таъкидлаш керакки, ахборот компетентликнинг шаклланиши узоқ мудатли жараён бўлиб инсон умрининг охирига қадар давом этади.

Ахборот тушунчасининг мазмуни абстракт ҳисобланади, шунинг учун ҳам мактаб информатика фани ўқитувчининг вазифаси ушбу тушунча мазмунини кетма-кет аниқлаштириб, унинг ўқувчилар томонидан ўзлаштирилишининг зарурий илмийлик даражасига аста-секинлик билан эришишдан иборат. Бу жараёнда ўқитувчи томонидан синтезланган ҳаётий вазиятни ўқувчиларнинг ўзи таҳлил қилиши муҳим чунки, унда ахборотни қабул қилиш, сақлаш, узатиш, қайта ишлаш ва ундан фойдаланиш каби барча жараёнлар иштирок этади.

Ахборотли жараёнларини ўргатишда асосий урғуни ахборотни тўплаш, сақлаш, қайта ишлаш, узатиш ва фойдаланиш жараёнлари бир-бири билан мустақкам боғлиқ эканлигига қаратиш лозим. Ахборотли жараёнлар ўрганилгандан сўнг уларни кодлаш масаласи қаралади. Бунинг учун эса ўргатувчи дидактик ўйинлар тизимидан (масалан: “Кўрсат”, “Чиз”, “Яширин маълумотни топ”, “Жонли луғат” ўйинлар, сезги аъзоларининг бири ёрдамида маълумотни қабул қилиш учун мўлжалланган ўйинлар ва бошқалар фойдаланиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади. Шунингдек, лойиҳа усули ёрдамида кичик лойиҳалар бажариш ҳам ахборотли жараёнларни ўрганишда катта имкониятларга эга.

Мактабдаги ўқув жараёнида лойиҳа усули ўқувчиларнинг билиш фаолиятини фаоллаштиришга, мустақиллигини ривожлантиришга, ўқув фаолияти жараёнида тафаккур ва фаолият усулларини ўргатишга имкон беради.

Лойиҳа усули компетентли - йўналтирилган таълим технологияси сифатида ўқувчиларнинг самарали фаолиятини назарда тутаяди, уларда ахборот компетентликни шакллантиришга ёрдам беради. Лойиҳани амалга ошириш жараёнида ўқувчиларда мақсадни белгилашга, баҳолашга, ҳаракатга ва рефлексияга тайёрлик шаклланади.

Мактаб информатика дарсларида ўқувчиларда ахборот компетентликни шаклланишини таъминловчи лойиҳа фаолияти кичик гуруҳлар томонидан бажариладиган ҳажми унчалик катта бўлмаган предметли лойиҳалар орқали амалга оширилади. Масалан, “Компьютер архитектураси” мавзуси бўйича “Инсон ва компьютер” номли ижодий иш: инсон ва компьютерни таққослаш асосида компьютернинг ички қурилмасининг схемасини чизиш, ахборот билан ишлаш учун янги қурилма ўйлаб топиш ана шундай предметли лойиҳаларга киради.

Лойиҳани бажаришнинг умумий схемаси қуйидагича: ўқитувчи режалаштирилаган ўқитиш натижалари ва дастлабки маълумотларни эътиборга олган ҳолда масалани қўяди. Қолган қуйидаги қадамлар эса ўқувчиларнинг ўзлари томонидан бажарилиши керак: оралиқ масалани қўйиш, уларни ечиш йўллари топиш, ҳаракат қилиш, олинган ва талаб этилганларни таққослаш ва мослаштириш, ўз фаолиятини тузатиш.

Ўқувчи ўзи учун мазмунли, кизиқарли ва муҳим бўлган топшириқни бажаради ва шу билан бирга ўқув фаолияти моделини ўзлаштиради; ахборот коммуникация технологияларини қўллашда маълум техник кўникмаларни эгаллайди, техник ечимлар спектрининг кенглиги ҳақида тасаввурга эга бўлади. Ахборот технологиялари соҳасидан асосий билимларни ўзлаштиради, мулоқат кўникмаларини ривожлантиради.

Шундай қилиб, мактаб информатикани ўрганиш якунида ўқувчилар матнли, сонли, графикли, овозли ахборот объектларига мисол келтиришни билиш, ахборотни узатиш, қидириш, қайта ишлаш, сақлашни (шу билан бирга компьютерда ҳам), ахборотни алфавит ва сонли (ўсиш, камайиш тартиби) параметрлар бўйича тартиблашни билишлари керак. Бунинг учун эса ахборот компетентликни шакллантиришга имкон берадиган таълим технологияларини танлаб, улардан самараси юқори бўлганларини ажратиб олиш зарур.

#### Адабиётлар рўйхати:

1. Болотов В.А., Сериков В.В. Компетентностная модель: от идеи к образовательной программе // Педагогика. – 2003. – № 10. – С. 8–14.
2. Щукин А.Н. Компетенция или компетентность // Русский язык за рубежом. – № 8. – 2008. – С. 14-20.
3. Karshiyev A.A. The Structure Of Information Competence Of High School Students / The American Journal of Social Science and Education Innovations // 2020. – PP. 98-107.



## SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDA INSONPARVARLIK G‘OYALARINING TARG‘IB QILINISHI

G. Rajabboyeva

UrDU I-bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada sharq mutafakkirlarining asarlarida insonparvarlik g‘oyalarining targ‘ib qilinishi, ularda insonga nisbatan insoniy munosabatda bo‘lish, adolatlilik, samimiylik kabi xislatlarni tarkib toptirish masalalari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** inson, insonparvarlik, mutafakkir, g‘oya, adolatlilik, samimiylik, mehr - shafqat.

Inson - jamiki tiriklik ichida eng oliy mavjudotdir, chunki barcha ezgu fazilatlar insonlarning qarashlarida, xatti- harakatlarida, qiladigan ezgu ishlarida namoyon bo‘ladi. Bu tushunchalarni biz insoniylik, insonparvarlik kabi nomlar bilan ataymiz. Insonparvarlik esa bu - insonning qadr-qimmatini, baxt-saodati, erkinligini va shu bilan birga insoniylikning barcha ezgulik tamoyillarini ifodalovchi tushunchadir.

Inson yaralibdiki, unga xos bo‘lgan insonparvarlik tushunchasi ham uzoq tarixga ega. Xalq pedagogikasida insonparvarlik ruhidagi g‘oyalar (gumanizm), avvalo, sevgi, oila, bolalar, otalar, qarindosh-urug‘lar, qo‘ni-qo‘shnilar, do‘stlar va butun xalqqa bo‘lgan munosabatlar doirasida ko‘p asrlar davomida shakllangan. O‘zbekistonda tug‘ilgan va yashayotgan har bir kishi teng huquqli fuqaro sifatida yashamoqda. Mamlakatda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar inson manfaatiga qaratilgan. Shuning uchun kelajagi buyuk davlatimizning istiqboldagi egalarini, ya‘ni yoshlarimiz to‘g‘risida mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o‘z nutqlarida shunday fikrlarni keltirib o‘tadilar: “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma‘naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigann insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz” [1].

Jamiyatimizga chuqur axloqiy fazilatlar ega bo‘lgan, bilimga chanqoq, ma‘naviyatga ega bo‘lgan insonlar zarur. Zero “Zaminimizda yashab o‘tgan buyuk allomalarimiz, mutafakkir bobolarimizning ibratli hayoti va faoliyati, bemsiz ilmiy-ijodiy kashfiyotlari bugun ham jahon ahlini hayratga solayotganini g‘urur bilan ta‘kidlash lozim” [2].

Buyuk bobokalonlarimizning ijodini o‘rganish, ular yaratgan asarlarning mazmun- mohiyati har bir insonni ezgu ishlar qilishga, mehr- shafqat tuyg‘ularini shakllantirishga undaydi.

Sharq uyg‘onish davri madaniyati fanlarning rivojlanishi, qomusiy olim, mutafakkirlar yetishib chiqishi bilan butun kishilik jamiyati rivojlanishining yuksak bosqichi bo‘ldi. Ushbu davrda ilm-fan va ma‘rifat sohasida o‘z xizmatlari bilan dunyoga mashhur bo‘lgan faylasuf va munajjim, matematika, fizika, tibbiyot, tarix, til va adabiyot, pedagogika sohasida ilmiy merosi bilan nom qoldirgan Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi qomusiy olimlar faoliyat olib bordilar [3].

Shunday allomalardan biri Abu Nasr Farobiydir. Farobiy falsafasida insonparvarlik g‘oyalari alohida o‘rin olgan. Uning fikricha, har qanday feodal zulm, urushlar bartaraf bo‘lgan taqdirda hamma millatlar tinch, ozod, xushchaqchaq, baxtiyor hayot kechirishlari mumkin. Kishilar o‘rtasida samimiy do‘stlik, hamkorlik ularning kundalik hayotining mazmundor bo‘lishiga yordam beradi. Farobiy ulug‘ insonparvar faylasuf sifatida inson qadr-qimmatini kamsituvchi va o‘zga mamlakatlarni bosib olishga asoslangan jamiyatga qarshi chiqadi. U o‘zining “Fozil odamlar shahri” asarida odamlarni tinch- totuv va o‘zaro hamkorlikda yashashga, insonparvar bo‘lishga da‘vat etadi. “Odamlarga nisbatan ularni birlashtiruvchi boshlang‘ich asos insoniylikdir, shuning uchun odamlar insoniyat turkumiga kirganliklari uchun o‘zaro tinchlikda yashamoqlari lozim”, - deydi mutafakkir [4].

Insonparvarlik g‘oyalarini go‘zal xulq- atvori bilan insonlar o‘zlarida shakllantira olishlari Beruniyning inson turmushiga xos xulq- odob qoidalari haqidagi fikrlarida keltirib o‘tilgan. Inson ham ichki, ham tashqi tomondan go‘zal bo‘lsagina haqiqiy kamolotga erishishi mumkin. U ozodlikni olijanoblik bilan tenglashtiradi. Inson doimo bularga rioya etishi zarur, deb ta‘kidlaydi. Bunda inson o‘zini boshqara olishga qodir bo‘lishi, har bir yetuk inson uchun zarur bo‘lgan xislatlarni tarkib toptirishi kuch va irodaga ega bo‘lishi zarur, deydi. “Mineralogiya” asarida bu fikrni quyidagicha ifodalaydi: “Inson o‘z ehtiroslariga hukmron, ularni o‘zgartirishga qodir, o‘z



jon va tanini tarbiyalar ekan, salbiy jihatlarni maqtagulik narsalarga aylantirishga hamda asta-sekin , axloq haqidagi kitoblarda ko'rsatilgan usullar bilan illatlarni bataraf etishga qodirdir", deb aytib o'tadilar [3].

Noyob fazilatlar sohibi bo'lmish mashhur alloma Ibn Sinoning "salamon va Ibsol", "Xay' ibn Yaqzon" falsafiy qissalarida insonlarga xos axloqiy fazilatlar tasviri alohida o'rin egallaydi.

Pokiza xulq - odamiylik javhari, kishini inson sifatida ulug'laydi, tuban axloq esa odam umrining zavolidir. Ibn Sino odamlarni do'stlik, o'zaro chinakam axloqiy munosabatda bo'lishga chaqirgan: "Ey birodarlar Haqiqatni ochib tashlanglar, bir - biringiz bilan samimiy do'st bo'linglar. har biringiz o'z birodaringiz uchun xolis dilingizdagi pardalarni ochib tashlanglar..."Ushbu fikrlar orqali Ibn Sino til va dil pokligiga ega bo'lishlikka da'vat etadi [5].

**Xulosa.** Sharq mutafakkirlarining har bir asarida insonlarning doimo to'g'ri yo'ldan yurishlari, haqgo'y, mehr - muruvvatli, adolatparvar, rostgo'y, vafodor, sadoqatli bo'lishi lozimligi ta'kidlab o'tilgan. Mutafakkirlarimiz pedagogik ta'limotining asosida komil insonni shakllantirish, inson faqat jamiyatda , o'zaro munosabatlar jarayonida komillikka erisha olishi , doimo ezgu amallar qilishi kerakligi bayon qilingan. Allomalarimizning insonparvarlik g'oyalari faqat o'z zamonasi uchun emas, hozirgi davr ta'lim - tarbiya ishlarini takomillashtirishda ham katta ahamiyatga ega.

### Adabiyotlar

1. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. -T.:o'zbekiston. 2016. - 14 b.

2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - T.: "Ma'naviyat", 2010. - B.41.

3. Hoshimov K , Nishonova .S. Pedagogika tarixi:darslik. Q2. - T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2005. - B .77, 87.

4. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. - T.: xalq merosi, 1993. - B.159.

5. Hasanboyeva O, Hasanboyev .J, Homidov. H. Pedagogika tarixi : darslik. -T. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot - matbaa ijodiy uyi. 2004. - B. 65, 66.



## UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA BOSHLANG'ICH TA'LIMNING O'RNI VA AHAMIYATI

**Shabonova Moxigul Shodmonovna**  
Qiziltepa tumani 15 umumta'lim maktabi  
boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

Mamlakatimizda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va takomillashtirish, uning uzluksizligi va uzviyligini ta'minlash, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etishga alohida e'tibor qaratmoqda. Bu borada yangi qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda bir qator ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan huquqiy-me'yoriy asoslarni yaratilganligi avvalambor tizimli ravishda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosi bo'lib xizmat qilmoqda.

Qabul qilingan mazkur qonunlar ta'lim jarayoniga bir umumiy tizim sifatida qarashga undadi. Har bir davr uchun yangi pedagogik texnologiyalarni dars jarayonida qo'llash asosida o'quvchilarning ijodkorligi va faolligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Darhaqiqat, o'qitish jarayonida pedagogik texnologiyalarning qo'llanishi dars jarayonini rang-barang, jo'shqin, qiziqarli tarzda tashkil etishga olib kelishi bilan birga o'quv materiallarini o'quvchilar tomonidan yuqori darajada o'zlashtirilishiga keng imkoniyatlar yaratadi. Ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida darsni tashkil etishda o'quvchi shaxsi asosiy o'rinda turishi, ya'ni o'quvchi ta'lim markazida bulishi lozim. Bizda esa hali-hanuz bosh rolda o'qituvchi bo'lishi holatlari kuzatilmoqda. Ayrim o'qituvchilar asosan umumiy ma'lumotlar berib, darsni tezroq o'tishga harakat qiladilar, biroq o'quvchilarning qiziqishlari, bilim darajalari, yangiliklarni qabul qilishlari, tushunishlari turlicha bo'lishini inobatga olmaydilar. Bularni hisobga olish, qanday bo'lsa-da har bir o'quvchini darsda faol ishtirok etishga jalb etish lozim.

Dars jarayonida o'quvchi harakatlanuvchi asosiy kuchga ega bo'lishi kerak. O'qituvchi va o'quvchilarga o'qitishdan o'rganishga, bilim berishdan bilimlarni mustaqil egallashga ko'maklashishi zarur. Shu bilan birga, ularni faol ishtirokchi bo'lishi uchun muhit yaratish va ma'suliyatni sezishga yo'llashi lozim.

Ma'lumki, har bir dars uchun ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, ya'ni bir biri bilan uzviy aloqada bo'lgan uch yoqlama maqsad qo'yiladi. Darsni tashkil etish shakli dars ishtirokchilarining o'zaro aloqalariga bog'liq bo'lib, yuqorida keltirilgan maqsadlarga erishish o'quv materiali xususiyatlari, ta'lim metodlari, o'qituvchi mahorati va texnikasiga bog'liq. Bularning barchasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'qituvchi boshqaruvchi sifatida o'quvchilar bilan birgalikda harakat qiladi. Xuddi mana shu jarayon faol amalga oshirilsagina, o'quv jarayonining samaradorligi ta'minlanadi.

Xususan, o'quvchilarda tashabbuskorlik va mustaqillik, bilimlarni puxta va chuqur o'zlashtirish, zarur bilim, ko'nikma va malakalar, kuzatuvchanlik, tafakkur va bog'lanishli nutq, xotira va ijodiy tasavvurni tarbiyalashga imkon beruvchi didaktik tamoyil - ta'limdagi faollikdir. Bunday tizimda o'quvchi ham, o'qituvchi ham ta'lim-tarbiya jarayonini hamkorlikda amalga oshiradi. Ular ham ijodkorlikda har bir o'quvchining bilim va qobiliyati, individual intilish va ehtiyojlarini aniqlaydilar. Bunday holatda o'qituvchi faqat "baholovchi" emas, balki yangi bilim yetkazuvchi manbaga aylanadi. Darsda o'quvchilar faoliyatiga nafaqat o'qituvchi, balki o'quvchilar ham rahbarlik qiladi. Avvalo a'lochi o'quvchilar, so'ngra boshqa o'quvchilar topshirig'iga binoan nima ish qilganlarini ko'rsatib namoyish qilishadi va natijada bu holatdan qolgan o'quvchilar o'zlariga xulosa chiqarib, ergashadilar. Bunday "izohli boshqaruv" o'quvchi maktab ostonasiga qadam qo'ygan kundan boshlanishi zarur.

Ta'kidlash joizki, ta'lim tizimida dars samaradorligini oshirish uchun biz bugun avvalo o'quvchiga boshlang'ich sinfning dastlabki pallasidan boshlab "sen buni bilishing shart" degan majburlovchi da'vatdan professor A.Mallaboyev takidlaganidek, har bir bolaga individual yondoshgan holda "menga bu zarur, men buni bilishga, uddalashga, uni hayotga tadbiq etishga qodirman", degan bir ichki tuyg'u, xohish istakni uyg'otishga harakat qilishimiz lozim. Ushbu holatdan ko'rinib turibdiki, har bir o'qituvchi o'qitishning mavzu mazmuniga mos ilg'or, samarali usullarni unimli, ijodiy ravishda mashg'ulotlar jarayonida qo'llashi zarur.

XVIII asrda yashab ijod etgan buyuk nemis pedagogi A.Distervigning qanotli iborasi bugungi kunda ham o'z aktualigini yo'qotmagan: "Noshud o'qituvchi haqiqatni shunchaki aytdi-qo'yadi,



yaخشisi esa uni topish yo‘llarini o‘rgatadi”. Demak, bilim oluvchilarga axborot qabul qiluvchi robotlar tarzida emas, balki erkin va ijodiy fikrluvchi, izlanuvchi va yangiliklarga intiluvchi shaxs sifatida yondoshmoq lozim.

Pedagogik vazifani belgilashda qo‘yidagilarni inobatga olish lozim:

- ta‘lim maqsadlari asosida o‘quv predmeti mazmunini aniqlash;
- o‘quv predmetining axborot tuzilmasini ishlab chiqish va uni o‘quv mashg‘ulotlari tizimi ko‘rinishida ifodalash;
- o‘quvchilarning o‘quv mashg‘ulotlarini o‘zlashtirish darajalarini aniqlash;
- o‘quvchilarning dastlabki bilim darajasini aniqlash;
- moddiy baza hamda ta‘limning tashkiliy shakllariga qo‘yiladigan chegaralarni belgilash;
- o‘zaro jipslik va hamkorlikni ta‘minlash.

Ma‘rifiy maskanlarda yangiklarga ochiq yo‘l berish va innovatsion faoliyatni katta miqyosda tashkil etish evaziga ta‘lim tarbiya jarayonlarining ishtirokchilari o‘rtasida jipslik va hamkorlik ta‘minlanadi. Bunda rejalashtirish, loyihalash, dasturlash, bashoratlash va baholash kabi harakatlar ham nazardan chetda qolmasligi lozim. Pedagogik innovatsiyalar orqali ta‘lim tarbiyada sifat va samaradorlikka erishish imkoniyatlari orttiriladi. So‘nggi yillarda ta‘lim muassasalarida yaratilgan sharoit va imkoniyatlar, innovatsion namunalarni joriy etish uchun ijodiy va moslashuvchi yondashuvchi o‘qituvchi va o‘quvchilarning ijodiy faolligini kuchaytirishda samarali xizmat qilmoqda.

Yuqorida ta‘kidlaganimizdek uzluksiz tizimda har bir darsning o‘z innovatsion maqsadi bo‘lishi lozim. Mazkur innovatsion maqsadni amalga oshirish uchun o‘qituvchining o‘zi yetarli darajada qurollangan bo‘lishi va bunday jarayonga shay holda faoliyat ko‘rsatishi shart. Shu o‘rinda, uzluksiz ta‘lim tizimida bilim oluvchi va tarbiyalanuvchi - innovatsion texnologiyalar asosida o‘qitish bilan cheklanib qolmasdan, ularga kelajakdagi amaliy faoliyatlarida innovatsion texnologiyalarni muvoffaqiyatli qo‘llashga o‘rgatish uzviylik va uzluksizlikni ta‘minlashning asosiy vazifalaridan biri, deb hisoblaymiz.



## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI CHIROYLI YOZUVGA O‘RGATISH

**Toshpo‘latova Nafosat,**  
Namangan viloyati Navbahor tumani  
23- umumta’lim maktabi ,  
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola boshlang‘ich sinflarda chiroyli yozuvning ahamiyati, o‘quvchilarni chiroyli yozuv ko‘nikmalarini shakllantirish haqidagi fikrlardan iborat.

**Kalit so‘zlar:** chiroyli yozuv, bo‘g‘in, matn, grafik malaka.

Ma’lumki, insonning psixologik xususiyatlari go‘dakligidanoq shakllanib boradi. Ilk maktabga borgan vaqtida o‘tirish qoidalari, ruchka ushlab ko‘nikmalari asta-sekin rivojlanib boradi. Bu esa boshlang‘ich sinf o‘qituvchilaridan katta mas’uliyat talab qiladi. Chunki ona tili darslarini tashkil qilishda chiroyli yozuv, husnixatning o‘rni juda katta. Boshlang‘ich sinfdan bolaning yozuvi yillar o‘tsada, ma’lum ma’nodan saqlanib qoladi.

Tarixga nazar soladigan bo‘lsak, yozuv zamon va masofa jihatidan og‘zaki nutqqa nisbatan ustunlikka ega. Texnikaning rivoji (telefon, telegraf, radio, televizor, internet) natijasida undagi ustunlik masofa jihatidan zaiflashdi, lekin zamon e’tibori bilan yozuv hali ham og‘zaki nutqdan ustun XIX-XX asr boshlarida topilgan va deshifrovka qilingan juda ko‘p yodgorliklar yozuvning paydo bo‘lishi va tarixiy taraqqiyotini yoritish imkonini berdi. Fanning bu yutuq yozuv tarixini tilshunoslik fanining mustaqil bir bo‘limi sifatida ajratishga olib keldi.

Chiroyli yozuv imlo bilan chambarchas bogliq. O‘quvchining imloviy savodxonligi haqida g‘amxo‘rlik qilish tilning aniqligi, fikmi to‘g‘ri ifodalash, kishilar bilan o‘zaro xatosiz muomala uchun g‘amxo‘rlik demakdir. Shu sababli ham savod o‘rgatish davrida bolalarda grafik malakalarni shakllantirish bilan birga imloga oid malakalarning shakllanishiga zamin yaratiladi. Malumki, savod o‘rgatish davrida o‘quvchi gapni bosh harf bilan yozish, so‘zning satrga sig‘may qolgan qismini keyingi qatorga ko‘chirish, kishilar ismi, sharifi, hayvonlarga qo‘yilgan nomlarda bosh harf ishlatilishini amaliy tarzda o‘rganadi. Chiroyli yozuv darslarida so‘zlar, gaplar, matnlar yozish, ularning imlosini tekshirishi orfografik ziyalikni asta-sekin shakllantira boradi, imlo qoidalarini puxta egallashlariga zamin yaratadi.

O‘quvchilarda chiroyli yozuv malakalarini hosil qilish uchun diqqat, sezgi, idrok etish, xotira kabi psixofiziologik funksiyalar ishtirok etishini ko‘ramiz. Bu bog‘lanishlar miyada mustahkamlanadi va saqlanib qoladi. Bu hol o‘quvchiga idrok etgan va sezgan narsalarini xotiraga muhrlash imkonini beradi. Masalan, o‘quvchilarning o‘qituvchi bayon qilayotgan harflar shaklini qanday yozayotganliklarini tahlil qilib ko‘raylik. Bu jarayonni uning asosiy xarakteriga ko‘ra, idrok etish jarayoni deb atash mumkin. Biroq bu idrokning aniq va ravshan bo‘lishi uchun o‘quvchi o‘z irodasini ishga soladi, diqqatini harflarning shaklini to‘g‘ri ifodalashga jalb qiladi. Yozayotgan so‘z yoki gapning mazmunini tushunmasdan, harflarning shaklini bilmasdan ularni idrok etib bo‘lmaydi. Yozish jarayoni ko‘rish va eshitish sezgilari orqali idrok qilinadi. Idrok etilishi lozim bo‘lgan materialni tartibga solish, o‘rganiladigan manba yoki uning tasvirini yaqqol ko‘rsatish, bayonning ravshan va izchil bo‘lishi, sinf doskasiga hamma o‘quvchi ko‘ra oladigan qilib chiroyli yozish idrok etishning muvaffaqiyatli chiqishini ta’minlaydigan omillardandir.

Birinchi sinfdan yozuv mashqlarini tashkil etish birmuncha murakkab bo‘lib, u bir necha davrlarga bo‘linadi va bir necha xil vazifalarni o‘z ichiga oladi. Bolalar o‘qituvchining ko‘rsatmasiga asosan, doskaga yozgan harf va so‘zlarni ko‘rib boradilar, so‘z va bo‘g‘inlarni tahlil qiladilar, nuqtachalar bilan ifodalangan harflarning ustidan bo‘yadilar. O‘quvchilarni yozdirishga o‘rgatishdan avval to‘g‘ri o‘tirish qoidalarini tushuntirib berish shart. Shu bilan birga



o'qituvchi butun dars davomida o'quvchilarga to'g'ri o'tirish qoidalarini eslatib turishi lozim.

O'quvchilarda chiroyli, aniq va toza yozishga qiziqish uyg'otish birinchi navbatda o'qituvchiga bog'liq.

Shunday ekan, har bir o'quvchini chiroyli yozuvga o'rgatish, yozuv malakalarini shakllantirish biz boshlang'ich sinf o'qituvchilarining zimmasidagi yuksak vazifadir. Chunki, husnixat ham bir san'at aslida.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'ulomov M. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarini husnixatga o'rgatish" Toshkent "O'qituvchi" 1970 14. G'ulomov M.
2. "Husnixat metodikasi" Toshkent "O'qituvchi" 1976
3. Safarova R va b. Savod o'rgatish darslari. Toshkent. "Ma'naviyat", 2003, 6-bet



## DIFFERENT TYPES OF TEACHING ENGLISH

**Diyora Umarova Alijonovna**

Ma'mura Tojiboyeva Sodikjonovna  
English teachers of Namangan region,  
Narin district, school №15

9994438367 umarovadiyora80@gmail.com

mamuratojiboyeva80@gmail.com

**Annotation:** In this article is written about learning different types, given a lot of tips teaching English. For instance *Making friendly atmosphere, Teaching by Music: Teaching by Music, Reading or Telling a Fun Story, Grammar, Doing, Physical Exercise, a Wonderful Film, Playing Fun Game etc.*

**Key words:** children, parents, methods, songs, at home, activities, games, act, story, grammar, task, creativity, physical exercises, atmosphere.

The English language plays an important role in our life. It is the most common second language in the world. It is essential in our education. Nowadays many people are learning English from primary school. Therefore teachers should to right teach in primary kids. However, teaching English to children is not so easy. In the following article, you will learn how to teach English to kids. English is now a worldwide benchmark for all conversations. Right from personal to professional scenarios, having the knack of speaking, writing, and communicating in English is always prized upon. Parents often wonder how to teach a child English at home and may resort to different methods to achieve it. *10 Tips to Teach English to Young Children* With these simple tips and techniques, you can easily teach kids to speak English and prepare them in advance.

1. *Making friendly atmosphere:* Children grasp things quickly once they are in an environment that fully supports their learning process. Let the atmosphere be productive so that they start grasping the nuances of the language from everywhere. These could be from conversations amongst yourselves or on the phone, watching media that has professional English spoken in it, and so on.

2. *Teaching by Music:* Most parents resort to using textbook methods of teaching English right off the bat. For small kids, this can get boring rather quickly. Instead, you can start using songs, poems, or even actual music that have English lyrics in them. These could be simple rhymes to even popular songs. By listening to the words and the rhythm of the conversations, kids can get more acquainted with how the language sounds and what it means, and start picking up on these finer details.

3. *Playing Fun Game:* Not all kids will be up for learning English in the way you would want them to. Therefore, it is best to integrate the language into the activities they already enjoy. If your kid enjoys playing Jenga, you could tweak the game by writing questions on the Jenga blocks and your kid would have to answer the question before the round proceeds. If they enjoy puzzles and riddles, you could pepper clues with one-liners having blanks, or English phrases and poems, that they need to recall and complete the gaps.

4. *Reading or Telling a Fun Story:* Kids have an extremely vivid and visual imagination. Using that to their advantage while teaching English is a great way to make them learn. Use illustrated storybooks to help them understand how words help visualize environments, characters, and settings. Tell them stories and make use of different words to help them understand how it changes their perception of it. For example, help them visualize how a river is different from a stream, a creek, or a brook. Using visuals and sounds helps them express their thoughts better.

5. *Grammar:* Teaching grammar to kids can be quite a task. Teaching English grammar to children is usually done once the child enters a certain grade at school. The number of rules and sentence structure formats can easily get mind-boggling. The best way to introduce them to the world of grammar is to keep using the right grammar in general conversations. The moment they use wrong grammar, allow them to hear the sentence with right grammar and let them understand which one sounds better and is right to be spoken. With enough repetition in daily use, kids can start getting a hang of the right way to construct a sentence.

6. *Doing a Physical Exercise Too* Everybody knows the game 'Simon Says' really well. Not



only is it a test of language, but it is also a test of how quickly you can process instructions. Ask your kid to get their friends together and treat them to an evening of Simon Says. Announce a small prize for the kid who wins the round.

7. *Watching a Wonderful Film*: Learning should always be entertaining. And kids can quickly descend into the zone of boredom and find something else to keep their attention. Show them an appropriate English film and let them experience the dialogues and the storyline. Later, ask them to role play certain characters or tell the story in their own words in English. Teaching anything at an early age has its own advantages. And English is rather easy to pick up when taught the right way. Keeping things varied and interesting is one way to go about it. Make English conversation a natural habit within the household. Allot specific times of the day when every person will speak only in English. Slowly and steadily, your kid will start getting the know-how of the language and begin to experience and express their own thoughts on it.

**References:**

1. Dalton, C. & Seidlhofer, B. (1994). Pronunciation. Oxford: Oxford University Press.
2. Hewings, M. (2007). English pronunciation in use. Advanced. Cambridge: Cambridge University Press.
3. Gilakjani, A. P. (2012). The significance of pronunciation in English language teaching.
4. [www.ziyonet](http://www.ziyonet)



## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILI DARSIDA INTERAKTIF O‘YINLARDAN SAMARALI FOYDALANISH

Andijon viloyati Paxtaobod tumani  
26-umumiy o‘rta ta’lim maktabi  
Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi  
**Usmonova Nilufar Xojisoliyevna**

**Annotatsiya:** Boshlang‘ich sinf dars jarayonlarini yanada samarali o‘tkazish, darsni sifatli qilish yoshlarda vatanga ota onaga mexr muhabbat uyg‘otish ta’lim shaklini keng o‘rganish hamda ularni tatbiq qilish maqsadida pedagogik texnologiyalar turli xil didaktik o‘yinlardan foydalanish. Ularni dars jarayonida qo‘llash orqali dars mohiyatini ochish yoshlarda yashirin qobiliyatlarni yuzaga chiqarish

**Kalit so‘zlar:** Pedagogik texnologiyalar, o‘yinlar savodxonlik, zamonaviy usullar. Nima yaxshiyu nima yomon, qanday sonni qo‘yamiz, juftini tanla o‘yinlari.

O‘quvchini ta’lim jarayonining sub’ektiga aylantirishda ta’limiy o‘yinlar hal qiluvchi omillar sanaladi. Ona tilidan tashkil etiladigan didaktik o‘yinlar o‘quvchini izlanishga, ijodiy faoliyat ko‘rsatishga, o‘rganilayotgan til hodisalarining mohiyatini aniqlab, hukm va xulosalar chiqarishga undaydi. Ta’limiy o‘yinlar har bir o‘quvchiga o‘zini namoyish etish, o‘z fikr – mulohazalarini himoya qilish, topshiriqni shavqu - zavq bilan bajarish imkoniyatini beradi. Har bir shaxsda tarbiyalanishi zarur bo‘lgan ijobiy sifatlar: tezkorlik, sezgirlik, topqirlik, xushyorlik, qat’iyatlik, bilimdonlik, mustaqillik, tadbirkorlik, ijodkorlik kabilar ko‘pincha ta’limiy o‘yinlar orqali tarkib toptiriladi. Ona tilidan tashkil etiladigan ta’limiy o‘yinlar oldin egallangan bilimlarni faqat xotirada tiklashni va uni takrorlashni, shu egallangan bilimlarni qisman yangi sharoitda (notanish sharoitda) qo‘llashni va tomomila yangi sharoitda qo‘llashni talab etishi mumkin.

**“Nima yaxshi-yu, nima yomon” o‘yini.** Bu o‘yin talabiga ko‘ra o‘quvchilar o‘z tengdoshlaridagi yaxshi va yomon xususiyatlarini aniqlashlari, qanday o‘quvchilar odobli, qanday o‘quvchilar odobsiz ekanliklarini aytish topshiriladi. Namuna: yaxshi xususiyatlar–aqli, odobli, zehni, shirinsuxan, xushmuomala, bilimli, bilimdon, dono, kamtar, farosatli. Yomon xususiyatlar: aqlsiz, beodob, yolg‘onchi, aldoqchi, dangasa, yalqov, ishyoqmas, berahm.

**“Juftini tanlang” o‘yini.** Bu o‘yinda o‘qituvchi juft sifatning birinchi qismini aytib boraveradi, o‘quvchilar esa uning har ikkala qismini daftarlariga yozib boradi. Berilgan sifatning juftini to‘g‘ri yozgan o‘quvchilar o‘yin g‘olibi sanaladilar. Namuna: mayda - chuyda, yaxshi - yomon, past – baland, uzoq - yaqin, shirin - achchiq, oq-qora, v.h.

**“Qanday sonni qo‘yamiz” o‘yini.** Bu o‘yinda so‘z birikmalaridagi nuqtalar o‘rnini son bilan to‘ldirish topshiriladi va belgilangan vaqtda uni to‘g‘ri bajargan o‘quvchilar guruhi g‘olib sanaladilar. Tavsiya etilgan so‘z birikmalari : o‘quvchi, ... maktab, ... daraxt, ... xona, ... tramvay, ... ko‘cha, ... un, ... beda, ... tuproq. Namuna: 3 ta o‘quvchi, 1-maktab, 4 ta daraxt, 12 –xona, 11- tramvay, 7- ko‘cha, bir qop un, bir bog‘ beda, bir siqim tuproq.

**“Qo‘yilgan savollarga to‘g‘ri javob top” o‘yini.** O‘zbekiston qaysi mamlakatlar bilan chegaradosh? O‘zbekistondagi qaysi shaharlarning nomlarini bilasiz?, O‘zbekistonda qanday mahsulotlar ishlab chiqariladi?, O‘zbekistonning qaysi mevalari olamga mashhur savollariga to‘g‘ri javob bergan o‘quvchilar bellashuv g‘olibi bo‘ladi. O‘qituvchi dars davomida “O‘z qishlog‘ing nomini sharhlay olasanmi?” o‘yin - topshirig‘idan foydalanib, atoqli otlar imlosi ustida ishlash mumkin. Buning uchun o‘qituvchi oldin bu mavzuni o‘quvchilarga vazifa qilib beradi va ota – otangiz, bobo – momolaringdan “O‘z qishlog‘ingiz tarixi” haqida ma’lumotlar to‘plab keling deb topshiriladi.

**“O‘rmonda va hovlida” o‘yini.** O‘qituvchi o‘yin haqida o‘quvchilarga izoh beradi: O‘rmonda



yashaydigan yovvoyi hayvonlar va hovlida yashaydigan uy hayvonlari haqida o'ylang hamda ularni ikki ustunga alohida ajratib yozib chiqing deyiladi. O'quvchilar yozadilar: O'rmonda: Hovlida: Bo'ri Qo'y Tulki Ot Sher Sigir Ayiq Echki Qaysi o'quvchi yoki o'quvchilar guruhi belgilangan vaqtda ko'p hayvon nomini yozsa o'yin g'olibi sanaladi.

Foydalangan adabiyotlar:

- 1 G'oziev E. Psixologiya. T, 2010 223 b.
- 2 G'ulomov A, Ne'matov H. Ona tili ta'limi mazmuni T, 2011, 124 b.
- 3 G'ulomov A. Ona tili o'qitish jarayonida aktivlik prinsipini amalga oshirishning nazariy asoslari. T, 2009, 130 bet.
- 4 G'ulomov A. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. T, 2008 y, 90 bet.
- 5 Pedagog.uzlar
6. google.uz



## BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA INNOVATSION METODIKALARDAN FOYDALANISH

**Xasanova Baxtiniso Anorovna**

Navoiy viloyati Karmana tumani  
6-sonli umumiy o‘rta ta‘lim  
maktabning boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich fanlarini o‘qitishda innovatsiyon yondoshuvlarning umumiy va o‘ziga xos jihatlari, O‘quvchiga bilim berish, har bir dars mazmunini boyitish, qiziqarli mashg‘ulotlar, ta‘lim jarayonida zamonaviy innovatsion usuldan foydalanish haqida ma‘lumot berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Innovatsiyon yondoshuvlar, ta‘lim-tarbiya, konseptual, ruhiy, ma‘naviy-ahloqiy, intellektual, kasbiy salohiyat, metodlar.

Respublikamiz ta‘lim muassasalarida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, atrofdagi voqelikka ongli munosabatda bo‘lish, daxldorlik va ijtimoiy faollik kabi sifatlarini, nutq va tafakkurini rivojlantirish, yuksak ma‘naviyatli barkamol shaxsni kamol toptirish sog‘lom avlodni voyaga yetkazishning muhim omili sifatida boshlang‘ich ta‘lim tizimidan boshlab ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng miqyosda qo‘llash zaruratini yuzaga keltirdi. Qolaversa, boshlang‘ich ta‘lim yosh avlodga ta‘lim-tarbiya berishning poydevori hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy salohiyati va ma‘lumot darajasi, uning bolalar psixologiyasi va ma‘lumot darajasi hamda hozirgi zamon boshlang‘ich ta‘lim metodikasini yaxshi bilishi ta‘lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. standarti va amaldagi maktab dasturlarida o‘quvchi egallashi lozim bo‘lgan materiallar ancha murakkab bo‘lib, bolalarning bu bilimlarni bosqichma-bosqich egallab olishlarini, kengaytirib va rivojlantirib borishlarini taqozo etadi. Bugungi va ta‘lim tizimi biz boshlabg‘ich sinf o‘qituvchilari oldiga o‘ta mas‘uliyatli vazifalar yuklamoqda. Muallim har bir o‘tilayotgan darsga ijodiy yondashishi, mashg‘ulotlarni ilg‘or pedagogik, innovatsiyon metodikalar asosida darsning har bir minutidan unumli foydalanishi zarur.

O‘quvchiga bilim berish, har bir dars mazmunini boyitish, qiziqarli mashg‘ulotlarni dars jarayoniga singdirishni talab qiladi. Ruhshunoslarning aniqlashicha, boshlang‘ich sinf o‘qituvchining oddiy tushuntirishi orqali egallab olgan ma‘lumotlarga qaraganda turli xil ruhiy kechinmalar orqali o‘zlari mulohaza yuritib, mustaqil bajargan ishlari vositasida o‘zlashtirilgan bilimlarini uzoq esda saqlab qoladilar. Chunki o‘quvchi mustaqil mashqlarni bajarishda faoliyat ko‘rsatib, ilgari olgan bilimlariga tayangan holda ko‘plab o‘quv materiallarini hayolidan o‘tkazadi. O‘xshash hodisalarni taqqoslaydi. O‘zicha mulohaza yuritib mustaqil hukm chiqaradi.

Mashg‘ulotlarni shunday tashkil etish kerakki, o‘quvchi har bir dars davomida egallashi lozim bo‘lgan bilimlar hajmini, o‘zida hosil qiladigan ko‘nikma va malakalarni oldindan belgilab olishi lozim. Bu o‘z navbatida o‘quvchining mashg‘ulotlarga aniq maqsad bilan qatnashishini taqozo qiladi. Chunki o‘quvchi darsning oxirida belgilangan maqsadga erishganligini bilish imkoniyatiga ega bo‘lishi zarur.

Albatta, boshlang‘ich sinf o‘quvchisiga bilim berish, har bir dars mazmunini boyitish, qiziqarli mashg‘ulotlarni dars jarayoniga singdirishni talab qiladi. Bunda oqituvchining dars uchun oldindan puxta tayyorgarlik korishi va darsda foydalanidigan usullari bolalarning mustaqil ishlashiga qaratilishi zarurdir. Chunki o‘quvchi mustaqil mashqlarni bajarishda faoliyat ko‘rsatib, ilgari olgan bilimlariga tayangan holda ko‘plab o‘quv materiallarini hayolidan o‘tkazadi. O‘xshash hodisalarni taqqoslaydi. O‘zicha mulohaza yuritib mustaqil hukm chiqaradi. O‘qituvchilarning tayyor holda bergan ma‘lumotida esa o‘quvchi fikrlash faoliyati to‘la ishga kirishmasdan to‘g‘ri javobni o‘zlashtirib oladi. O‘xshash hodisalarga duch kelishi bilan o‘qituvchi bergan bilimni amaliyotga taqbiq qilishda qiynalib qoladi. Davlat ta‘lim standarti va amaldagi maktab dasturlarida o‘quvchi egallashi lozim bo‘lgan materiallar ancha murakkab bo‘lib, bolalarning bu bilimlarni bosqichma-bosqich egallab olishlarini, kengaytirib va rivojlantirib borishlarini taqozo etadi.

Maktab bola hayotida juda muhim o‘rin turadi. Shu davrda u atrof-muhit, jamiyat va kishilar mehnati, maktab-maorif haqidagi bilimlarni egallaydi. Kecha o‘yin bilan band bo‘lib, erkin faoliyat ko‘rsatib yurgan bolaning birdan maktabning ichki qonun-qoidalariga moslashishi, belgilangan



tartib asosida mashg'ulotlarga o'z vaqtida qatnashishi oson kechmaydi. Shu tufayli kichik maktab yoshidagi bolalar o'yin bilan bog'liq darslarda juda faol qatnashadi. Bugun maktabga ilk bor qadam qo'ygan o'quvchining kechagi mashg'uloti o'yin edi. Bolada boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan materiallarni o'zlashtirib olishga yordam beradigan epchillik, hozirjavoblik, voqealarni bir-biriga taqqoslash, sinchkovlik kabi ijobiy xislatlarning shakllanish davri bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga mo'ljallangan bilimlarning o'zlashtirib olinishiga erishish uchun ana shularga tayanish va uni parvarish qila borish lozim. "Tasavvur qiling, bola ma'lum amaliy va ruhiy tayyorgarlikdan keyin maktab o'quvchisi bo'ladi. Uning vazifasi o'zgaradi. Bir kecha - kunduzda o'rtacha 4 soat ta'lim oladi. Kechagi o'yinqaroq bola bugun 40-45 daqiqa davomida diqqatini bir joyga joylab, o'qituvchi bilan muloqatda bo'ladi. O'quv axborotini qabul qiladi va idrok etadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, davlatimiz tomonidan ta'lim tizimini takomillashtirishga bo'lgan e'tibor, bu ulug' xalqimiz, kelajagimiz va ertangi kunimizga bo'lgan e'tibordir. Kelajagimiz vorislari bo'lgan yosh avlodning mustahkam bilim olishlari, olgan bilimlarini kundalik faoliyatda qo'llay olishlariga, komil insonlar bo'lib voyaga yetishlariga imkoniyatlar yaratamiz, ta'lim tizimiga bo'lgan e'tiborning yaqol namunasidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati**

1. Burxonov Sh., Xudoyorov U. Matematika 3-sinf. "Sharq" nashriyoti. 2014.
2. Bikbayeva N.U., Yangibayeva E., Girfanova K.M. Matematika 4-sinf. "O'qituvchi" nashriyoti. 2013, 206-bet.



## SAVOD O'RGATISH SINFDAN TASHQARI O'QISHNI TASHKIL ETISH

**Yusupova Dilobar Xudoyorovna**

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani  
13-umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich  
sinf o'qituvchisi (+99891 92589 55)

**Raximova Dilnoza Jabborovna**

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani  
13-umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich  
sinf o'qituvchisi (+99 899 745 4066)

**Annotatsiya:** Sinfdan tashqari o'qish darslar o'quvchilarning savodxonligiga juda ham katta yordam beradi. STO' darslarining tashkil etish va uning ahamiyati.

**Kalit so'zlar:** STO', savodxonlik, kitobxonlik, 1-sinf, boshlang'ich sinf, tarbiya vositasi, ertak, hikoya, mustaqil o'qish malakasi.

Maktab o'quvchini o'qish malakasi bilan qurollantirish bilan bir qatorda kitobni mustaqil o'qiy oladigan, uni tushunadigan, ma'lum bir mavzuga oid kitoblarni tanlay oladigan, gazeta va jurnallarni ham mustaqil o'qiydigan faol kitobxonni tarbiyalaydi. Shu jihatdan sinfdan tashqari o'qish (S T O') tarbiyaning asosiy quroli sifatida xizmat qiladi, ko'p narsani bilishga havasni orttiradi.

STO'ning maqsadi – o'qish malakalarini takomillashtirish, kitob tanlab oladigan muntazam kitob o'qiydigan, o'qilgan kitobni to'g'ri baholay oladigan, ongli kitobxonni tarbiyalash. STO' 1-2 sinfdan haftada 1 marta, 3-4-sinfdan 2 haftada 1 marta o'tkaziladi. Savod o'rgatish jarayonida haftadagi oxirgi alifbe darsining 17-20 daqiqasi ajratiladi. Birinchi sinf o'quvchilari o'quv yili davomida Vatanimiz haqidagi, kishilarining fidokorona mehnati, bolalarning baxli hayoti, shuningdek, o'simlik va hayvonlar haqidagi she'r, ertak, hikoya va topishmoqlar, turli sarguzasht va afsonaviy asarlar bilan tanishtirib boriladi.

STO' darslarining muhim vazifalari: STO' ning yillik taqvim rejasini tuzish. Bunda N.N.Svetlovskaya ishlab chiqqan STO' bosqichlariga rioya qilish, STO'ga rahbarlikning yordamchi shakllariga:

1. Kitobni targ'ib qilish. STO' ga tavsiya qilinadigan asarlar ro'yxati sinfga yoki maktabning maxsus joyiga osib qo'yiladi, ular vaqti-vaqti bilan yangilanib turiladi, ko'rgazmalar tashkil qilinadi. O'qituvchi maxsus suhbatlar uyushtiradi.
2. Yakka tartibdagi yordam va kundalik tekshiruv. O'quvchi o'qigan kitoblari yuzasidan suhbat uyushtiriladi, o'qigan kitoblar hisobga olinadi. Shaxsiy fikrlar aniqlanadi, uy kutubxonalarini bilan tanishiladi, ota—onalari bilan suhbatlashiladi.
3. STO' yuzasidan ommaviy ishlar: adabiy ertaklar, viktorinalar, yozuvchilar bilan uchrashuvlar, adabiy ekskursiyalar ular uchun maxsus tayyorlaniladi.
4. Kutubxonaga yozilish. 1-sinf o'quvchilari o'qituvchining ruxsati bilan, tavsiyasi bilan kutubxonaga a'zo bo'ladi.
5. O'quvchilarning o'qiganlarini hisobga olishda ularning kitobxonlik kundaligidan foydalanish.

STO' darslari o'quvchilarda mustaqil kitob tanlash va o'qish malakalarini shakllantiradi. Mustaqil o'qish malakasini shakllantirish *3-bosqichga bo'linadi*:

1. Tayyorlov bosqichi. Bu 1-sinfning savod o'rgatish davriga to'g'ri keladi. Unga darsning bir qismi—17-20 daqiqasi ajratilgani uchun STO' ma'lumoti deb yuritiladi. Uning o'ziga xos xususiyatlari shundaki, o'qituvchi asarni o'zi tanlaydi, asarning kichik hajmda bo'lishiga va boshqa kitob tanlash tamoyillariga e'tibor beradi.

2. Boshlang'ich bosqich. 1-sinfning 2—yarim yilligiga to'g'ri keladi. 1-va 2-bosqichdagi STO' daftarda 1 marta o'tkaziladi. "Boshlang'ich bosqich"da 45 daqiqalik dars ajratiladi. Tanlangan mavzu yaxshi o'qiydigan o'quvchiga maxsus tayyorgarlikdan so'ng o'qitiladi. Bu ularda o'qishga qiziqish uyg'otadi.
3. Asosiy bosqich. 2-4 sinfga to'g'ri keladi. Sinfnig umumiy ishlariga qatnashishi, o'qigan kitoblarining sifat o'zlashtirishi me'yoriga, o'qigan kitobiga munosabat bildira olishiga e'tibor beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva Q. Savod o'rgatish metodikasi. Toshkent. O'qituvchi. 1996
2. . Safarova R. va boshqalar. Savod o'rgatish darslari. Toshkent. Ma'naviyat.
3. Internet ma'lumotlari.



## ХУЛҚИ ОҒИШГАН БОЛАЛАР ПСИХОЛОГИЯСИДА АХЛОҚИЙ ОҒИШЛАРНИ ТАСНИФЛАШ МУАММОСИ

Исламова Дурдонахон Рустамхон қизи  
Гулистон Давлат Университети талаба  
Islamovadurdona24@gmail.com +998916801818

**Аннотация:** Хулқи оғишган болалар психологиясида ахлоқий оғишларнинг таснифлаши бир неча параметрларга кўра белгиланади. Булар ўз ичига ижтимоий, сиёсий, ҳуқуқий меъёрдан оғишганлар, паталогик жихатдан ва руҳий тарафлама оғишганлик турлари ўрганилади. Ўрганишлар натижаси шуни кўрсатадики, ижтимоийлашув жараёнида шахслар нормал адаптация ҳосил қила олмайди. Бу эса ўз навбатида турли оғишган хулқ атворнинг келиб чиқишига сабаб бўлади.

**Калит сўзлар:** Девиант, девианталогия, ижтимоий, сиёсий, ҳуқуқий, руҳий, генетик, адаптация, дезадаптация, ўсмирлар, меъёр, сотсиология, девиация, ахлоқий бузилишлар, клиник белгилар.

Ахлоқий девиатсиянинг муаммосига асосий сабаб унинг фанлараро характерда эканлигидир. Модомики, “девиант (оғишган) хулқ” атамаси турли фанларда турли маънода ишлатиларкан, шу сабаб ахлоқий оғишларнинг кўп турли хил таснифлари мавжуд. Муаммо мавжудлигини тушунтирувчи бошқа сабаблар орасида инсон ахлоқининг ўта турли-туман шакллари ва “меъёр” тушунчасининг ўзи ноаниқ эканлигини айтиш мумкин. Буларнинг барчаси умумий мезонларни ажратишдек, оғишган хулқнинг ҳар хил, айни дамда тизимлаштириш мавжуд ва алоҳида фанлар доирасида кенг фойдаланилади. Шартли равишда ахлоқий оғишлар таснифлаш муаммосида учта асосий ёндошувни ажратиш мумкин: Ижтимоий-ҳуқуқий ёндашув доирасида, ўз навбатида, сотсиологик ва ҳуқуқий йўналишни ажратиш мумкин. Сотсиология ахлоқий девиатсиянинг бир неча асослар бўйича гуруҳланганидан ижтимоий кўриниш сифатида кўриб чиқади:

- масштабдан қатъий назар оммавий ва шахсий оғишлар ажратилади;
- оқибатлар ақамияти бўйича – салбий (зарарли оқибатлар келтириб чиқарувчи ва потенциал хавф туғдирувчи) ва ижобий;
- субъект бўйича – аниқ шахслар, норасмий гуруҳлар, расмий тузилмалар, шартли ижтимоий гуруҳлар (масалан, аёллар пиёнисталиги) оғиши;
- объект бўйича – иқтисодий, маиший, мулкӣ бузилишлар ва бошқалар;
- муддати бўйича – бир вақтли ва давомли;
- бузилган меъёр тури бўйича – жиноятчилик, ичкилик (пиёнисталик) гиёҳвандлик, ўз-ўзини ўлдириш, ахлоқсиз хулқ, дайдилик, фохишабозлик, безорилик, боқиманда бўлиш, сотқин, расмиятчилик, терроризм, иркчилик, генотсид, деструктив.

Ҳуқуқда оғишган хулқ атамаси остида ҳозирги вақтда қабул қилинган ва жазолаш хавфи билан тақиқланган қонуний меъёрларга қаршилик қилувчи барча нарса тушунилади. Шахс ҳаракатларини ҳуқуқий баҳолашдаги этакчи мезон уларнинг жамиятга хавф солиш даражаси ҳисобланади. Ҳаракатларнинг жамиятга хавф солиш характери ва даражаси бўйича уларни:

- Жиноят
- Маъмурий
- Фуқаролик-ҳуқуқий
- Интизомий ҳаракатларга бўлинади

Жиноятлар, ўз навбатида, жамиятга хавф туқдириш даражасига кўра қуйидаги категорияларга бўлинади:

- унча оғир бўлмаган – икки йилгача озодликдан маҳрум этиш;
  - ўртача оғир – беш йилгача озодликдан маҳрум этиш;
  - оғир жиноятлар – ўн йилгача озодликдан маҳрум этиш;
  - алоҳида оғир – икки йилгача озодликдан маҳрум этиш ёки анча қатъий жазо белгилаш.
- Жиноятлар ҳаракатларнинг характери бўйича ҳам бўлинади:



Шахсга қарши жиноят,

Иқтисод соҳасидаги жиноят

давлат ҳокимиятига қарши жиноятлар, ҳарбий хизматга қарши жиноят, инсоният тинчлиги ва хавфсизлигига қарши жиноят. Шундай қилиб, Жиноят ва Фуқаролик кодекслари қонуний нуқтаи назардан оғишган хулқнинг турли шакллари таснифи ҳисобланади. Вақт ҳуқуқий оқишнинг янада янги шакллари тукдирмоқда, масалан, рекет, уюшган жиноятчилик, хакерлик. Бу, ўз навбатида, қонунчиликка доимий ўзгартириш киритиш заруриятини туғдиради. Кўриб чиқилган таснифларга ахлоқий девиатсияга педагогик ёндошувни қўшимча қилиш мумкин. Бизнинг фикримизча, педагогик таснифлар камроқ дифферентсияланган ва кўпинча бошқа фанлардан ўзлаштирилган. Кўпинча “оғишган хулқ” тушунчасини “мослашмаганлик” тушунчаси билан тенглаштирилади. Ўқувчини тарбиялаш ва ўқитишнинг асосий педагогик вазифалари оламида мактаб ўқувчисининг оғишган хулқи мактабга мослашмаганлик каби ижтимоий мослашмаганлик характериға ҳам эға. Мактабга мослашмаганлик тузилмасига ўзлаштирамаслик, тенгдошлари билан ўзаро муносабатнинг бузилиши, ҳиссий бузилишлар каби унинг кўринишлари қаторида ахлоқий оғиш ҳам киради.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Амбрумова А.Г., Пустовалова Л.И. Семейная диагностика в суицидологической практике. – М., 1983.
2. Эйдемиллер Э.Г., Юстицкис В. Психология и психотерапия семьи. – СПб., 1999.
3. Энциклопедия глубинной психологии / Под ред. А. М. Боковикова. – М., 2001.
4. Игумнов С.А. Клиническая психотерапия детей и подростков: Справ, пособие. – Минск, 1999.



## TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA O'QUVCHILARINI EKOLOGIK TARBIYALASH YO'LLARI

**Babadjanova Nilufar Ma'murbekovna**

Sirdaryo viloyati, Guliston shahridagi

16-o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

**Annotatsiya:** tasviriy san'at darslarida o'quvchilarga nazariy hamda amaliy mashg'ulotlarda ekologiya muammolari haqida tegishli tushunchalar berib borish orqali tabiatga mehrini uyg'otish to'g'risida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** tabiat, atrof-muhit, muhofaza, hayvonot dunyosi, atmosfera, ekologik madaniyat.

Tasviriy san'at darslarida o'quvchilarni ekologik jihatdan tarbiyalash ishlarini mashg'ulot sifatida darslardan tashqari vaqtlarda ko'proq olib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Tasviriy san'at darslarida o'qitishning birinchi usulida nazariy mashg'ulotlarni o'tkazish tavsiya etiladi: o'rganilgan mavzularni mustahkamlash maqsadida savollarga javob berish tarzida suhbatlar o'tkazish, davriy matbuot materiallari asosida ma'ruzalar o'qish va atrof-muhit muhofazasi masalalariga bag'ishlangan tadbirlar haqida ma'lumotlar berish kerak. O'qitishning ikkinchi usulida mashg'ulotlarni bevosita tabiat qo'ynida otkazgan ma'qul. Asosan tabiat muhofazasi bilan bog'liq tadbirlarni o'tkazish maqsadida aniq vaziyatlar tahlil etiladi. Buning uchun esa, tozalash inshootlariga, zavod va fabrikalarga va elektr stantsiyalariga, ishlab chiqarish korxonalariga sayohatlar uyushtirib, o'quvchilarga tabiatni eng ko'p ifloslantirayotgan ishlab chiqarish jarayonlarini ko'rsatish, qolaversa, tabiatni muhofaza qilish tartibini yuqori darajada saqlayotganlarning amaliy faoliyatlari bilan tanishtirish lozim. Munozara-mashg'ulotlarini quyidagi mavzular bo'yicha o'tkazish tavsiya etiladi: "Inson va tabiat", "Inson va hayvonot dunyosi", "Inson va suv", "Inson va atmosfera", "Inson va yer", "Yerning hozirgi va kelgusidagi holati" va boshqalar. Mavzular bizning sayyoramiz tabiatini muhofaza qilish va uning o'zgarishi misolida talqin etiladi.

Tabiat bag'rida mashg'ulotlar o'tkazish, sanoat korxonalariga borish ham atrof-muhitga keltirilayotgan zararni kamaytirish bo'yicha texnologik masalalarni hal etish yo'llarini axtarishga o'quvchilarni yo'llash uchun juda zarurdir. Har bir o'qituvchi shuni yoddan chiqarmasligi kerakki, u shunchaki bo'lajak ishchini emas, balli butun jamiyatning baxt-saodati va faravonligi haqida qayg'uradigan, g'amxo'rlik qiladigan ishlab chiqarish rahbarini, uning sohibini tarbiyalaydi.

Tarbiyaviy faoliyat jarayonida O'zbekiston Respublikasining "Tabiat muhofazasi va tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish to'g'risida" gi Qonun va Vazirlar Mahkamasining qonun talablarining bajarilishi to'g'risidagi qarorlariga tayanish lozim. Zero, ularda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish, ekologiya sohasidagi mutaxassilarni tayyorlash tabiat muhofazasi haqidagi qonun va bilimlarni ilmiy-texnikaviy yo'llar bilan targ'ib va tashviq etishni yaxshilash borasida zaruriy chora-tadbirlar belgilangan.

Jamiyat yoshlar qo'lida. Jamiyat taraqqiyoti bugungi kunda mumkin va nomumkin narsalar o'rtasidagi to'siq-chegaralarni sidirib tashlamoqda. Bizning imkonimizda juda katta ilmiy texnikaviy qudrat va aqliy imkoniyatlar mavjudki, ular yer yuzida yashab o'tgan ajdod-avlodlari qo'lida bo'lmagan. Bugungi kunda barcha o'ylanganlar, albatta, kelgusida texnika vositasida yuzaga chiqadi. Ezgulik ham, yovuzlik ham, xaloskorlik ham, halokatga olib keluvchi kuch ham uning o'zida mujassam topadi. Yoshlar xuddi ana shu kuch-qudratning sohibi bo'lar ekanlar. O'z kelajagini o'zlari yaratishni sira yoddan chiqarmasliklari kerak.

Shu o'rinda atoqli yozuvchi Chingiz Aytmatovning "Manasning qanotli tulporida" nomli maqolasidan quyidagi satrlarni keltirib o'tishni lozim topdik. "Agar inson bolalik chog'laridanoq, o'z tarbiyasining ilk bosqichlaridan boshlab tabiat bilan oshno tutinsa, men ishonch va umid bilan ayta olamanki, u yosh ulg'ayib, faol mehnat quchog'iga kirgan paytlarida ham befarq vakilga aylana olmaydi, unga tabiat muhofazasi haqida, tabiatga oqilona munosabatda bo'lish borasida targ'ibot-tashviqotning sira keragi bo'lmaydi, uning o'zi bu ishga ma'naviy jihatdan tayyor bo'ladi. Tabiatni asrab-avaylash va sevishga o'rgatish, mening nazarimda, yosh ishchi avlodni tarbiyalash masalasining eng insonparvar jihatlaridan biridir".

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. P.Sultonov. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari. T.: 2007 y.
2. G.Ismoilova. NamDU axborotnomasi 3-son. N.: 2019 y.
3. U.Mamadjonova. Boshlang'ich sinfda o'qitishning zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish usullari. Internet ma'lumoti kun.uz. 27.11.2019y.



## ИНФОРМАЦИОННЫЙ РЕСУРСНЫЙ ЦЕНТР КАК ОДИН ИЗ ПРИМЕРОВ ПРИМЕНЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

**Олимова Зебинисо**

главный библиотекарь информационно-ресурсного  
центра Ташкентского государственного  
юридического университета

**Аннотация:** В статье изучается вопрос создания информационно-ресурсного центра на базе сайта высшего учебного заведения, что позволит более эффективно применять педагогические инновации, а именно информационно-коммуникационные технологии в предметном обучении (позволяя будущим специалистам сформировать профессионально значимые компетенции через организацию специальной информационной среды, включающей различные формы дистанционного обучения), личностно-ориентированные технологии в обучении (разработка студентами индивидуальных образовательных программ в соответствии с их возможностями и потребностями), информационно-аналитическое обеспечение учебного процесса и управление качеством подготовки будущих специалистов (объективная оценка уровня развития каждого студента, мониторинг интеллектуального развития).

**Ключевые слова:** информационный ресурсный центр, педагогические инновации, инновационные технологии, проект, информационная и проектная компетентность.

Постановление Президента Республики Узбекистан от 20 марта 2012 г. №ПП-1729 «О мерах по организации деятельности Национальной библиотеки Узбекистана имени Алишера Навои – Информационного ресурсного центра» предусматривает возможность подключения всех информационно-библиотечных центров, а для формирования фонда необходимо автоматизировать все процессы библиотечной деятельности за счет создания национального электронного каталога информационных ресурсов и электронных (цифровых) изданий на базе Национальной библиотеки [1].

Ориентация современного образования на личностно-ориентированную педагогику требует актуализации потенциала всех участников педагогического процесса [2]. Для решения этой проблемы требуется вариативный подход к учебному процессу.

Инновации сегодня характерны для любой профессиональной деятельности человека, поэтому вполне естественно, что они становятся предметом изучения, анализа и внедрения. Однако внедрение нововведений не может происходить спонтанно, этот процесс необходимо контролировать [3, 4]. Автор полагает, что в рамках образовательного процесса инновация - это внесение чего-то нового в цель и содержание образования; это инновации, результатом которых является повышение эффективности обучения и образовательных технологий.

Еще реже встречаются работы с эмпирическими исследованиями или различающиеся по действительно практической направленности, а работ, решающих достаточно актуальные вопросы, возникающие в практической деятельности органов внутренних дел, очень мало. Иногда авторы просто не имеют информации о том, какие проблемы требуют разработки, что на самом деле находится в проблемной области или как приблизиться к решению этой проблемы. Таким образом, существует разрыв между теорией и практикой.

Еще одно противоречие – это, с одной стороны, необходимость междисциплинарного и межведомственного взаимодействия, с другой – отсутствие реальной общей образовательной платформы для эффективного взаимодействия. Единый информационный ресурсный центр разрешает это противоречие.

Следующее важное противоречие – требования к выпускнику специалиста не соответствуют возможностям молодого специалиста. Конечно, вклад студента в разрешение этого противоречия очевиден – вы больше раскроете свои ресурсы во время обучения, вы станете более конкурентоспособными на рынке труда. Однако до сих пор отсутствует единая образовательная платформа для эффективного взаимодействия и получения практического опыта практикующего специалиста, исследователя-специалиста. Период обучения наибо-



лее эффективен для раскрытия научного потенциала и интереса. Интерес к профессии напрямую определяется ее практической направленностью.

Таким образом, целью создания информационного ресурсного центра является использование инновационных технологий и информационных систем в образовательном процессе для совершенствования профессиональной деятельности и решения практических задач.

Создание информационно-ресурсного центра на базе сайта позволит решить следующие задачи:

- обучение знаниям и навыкам, позволяющим будущим специалистам свободно ориентироваться и саморазвиваться в современном информационном пространстве;
- формирование умения использовать знания, полученные при освоении различных дисциплин, для создания проектов практической направленности;
- создание условий для совместной научно-исследовательской деятельности обучающихся и преподавателей вуза и практических органов внутренних дел;
- развитие способности мыслить творчески и творчески решать профессиональные задачи, проявлять инициативу, принимать оптимальные решения в повседневной деятельности и нестандартных ситуациях;
- формирование у студентов понимания современных представлений о целях, задачах и практической программно-аппаратной реализации процесса информатизации во всех сферах юридической деятельности.

Практическая значимость деятельности информационно-ресурсного центра заключается в создании готового проекта или проектов практической направленности, которые могут найти свое применение в деятельности органов внутренних дел.

Принцип реализации идеи создания информационно-ресурсного центра заключается в следующем: создание сайта «Информационно-ресурсный центр» - ссылка на сайт размещена на официальном сайте филиала, вуза, доступна всем участникам учебного процесса, а также сотрудникам органов.

Далее проекты формируются на основе идей. Автор соглашается с утверждением А. Шевченко, по которому образовательный проект как ограниченное во времени направленное изменение образовательной системы, обеспечивающее достижение новых целей в рамках возможных ресурсов, реальных средств и конкретной организации [4, с. 6]. Принять участие в проекте может любой желающий на основании заявки. Проект реализуется по общему принципу проектной деятельности с обозначенными сроками для всех этапов, составом участников, определением цели, задач и желаемого результата и т.д. с участием большего количества заинтересованных сторон. Междисциплинарное, межведомственное взаимодействие в процессе разработки проекта повышает эффективность самой деятельности и качество конечного продукта. Результатом проекта могут стать рекомендации, алгоритмы, анкеты, проекты нормативно-правовых актов или поправок к ним, результаты исследований, методические разработки проведения занятий с использованием инновационных технологий, развивающие тренинги для персонала и др.

Отдельно создается группа менеджмента качества, в которую входят руководство, сотрудники, ответственные за соответствующие области, руководители отделов и т.д. (список лиц определяется руководством). Эта группа дает экспертную оценку уже готовому проекту.

Также следует отметить, что работа студентов на базе Информационно-ресурсного центра позволяет решить задачу формирования профессионально значимых навыков у специалиста любого профиля в области работы с информацией [5, 6].

Среди профессиональных компетенций предполагается формирование умения анализировать правоохранительную и правоприменительную практику, научную информацию, отечественный и зарубежный опыт по теме исследования; умение применять методы прикладных научных исследований, анализа и обработки их результатов; умение обобщать и формулировать выводы по теме исследования; проектировать, внедрять, контролировать результаты своей деятельности [7-8].

Все обозначенные компетенции, по мнению автора, составляют сущность информации и компетенции проекта, то есть способность и готовность оказывать информационную поддержку и поддержку проектной деятельности, способность интегрировать в професси-



ональную сферу в меняющихся условиях, обеспечивая вхождение специалистов в информационное общество и творчески осмысливать новые знания и умело их передавать. [8].

Поэтому возникает необходимость формирования именно информационно-проектной компетенции будущего специалиста, то есть умения применять все полученные знания в будущей профессиональной деятельности, а также навыка самостоятельной работы с информационно-коммуникационными технологиями.

Таким образом, центр информационных ресурсов позволяет формировать и накапливать информационные образовательные ресурсы и обеспечивать доступ к ним заинтересованных пользователей. То есть функционирование информационно-ресурсного центра дает возможность каждому, кто обратился к его ресурсам, разобраться в механизме обучения. Понимание этого механизма может быть использовано для получения мета-знаний путем адаптации электронного обучения и интеллектуальной осведомленности об этих процессах. Таким образом, информационно-ресурсный центр, являясь единой инновационно-информационной площадкой, позволит решить задачи подготовки высококвалифицированных специалистов.

#### **Список использованной литературы:**

1. Постановление Президента Республики Узбекистан от 20 марта 2012 г. №ПП-1729 «О мерах по организации деятельности Национальной библиотеки Узбекистана имени Алишера Навои – Информационного ресурсного центра».

2. Астахова А. А. Ментальные репрезентации учебных текстов подростками с разным учебно-познавательных опытом: дис. ... канд. психол. наук. Ростов н/Д, 2014. 310 с. (Т. 1, 2).

3. Загвязинский В. И. Инновационные процессы в образовании и педагогическая наука // Инновационные процессы в образовании: сб. науч. тр. Тюмень, 1990. С. 8.

4. Наскалов В. М. Инновационные технологии в учебном процессе студентов вузов // Вестн. Томского гос. пед. ун-та (TSPU Bulletin). 2012. Вып. 5 (120). С. 131–135.

5. Шевченко А. И. Проектирование дисциплинарного образовательного пространства в вузе и методика его освоения: автореф. дис. ... канд. пед. наук. Ставрополь, 2004. 26 с.

6. Артеменко Н. А., Белогуров С. В. Об особенностях организации процесса формирования информационной компетентности будущего специалиста // Научно-педагогическое обозрение (Pedagogical Review). 2014. Вып. 1 (3). С. 13–18.

7. Федеральный государственный образовательный стандарт высшего образования по направлению подготовки 40.05.01 «Правовое обеспечение национальной безопасности». URL: <http://fgosvo.ru/uploadfiles/fgosvospec/400501.pdf> (дата обращения: 12.04.2017).

8. Белогуров С. В. Дидактические условия формирования информационно-проектной компетентности будущих инженеров в техническом вузе: автореф. дис. ... канд. пед. наук. Великий Новгород, 2016. 25 с.



## ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОСТРАНСТВЕ

**Раджапова Ольга Ренатовна**

Учитель начальных классов  
специализированной государственной  
общеобразовательной школы № 3 города  
Ургенч Хорезмской области  
Тел: +998 91 4358053

**Аннотация:** В статье представлена общая характеристика основных принципов интерактивного обучения, обозначена их роль в современном образовании.

**Ключевые слова:** педагогика, методы, интерактивное обучение, школа, обучение, учитель.

В педагогической практике давно применяется термин «активные методы и формы обучения». Он объединяет группу педагогических технологий, достигающих высокого уровня активности учебной деятельности учащихся. В последнее время получил распространение ещё один термин - «интерактивное обучение». Современная наука об образовании приблизилась к тому моменту, когда возникла потребность в создании педагогических технологий, которые обеспечивают самое главное в образовательном процессе – развитие личности каждого учащегося, его активности. Необходимо создавать такие условия обучения, чтобы учащийся стремился получить новые результаты своей работы и в дальнейшем успешно применить их в практической деятельности. На сегодняшний день мы не можем не задумываться над тем, что ожидает наших учащихся. Известно, что будущее потребует от них огромного запаса знаний не только по выбранной специальности, но в области современных технологий. Сегодня большинство предложений о работе требуют минимальных компьютерных знаний, поэтому очень важно при обучении школьников учитывать то, что современные информационные технологии приобретают первостепенное значение.

В современной школе существуют три основных модели обучения: пассивная, активная и интерактивная. Интерактивное обучение является разновидностью активного и имеет свои закономерности и особенности.

Интерактивное обучение это специальная форма организации познавательной деятельности, которая имеет конкретную цель – создать комфортные условия обучения, при которых каждый ученик чувствует свою успешность, интеллектуальные возможности. Суть этой технологии в том, что учебный процесс осуществляется при условии постоянного, активного взаимодействия всех учеников. Это взаимообучение где и ученик, и учитель являются равноправными субъектами обучения. Организация интерактивного обучения предусматривает моделирование жизненных ситуаций, использование ролевых игр, общее решение проблемы на основе анализа обстоятельств и соответствующей ситуации. Оно эффективно способствует формированию навыков и умений, созданию атмосферы сотрудничества, взаимодействия. Дает возможность педагогу стать лидером детского коллектива. Интерактивное взаимодействие включает как доминирование одного участника учебного процесса над другими, так и одной мысли над другой. Во время интерактивного обучения дети учатся быть демократичными, общаться с другими людьми, критически мыслить, принимать продуманные решения. Кроме того, интерактивное обучение позволяет резко увеличить процент усвоения материала, принимать продуманные решения. Кроме того, интерактивное обучение позволяет резко увеличить процент усвоения материала, потому что влияет не только на сознание ученика, а и на его чувства и действия.

Интерактивное взаимодействие, конечно, требует определённых изменений жизни класса. Увеличивается количество времени, необходимого для подготовки, как ученикам, так и педагогу.

Необходимо начинать с постепенного включения элементов этой модели, чтобы ученики привыкли к ним. Можно даже составить план постепенного внедрения интерактивного обучения. Безусловно, лучше старательно подготовить несколько интерактивных занятий в учебном году, нежели часто проводить наспех подготовленные «игры». Необходимо про-



вести с учениками организационное занятие и создать вместе с ними правила работы в классе. Для начала целесообразно использовать простые интерактивные технологии – работу в парах, малых группах, мозговой штурм. Со временем у учеников появится опыт такой работы, и период подготовки к занятиям сведется до минимума.

Для эффективного использования интерактивного обучения учитель должен старательно планировать, прежде всего, свою деятельность: дать задание ученикам для предварительной подготовки (прочитать текст, продумать ответы на вопросы, выполнить задания), глубоко выучить и продумать материал, определить хронометраж занятия, задания для групп, роли участников, подготовить вопросы и возможные ответы, разработать критерии оценки эффективности урока.

Таким образом, процесс обучения не автоматическое вкладывание учебного материала в голову ученика. Он требует напряженной умственной деятельности ребенка и активного участия в этом процессе. Объяснение и демонстрация никогда не дадут устойчивых знаний. Этого можно достичь только с помощью интерактивного обучения. С другой стороны, после нескольких старательно подготовленных уроков преподаватель сможет ощутить, как изменилось к нему отношение учеников, а также сама атмосфера в классе. Это послужит дополнительным стимулом к работе с интерактивными технологиями.

### **Список использованной литературы**

1. Бабанский Ю.К. Методы обучения в современной общеобразовательной школе.
2. Ермолаева М.Г. Интерактивные методики в современном образовательном процессе.
3. Кажигалиева Г.А., Васенкова М.В. О принципах и методах технологии интерактивного обучения русскому языку в средней школе.



## ШАҚИРИҚҚАЧА БО‘ЛГАН О‘ҚУВЧИ-YOSHLARNI MILLIY ARMIYA SAFIGA TAYYORLASHDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARDAN FOYDALANISHNING METOD VA VOSITALARI.

**Jamolov Jobir Yunusboy o‘g‘li**

BuxDU harbiy ta‘lim fakulteti 2-bosqich talabasi  
j.y.jamolov@gmail.com (99) 061-17-98.

**Qudratov Shahriyor Murodullo o‘g‘li**

BuxDU harbiy ta‘lim fakulteti 1-bosqich talabasi  
sh.m.qudratov.@gmail.com +998945125576

**Anotatsiya.** Mustaqillik tufayli xalqimiz o‘z tarixini va ma‘naviy merosini yangidan tiklamoqda. Ma‘naviy merosimiz Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abu Mansur Moturudiy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Xoja Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Bobur kabi mutafakkirlar ta‘limotlari, yaqin vaqtlargacha ta‘qiqlangan bir qancha urf-odatlar, rasm-rusumlar, an‘analari, milliy yig‘inlarning tiklanishi hisobiga boyib bormoqda.

**Kalit so‘zlar.** hurmat-ehтиrom, o‘z-o‘ziga ta‘sir, mehmondo‘stlik, odamgarchilik, ta‘lim, tarbiya, isoniylik sifatleri, ma‘naviy madaniyat.

Tarixiy manbalarda ajdodlarimizning bitmas-tuganmas ma‘naviy merosi va tarixiy an‘analari asrlar davomida saqlab kelinganligi o‘z ifodasini topgan. Qadriyatlar xalqimizning o‘zligini anglab etishda, milliy g‘ururini shakllanishida beqiyos xizmat qilishi mustaqil davlatimiz fuqarolarining ruhiy jihatdan istiqbol va istiqbol uchun fidoiylikka etaklashining sharti va kafolatidir. o‘tmish merosni, milliy qadriyatlarni bilish hamda e‘zozlash, ularni kelajak avlodlarga to‘la-to‘kis holda etkazish maqsadga muvofiqdir. o‘tmish qadriyatlariga, an‘analariga va turmush tarziga befarq qaramaslik lozim. Chunki ma‘naviy qadriyatlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlar kabi komil inson shakllanishining muhim omillaridan biridir.

Buyuk mutafakkirlarimiz qaysi zamonda yashamasin, qaysi tilda asar yaratmasin, o‘z elini, uning qadriyatlari, urf-odatlarini unutmaganlar, doimo millatni, milliy o‘zlikni ulug‘laganlarini yuqoridagi bobda ko‘rib o‘tdik.

Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abu Mansur Moturudiy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Xoja Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Bobur kabi buyuklar el-yurtimiz tarixini, madaniyatini, san‘atini, qadriyatlarini, urf-odatlarini o‘rganish va ularni keyingi avlodga etkazish uchun qalam tebratganlar. Markaziy Osiyo, jumladan, O‘zbekiston qadim-qadimdan hunarmandchiligi, pazandaligi, dehqonchiligi, ilm-fani, san‘ati va milliy qadriyatlari bilan olamga mashhurdir. Bolajonlik, mehmondo‘stlik, odamgarchilik, ota-onaga hurmat, oilaviy birdamlik, oqibatlilik, qanoatlilik, muruvvatlilik xalqimizga xos odatlardir. Bu urf-odatlar, qadriyatlar xalqimizning qator insoniy fazilatlarida mujassamdir.

Kishilarning o‘z xalqi urf-odatleri va an‘analariga amal qilmaslikleri xalq qadriyatlarini bilmaslikka, ularning qadrsizlanishiga olib keladi. Qadriyatlarda milliy ruh, ma‘naviyat, qadr-qimmat kabi insoniy fazilatlar o‘z ifodasini topadi. O‘z qadr-qimmatini bilish kishini xudbinlikdan asraydi, o‘zini boshqalar tomonidan kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaydi, u faqat yaxshilik qilishni o‘ylaydi.

Chaqiriqqacha harbiy ta‘limda bo‘lajak harbiy kadrlarni ta‘limiy qadriyatlar asosida tayyorlash va malakasini oshirish murakkab va dinamik jarayondir. Bu jarayonda talabalarni metodik jihatdan tayyorlash muhim o‘rin tutadi. Talabalarni tayyorlashda ularni intellektual jihatdan samarali o‘qitish, ijodiy rivojlantirish, tafakkurini o‘stirish, harbiy mutaxassislikka yo‘naltirish, o‘quv jarayonining metodlarini to‘g‘ri tanlay olishni talab etadi. Bu o‘rinda ikki muhim masalaga rioya etish maqsadga muvofiq:

1. Chaqiriqqacha harbiy ta‘limda qadriyatlardan qanday foydalanish.
2. Qulay shakl, metod va vositalarni qo‘llash.

Chaqiriqqacha harbiy ta‘limda har bir o‘quv fani o‘ziga xos tarzda o‘qitiladi. Bu o‘ziga xoslik xususiy metodikada o‘z ifodasini topadi. Lekin harbiy didaktika qonuniyatlariga asosan barcha fanlar o‘rtasida ilmiy aloqani ta‘minlash, shuningdek, qadriyatlardan umumiy yondashuv asosida



foydalanishning bir butun, yaxlit yoʻnalishini izlab topish tavsiya etiladi. Maʼlumki, taʼlim talabalarining koʻpqirrali amaliy faoliyatiga ham taʼsir etadi. Chaqiriqqacha harbiy taʼlimning oʻziga xos jihati ularning harbiy faoliyatda boʻlishi va uni doimo ilgari ketishiga bogʻliqligidir. Doimiy jangovar harbiy tayyorgarlikka tayyorlash oʻqitish metodikasini tashkiliy-metodik jihatdan puxta tashkil etib oʻtkazishga oʻta bogʻliq.

Chaqiriqqacha harbiy taʼlimda oʻqitish jarayoni koʻproq faollik kasb etadi. Uning eng muhim oʻziga xos xususiyatlariga:

- vazifasi jihatidan koʻpqirraliligi;
- oʻrganilayotgan materiallarning metodologik jihatdan asoslanganligi;
- ishonchliligi va aniq amaliyotga yoʻnaltirilganligi;
- oʻqitishda muammoli vaziyatlar kasb etishi;
- mashgʻulotlar va taʼlimning ragʻbatlantirish va emotsionallikka yoʻgʻrilganligi;
- oʻquv jarayonining mustaqil ijodiy ruh kasb etishi;
- topshiriqlar tizimining talabalarining bilishga doir faoliyatiga rahbarlik vositasi ekanligi;
- yuqori texnik taʼminlanganligi;
- taʼlim mazmuni, tashkiliy jihatlari, metodikasi va nazoratning oʻzaro aloqadorligi.

Bilim berishda eng muhim asosiy vazifa sifatida yana quyidagilar ham kiradi:

1. Taʼlimiy vazifa - talabalarni bilim, koʻnikma va malakalar tizimiga ega etish.
2. Tarbiyaviy vazifa - talabalarda shaxslik xislatlarini shakllantirish.
3. Rivojlantiruvchi - talablarni intellektual va jismoniy quvvatga ega etish.

Chaqiriqqacha harbiy taʼlim jarayoni talaba va oʻqituvchining oʻzaro aloqadagi faol jarayondir. Oʻqituvchi oʻqitish jarayonini boshqarib borib, talabalarining bilishga doir amaliy faoliyatini tashkil etadi. Talabalar esa bilimlarni egallab olar ekan, oʻzining mahoratini ongliligi, psixologik jihatdan qatʼiyatliligi hamda intellektual va jismoniy sifatlarini oshirib boradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati :**

1. Toʻlanov J. Qadriyatlar falsafasi. -T.: «Oʻzbekiston», 1998. –89-b Toshkent. «Yangi asr avlodi» nashriyoti 2003.
2. Harbiy-Vatanparvarlik tarbiyasi asoslari.«Maʼrifat» nashriyoti 1
3. Harbiy vatanparvarlik tarbiyaning oʻzagi. Pedagogik oliygoxlar uchun oʻquv darsligi 1998 yil.
4. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi nazariyasi oʻquv qoʻllanma 2019 yil.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 25-КЎП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**(10-қисм)**

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусахҳиҳ:** Файзиев Фаррух Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 28.02.2021

**Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000